

D.A. PO'LATOVA, M.Q. QODIROV,  
J.B. SULAYMONOV

# SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI TARIXI



TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**D.A. PO'LATOVA, M.Q.QODIROV, J.B.SULAYMONOV**

**SHARQ FALSAFASI  
VA MADANIYATI TARIXI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

**(1-qism)**

**TOSHKENT – 2018**

UO'K: 1(1-11)+008(09)(075.8)

KBK 87(5)

P 99

P 99

D.A. Po'latova, M.Q.Qodirov, J.B.Sulaymonov.  
Sharq falsafasi va madaniyati tarixi. –T.: «Fan  
va texnologiya», 2018, 316 bet.

ISBN 978-9943-11-929-1

O'quv qo'llanma davlat oliy ta'lim standartlari, 5120800 – Sharq falsafasi va madaniyati ta'lim yo'nalişlarining malaka talablari asosida fanning namunaviy o'quv dasturiga mos ravishda tayyorlangan. Mazkur o'quv qo'llanmadan shuningdek, falsafa fanidan tahsil olayotgan barcha talabalar, soha magistrant va ilmiy izlanuvchilari, fan o'qituvchilari hamda Sharq falsafasi va madaniyati tarixini mustaqil o'rjanmoqchi bo'lgan o'quvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Mazkur o'quv qo'llanmada «Sharq falsafasi va madaniyati» fani dan mavzularga oid asosiy savollar, tayanch tushunchalar, tushuntiruvchi nazariy matn, jadval va suratlar ko'rinishidagi konsultativ materiallar, bilimlarni sinab ko'rish uchun savollar, prezентatsiya va bahs-munozara uchun mavzular, mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar, glossariy, shuningdek, adabiyotlar ro'yxati berilgan.

UO'K: 1(1-11)+008(09)(075.8)

KBK 87(5)

*Mas'ul muharrir:*

S.J. Ahmedova – falsafa fanlari nomzodi

*Taqrizchilar:*

E.M. Izzetova – falsafa fanlari doktori;

A. Muxtarov – falsafa fanlari doktori.

ISBN 978-9943-11-929-1

237331

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

## KIRISH

Ma'lumki, Markaziy Osiyo qadimdan Sharqni. G'arb bilan bog'lab turuvchi iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy ilmiy aloqalarninng bosh bo'g'ini bo'lib, ilmiy, falsafiy diniy-ma'rifiy tafakkur rivojiga yuksak hissa qo'shgan olimu mutafakkirlari, ularning ma'naviy merosi bilan jahon sivilizatsiya rivojiga ulkan hissa qo'shgan hamda dunyo xalqlari e'tiborini hamisha o'ziga jalb etib kelgan. "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi tosh yozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujas-samlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi"<sup>1</sup>, – deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov. Bu o'z navbatida Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat doimo rivojlanib kelganligini ko'rsatadi.

E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu o'quv qo'llanmani yaratishdan maqsad ta'lim tizimi milliy dasturining asosiy g'oyalaridan kelib chiqib, milliy va rivojlangan xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi namunalaridan foydalanilgan holda falsafa va uning tarixini o'rganayotgan talabalarga Sharq falsafasi va madaniyati tarixining rivoji, insoniyat hayotida tutgan o'mi, ijtimoiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida ilmiy bilim va tushunchalar berish bilan birga, ularda falsafiy ta'limotlarni asosli tahlil qila olish, ular haqida to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarish, Sharq falsafasi va madaniyati bilan G'arb falsafasi va madaniyati o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni to'g'ri anglab etish, ularni qiyoslay olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Yangi avlod o'quv adabiyotlariga, shuningdek, butun oliy ta'lim tizima oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan kelib chiqib, o'quv qo'llanmada qamrab olingan mavzular Sharq falsafasi va madaniyati tarixi doirasida talabalarga nafaqat bilib berish, balki bu mavzular

<sup>1</sup> Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. –T.:«Ma'naviyat», 2008, -B.30-31.

ustida fikr-mulohaza yuritish, mustaqil ishlash va yana yangi bilimlarni qidirib topish ko'nikmalarini shakllantirishga ham yo'naltirilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada qadimgi va o'rta asrlar Sharqida falsafiy, tabiiy-ilmiy fikrlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi, undagi asosiy oqimlar, maktablar, ularning xususiyatlari mintaqalar va tarixiy davrlar bo'yicha yoritib berilgan.

Har bir mavzu bo'yicha mantiqiy-tizimlashgan materiallar, mustaqil ta'lim uchun savollar va topshiriqlar, adabiyotlar ro'yxati kiritilgan. Qo'llanmada mavzular bo'yicha testlar va uning so'ngida glossariy berilgan.

O'quv qo'llanmani yaratishda Adamson Peterning "Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction", Henry Korbenning "History of Islamic philosophy", Majid Faxriyning "A History of Islamic philosophy", Viktoria S. Harrisonning "Eastern Philosophy. The Basics", William J. Duiker, Jackson J. Shpielvogelning "The Essential World History, Volume I: To 1800" kabi xorijiy adabiyotlardan hamda Q.Sodiqovning "Qadimgi turk falsafasi", M.Ishoqovning "Avesta: "Videvdot kitobi"", M. Ahmedova, S. Yo'ldoshev, O. Shomatovlarning "Hind falsafasi" asrlaridan foydalanildi.

Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o'qtishdan maqsad ta'lim tizimi milliy dasturining asosiy g'oyalardan kelib chiqqan holda, talabalarga uning tarixiy rivoji, insoniyat hayotida tutgan o'rni, ijtimoiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqida umumiyligi bilim va tushunchalar berishdan iborat. Qadimgi davr va o'rta asrlar Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o'rganish ilmiy, g'oyaviy va tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega.

"Sharq falsafasiva madaniyati tarixi" o'quv qo'llanmasining asosiy maqsadi – talabalarda Sharq falsafasi va madaniyati rivojining asosiy bosqichlari va yo'nalishlari, muammolari; uning jahon falsafasi va sivilizatsiyasida tutgan o'rni, uning G'arb falsafasi va madaniyati bilan o'zaro ta'siri, falsafiy fikr rivojida milliylik va umuminsoniylik, vorislik va yangilanish dialektikasi asosida nazariy bilimlarni va ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mazkur o'quv qo'llanma talaba yoshlarning Sharq falsafasi va madaniyati tarixini qiziqib o'rganishlariga, chuqr o'zlashtirishlariga, ularning falsafiy fikrlash madaniyatini shakllantirishga yordam beradi deb umid qilamiz.

## **1-mavzu. «SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI TARIXI» FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI**

### **Reja**

1. Fanning predmeti, mazmuni va strukturasi.
2. «Sharq falsafasi va madaniyati tarixi» fanining maqsad va vazifalari.
3. Fanning boshqa mutaxassislik fanlari bilan o'zaro bog'liqligi.
4. «Sharq falsafasi va madaniyati tarixi»ning ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimi tutgan o'mi hamda uni o'r ganishning ahamiyati.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Sharq falsafasi, Sharq madaniyati tarixi, Sharq falsafasi va madaniyati tarixi fanining predmeti va obyekti, falsafa, Fales, Yunon madaniyati, falsafiy matnlar, ong va tafakkur rivoji, Sharq va G'arb madaniyatlari rivoji va aloqadorligi.*

Aql-idrok va hayotning nazariy jihatlari haqidagi tasavvurlar qadimgi dunyo falsafasida undan kengroq dasturning bir qismi sifatida vujudga kelgan bo'lib, uning mohiyati shunda ediki, shahar-davlat (polis)ni boshqarishda ishtirok etadigan har bir insonni har tomonlama ushbu faoliyatga tayyorlash edi. Bunday vazifani tor siyosiy maqsad sifatida baholash shoshqaloqlik bilan qilingan mulohaza bo'lar edi. Qadimgi dunyoning hayotiy dunyosi doirasida biomorfik metashakillar saqlangan va qaytadan shakllantirilgan bo'lib, ularga muvofiq tabiat qayta tashkil topgan va texnik chigalliklarga yo'liqqan obyekt sifatida emas, balki hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan narsa sifatida talqin etilib, uning qonunlarini nazariyotchi bilishi va hurmat qilishi lozim, deb tushunilar edi. Xuddi ana shu sun'iy, mexanik tabiatga emas, balki tabiiylikka bo'lgan qiziqish shunga dalil bo'la oladiki, yunonis-tonliklar mumtoz mexanikaga o'xshash narsaga asos solmay, balki o'zlaridan bir butun va tizimga solingan qoidalarni meros qoldirdilar.

Bilish va o‘z-o‘zini bilish-bular shunday aqliy amaliyotki, ular koinot bilan bog‘liq bo‘lgan uyg‘unlikni va unga muvofiq keladigan jamiyatni shakllanishini idrok etish bo‘lib, bular ham o‘z navbatida inson haqidagi g‘amxo‘tlikni ko‘zda tutgan holda tashkil topganlar. Hozirgi zamon ta’lim-tarbiyasidan farqli o‘laroq, qadimgi zamon ta’lim tizimi axborotlarni berish va aqliy qobiliyatni mashq qildirish-dangina iborat emas edi. U hayot uchun zarur bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarni tayyorlashni ko‘zda tutar edi. Shunday qilib, Yunon falsafasining sof haqiqatni topishga bo‘lgan yo‘nalishini inkor etmagan holda, shuni qayd etmasdan bo‘lmaydiki, ushbu haqiqat avvalo, qurilmagan, balki ochilgan, unga yuklatilmagan, balki borliqdan keltirib chiqarilgan, ikkinchidan esa, bevosita hayotiy ahamiyatga ega bo‘lib, uni tushungan subyekt qalbini yoritgan, unga donishmandlik ato etgan, sabru toqatga chidashni o‘rgatgan, jasorat bag‘ishlagan va uning hatti-harakatini belgilab bergen. Nazariy ko‘rsatma-qadimgi dunyo madaniyatining eng muhim yutuqlardan biri bo‘lib, Yaqin Sharq mamlakatlari orqali u Yevropa madaniyati tomonidan o‘zlash-tirilgan. Ushbu ko‘rsatma Fales ijodidayoq o‘zini ko‘p darajada namoyon qildiki, u falsafanigina emas, balki riyoziyotni (matematika) ham nazariylashtirishni taklif qildi. Ba’zi bir handasaviy (geometrik) aksiomalar ifodasi unga tegishlidir: “tomonlari teng bo‘lgan uchbur-chakning asosiy burchaklari bir-biriga tengdir”, “doira o‘z diametrida ikki teng bo‘lakka bo‘linadi” va shunga o‘xshash (hammasi bo‘lib beshta aksioma). Shunday tuyilishi mumkinki, ularda faqat tajriba ifodalanib, umumlashtirilyapti. Ammo bu shunday emas: aksiomalar g‘oyaviy obyektlarga taalluqli bo‘lib, umumiylari va zaruriy jihatlarga ega bo‘lganligidan ularni dalil va mulohazalar asosi sifatida foydalish uchun qabul qilish mumkin. Fanlarni bunday tarzda tizimga solish Bobil riyozidonlariga ma’lum emas edi. Ular ko‘plab hisob-kitob formulalarini ishlab chiqdilar, ammo ularni isbot qilishga urinmadilar. Aqliy yo‘nalishga tayanish qadimgi Yunon adabiyotining o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi. Gomerni odatda ehtiros va g‘amg‘ussalar dunyosiga yo‘nalgan falsafa oldi an’anasining vakili hisoblashadi: og‘riq va lazzat, muhabbat va nafrat, qo‘rqinch va uyat – mana nimalar band qilgan Gomer xayolini. Uning qahramonlari aniq va ravshan tasvirlangan bo‘lib, ularning tashqi ko‘rinishlari o‘z ikir-chikirlarigacha, hamda ijtimoiy butunligicha ham aniqlangan. Ular g‘oyaviy makon hududlarida harakat qilayotgan, qonuniylikka

muvofig tarzda sug‘orilgan va sababiy bog‘lanishlarga ega bo‘lgan yo‘nalgan gavdalar sifatida namoyon bo‘ladilar. Qadimgi dunyo qahramonlarining ruhiy dunyosi ham ochiq va oqilonadir: biror-bir hatti-harakat qilish oldidan ular o‘z nuqtai nazarlarini mufassal muhokama qilib, dalillar keltiradilar. Hikoyachilik vajlarni aql tarozisiga soladi, voqealar sabab-oqibat zanjirini aniqlaydi, so‘zlarda jismoniy va ruhiy harakatlarning ham to‘la ifodasini beradi. Bu shunday tarzda beriladiki, bunga o‘xhash holat Yevklid geometriyasi va Arastu metafizikasida ko‘rilgan edi: keltirib chiqarilayotgan qoidalarni aniq ifodalash, mantiqiy yemirilishsiz, batatsil xulosa, tajriba va sog‘lom aqlga muvofig keladigan puxta dalillarga tayanish. Shunday qilib, yunon adabiyoti voqeylekning asosiy mazmunini beradi, uning mohiyatini aniqlab, uni ikkinchi darajali tafsilotlardan tozalaydi.<sup>2</sup> Ushbu mohiyat faqat aqliy jihat bilangina tugallanmasligi bu boshqa masala: qahramonlarning shakllanishi faqat ma‘rifat bilan cheklanmasdan, balki xotira, iroda, jasoratni mashq qildirish va Koinot qonunlariga muvofig ravishda jamiyatni qayta qurish va o‘z-o‘zini tarbiyalashning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda bu yerda unda qadimgi jamiyatlarda rasm bo‘lgani singari yosh yigitlarni balog‘atga yetganligini aniqlash uchun o‘tqaziladigan sinovlar yo‘q. Garchi ijtimoiy hatti-harakatning qat‘iy ma‘yoriy tizimini ishlab chiqishga intilish bo‘lmasa ham, ayni vaqtida ta’lim-tarbiya aqliy muhokama shaklida amalga oshiriladi, ya’ni bilimdon kishilar majlisida muhokama etilgan ustoz va shogirdning dalillari e’tiborga olinadi. Ikki kishi o‘rtasida bo‘lib o‘tadigan bunday aqliy muhokama bo‘lgan diskursning zamini musobaqa va saylovga asoslangan ruhdagi polisning demokratik tuzumidir. Bunga katta bilimdon ustozlar, o‘quvchilar va bilmaydiganlarni xo‘rlamasdan, balki o‘zlarining iqtidorlari, tajribalari, oqilona fikrlari bilan ularga namuna bo‘lib, ular tomonidan tan olinishlikka intilishi lozim bo‘ladi.

Ko‘hna falsafiy matnlarni tushunish, ularning madaniy zamini bo‘lgan til, milliy o‘ziga xoslik va hayot shakllari bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarga ko‘ra katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Har qanday tarixiy davr faqat erishilgan bilimlar darajasi bilangina ifodalanmay, balki fikr taraqqiyoti yo‘nalishini belgilovchi qadriyatlar yo‘nalishi bilan ham o‘z ifodasini topadi. Yozuv stoli ustida amalga oshirilgan

<sup>2</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P. 31.

metafizikani dalillar tizimi sifatida tushunishga qarshi turgan M. Xaydegger uni dunyodagi borliq tajribasi bilan bog'laydi.



1-rasm. Yaqin Sharq

Falsafiy tushunchalarning kelib chiqish ma'nosi ruhiy tarkiblarda ham, "ongsiz ravishdagi arxetiplarda" ham ildiz otgan. Masalan, qanday tajribaviy omillar yoki nazariy dalillar Falesga barcha borliqning birinchi ibtidosi sifatida suvni, Geraklitga esa – olovni olishga turki bo'lganligini bilish qiyin ish. Vaholanki, olamning ushbu tabiiy unsurlari barcha dunyo xalqlarining afsonalarida mavjud. Bu shundan guvohlik beradiki, ular inson ruhining kelib chiqish timsolining tasvirlari bo'lib, o'z navbatida ular falsafiy tushunchalar mazmunida ham saqlanadilar. Shuni hisobga olish lozimki, metafizikaning ruhiy tajriba majmuasining aqliy madaniyat sifatidagi shakliga ikki tomonlama ta'siri o'z-o'zini anglashdan tashqari xotira, iroda, histuyg'u, baholash, e'tiqod va shunga o'xhash jihatlarning ichki ruhiy omillari majmuasi shakllanishini ham o'z ichiga oladi. Bir tomonдан, aql ruhiy jazava va ehtiroslarni nazorat va tahlil qiluvchi vosita sifatida maydonga chiqsa, ikkinchi tomondan – u ularni buzishga xavf tug'diradi. Hali yaxshi ma'lum emaski, xudoning borlig'ini aqliy ravishda isbotlashga urinish nimaga ko'proq qo'l keldiykin – e'tiqodni mustahkamlashgami yoki buzishgami?

**Asosiy falsafiy muammolarda ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Haqiqat, borliq, ezzulik va go'zallik haqidagi masalalar shunday bir narsalar tug'diradiki, kishini cho'chitib yuboradi.**

*Falsafa donishmandlik va xotirjamlik bag'ishlovchi hayot san'ati bo'lmay qoldi. Bizning hozirgi zamон madaniyatimiz kamchiliklari aybini, aqlni barcha borliqning asosi sifatida e'lon qilgan ilk yunon faylasuflariga to'nkash adolatdan bo'lmaydi. Aql g'oyasining paydo bo'lishi – insoniyat tarixida eng muhim hodisadir.*

Borliq va yo'qlikni, haqiqat va fikr dunyosini bir-biridan ajratish aqliy tajribani nazorat qilish imkoniyatini beradi. U shuningdek, voqeylekdan ijodiy xayolni ajratishga, yashirin narsalarni muhokama-maga olib chiqishga imkon beradi. Shayton, jin, ajina va safsataga qarshi kurashda aql metafizikasi insonni tabiat asirligidan sug'urib olib, uni eskirgan illatlar va xurofotlardan ozod qiluvchi mutlaq qadriyatlar tomon boshtagi. Ammo oliy narsa quyi narsani ezmasdan, uni saqlashi lozim. Uzoq vaqt yurak va aql bir-biridan ajralmagan holda yashadilar, birining kuch-quvvati va ikkinchisining aqliy boshqaruvi his-tuyg'u bilan bezatilgan va ayni zamonda tartibga solingan hayotiy dunyoni vujudga keltirdiki, unda inson o'zini ro'yobga chiqara olar edi. Bugungi kunda yagona mantiqqa va tizimlilikka yo'naltirilgan aql hokimiyat diskursini namoyon qiluvchi idrokka aylanmoqda. U borliqni buzib, uni dunyoning texnik manzarasiga aylantirmoqda.

Qadim dunyo va o'rta asrlar falsafasida aql boshqaruvi markazi sifatida maydonga chiqib, haqiqatni aniqlash masalalarida bosh hakam edi. Aql, ruh va tana tabaqalangan ravishda tushunilar edi: tana harakatining sababi ruh, deb tushunilsa, bu harakatni yo'naltiruvchi aql hisoblanar edi. Biroq, shunday tabaqalashgan namunani aniq bayon qilgan Arastuda ham aql inson va jamoadan yuqori turuvchi kuch sifatida maydonga chiqib, borliqning o'z hokimiyatining namoyandasini vazifasini bajaradiki, uning tartibiga muvofiq hayot va ma'rifatning har qanday shakllari tashkil topadilar. Aflatunda esa, borliq mohiyatini aqliy tushunish tarzi bilan bir qatorda, nazariyadan tashqarida turuvchi kuch borligi taxmin qilinadiki, u insonni rohat-farog'atga, eng yaxshi erosga boshlab boradi. Shuning uchun haqiqat, ezzulik va go'zallik haqidagi masalalarni yagona butunlikka

bog'lashga urinish yunon mutafakkirlariga xos narsadir. Koinotga esa hamohang tovushlar jaranglayotgan nafis mutanosiblikdagi inshoot qiyofasi beriladi. O'z qismlari bir-biriga muvofiq va odilona joylashganligi tufayli yaxshi qurilmaga ega bo'lgan Koinot, o'zining yetuk tartibda ekanligidan o'z-o'zini saqlaydi: unda bir joydan ikkinchisiga o'tish yoki o'zgarish uchun sabab yo'q, negaki unda hamma narsa o'z joyida. Faqat yetuk bo'limgan narsagina harakat qiladi va azob chekadi. Shuning uchun inson Koinotni yaxshi ko'radi, unga mansublikka intiladi, u yetuklikka erishishga umid qiladi.

Arastu o'zicha osmon gumbazi, Yer hamda barcha o'simliklar va jonzotlarni sig'dirgan borliq doirasi sifatida tabiatni (fyuzis) mohiyatini ochib beradi. Aynan ana shu tabiiy doira, sun'iyga qarshi o'laroq (texne), bilim mavzusi (episteme) sifatida maydonga chiqib, paydo bo'lish va zavol topish, borliqning bir butunligi, ayrim olingan ashylarning ichki mohiyati, birinchi harakatlanuvchi kuch, ruh va shunga o'xhash masalalar haqidagi qarashlarni o'rtaga qo'yadi. Voqeylek xayoliy g'oyalar dunyosi yoki mutlaq shifr sifatida emas, balki mustahkam, o'z-o'zini saqlanishi uchun tashqi kuchlarga ehtiyoji bo'limgan, o'rganilishi lozim bo'lgan obyektiv tartib sifatida qaraladi. Aql ruhga yoki g'oyalar saltanatiga qarab emas, balki aynan ungagina qaratilgan. Uning birinchi amali – ayrim ashylarni qabul qilish bo'lib, undan keyingina o'zining tafakkur, xotira, ajablanish, tushuntirish va shunga o'xhash mexanizmlarini ishga soladi.

Aflatunchilar nazarida ruh bevosita o'z-o'zini tushungan vaqtida, ruhning Arastucha talqini qoidasi tananing hissiy tajribasini, mantiqiy qonunlar va kategoriyalarni ham hisobga oladi. Ruh haqidagi barcha mulohazalar sabab-oqibat va ayni zamonda maqsadli qatorlarda harakat qiladilar. Aql masalasida Arastu uning faol va faoliyatsiz qismilarini bir-biridan farq qiladiki, bu ustoz va shogird munosabatini eslatadi. Ana shu jihatdan Stagiritning risolalari Aflatunning dialoglaridan farq qiladi. Aflatunda o'z-o'zini bilish ham, shuningdek, o'rganish ham, suhbat qurish asosiga qo'yilgan. Arastu asarlarida bahs yuritish unsurlari jonli bahs sifatida emas, balki ilmiy talqin va obyektiv naqlu qavl (sitata) va boshqalar aytgan fikrlar va nuqtai nazarlarni bir-biriga solishtirish sifatida mavjud. Aftidan, asarlarining ana shunday shakli o'rta asr universitetlarida va Sharq mamlakatlarida g'oyat darajada mashhur bo'lib ketishiga sabab bo'ldi.

Tafakkur Arastu tomonidan faol aqlning faoliyatsiziga nisbatan ta'siri sifatida tushuniladi. Birinchisi insonga taalluqli emas, u yagona va umumiy bo'lganligidan, kimki fikr yuritsa, barcha uchun haqiqatni yagona tushunishni shart qilib qo'yadi. Stagirit talqinicha, inson aqlli va haloq bo'lishi muqarrar hayvon, insonga aloqador bo'lgan aqlgina mangudir<sup>3</sup>.

*Aql haqidagi bu ikki nazariya o'rta asrlar falsafasida qaytadan jonlanitirilib, diniy e'tiqodga bog'liq ravishda ushbu an'ana rivojlanmitirildi. Shu jihatdan xudoni borligini isbot qilish bilan shug'ullangan, e'tiqod asoslari va muqaddas Kitob tahlili bilan band bo'lgan ilohiyotchilar aqliy yo'naliш shakllanishiga katta hissa qo'shdilar. Masalan, V.Okkamning xristiancha tabiat falsafasi va koinot haqidagi qarashlari Kopernik g'oyalari va Impeto fizikasini oldindan payqaganligi ajablanarli emas.*

Xuddi shu tarzda o'rta asr sxolastlari trinitar va yevxarist muammolarini muhokamasi chog'ida shunday diskursni ishlab chiqqilarki, u ko'plab ilmiy tushunchalarni paydo bo'lishini belgilab berdi: javhar va oraz muammozi, birlamchi va ikkilamchi sifatlar, imkoniyat va voqeylek. Bular Yangi davr falsafasi va ilm-fani uchun xos tushunchalar bo'lib, aynan sxolastikada birinchi marta o'rta ga qo'yilgan va muhokama qilingan edi.

Aflatunning ruh haqidagi qoidasi xristianlik uchun ayniqsa yaqin edi. Tasodifiy emaski, Avgustin tan olib qayd etgan ediki, aynan Aflatun asarlarini o'qish uni yagona xudo aqidasisiga, ruh esa abadiy baxt-saodat manbai ekanligiga olib kelgan edi. Suqrrot vasiyatlariga amal qilgan holda, u xudo va ruhni tushunishga intildi va bu bilan abadiy rohat-farog'atni qo'lga kiritmoqchi bo'ldi. Xudo – ruhda yashovchi haqiqatdir va shuning uchun barcha kuch-quvvatlar uni bilishga qaratilmog'i lozim. Inson – bu tana qobig'idagi ruh bo'lib, unga ko'proq yordam berishdan ko'ra, haqiqatda unga halal beradi. Shuning uchun bilish qoidasi va ayni zamonda diniy tajriba shunday asosga quriladi: inson ruhni o'rganishga chuqur kirishib boradi, negaki, unda abadiy g'oyalalar mavjud bo'lib, ularga muvofiq ravishda xudo olamni yaratgan; bu g'oyalarni ochiq bo'lganligi tufayli voqeylekning qorong'i va chigal hodisalariga kirib borishning imkonи

<sup>3</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P. 31.

borki, ular xudoning namoyon bo‘lishi sifatida talqin qilinib, bu bilan xristian dunyoqarashining timsollarini belgilaydi.

Sharqda o‘rta asrlar arastuchiligi boshqacharoq muhitda shakllanib bordi. XIII asrning boshida uning xristianlikka nisbatan dushmanligi anglab yetildi va u ta‘qilandi. Shunday bo‘lsa ham uning tavsiyalari o‘rta asr universitetlarida faol amalga oshirildi, negaki, Arastuning asarlari shakl jihatdan ma’ruza o‘qish va doiratul maorif (ensiklopediya) ma’nolarini yo‘lga qo‘yishga juda ham foydali bo‘lib chiqdi. Arastuchilik, albatta, bilim va e’tiqodni birga qo‘shgan tomizm tomonidan mohiyat jihatdan zararsizlashtirilgan bo‘lsa ham, dunyonи tushunish sifatida tarqaldi. Ilmiy diskurs sezilarli darajada o‘zgarishlarga duchor bo‘lgan bo‘lsa ham, ammo tabiiy ilmiy yo‘l yo‘riqning o‘zi saqlanib qoldi va tarqaldi.

Har qanday boshqa narsalar kabi inson shaxsiyatining o‘rta asrlardagi qurilmalari ijtimoiy va davlat muassasalari tomonidan o‘rtaga qo‘yilgan vazifalar bilan belgilanar edi. Hokimiyat ixtiyoridagi maxsus markazlar vositasida amalga oshiriladigan majburiy munosabatlar ijtimoiy tizimlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri zo‘rlik va jazolash bilan emas, balki hatti-harakat va munosabat yurgizishning ijtimoiy-zaruriy ma‘yorlarini qo‘llash orqali kishilarni boshqarish ko‘proq muhim ahamiyatga ega bo‘lib bordi. Fikr va zikr, mayllarning manbai sifatidagi ruh haqidagi g‘amxo‘rlik shundan kelib chiqqan edi. Ular biror sabab qo‘zg‘atuvchi emas, balki nazorat ostida bo‘lmoqlari zarur edi. Agar Arastu faol va majhul aql, ruhning oziqlantiruvchi, sezilarli, harakatlanuvchi va aqliy shakllarini bir-biridan ajratgan bo‘lsa, o‘rta asr mualliflari ruhiy jarayonlar unsurlarini undan ko‘ra puxtaraoq darajalarga va subordinatsiyalarga bo‘ldilar. Masalan, gunohga sabab bo‘ladigan o‘n ikki yo‘ldan ozdirish vositasini ajratib ko‘rsatib, ularni o‘z navbatida yetti jihatdan qarab chiqdilar; gunohga tortuvchi ruh zaifligining olti xilini joriy qildilar. Agar Arastuning aql haqidagi diskursi ilmiy qiziqish bilan sug‘orilgan bo‘lib, demokratik polisning ijtimoiy qadriyatlar adolatliligi, qonuniyligi, vatanparvarlikning ijtimoiy hissiyoti, ezgu shon-sharaf va shunga o‘xshashlar bilan to‘lib toshgan bo‘lib, polisning talablarini ifoda qilsa, o‘rta asrlardagi til uslubi, ya‘ni ruhiy jarayonlarni gunoh va tavba istilohlarida bayon qilinishi juda ko‘p darajada hokimiyat manfaatlari bilan to‘lib toshgan edi. Inson tanlab olishga qodir bo‘lgan ozod shaxs sifatida namoyon bo‘ldi va shuning uchun o‘z-o‘zini nazorat qilishning shunday

mexanizmi zarurki, toki u, bu tanlangan narsani jamiyat uchun kerakli bo'lgan yo'nalishga solib yubora olsin.

"Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi"<sup>4</sup>.

Ilohiyot bahslarida o'zlarining qat'iy aqlga tayanishlari bilan alohida ajralib turgan ilohiyotchilar guruhi bo'lgan mo'taziliylar Bag'dodda xalifa Ma'mun saroyida katta nufuzga ega bo'ldilar. Insonning iroda erkinligi va ilohiy sifatlar masalasini muhokama qilishdan o'z faoliyatlarini boshlagan mo'taziliylar shunday ta'limotni ishlab chiqdilarki, u diniy mavzudan chetga chiqish bilan cheklanmasdan, hatto musulmonchilik e'tiqodining ba'zi aqidalarini ichdan buzar edi<sup>5</sup>. Masalan, ularning qayd etishlaricha, tabiat qonunlarigagina muvofiq faoliyat ko'rsatishi mumkin bo'lgan Allohg'a qarama-qarshi o'lardiq, inson o'z irodasicha har qanday hatti-harakat ko'rsatishi mumkin edi. Uning uchun ezgulik va yovuzlikning yagona mezoni sifatida uning aqli xizmat qilmog'i lozim edi. Ular birinchi bo'lib Xoliqni inson qiyofasida tasavvur etishga qarshi chiqib, unga majhul ilohiy g'oyani qarama-qarshi qo'ydilarki, o'z mohiyatiga ko'ra u iroda, qudrat, bilim va boshqa sifatlardan holi edi. Jumladan, xudoda nutq borligini inkor etib, Qur'onning abadiyligi haqidagi ta'limotni rad etdilar. Qur'oni bunday talqin qilish mo'taziliylarga va keyinchalik arastuchilarga uni ramziy ma'noda tushunishga imkon berib, o'z qarashlarini unga muvofiqlashdirishga yo'l ochdi.

*Musulmon Sharqida falsafiy tafakkurning paydo bo'lish tarixi yozma ravishda VIII asrga taalluqli bo'lib, ilk kalom vakillari bo'lgan mo'taziliylarning faoliyati bilan bog'lidir.*

Tabiat haqidagi ta'limotda mo'taziliylarning ko'pchiligi atomistik nazariyadan kelib chiqib, shuni qayd etdilarki, har qanday jism izhil bo'linish jarayonida bo'y, rang, hid va boshqa sifatlarga

<sup>4</sup> Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfisizlikka tabdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: «O'zbekiston», 1997. -B.137.

<sup>5</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P. 20.

ega bo'lgan unsur parchalarga bo'linadilar. Har bir shunday zarra bo'yga ega bo'lmagan muayyan miqdorda atom parchalaridan tashkil topgan bo'lib, harakat qilish va sokin holatda bo'lishdan boshqa har qanday xususiyatlardan holidir. Bunday nazariyadan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin edi: borliqning shakllari abadiy bo'lgan moddaning o'zida imkoniyat darajasida mavjuddir, ammo, majhul qarashga ko'ra, u qandaydir shaklanmagan va shuning uchun u yo'qlik bilan ayniyatdadir; Xoliqning yagona vazifasi barcha zaruriy sifatlarga ega bo'lgan moddani yana bir sifat, ya'ni mavjudlik bilan siylashdir; moddiy dunyoda ko'zga tashlanadigan barcha hodisalar sababiy shartlangan xususiyatlarga ega bo'lib, o'z asoslarini tabiatdagi ashyolarda topadilar. Mo'taziliylarning barcha hodisalarni aqliy yo'l bilan bilish mumkinligi haqidagi aqidalarini ana shundan kelib chiqadi. Ular bilishni vahiy orqali idrok qilishga salbiy munosabatda bo'ldilar. Ilk islom aqidalariga ishonishni ularning ko'pchilik faqat shuning uchun qabul qilish mumkin, deb bildilarki, ular axloqiy doirada ko'pchilikka foyda yetkazishi mumkin.

Xalifa Ma'mun (813-833) hukmronligi yillarida mo'taziliylar ta'limoti Abbosiylar davlatining rasmiy maskurasi deb e'lon qilindi. O'zining siyosiy muxoliflari bilan ittifoqda bo'lgan ilk islom aqida-laridagi ruhoniylarga qarshi kurashda Iroq savdogarlarini va hunar-mandlariga tayangan Ma'mun o'z siyosiy faoliyatida Sharqda misli ko'rilmagan ishni qilib, tabiatshunoslik va falsafa fanlarini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib berdi. Aynan, ana shu davrda tarjimachilik harakati keng quloch yozib, arablarni qadimgi davr ilmiy tabiatshu-nosligi va falsafiy merosi bilan tanishtirish jarayoni boshlandi.

Musulmonlarni qadimgi yunon mutafakkirlari asarlari bilan tanishtirish Suriya xristianlari orqali amalga oshirildi. Og'ir mehnat bo'lgan ikki tomonlama tarjima jarayoni, ya'ni yunon tilidan Suriya tiliga, undan arab tiliga qilingan ishlar avval boshda ko'proq tabobatga, tabiiy-ilmiy asarlarga qaratilgan edi. Ammo tez orada kitobxon ziyolilar va tarjimonlarning qiziqishi falsafiy adabiyotlarni ham qamrab oldi. Bu qonuniy jarayon edi. Chunki, Sharq xalifaligi deb atalgan Bag'dod va unga tobe bo'lgan musulmonlashish jarayoni boshlangan o'lkalarda savdo-sotiq va hunarmandchilik gurkirab o'sib, ular asosida matematika, mexanika, optika, kimyo, astronomiya, jug'rofiya, tabobat va boshqa nazariy va amaliy fanlarga ehtiyoj katta edi. Ma'rifatli doiralar diqqat markazida Arastu falsafasi turar edi.

Biroq, uni musulmon dunyosida o'zlashtirish shunday xususiyatga ega ediki, uning asarlari bilan tanishish keyingi davr arastuchilari va yangi aflatuncha sharhchilar vositasida, masalan, Aleksandr Afrodiziy, Femistiy, Porfiriy va boshqalar ijodining samarasi orqali amalgalashirilgan edi. Bir qancha uydirma asarlar ham keng tarqalgan bo'lib, ulardan eng muhim “Arastu ilohiyoti” deb atalgan asar edi. Ushbu asar aslida Plotinning “Enneadlar” asarining bir necha boblaridan iborat edi. Ana shunday “yangi aflatunchilikka aylantirilgan” arastuchilik musulmon sharqi arastuchilari tomonidan ishlab chiqilgan ta'lilotga asos bo'ldi<sup>6</sup>.

*Musulmon Sharqi arastuchiligining asoschisi “arablar faylasufi” deb nom olgan Abu Ishoq al-Kindiy (800-870) edi. U arablardan birinchi bo'lib, Arastu falsafasining asosiy qoidalarini ilmiy amaliyatga kiritdi.*

Al-Kindiy o'z risolalarida tabiat hodisalarini sababiy bog'lanishda ekanliklarini ko'rsatishga harakat qildi. Olamni zamonda yaratilganligini inkor etmasa ham, xudoni u “uzoqdagi sabab” sifatida ko'rsatib, garchi u dunyoni yaratgan bo'lsa-da, uning kelgusida o'z qonunlariga muvofiq ravishda rivojlanishiga imkon beradi. Sharq arastuchiligi tarixida uning tomonidan oldinga surilgan aqlning to'rt xili haqidagi ta'lilot katta o'rinn tutadi; “faol aql”, ya'ni tashqi borliqqa ega bo'lgan umumiy narsalar majmuasi; “imkoniyatdagi aql”, ya'ni ruhning tashqi umumiy narsalarni qabul qilishga qodirligi, ya'ni inson tomonidan yozish san'atini o'rganishga o'xshash; “kasb etilgan aql”, ya'ni yozish san'atiga o'xshagan, ruhda faol ravishda mavjud bo'lgan, ammo hali kotib tomonidan foydalanmagan qobiliyat; “o'zini namoyon qiladigan aql”, ya'ni o'sha kasb etilgan aql, ammo o'zini yozish san'ati kabi tashqarida namoyon qilgan va kotib tomonidan yozish jarayonida idrok etilgan aql.

Sharq arastuchiligining bundan keyingi taraqqiyoti Abu Nasr Forobiy (870-950) va ibn Sino (980-1037)lar nomi bilan bog'liq. Al-Kindiyga qarshi o'laroq, bu ikki faylasuf xudo olamni yaratib qo'yib, uning ishlariga aralashmaydi, degan aqidani rad etib, dunyoni xudo kabi abadiy ekanligini isbot qilib, “dunyoni yaratilganligi” istilohidan bosh tortmagan holda unga shunday ma'no baxsh etdilarki, xudo “vojibul vujud sifatida o'z mohiyatidan kelib chiqib”, moddiy dunyo

<sup>6</sup> Qarang: Adamsou Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P. 10.

mayjudligini faqat himoya qiladi xolos. Moddiy dunyo esa “o‘zi tufayli mumkinu vujud” sifatida maydonga chiqadi. Ularning fikricha, xudo mutlaq birlik bo‘lganligidan qandaydir ko‘plikning sababi bo‘la olmaydi: yagonalikdan bevosita faqat yagonalik kelib chiqadi. Xudodan birlik mahsuli sifatida kelib chiqadigan o‘z-o‘zini bilish natijasi bo‘lgan “birinchi aql” maydonga chiqadi. “Birinchi aql” vojibul vujud bo‘lganligidan xudoni idrok etadi va undan “ikkinci aql” kelib chiqadi, negaki, u ayni zamonda o‘z-o‘zini bilganligi uchun mumkinul vujud hamdir. Shuning uchun undan o‘z moddiyligi bilan va unga muvofiq keladigan shakl bo‘lgan ruh sifatida oliy samoviy doira kelib chiqadi. “Ikkinci aql” o‘z navbatida keigusida keladigan doiraning ruh va jismini, hamda undan ham pastki doirada joylashib o‘zini boshqarib turuvchi doira bo‘lgan “uchinchchi aql”ni keltirib chiqaradi va hokazo. Shunday kelib chiqishlar tizimi bo‘lgan emanatsiya “faol aql” bilan tugallanadiki, u oy ostidagi dunyoda mavjud bo‘lgan insoniy ruh va to‘rt unsur borlig‘ining sababi – “paydo bo‘lish va zavol topish dunyosi” sifatida maydonga chiqadi.

Xudo Forobiy va ibn Sino ta’limotida, al-Kindiy ta’limotida bo‘lgani kabi “uzoqdagi sabab” vazifasini bajaradi. Xudoning dunyoga bo‘lgan munosabatini bunday talqin qilish tabiatga mansub bo‘lgan g‘oyalarni rivojlantirishga keng imkon yaratadi.

### Seminar mashg‘uloti va mustaqil ta’lim uchun vazifalar

1. “Sharq falsafasi va madaniyati tarixi” fanining predmeti, mazmuni va strukturasini izohlang..
2. “Sharq falsafasi va madaniyati tarix” fanining maqsad va vazifalarini sharhlab bering.
3. “Sharq falsafasi va madaniyati tarixi” fanining mutaxassislikning boshqa fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi.
4. «Sharq falsafasi va madaniyati tarixi»ning ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimi tutgan o‘rnini hamda uni o‘rganishning ahamiyati qanday?
5. Milet falsafiy maktabi faylasuflari ta’limoti bo‘yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
6. “Hayot nima?” mavzusida falsafiy esse yozing.
7. Qadimgi Sharq falsafasiga oid internet materiallarini to‘plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.

8. Sharq falsafasini yunon falsafiy ta'limotlariga ta'sir qilgan jihatlarini toping va referat tayyorlang.

9. Qadimgi O'rta va Yaqin Sharq, Xitoy va Hindiston falsafasiga oid eng umumiy jihatlarni toping va slayd tayyorlang.

10. Insert usulidan foydalaniib, quyidagi jadvalni to'ldiring (2-ilova).

### **Insert usulidan foydalaniib ishlash qoidasi**

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

Q – men uchun yangi ma'lumot

- – men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

**2-ilova**

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

### **O'quv tonshiriq:**

"Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash" orqali o'qituvchi talabalarni to'rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

#### **1 – guruh topshirig'i**

1-bosqich. "Sharq falsafasi va madaniyati tarixi" fanining predmeti ni gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'i-ning to'l-dirish sifati	Guruh faolligi	Reglamantga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 2 – guruh topshirig'i

1-bosqich. "Sharq falsafasi va madaniyati tarix" fanining maqsad va vazifalarini gapirib berish. 5 daqiqa

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'i-ning to'l-dirish sifati	Guruh faolligi	Reglamantga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 3 – guruh topshirig'i

1-bosqich. "Sharq falsafasi va madaniyati tarix" fanining mutaxassislikning boshqa fanlari bilan o'zaro bog'liqligini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faoliigi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

#### 4 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Sharq falsafasi va madaniyati tushunchalarining farqli jihatlarini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faoliigi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

#### Guruh bo'yicha baholash mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.

Har bir talab bo'yicha – 2 ball

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazma-lilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faoliigi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					
3.					
4.					

## **Hisob natijasi**

Guruhi №	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball
1.					
2.					
3.					
4.					
Umumiy hisob ballari					
Baho					

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llianma. –T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.–T.: TDSHI, 2006.

## **2-mavzu. SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI TARIXINI O'RGANISHNING METODOLOGIK MASALALARI**

### **Reja**

1. Sharq falsafasi va madaniyati tarixining asosiy davrlari va o'ziga xos xususiyatlari.
2. Sharq va G'arb falsafasi va madaniyatining o'zaro ta'siri.
3. "Sharq renessansi" tushunchasi va uning mohiyati.
4. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyati.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Sharq falsafasning asosiy davrlari, Sharq madaniyati tarixi, dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, diniy va mifologik dunyoqarash, falsafa, Fales, Yunon madaniyati, falsafiy matnlar, ong va tafakkur rivoji, Sharq va G'arb madaniyatları rivoji va aloqadorligi, Sharq va G'arb sivilizatsiyasi, birlamchi fanlar.*

Falsafa, inson tafakkurining umumbashariy shakli sifatida, jamiyatdagi mavjud holatdan qoniqmaslikning ma'naviy ifodasi, uni yanada takomillashtirish, rivojlantirishning, butun olam-tabiat, jamiyatning mazmun-mohiyati, inson, insoniyat, xalq, millatning maqsad-muddaosi muammolarini chuqur o'rganishga asoslangan holdagi ilmiy-nazariy omilidir. Demak, falsafa, birinchi galda, jamiyatga va faqat shu bois, o'quv yurtlari, ilmiy muassasalar uchun kerak. Darhaqiqat, voqeylekda, insonlar va jamiyat hayotidagi keskin o'zgarishlar, yangilanishlar yuz bergan sari falsafaga bo'lgan qiziqishning ortib borishi ham muqarrarlashadi.

Ajdodlarimiz, Sharq va G'arb xalqlari vakillari yaratgan falsafiy ta'limatlardan yurtdoshlarimizni bahramand qiluvchi, ularga hozirgi zamон falsafasining turli-tuman, hatto qarama-qarshi fikrlarini chuqur bilish imkoniyatini beruvchi ma'naviy muhitni shakllantirish, tegishli yo'naliishdagi, davr talablariga monand


tadqiqotlarni amalga oshirish, mazkur sohaga oid darsliklarni yaratish lozimligini uqtirish – ushbu da'vatning muhim qirralarini tashkil etadi. Zero, xuddi mana shunday jiddiy falsafiy zamingina, o'zida xalqimizning ezgu niyatları, orzu-umidlarini jo etgan, milliy g'oya va ijtimoiy mafkuralarni yaratishning mustahkam ilmiy-nazariy asosi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot asosida mavjud holatdan qoniqmaslik hissi yotadi. Vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengish, yangi kuch, g'ayrat toplash uchun, rivojlanishning zaminini tayyorlash uchun insonga chidam, sabr-toqat kerak.

Sabru toqat rivojlanish jarayonining vaqtinchalik shakli, mukammallikka intilish, ehtiyojlarning yuksalishi esa – doimiy holatdir. Insonning erkinlikka, adolatga, mehr-muhabbatga, go'zallikka, kamolotga intilishi, qobiliyatlarini namoyon etishga, ijod etishga urinishi – uning ma'naviy ehtiyojidir.

Ehtiyojlar sog'lom va nosog'lom bo'lishi mumkin. Insonning erkin kamolotiga xizmat qiladigan, undagi ijobiy qobiliyatlarini, fazilatlarini boyitadigan, rivojlantiradigan ehtiyojlar sog'lom ehtiyojlardir. Aksincha, nafs xohishlarining cheksiz avj olishiga, molparastlikka, shahvatparastlikka, mansabparastlikka, insondagi salbiy jihatlarning kuchayishiga xizmat qiladigan ehtiyojlar nosog'lom ehtiyojlardir.

Buyuk yunon faylasufi, yetti donishmandning biri hisoblangan Fales "Yomon vositalar orqali boyimagin" degan edi.



Insonda moddiy va ma'naviy ehtiyojlar muttasil yuksalib boradi. Bir ehtiyojning qondirilishi bilan undan yuksakroq yangi ehtiyoj tug'iladi. Avvalgidan yaxshiroq, qulayroq, go'zalroq buyumni yoki san'at asarini yaratishga intilish, oldingisidan teranroq, aniqroq bilimni egallahsga, mukammalroq texnikaviy asbob-uskunalarni ixtiro etishga urinish, turmush darajasini yanada

yaxshilash va farovonlashtirishga intilish – insonga xos xusu-siyatdir. Bu – tabiiy ravishda tug‘iladigan ijtimoiy ehtiyojdir.

Uzoqni oldindan ko‘ra bilish, uni tahlil va taxmin qilish – falfasafaning muhim vazifasidir. Falsafa tasodifiy hodisalar, juz‘iy holatlarni emas, balki ularning tubidagi, ortidagi muhim, barqaror, doimo takrorlanib turadigan munosabatlar – qonuniyatlarni o‘rganadi, o‘tmishni, mavjud vaziyatni tahlil qiladi va istiqbolni ilmiy taxminini beradi.

Falsafa dunyoqarash sifatida ikki savolga javob berishi lozim. Birinchisi – insonning o‘zi nima, uning mohiyatini, tabiatini nima tashkil etadi? Ikkinchisi – insonning yashashdan maqsadi nima, u nimaga intilishi kerak?

Falsafa sababiyat to‘g‘risidagi fandir. Biron-bir narsaning, hodisaning asl sababi aniqlanmas ekan, demak, unga tegishli tarzda ta’sir ko‘rsatishning iloji ham bo‘lmaydi. Masalan, jamiyatni boshqarish usuli undagi hukmron-mulkiy munosabatlarga mutanosib bo‘ladi; shu sababdan, ibridoiy jamiyatdagi ilk demokratik boshqaruv usulidan xususiy mulkning kelib chiqishi munosabati bilan siyosiylikka o‘tilgan; davlat siyosiy tizimning asosiy bosh bo‘g‘inini tashkil qiladi; u vujudga kelgan paytdan boshlab, jamiyatdagi manfaatlarni kerak bo‘lganda, zo‘ravonlik bilan “muvozanatga” keltirib turgan; davlat boshqaruvi tizimiga ta’sir ko‘rsatish manfaatdor kuchlar uchun “foyDALI” ish bo‘lgan; yangi davr (XVII-XVIII asrlardan boshlab) demokratik (saylovlari, siyosiy partiylari) tartibotlarning qaror topishiga olib kelgan.

Arab xalifaligi davrida O‘rta Osiyonni Tohiriyalar (821-873-yy), Safforiylar (873-904-yy), Somoniylar (875-999-yy), G‘aznaviyalar (977-1186-yy), Qoraxoniylar (999-1212-yy) va Xorazmshohlar (1077-1231-yy) kabi sulolalar boshqargan. Saljuqiylar (1033-1300-yy) XII asrning boshlariga kelib, bugungi O‘rta Osiyo hududini butunlay o‘z nazorati ostiga oladilar.

Ma‘lumki, saljuqiylar sulolasi ilgarigi mavqeい yo‘qolgan xalifalikni boshqarayotgan Bag‘dod xalifasining rasmiy hukmronligini saqlagan holda, amalda markazlashgan davlatning dunyoviy ishlarini boshqarar edilar.

*Saljuqiy Malikshoh davrida uzoq vaqt vazirlik qilgan fan homiysi Nizomul Mulk Abu Homid G'azzoliy va Mahmud az-Zamaxshariy kabi olimlarni ham qo'llab-quvvatlagan. U Bag'dodda rasadxona ishini rivojlantirib, mashhur falakshunos olimlarni to'playdi. Nizomul Mulk tashabbusi bilan Buxoro, Hirot, Nishapur, Samarqand, Bag'dod kabi shaharlarda "Nizomiya" nomidagi madrasalar ochilgan.*

Ushbu davr ilm-fan taraqqiyotining e'tiborli tomoni shundaki, ko'pgina olimlar o'z sohalarida yangiliklarga asos soladilar. Masalan, birinchi bo'lib, Umar Xayyom taqvimiga tuzatish kiritadi. Ayniqsa, bu davr arab va fors adabiyotining taraqqiyot davri bo'lgan. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalarda ko'plab o'zgarishlar falsafa, tabiiy-ilmiy bilimlar rivojida muhim obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni vujudga keltirgan. O'z navbatida Movarounnahr diyorida ham ilm-fan ravnaqi uchun qulay imkoniyatlар yaratilgan. Aytish mumkinki, bunday imkoniyatlар XX asrning boshlarigacha hech vaqt vujudga kelmadи. Bu muammo butun Yaqin va O'rta Sharqqa, hatto Xitoy va Hindistonga ham xos xususiyatdir. Shu boisdan bo'lsa kerak, Sharq mamlakatlari Yevropadan orqada qolib ketdi. Hozirgi zamон ingliz va rus olimlarining fikricha, buning sababi Sharqda hozirgacha milliy innovatsion tizimning yo'qligidir.

Hozirgi vaqtida ilg'or Sharq mamlakatlari Yevropa va Amerikadan ushbu usulni o'zlashtirmoqdalar. Bunga II jahon urushidan keyingi Yaponiya, Janubiy Quriya, Singapur, Malayziya, Tailand, Tayvan va keyingi 30 yil ichida to'xtovsiz islohotlar bilan band bo'lgan Xitoy misol bo'la oladi. Islom dunyosi mamlakatlari katta mablag' manbalariga ega bo'lsalar ham, hali hozir milliy innovatsion tizimga o'tayotganlari yo'q.

*Milliy innovatsion tizim – bu, umuman Yevropacha g'oya bo'lib, bir necha vaqt dan keyin AQShda o'z izdoshlarini topgan Nelson uning asoschi – otalaridan biri edi. Ammo Yevropada, har doim bo'lganidek, ko'proq so'zamollik va siyosiy qarorlar qabul qilishlik, ko'proq darajada ilmiy maktablarni shakllantirish ustunlik qiladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida esa ko'pincha ishchanlik hukmronlik qiladi. Ana shu Amerikada XX asrning 80-90-yillarda hozirgi zamон texnologik taraqqiyotiga muvofiq keladigan Milliy innovatsion tizimning qonuniy zamini yaratildi.*

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “...moddiy va ma’naviy hayat tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradi.

Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z hayatini aynan ana shunday dialektik va uzviy bog‘liqlik asosida qurgan va rivojlaningta qurdirdagina ijobjiy natijalarga erisha oladi.

Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, biz iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg‘un ravishda rivojlanib borishni doimo davlatimiz va jamiyatimizning e’tibor markaziga qo‘yib kelmoqdamiz”<sup>7</sup>.

Falsafaning nima ekanligidan xabar beruvchi o‘nlab ta’riflarni keltirish mumkin. Masalan, IX asrda yashagan arab faylasufi Abu Yaqub ibn Ishoq al-Kindiy (801-866) xalifa Mu’tasimga bag‘ishlab yozgan “Birinchi falsafa” asarida falsafaga ta’rif berib, “Insonning toqati yetguncha narsalar haqiqatini bilish ilmi” yoki “Maba‘di uttabia” (“Tabiatdan keyin keladigan narsalar”) kitobida “Har bir haqiqat sababini birinchi haqiqatga olib boruvchi ilm” deb atagan. Uning fikricha, “Haqiqat izlovchi uchun hech bir narsa haqiqatning o‘zidan qimmatroq emas”.

Dastlabki fanlar tasnifini birinchilardan bo‘lib al-Kindiy ishlab chiqqan. U ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi ta’limotni shakllantirdi. U birinchi bosqichni mantiq va matematika; ikkinchi bosqichni fizika (aniq fanlar); uchinchi bosqichni esa metafizika bilan bog‘liq bilim, deb hisobladi.

*“Birlamchi fanlar” deb atalgan, ayniqsa, uning rasional qismi hisoblangan fanlarning vujudga kelishi bilan islom daryosida ko‘proq aqliy mushohadaga murojaat qiladigan bo‘ldilar va shularning natijasi sifatida “Islom falsafasi” nomi ostida alohida san paydo bo‘lib, rivojlandi.*

Bungacha mu’tazila guruhi tufayli haqiqatlarni kashf etish va diniy ahkomlarni asoslashga aqliy mushohada va ratsional muhokamalardan foydalanish boshlangan edi. Mu’tazila oqimi islom tafakkuri tarixida ratsionalizm tarafidori sifatida ma’lumdir. Ular Kur‘on va hadislarni zohiriyl tomondan sodda anglashdan yuqori ko‘tarilib, aqliy muhokamalarga tayangan holda dinni himoya qila oldilar.

<sup>7</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma’naviyat», 2008. –B.68-69.

Buyuk vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy X asrda falsafaga quyidagicha ta’rif bergen edi:

“Mavjudot haqidagi bilim qo‘lga kiritilsa, shu haqda ta’lim berilsa, mavjudottan bo‘lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma’nosi tushunilsa, ishonchli dalil-hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo‘lsa, mana shu ma’lumotga doir fanni falsafa deymiz”.

Haqiqatan ham “falsafa vogelikdagi barcha narsa va hodisalarning eng umumiyligi aloqadorligi va rivojlanish qonuniyatlarini, ularning tub mohiyatini bilishga qaratilgan fandir”.

Forobiyning ulug‘ xizmati faqat uning falsafani chuqur anglab yetganida va yangi g‘oyalar, fikrlar bergenidagina emas, balki din va falsafa orasidagi munosabatlarni qat’iy va aniq ifodalagani hamda bu ikki sohaning insonlar ongida birga yashashi mumkinligini uyg‘unlashtirib isbotlab bergenligidadir.

Forobiy denga jiddiy munosabatda bo‘lib, shariatning zohiriyliga qarshi chiqish o‘rniga, uning botiniy mohiyatiga falsafiy ma’no berdi.

Forobiy o‘zining “Al-huruf” (Harflar) asarida shunday deydi: “Agar din barcha umumiy jihatlari bilan takomillashadigan falsafaga ito-at etsa, unda u haq va to‘g‘ridir. Ammo agar din to‘g‘ri tahliliy falsafaya hali shakllanmay, balki halq tafakkuri, g‘oyasi bo‘lgan ritorika (balog‘at san’ati, so‘zamollik), dialektika (bahs) va sofistika (har qanday vosita bilan bo‘lsa ham raqibni so‘zda lol qoldirish) bilan band bo‘lgan davrda paydo bo‘lsa, bunday falsafaga bo‘ysungan din ham yolg‘on va xatolaridan holi bo‘lmaydi. Ko‘p hollarda u boshidan oxirigacha noto‘g‘ri bo‘lib chiqadi. Falsafa denga nisbatan ham birlamchi mavqega ega, chunki falsafa – mag‘z, din – po‘stloq, aniqrog‘i – falsafaning qurolidir”.

Uning fikricha, din juda katta ahamiyatga ega. Zero, bir tomondan, uning mohiyati yana o‘sha oliv falsafadir, boshqa tomondan esa, shariat insoniyat jamiyatini mavjudligi va ijtimoiy tartib barqarorligi uchun falsafa singari zarur. Forobiy uchun asosiy tayanch analitika (tahlil va tadqiq)ga qurilgan falsafadir. Uningcha, haq din bilan haqiqiy falsafa birdir. Faqat falsafa – xoslarga tegishli, dinning tili esa xoslarga ham, avomonga ham tushunarlidir<sup>8</sup>.

<sup>8</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P. 12.

Forobiy fikricha, payg‘ambarlar va faylasuflar bilimlarining manbai bittadir. Faylasuf faol aql bilan qo‘shilib, haqiqatni biladi. Payg‘ambar esa – haqiqatning in’ikosi bo‘lmish vahiy orqali biladi. Din esa vahiy asosidagi haqiqatdir. Din va falsafa – har ikkisi ham bilim va mushohadadir, farq shundaki, din soddalashtirilgan falsafadir. Boshqacha ibora bilan aytganda, din va falsafa yagona birlikning ikki xil jihatlaridir. Falsafa daliliy hukmlarning qoidalariiga tayanadi, din esa o‘sha hukmlar va qoidalarning xitobiy shaklidir. Uning din va falsafaning yagona birligi haqidagi mulohazalariga qaramasdan, keyinchalik, Forobiy falsafani dindan afzalroq va ustunroq qo‘yganligiga urg‘u bera boshladilar. Ba’zilar, jumladan, andaluziyalik faylasuf Ibn Tufayl uni bu masalada keskin tanqid qildi. Andaluziyalik faylasufning daliliga ko‘ra, Forobiy faylasuf darajasini go‘yo payg‘ambarlikdan ham yuqoriroq qo‘yan. Ammo, Forobiy “Din falsafaning misollaridir” deganda payg‘ambar xalq tilida so‘zlashishga majbur ekanligini ham alohida qayd etib o‘tadi. Chunki, omma daliliy hukmlarni tushunmaganligi sababli, daliliy haqiqatlarni xitobiy shaklda bayon etishdan o‘zga imkoniyat yo‘q. Binobarin, payg‘ambar ham faylasufdir. Forobiyning fikriga ko‘ra, avomning diniy qarashlari, uning falsafiy xulosalariga doim ham mos tushavermaydi va buning zaruriyati ham yo‘q. Shuning uchun u o‘z fikrlarini bevosita avomga moslashtirmagan edi. U avom meni tushunadi, deb ham o‘ylamagan va aksincha, bundan xavotir ham olganki, uningcha “avomning falsafaga aralashishi, uni buzadi”.

*Ratsional islom falsafasi o‘zining paydo bo‘lish vaqtidan boshlab musulmon jamiyatida ikkita qudratli raqibga duch keldi. Birinchisi – dinni va aqlini aqidaparastlarcha, qotib qolgan filr (dogma) sifatida qabul qilish bo‘lsa, ikkinchisi – tasavvuf va irson edi. Tasavvuf ziddiyatlar, yakka hukmron mustabidlarning zulmidan azob chekkan odamlarning isyonи ifodasi edi. Yunon falsafasining keyingi irsoniy oqimlar bilan o‘xshashlik jihatlari mavjud.*

Ikki asr davomida lovullab turgan kalom ilmiy sohadagi bahslar alangasini o‘chirishi oson emas edi. Kalom va tasavvuf islom falsafasining tarkibiy qismlari sifatida maydonga chiqdi. Bu nazariy maktablar islom falsafasini yaratishga shart-sharoit yaratdilar.

Forobiy falsafasining inkor etib bo'lmaydigan joyi shundaki, u nazariy falsafani haqiqiy va asosiy ilm, deb bilib, qolgan barcha fanlarni unga tobe bo'lgan ikkinchi darajali sohalar maqomiga qo'ydi. Falsafalar o'rtasidagi umumiy dunyoqarashlar bilan kifoyalanmay, din bilan falsafani ham ayrim bir qismga joyladi. Uning fikricha, falsafadagi masalalar isbotini payg'ambarlar ramzlar shaklida bayon qilgandalar, zero, mohiyat jihatidan falsafa bilan din o'rtasida hech qanday tafovut yo'q. Bunday qarash o'z davrida nihoyat darajada muvaffaqiyat qozonib, islomiy falsafaning asosi va usulini belgilab beruvchi fikrlash tarziga aylandi. Shuning uchun ham Forobiyning ma'lum ma'noda islom falsafasining muassisi, ya'ni asoschisi, deb bilmuoq kerak.

Islom falsafasi o'z tarkibiga besh yo'nalishni qamrab oladi: tasavvuf, kalom, mashshoiyun (peripatetiklar yoki falosifa), ismoiliy va ishroqiylar. Bularga hozirgi zamon eron faylasufi Muhammad Xotamiy quyidagicha ta'rif beradi:

"Amalda musulmon jamiyatining rasional mavzularini hamda Kalomulloh (Vahiy) va aql, falsafa va din orasidagi munosabatlarni muhokama qilib, har biri islom tarixida va musulmonlarning taqdirida alohida iz qoldirgan to'rtta tamoyil (yo'nalish)ni ko'rish mumkin:

1. Islom falsafasi deb atalgan va din bilan falsafa orasidagi uyg'unlik munosabatlarini oliy darajada qo'ygan oqim.

2. Dinni aqliy va mantiqiy muhokamalar, dalillar bilan solishtirganda fikrlaydigan odamda uni qabul qilish uchun hech bir imkoniyat qoldirmaydigan holatda olib ko'radigan oqim.

3. Aql va falsafaning qo'li qisqa, oyog'i cho'loq, u haq va haqiqatga olib bora olmaydi, degan irfon va tasavvuf oqimi. Sufiyalar haqiqatga yurak qanoti bilan yetishish mumkin, deydilar va "dalil keltirib isbotlovchilarning oyog'i yog'ochdandir", ular haqqa yetishishga ojiz, deb aytadilar.

4. Din va shariat haybati va hashamati oldida inson aqlining ojizligini ta'kidlovchi oqim"<sup>9</sup>.

Ushbu oqimlar boshqa xalqlar va madaniyatlar, jumladan, yunon olimlari qarashlaridan bahramand bo'lgan holda vujudga kelgan edi. Abu Yaqub ibn Ishoq al-Kindiy Forobiyan yuz yil oldin falsafani jiddiy o'rganishga kirishgan edi, boshqa olimlar esa falsafiy asarlarni arab tiliga tarjima qilish bilan chegaralanardilar. Biroq Forobiy bilan al-Kindiy orasida katta farq bor. Bu shunda namoyon bo'ladiki, Foro-

<sup>9</sup> Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. – T.: Minboj, 2003. – B.58.

biy yangi yo'l ochgan o'zining yangi maktabiga asos solgan faylasuf bo'lsa, al-Kindiy o'zlashtirilgan fikrlarni tadqiq etgan olimdir.

Ibn Sino (980-1037) o'zining "Donishnoma" asarida ta'kidlashicha, "harakat deb, odatda makonda sodir bo'ladigan narsaga aytildi; amma bu tushunchaning ma'nosini hozir boshqacha, makon harakatdan ko'ra, umumiyoq ma'noni anglatadi: imkoniyatdagi narsa bo'lgan biror-bir narsaning istalgan holati va harakati shu imkoniyat sababidan harakat deyiladi".

Ibn Sino fikriga ko'ra, barcha falsafiy ilmlar ikki qismiga bo'linadi: nazariy va amaliy. Bunda nazariy qismning maqsadi – haqiqatni bilish; amaliy qismning maqsadi – saodatga erishishdir. Falsafiy fanlar, ibn Sino ta'kidicha, ikki turga bo'linadi: birinchisi bizning shaxsiy hatti-harakatimiz bilan tanishitiradi va u "amaliy ilmlar" deb nomlanadi<sup>10</sup>. Chunki bu bilimlarning foydasi, biz bu dunyoda najot topishga umid qilishimiz uchun, undagi ishlarimiz tartibli bo'lishi uchun kerak bo'ladi. Ikkinchisi esa bizni ruhiyatimiz shakllanishi va bu dunyoda baxtli bo'lishimiz uchun narsalar olamining holatini bizga anglatadi. O'z o'rnida tushuntiriladigan bu ilm nazariy deb nomlanadi.

Makon ibn Sino nuqtai nazaridan jism ham, shaki ham emas. Bu unda jism o'rinni oladigan "hech nima". U har qanday jismni qurshab oladi. "O'rinni"ning borligi "to'ldirilgan" makonning mavjudligini asoslaydi. Uning fikricha, "dahr" moddaning, uning o'zgarishiga bog'liq abadiy va mutlaq vaqt bo'lib, qanday bo'limasin, makon va harakat bilan tor aloqada mavjud.

Ibn Rushdning ikki haqiqat nazariyasi keyinchalik islom falsafasida tabiiy-ilmiy hamda ijtimoiy bilimlar konsepsiyasini ishlab chiqishda diniy va ilmiy bilimlarni uyg'unlashtirishda muhim vosita bo'lgan. O'z navbatida bilishning bu ikki shakli bir-biriga halal bermasligi kerak, degan g'oya ham ustuvor ahamiyat kasb etgan. Chunki ular bir maqsad – haqiqatni topishi va unga erishish yo'lida harakat qiladilar, degan yondashuv konsepsial asosga ega edi.

"Ikki haqiqat nazariyasi" mutakallimlar bilan mu'taziliylar, aql bilan e'tiqod o'rtasida kelishuv vujudga kelganligidan darak beradi. Chunki keyingi davr musulmon xalqlari tarixidan o'rinni olgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning negizi uning asosiga qurilganini ko'rish mumkin. "Ikki haqiqat" tarafdarlarining qarashlaridagi bunday xulo-

<sup>10</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P. 14.

salar aslida qadiimgi yunon faylasufi Aflatun falsafasiga asoslanar edi. Agar Aflatun falsafasida narsalar dunyosidan oldin, unga nisbatan birlamchi, o'zgarmas mohiyatga ega bo'lgan "g'oyalilar dunyosi" mavjudligi e'tirof etilsa, unda bu o'zgarmas mohiyatni anglab yetishning ham ikki yo'li mavjuddir, deb ishonch bildiradi.

Uning fikricha, bu dunyoning o'zgarmas mohiyati alohida qobiliyatga ega, o'ta sezgir odamlarning faoliyati orqali anglab olinadi. Buning ikkinchi yo'li esa, kishilar tomonidan g'oyalilar dunyosi (mohiyat)ning hosilasi bo'lmish, narsalar dunyosini tashkil etuvchi voqe va hodisalarning o'zaro aloqadorligi, sifat hamda xossalari o'rganish asosida ham mohiyatni anglab olish mumkin.

Zamonaviy islomning falsafiy asoslarini o'rganishda Sharq va G'arb tajribasini birgalikda olib borish zarurligi haqida T.J.Uinter o'zining "XXI asrda islom" nomli asarida quyidagilarni yozadi:

"Bag'doddagi Nizomiya madrasasi G'azzoliy tufayli mashhur bo'lib ketgan edi, o'sha madrasada fiqh bilan bir qatorda yunon an'analari assosidagi falsafiy ilohiyotshunoslik ham o'qitilar, shuningdek, o'sha vaqtagi rahnamolarni raqib mafkuralarining oyog'ini osmondan qiladigan zarur qurol bilan ta'minlar edi. Bizga yangi minglikda mujaddid, mu'tadil, bag'rikeng, ruhoniy dunyoqarashga ega, dunyoviy tafakkurni tanqid qilibgina qolmasdan, uni tushunadigan va u bilan bahsga kirisha oladigan daho G'azzoliy kerak. Xususan, bunday shaxs yangi zamonga o'z hukmini o'tkazayotgan ma'naviyat, san'at va atrof-muhit masalalarini puxta bilishi darkor. G'arb kishisiga nima ta'sir etishi va uni nima harakatlantirayotganidan xabardor g'arblik musulmon mutafakkirlari biladiki, mabodo islom diskursi ushbu masalalarga e'tibor qaratib, muvaffaqiyatga erishadigan, ekstremizmning yovuz ruhini quvadigan bo'lsa, dinimiz nafaqat gullab-yashnashi, qolaversa, yangi asrning diniy kurashlarida markaziy o'rinni qayta egallashi ham mumkin".

Rivojlanishning umumiy qonuniyatlariga tadrijiy (evolyusion) va sakrashsimon (inqilobiy) o'zgarish, eski sifatdan yangi sifatga o'tish kiradi. Bu ikki turdag'i o'tish fan taraqqiyoti uchun ham xosdir.

Yevropaning musulmon viloyatlarida, ayniqsa, mavrlar Ispaniyasida, musulmon, yahudiy, xristianlar ta'lim berishgan. Uchchala e'tiqod vakillari o'z diniy aqidalarini yunon falsafasi g'oyalari bilan himoyalashga urinishgan, bu albatta xristian sxolastikasiga ta'sir etgan.

Siyosatdagi kabi falsafada ham arab-musulmon mutafakkirlari inqilob sodir etishgan emas, balki dastlabki g'oyalar bilan cheklanishga va shakllantirish mumkin bo'lganlarini shakllantirishga harakat qilishgan. Lekin ularning fan va falsafaga qo'shgan hissasi jahon, ayniqsa, Yevropa falsafiy va ilmiy dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Abu Homid G'azzoliy falsafiy dalillarga qarshi raddiya yozganidan keyin islom ilmi falsafa bilan birlashib, bundan keyingi har qanday kelishmovchiliklar bartaraf etilishi mumkin bo'lgan adashishlar va xatoliklardan iborat ekanligi yana bir bor ta'kidlandi. Natijada agar falsafa o'zgaruvchan bo'lmaganda, xato va adashishlar ham kelib chiqmas edi – degan xulosaga kelindi. Garchi, borliq, mayjudotlarning asosi va minerallar olami haqidagi gaplar xuddi qadimgi yunon falsafasidagidek bo'lsa-da va islom faylasuflari haqiqiy falsafaga xos xususiyat bo'lgan ashylarning mohiyati haqida bahs yuritgan bo'lsalar ham, ammo bahslarning ma'no va mazmunida chuqur o'zgarishlar yuz bergen edi.

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lim uchun vazifalar**

1. Sharq falsafasi va madaniyati tarixining asosiy davrlari va o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
2. Sharq va G'arb falsafasi va madaniyatining o'zaro ta'sirini sharhlang.
3. Sharq renessansi tushunchasi, mohiyati izohlang.
4. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o'rni va ahamiyatini sharhlang.
5. Sharq falsafasi bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
6. "Falsafa nima?" mavzusida falsafiy esse yozing.
7. Qadimgi Sharq falsafasiga oid internet materialiarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
8. Sharq tafakkurining o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.
9. Sharq va G'arb madaniyatlariga oid eng umumiy jihatlarni toping va slayd tayyorlang.
10. Insert usulidan foydalanib, quyidagi jadvalni to'ldiring (1-ilova).

## Insert usulidan foydalananib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

Q – men uchun yangi ma'lumot

- – men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarни jadval shaklida rasmiylashtiring.

**1-ilova**

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				
4.				

### O'quv topshiriq:

“Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash” orqali o'qituvchi talabalarni to'rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

#### **1 – guruh topshirig'i**

1-bosqich. Sharq falsafasi va madaniyati tarixining asosiy davrlari va o'ziga xos xususiyatlarini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga smal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

## **2 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Sharq va G‘arb falsafasi va madaniyatining o‘zaro ta’sirini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida).

**10 daqiqa.**

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## **3 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Sharq renessansi tushunchasi, mohiyatini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida).

**10 daqiqa**

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

## 4 – guruh topshirig‘i

1-bosqich. Sharq falsafasi va madaniyatining jahon falsafasi va madaniyati, ilm-fani va sivilizatsiya rivojida tutgan o‘rnii va ahamiyatini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida).  
10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faoliyi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

### Guruh bo‘yicha baholash mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.

Har bir talab bo‘yicha – 2 ball

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko‘rgazmalilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faoliyi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					

Guruhsiz №	Umumiy ball				
1.					
2.					
3.					
4.					
Umumiy hisob ballari					
Baho					

**Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun  
tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.–T.: TDSHI, 2006.

### **3-mavzu. QADIMGI SHARQ XALQLARI MADANIYATI**

#### **Reja**

1. Jahon xalqlari madaniyatini o'rganishda «Sharq» va «G'arb» tushunchalarining mazmuni va mohiyati.
2. Sharq va G'arb madaniyati tiplari.
3. Sharq mamlakatlarining rivojlanish xususiyatlari.
4. Qadimgi Sharq xalqlarining jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi.
5. Sharqda ilk davlatchilikning paydo bo'lishi.
6. «Daryo sivilizatsiyalari».

#### **Tayanch tushunchalar:**

*Sharq, Sharq salsafası, Sharq madaniyati, G'arb, G'arb salsafası, G'arb madaniyati, salsafa, Fales, Yunon madaniyati, salsafigi matnlari, ong va tafakkur rivoji, Sharq va G'arb madaniyatları tipları, Sharqda ilk davlatchilik tarixi, Danilevskiy, "Daryo sivilizatsiyalari".*

Insoniyat tarixida ilk sivilizatsiyalar paydo bo'lganiga 6 ming yildan oshdi. Shunday sivilizatsiyalarning eng qadimgilari Misr va ikki daryo oralig'i Mesopotamiyada vujudga kelgan. Avvalo, bular ibtidoiy jamoa tuzumida yaratilgan moddiy va madaniy madaniyat yutuqlarini o'zida aks ettirgan tarzda taraqqiyotning davomi bo'lgan. Ikkinci tomondan, bu yerlarda iqlimi qulay, yeri unumdor bo'lganligidan sug'orma dehqonchilik tez rivojlanib borgan.

Qadimgi Misr madaniyati mil.avv. IV mingyillikdan - mil.avv. 332-yilgacha davrni o'z ichiga oladi. U o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni yozuvni, adabiyoti, san'ati, arxitektura qurilishi bilan ajralib turadi.

Tigr va Efrat daryolari oralig'idagi yerlarning asosiy aholisi shumerlar, akkadlar, vavilonlar, xaldeylar, ossuriyaliklar, xurritlar va arameylardan iborat bo'lgan. Bular orasida Shumer, Bobil, Ossuriya madaniyatları ancha yuk-salgan.

Qadimgi Hindiston va Xitoy madaniyatlarining vujudga kelishi, rivojlanishi ham antik dunyo tarixida o'ziga xos jihatlari bilan ko'zga tashlanib turadi.

Qadimgi Misr ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri sifatida o'ziga xos betakrorligi bilan ajralib turadi. U Afrikaning shimoli-shargida joylashgan. Nil – dunyodagi eng katta daryolaridan biri bo'lib, u Markaziy Afrikadan boshlanib, Misrni kesib o'tib, O'rta yer dengiziga quyiladi. Misr-da ilk dehqonchilikning paydo bo'lishi ham, eng avvalo, shu daryo bilan bog'liq bo'lgan. Qadimdan Misrda tabiatni issiq, hayvonot, o'simlik dunyosi va yerosti boyliklari ko'p bo'lganligi bois, bu yerda moddiy va ma'naviy madaniyat juda erta vujudga kelib rivojlangan. Misrda davlatning paydo bo'lishi mil.avv. IV mingyil-likning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrlarda Nil daryosining shimolida va janubida 40 dan ortiq shahar davlatlari – nomlar paydo bo'lgan. Nomlarni normarxlar boshqarib, ular deh-qonchilik, chorvachilik, sug'orish, harbiy va diniy ishlarni boshqargan-lar. Bular ilk quldarlik davlatlari edilar. Bu davlatchalarning shimoliy va janubiy birlashmalari vujudga keladi. Mil.avv.III minginchi yil boshlarida Janub podshosi Minaning Shimoliy uyushma ustidan g'alaba qili-shi natijasida yagona Misr davlatiga asos solinadi. Uning poytaxti Memfis shahri bo'lgan<sup>11</sup>.

*O'zining Vatani tarixini yozgan kohin Manefon Qadimgi Misr tarixini to'rtga bo'lib: Qadimgi (mil. avv. III minginchi yil), O'rta (mil. avv. III minginchi yil oxiri – II minginchi yil boshlari), Yangi (mil. avv. 1580-1070-yillar), So'nggi (mil. avv. I 1070-332-yillar) podsholik davrlariga bo'ladi. Bu davrlar jami 30 ta fir'avnlar sulolalarini o'z ichiga oladi.*

Qadimgi Misr dunyo sivilizatsiyasining tom ma'nodagi klassik namunasi bo'ldi. Shuning uchun ham, qadimgi yunon tarixchisi Gerodot bu mamlakatni «Nilning in'omi» deb bejiz aytmagani. Bahor oylarida Nil toshqini natijasida daryo bo'ylaridagi yerlarda hosil bo'lgan qora mineralga boy qoldiqlar dehqonchilik uchun «tekin ozuqa» bo'lib xizmat qilgan. Daryo bo'ylarida turli xil granit, marmar kabi toshlarning bo'lishi esa qurilishga yaxshi material hisoblangan.

Misr tarixinining barcha davrlarida hayvonlar, tabiat hodisalari va ota-bobolar ruhiga e'tiqod qilish keng tarqalgan. Shu bilan birga, Misrda

<sup>11</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.  
P. 26.

yagona davlatning vujudga kelishi bilan fir'avn – podsholarga e'tiqod qilish va ularni ilohiylashtirish paydo bo'lgan. Birinchi o'rinda qarchig'ay boshli Quyosh xudosi – Ra yoki Amon-Ra bo'lib, u har kuni oltin qayiqchasida osmonni kezib chiqadi va g'arbgaga tushadi (misrliklar tasavvurida). Misrliklar Quyosh xudosiga atab ibodatxonalar qurganlar.

Xudolar ichida Osiris alohida o'rin tutadi. U avval dehqonchilik ho-miysi bo'lib, eshak boshli, qizil ko'zli yovuz xudo Set tomonidan o'ldirilgan. Osiris narigi dunyodagi podshohlikda shoh va sudya bo'lib oladi. Xudolar misrliklar uchun birgina dunyoni yaratuvchi bo'libgina qolmay, hunarmandchilik, san'at, yozuv, hisob, sehrgarlik va ilm-fanning yaratuvchilari ham hisoblanganlar. Ular iyeroglisidagi yozuvini «Xudoning so'zi» deb tushunar edilar. Bunda so'z va hisob hukmroni, yozuvni yaratuv-chisi, adabiyot va yozuvchilarning, sehrgarlar va tabiblarning homiysi Totu hisoblangan.

Misrda xudolarga sig'inish bilan birga podshoh – fir'avnlarga sig'inish ham alohida o'rin tutgan. Misrliklar Fir'avnni yerdagi xudo deb hisoblashar, shuning uchun ularga atab Piramidalardan qurishgan, ularning nomlarini abadiylashtirganlar.

Qadimgi podsholik davrida papirus qog'ozining tayyorlanishi yozma madaniyatni rivojlantirishga olib kelgan bo'lsa, Misrda mis davrida birinchi bo'lib asalarichilikning kashf qilinishi va yoyilishi ham dunyoviy ahamiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birga, shu davrda dehqonchilik, bog'dorchilik, polizchilik va uzumchilik rivojlangan.

*Qadimgi Misr podsholigi davrida yetakchi madaniyat yo'nalishi – bu arxitektura bo'lib, u boshqa madaniyat turlari bilan uyg'unlikda rivojlandi. Birinchi piramida arxitektor Imxoteb loyihasi asosida Fiza va Joserga atab Sakkarada (mil. avv. III mingyillikda) qurilgan bo'lib, u bo'yi 60 metr, pillapoya shaklida qurilgan. Imxoteb birinchi arxitektor bo'libgina qolmay, ayni chog'da olim, yozuvchi, tabib ham edi. Vafotidan keyin unga atab ibodatxona qurilgan.*

Ikkinchisi Dashurda qurilgan Snofru piramidasi to'rt burchakli shaklda bo'lib, uning bo'yi 100 metr edi. Gizadagi fir'avni Xufu maqbarasi-piramidasi o'zining ulug'verligi bilan ajralib turadi. Mil.avv.XXVII asr boshlaridagi Misr fir'avni Xufu (yunoncha Xeops) maqbarasining bo'yi 150 metr (hozir 146 metr, asosi 233-233 m.) bo'lib, uning qurilishiga og'irligi 2-15 tonnalik 2 mln. 300

mingta tarashlangan tosh ishlatalgan. Piramida 30 yil ichida qurilgan. Xufu piramidasi olamning yetti mo'jisasining biri hisoblanadi. Gizaga yaqin tog' cho'qqisini o'yib tanasi sherni, kallasi odamnikiga o'xhash bo'lган afsonaviy mahluq xaykali, (balandligi 57 metr) yasalgan. U o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Hammasi bo'lib 80 ga yaqin piramidalar qurilgan. Piramidalar Qadimgi Misrning o'ziga xos ramziga aylangan<sup>12</sup>.

Piramidalar qurilishi qadimgi Misr uchun juda qimmatga tushgan va Misr iqtisodini izdan chiqara boshlagan. Shu sababli fir'avnlar mil. avv. XVII asrdan e'tiboran piramidalar qurishdan voz kechganlar.

Arxitektura bilan birgalikda xaykaltaroshlik namunalari ham yaratilgan. Bular jumlasiga fir'avn Narmer (bo'yi – 64 sm), «Qishloq oqsoqoli», «Mirzo Kan», «Shahzoda Raxotep va uning rafiqasi Nofret» kabi toshdan yasalgan xaykalchalarini nisbat berish mumkin.

O'rta podsholik, yoki boshqacha qilib aytganda, klassik davrda qurollar yasashda bronzadan keng foydalana boshlangan. Oyna ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi. Qadimgi, ayniqsa, o'rta podsholik davrida matematika sohasida katta yutuqlarga erishilgan. Jumladan, sanoq tizimi kashf etilgan. Misr yozuvida 1, 10, 100, 1000, 10000, 100000, hatto millionni ham bildiruvchi alohida belgilari bo'lgan. Misr astronomlari yulduzlar, sayyoralar harakatini o'rganib, birinchi yulduzlar osmoni xaritasini tuzganlar. Shunday xaritalar Senmut maqbarasi, Edfu va Dendir ibodatxonalarining shiplarida saqlanib qolgan. Misr astronomlari dunyoda birinchi bo'lib alohida taqvim tuzganlar. Unga ko'ra, bir yil 365 kunni tashkil qilib, u 12 oyga bo'linadi. Har oy 30 kundan iborat bo'lgan. Qolgan 5 kunni esa bayram qilishgan. Qum va suv soatlari ham dastlab Misrda kashf etilgan.

Misrda tibbiyot ham erta rivojlangan. Mil.avv.3600-yilda Memfisda afsonaviy tabib Imxoteb sharafiga maxsus ibodatxona qurilib, u yerda bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatilgan. Geliopolis va Sais shaharlarida tabiblar tayyorlaydigan maxsus maktablar bo'lgan. Tibbiyotga bag'ishlangan asarlar yaratilgan. Tabiblar mumiyolash jarayonida inson a'zolarining ichki tuzilishini yaxshi bilganlar. Ular bemorlarni davolashda terapiya, jarrohlik, ruhiy

<sup>12</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 26.

ta'sir etish usullarini qo'llashgan. Misrda Georg, Zbers, Zdvin, Smit, Brugsha, Zrazistrat, Xerofil kabi mashhur hakimlar shuhrat topgan<sup>13</sup>.

Qadimgi misrliklar geografiya fani sohasida ham dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lganlar. Qadimgi Misr geograflari o'z o'lkalari va Arabiston yarimorolining xaritasini chizganlar. Ularning Arabiston cho'llaridagi oltin konlari joylashgan rayonning xaritasi hozirgacha saqlanib qolgan.

O'rta podsholik davrida adabiyot juda rivojlangan. Bu davrda juda ko'p qo'shiq, ertak va maqollar yaratilgan. O'sha davrda «Ikki og'a-ini haqida», «To'g'ri va egri haqida», «Izida va Osiris haqida» ertaklar, «Sor va Set janjali» nomli afsonalar juda mashhur bo'lgan.

Dunyoda birinchi bo'lib Misrda teatr kashf qilingan. Ibodyonalarda diniy dramalar qo'yilgan. Xususan, teatrлarda Osirisning o'limi va qayta tirilishi ko'rinishlari ijro etilgan.

Yangi podsholik davri Qadimgi Misr tarixida moddiy va ma'naviy rivojlanishning eng cho'qqisi hisoblanadi. Bu davrda misrliklar temirdan foydalanishga o'tganlar, to'qimachilik dastgojni kashf qilingan, yilqichilikni (otlarni ko'paytirish) o'zlashtirganlar. Chig'iriqni va shadufni kashf etilishi polizchilik va bog'dorchilikning rivojlanishiga olib kelgan. Xullas, bu davrda mamlakat iqtisodi tez o'sadi. Bu esa jamiyatning boy tabaqasining yanada boyishiga va san'atning rivojlanishiga olib keldi. Yangi podsholik davrida Misrda fir'avn Tutmos I davridan boshlab «Podsholar vodiysida» fir'avnlari o'zlariga mahobatlari va labirintli maqbaralarni, xaykallarni qurdiradilar. Bularga Amenxotep III va Abusimbedagi Ramzes II g'orli maqbaralari xaykallari misol bo'la oladi. Ayniqsa, Fivada qurilgan Karnak va Luksor maqbaralari arxitektor Ineni boshchiligidagi qurilgan bo'lib, bu yirik arxitektura majmuyi qurilishida baland ustunlar ishlatalig'an<sup>14</sup>.

*Bu davrda ko'p janrli adabiyot ham rivojlanadi. Diniy «Marhumlar kitobi», realizm ruhidagi «Ikki og'a-ini haqida ertak», sevgi haqida «Yurakni rohatlantiruvchi qo'shiq» kabi asarlar yuzaga keldi.*


<sup>13</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 27.

<sup>14</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 27.

Tasviriy san'at va xaykaltaroshlikda fir'avnlarning turmush tarzini aks ettiruvchi asarlar yaratildi. Haykaltarosh Tutmos tomonidan yaratilgan fir'avn Exnaton va uning rafiqasi Nefertiti asarları o'zining betakrorligi, go'zalligi bilan kishilarni hayratga soladi. 1922-yili topilgan Tutanxamon maqbarasidagi (yagona to'la saqlanib qolgan) Misr madaniyatiga taalluqli ko'plab qimmatli yodgorliklar ichida fir'avning mashhur oltindan qilingan niqobi ham bor.

So'nggi Misr podsholigi davrida Misr inqiroz jarayonini boshidan kechirdi. Yagona Misr avval ikkiga, so'ngra mayda davlatchalarga bo'linib ketadi. Misr avval Numibiya, Ossuriya, Eron ta'siriga tushib qoladi va nihoyat, mil.avv. 332-yili Aleksandr Makedonskiy tomonidan egallanadi. Shu bilan Misrning qadimgi davri tugaydi. Qadimgi Misr madaniyatiga kelsak, u hozirga qadar ham yashab kelmoqda. Bu madaniyat jahon madaniyati rivojiga ham katta hissa qo'shdi. Shuning uchun ham, Yunon faylasufi Aflatun Misr madaniyatini «Jami sivilizatsiyalarning onasi»deb bejiz aytmagan.


Shumerlar iqtisodining asosini dehqonchilik tashkil qilgan bo'lib, u sug'orma dehqonchilik tizimi bilan bog'liq edi. Shu bilan birga, chorvachilik ham muhim ahamiyatga ega edi. Unda metallsozlik ham yuqori darajaga erishgan. Mil.avv. III minginchi yil boshlariga kelib, shumerliklar bronzadan mehnat qurollarini yasay boshlaydilar, mil.avv. II minginchi yil oxirlariga kelib esa temir davri boshlanadi. Mesopotamiyadagi katta yutuqlardan biri bu yozuvning ixtiro qilinishi edi. Ilk yozuv mil. avv. IV mingyillikda Janubiy Mesopotamiyada kashf qilingan. Bu yerga ko'chib kelgan shumerlar ham ushbu yozuvni qabul qilganlar. U suratli yozuv bo'lib, so'z suratli rasim orqali ifoda etilgan. Bu fanda iyeroglyph deb nomlangan. Masalan, qush so'zi qushning tasviri bilan, suv so'zi uch qator to'lqinsimon chiziq bilan ifoda etilgan. Ammo suratli yozuv bilan hamma so'zlarni ham ifoda qilib bo'lmagan. Uning cheklanganligi sababli bu yozuv takomillashtirib borilib, mixxat yozushi kashf qilingan. Harflar qotmagan loy lavhalar sathiga o'yib tushirilgan. Harflar 600 ga yaqin belgidan iborat bo'lgan. Bu yozuv keyinchalik butun Janubi-g'arbiy Osiyo xalqlari orasida tarqalgan.



**2-rasm. Qadimgi Mesopotamiya**

Qadimdan Mesopotamiya mirzolari adabiy, tarixiy asarlarni sopol, teri, loy lavhalarga yozib, o'ziga xos kitoblar yaratganlar va kutubxonalarni tashkil qilganlar. Bunday kutubxonalar Ur, Nippur, Nineviya, Bobil, Ashshur kabi shaharlarda mavjud bo'lgan. Ularning ichida eng kattasi Ossuri podshosi Ashshurbanipalning Nineviyadagi kutubxonasi bo'lib, unda 30 mingdan ortiq yozma lavhalar saqlangan.

Diniy-mifologiya bo'yicha Shumer Misrdagidan farq qiluvchi tizimga ega edi. Garchi bu yerda ham shahar hukmdorini Xudoning yerdagi avlodи deb qaralsada, biroq narigi dunyo to'g'risidagi tasavvurlar Misrdagi singari katta ahamiyatga ega bo'lomadi. Kohinlar ham muhim ijtimoiy qatlama sifatida shakllana olmadi. Shumerlarda har bir shahar-davlat o'zining homiysi – Xudosiga ega edi. Shu bilan birga, butun Mesopotamiyada sig'inuvchi umumiy xudolar ham mavjud bo'lgan. Shulardan osmon xudosi – An, yer xodosi – Enlil, suv xodosi – Enki.



**3-rasm. Ashshurbanipol va a'yonlar**

Moddiy madaniyat sohasida Shumerda arxitektura qurilishi sohasi muhim o'rin tutgan. Bu yerda xom g'isht kashf qilingan bo'lib, ulardan ibodatxona (xram)lar – olti, yetti qavatlari zikkuratlar qurilgan. Ularning orasida eng taniqlisi Ur shahridagi «Xram-tog'i» (mil.avv.XXII-XXI asrlar) edi. Zikkuratlar observatoriya vazifasini ham bajarganlar. Omon jismlari harakatini kuzatish bilan astronom kohinlar shug'ullangan. Qadimgi Mesopotamiya astronomlari Quyosh va Oy tutilishini oldindan bilganlar. Ular Quyosh yili 365, Oy yili 354 kunligini aniqlab, shu asosda astronomiya taqvimini tuzganlar.

Haykaltaroshlik sohasida kichik hajmdagi xaykalchalarni ibodatxonalar uchun yasalgan. Misol uchun, Lagashdagi ayol xaykalchasida (bo'yi 26 sm.) etnik qiyofa belgilari ham namoyon qilingan. Bu davrga taalluqli misdan yasalgan Sargonning boshi tasvirlangan xaykalchada podshoning botirligi, kuchli irodasi va qahrli xarakteri ifoda qilingan.

Shumerda badiiy adabiyot rivoji yuqori darajaga ko'tarilgan. Noyob asarlar jumlasiga «Dehqonchilik almanaxi», «Gilgamesh haqida doston» kirib, unda Gilgamesh va Enkidularning do'stligi, qahramonliklari va sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.

Mil.avv.III minginchchi yil oxiriga kelib Shumerning inqirozga uchrashi tufayli uni Bobil bosib oladi. Bobil tarixi ikki davrga bo'linib, Qadimgi davri mil.avv.II mingyillikning birinchi yarmini va yangi davri mil.avv. I mingyillikning o'rtalarini o'z ichiga oladi<sup>15</sup>.

Qadimgi davrning eng cho'qqiga chiqqan vaqtini podsho Xammurapi (mil.avv.1750-1732–yy) hukmronlik qilgan yillarga to'g'ri keladi. Xammurapi yirik davlat tuzib, bu davlatni o'zi tuzgan qonunlar asosida boshqargan. Xammurapi to'plami mixxat yozuvida bazalt tosh ustuni sathida bitilgan. Qonunlar to'plami 282 moddadan iborat bo'lib, u kirish, qonunlar va xulosadan iborat. Kirish qismida qonunlarni chiqarishdan asosiy maqsad mamlakatda adolat o'matishdan iborat, deb ko'rsatilgan. Unda podsho ulug'lanib, ko'klarga ko'tarilgan. Qonunlarda xususiy mulk himoya qilingan. Jumladan: agar kimki ibodatxonanining yoki podshoning mulkini o'g'irlasa, u o'ldirilishi lozim; o'g'irlangan molni olgan kishi ham o'ldirilishi kerak... Xammurapi qonunlari o'z davrining muhim tarixiy, yuridik hujjati hisoblanadi. Balandligi 2 m bazalt ustunida Xammurapining tik turgan holida kursida o'tirgan Quyosh va

<sup>15</sup> Qurang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 8.

adolat xudosi Xamash qo‘lidan hokimiyat belgisi – tayoqni olayotgan holati tasvirlangan. Bu jihatdan u tasviriy monumental asar hamdir.

Yangi Bobilning gullab-yashnashi podshoh Navuxodonosor (mil.avv.605-562-yy) davriga to‘g‘ri keladi. Uning davrida dunyoning yetti mo‘jizasidan biri «Semiramidaning osma bog‘lari» qurilgan bo‘lib, uni sevgi ramzi deb ham atashadi. Shu davrga mansub «Bobil minorasi» (balandligi 90 m) – zikkurati o‘z davrining eng ulkan arxitektura inshooti bo‘lgan. Bu minorani Gerodot ko‘rib hayron qolgan. Minoran to‘g‘risida Bibliyada ham eslatib o‘tiladi.

Qadimgi Bobilda matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot, tarix va boshqa fanlarga qiziqish erta boshlangan. Yerlarni o‘lchash, masofani aniqlash, hosilni hisoblash va savdo-sotiq ishlarni yuritish uchun matematika va geometriya kerak bo‘lgan. Bobilliklar son va sanashni bilganlar. 100 va 1000 liklar alohida belgi bilan ifoda etganlar, hatto doiraning 360° ekanligini aniqlaganlar.

Mesopotamiyada qadimdan boshlab maktablar vujudga kelgan bo‘lib, ularda o‘ziga to‘q oilalarning farzандлари ta’lim olgan. Maktablarning quyи sinflarida adabiyot, til, grammatika fanlari o‘qitilgan. Yuqori sinflarida esa astronomiya, matematika, geometriya, tibbiyot va veterinariya hamda diniy darslar o‘tilgan. Maktablar davlatni boshqarish uchun xodimlar tayyorlagan.

Mesopotamiyadagi uchinchi kuchli davlat – Ossuriya edi. Ossuriya mil.avv.III mingyillikda tashkil topib, mil.avv.II mingyillikning ikkinchi yarmida gullab yashnadi. Ossuriya yaqin Sharqda savdo yo‘llarining kesishgan joyida joylashganligi sababli tez orada kuchli davlatga aylandi. Ossuriya madaniyatida yetakchi o‘rinni arxitektura egallardi. Arxitektura obidalari ichida eng kattalari Dur-Sharrukinda qurilgan podsho Sargon II ning saroy majmuyi va Nineviyadagi Ashshurbani-palning saroyidir. Mazkur saroy devorlarida xaykallar tasviri (hayvonlar) aks ettirilgan. Ossuriyada saroy devorlarida podsho hayotidan lavhalar va tabiat ko‘rinishlarini aks ettirish avj olgan. Masalan, podsho Ashshurbanipalning Nineviyadagi saroyining devorlarida «Katta sherlar ovi» tasvirida yaralangan, o‘layotgan va o‘lgan shermarning holatlari ustalik bilan aks ettirilgan<sup>16</sup>.

Yuqorida qayd qilinganidek, Mesopotamiyada ko‘p xudolik mavjud bo‘lib, Oy xudosini shumerliklar – Nishar, akkadliklar esa Sin

<sup>16</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 22.

deb ataganlar. Quyosh xudosini shumerliklar – Utu, akkadliklar esa Shamash deb nomlaganlar. Venera sayyorasi xudosini shunierlar – Ianni, akkadliklar o‘z ma’budasi Ishtar bilan taqqoslaganlar. Dastlab qurbanlikka odamlar so‘yilgan, keyinchalik qo‘y va qo‘zilar qurban qilingan.

Xulosa qilib aytganda, bu o‘lkada tabiiy iqlimning qulayligi, yerosti boyliklarining mavjudligi, geostrategik joylashuvning mosligi – bular boshqa o‘lkalarga nisbatan ertaroq sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning vujudga kelishiga hamda rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Moddiy madaniyatning rivojlanishi esa ma’naviy madaniyat rivojlanishiga olib keldi. Ilk davlatlarning vujudga kelishi bilan esa madaniy taraqqiyot darajasi yanada tezlashdi. Natijada Mesopotamiya ilk sivilizatsiya beshiklaridan biriga aylandi.

Hindiston haqli ravishda qadimgi Sharqning yuksak madaniyatli mam-lakatlardan biridir. Hindiston yarim oroli qadimdan tabiiy rang-baranglik, boy o‘simplik, hayvonot va qimmatbaho yerosti boyliklariga ega bo‘lgan. Yarimorolda sersuv Hind va Gang kabi daryolar mavjud.Mil. avv. V mingyillikning oxiri - IV mingyillikdan boshlab Hind daryosi vodiysida sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik shakllangan. IV mingyillik o‘rtalariga kelib bu joyda o‘ziga xos eng qadimgi hind madaniyati vujudga kelgan. Dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik, savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida qishloq va shaharlar paydo bo‘lgan. Nihoyat, Hind daryosi va uning Panjob viloyatida qadimgi davlatlar yuzaga keladi. Bu davlatlarning Mohinjo-Daro, Xarappa kabi katta shahtarları bo‘lgan. Mohinjo-Daro hozirda Pokiston hududida joylashgan bo‘lib, shaharning maydoni 270 gettardan iborat. Bu yerdan arxeologlar ko‘chalar, pishiq va xom g‘ishtdan qurilgan turarjoylar, saroylar, omborxonalar, ibodatxonalar va podsho qarorgohining qoldiqlarini topishgan. Shaharda pishiq g‘ishtdan qurilgan suv tarmog‘i va kanalizatsiya ham bo‘lgan. Badavlat kishilarning uylari, shuningdek, ibodatxonalar 2-3 qavatli qilib pishiq g‘ishtdan 4,5 ming yil avval qurilgan<sup>17</sup>.



4-rasm. Hind falsafasidagi karma ramzi

<sup>17</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 30.

Xarappa shahridan arxeologlar 500 ga yaqin yodgorliklar topishgan. Shahar qurilishi Mohinjo-Daro bilan deyarli bir xil. Shaharda me'morchilik, to'qimachilik, kulolchilik, toshtaroshlik, zargarlik, qurolsuzlik ancha rivoj topgan. Xarappaliklar o'zlarining iyerogrif yozuvlariga ham ega bo'lган. Ikkala shaharda ham yirik g'alla omborlari topilgan bo'lib, bu davlatni markazlashganlik darajasini ko'rsatadi. Hindilar dunyoda birinchi bo'lib paxtadan mato to'qib, kiyimlar tikkanlar, chunki shahardan kiyim tikish, qurolsuzlik ustaxona qoldiqlarni topilgan. Xarappa suv yo'li va quruqlik orqali shumerlar bilan savdo aloqalari olib borgan ilk quidorlik davlati edi. Mil.avv.II mingyillik o'rtalaridan boshlab Eron va Turon orqali Hindistonga ko'chmanchi, chorvador oriy qabilalari bostirib kiradi. Ular Gang va Panjob daryo vohalarining unumdar yerlariga kelib o'mashganlar va keyinchalik mahalliy xalq bilan aralashib ketganlar. Oriylar bilan mahalliy xalq o'rtaсидаги qonli janglar hindlarning xalq og'zaki ijodiyoti namunalari bo'lган «Mahabxarat» va «Ramayana» dostonlarida ham aks ettirilgan.

Hindlar o'zlarining qadimiylar yozuvlariga ega bo'lганlar. Ularda astronomiya va matematika ham ancha rivoj topgan. Hindlar quyosh va suv soatlaridan foydalanganlar, o'zlarining taqvimlarini tuzganlar. Xalq og'zaki ijodining yuksak namunasi – Vedalar, gimnlar, qo'shiqlar, afsunkor va diniy duolardan iborat to'plam tuzilgan. Vedalarda hayat va o'lim masalalari bo'yicha fikr yuritiladi. Bu ta'limotga ko'ra, jon doimo bo'ladi va u kishi vafotidan keyin boshqa tanaga o'tadi. Hindlarning Veda ta'limoti inson mutlaq jon bilan qo'shilishi, o'z jonini boshqara olmasligi, bu juda qiyin bo'lishiga qaramay, uning mumkinligi to'g'risida fikr-mulohaza yuritiladi. Ana shu ta'limot asosida yoga harakati kelib chiqqan.

Vedalarda qadimgi Hindiston aholisining varnalarga (kastalarga) bo'linishi haqida ham ta'limot bor. Shu ta'limot asosida qadimgi diniy e'tiqod, Braxmanizm paydo bo'lган. Braxmanizm qadimgi diniy e'tiqodlardan biri bo'lib, mil. avv. IX-VIII asrlarda vujudga kelgan. Bu e'tiqodga ko'ra, Xudo Braxma olamni va odamni yaratgan deb hisoblangan. Hind ruhoniylari braxmanlar deb atalganlar. Braxmanlarning



5-rasm. Hinduylilik ramzi

ta'kidlashicha, xudo odamlarni o'z tanasining turli qismlaridan yaratgan. Xususan, xudo o'z og'zidan braxmanlarni; qo'llaridan kshatriilarni – jangchi, rojalarni; sonlardan vayshoqlar – hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlarni; loyga belangan oyoqlardan esa shudralar, ya'ni xizmatkorlarni yaratgan deb ta'lif beriladi. Shulardan keyin esa eng past toifa – hazar qilinadiganlar yaratgan. Shunday qilib, braxmanlar ta'limotiga ko'ra, xudo odamlarni turli toifalarga – kastalarga bo'lib, bola qaysi kastadan tug'ilgan bo'lsa, u umr bo'yil o'sha toifada qolishi kerak bo'lgan. Toifalarni aralashib ketishiga yo'l qo'yilmagan<sup>18</sup>.

Mil. avv.VI asrda Hindistonda buddaviylik dini paydo bo'ladi. Bu ta'limotning assoschisi Gautama Shakyamuni. U shimoliy Hindistonda mil. avv. 566-476 yoki 563-473-yillari yashagan. Buddha so'zi sanskritcha oliv bilimlarni egallagan, haqiqatga erishgan ma'nosini bildiradi. Buddaviylik braxmanizmdagi odamlarni kastalarga bo'linishini qoralab, jamiyatdagi barcha kishilar teng bo'lishini e'tirof etadi.

Buddaviylik ta'limotij to'rt haqiqatda o'z ifodasini topgan:

1. Inson hayoti – iztirob, azob-uqubatlardan iborat;
2. Iztirob, azob-uqubatlar sababi – kishilarning istaklari va nafslaridir;
3. Iztirob, azob-uqubatdan qutilish uchun kishilar o'zlarining istak va nafslarini tiyishlari kerak;
4. Iztirob, azob-uqubatlardan xalos bo'lish uchun Buddha kashf etgan qoidalarga amal qilishi kerak.

Buddaviylik ta'limoti asosida boshqa odamlarga nisbatan yaxshi insoniy munosabatda bo'lish, boshqa tirik mavjudodga nisbatan zo'ravonlik ish-latmaslik, ayniqsa, o'ldirishni man etish g'oyasi yotadi. Demak, inson axloqida guumanizm asosiy o'rinni tutadi.

Mil.avv.III asrda podsho Ashoka tomonidan buddaviylikning qabul qilinishi bilan, u davlat diniga aylandi. Buddaviylik dinining nodir bir tomoni bu, boshqa dinlarga nisbatan murosasizlik qilishdir.

Milodiy I asrda Buddaviylik Markaziy Osiyo orqali Xitoya, Xitoydan Koreya, Yaponiya, Mo'g'iliston va Tibetga tarqaladi.

Mil.avv.III-II mingyllikkardayoq Hindistonda hisobning o'nli tizimi tarkib topgan edi. Shuningdek, nolni bildiradigan belgi birinchi

<sup>18</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 31.

Hindistonda ishlataligani. Bu yangilikni dunyoga ommalashtirgan siymo bu buyuk vatandoshimiz al-Xorazmiyidir.

Tabobat olamida hind arboblari kasallikni aniqlash va uni davolashda katta yutuqlarga erishganlar. Davolashda ishlataladigan dori-darmonlar 1000 ga yaqin bo'lib, silash, uqalash, vanna qilish, jarrohlik usullaridan keng foydalanganlar. Hind kimyogarlari bo'yoq va turli kimyoviy moddalarni kashf etganlar. Hindiston shaxmat o'yinining vatani hisoblanadi.

Me'morchilikda ham katta yutuqlarga erishilgan. Hind ustalari g'isht va boshqa buyumlardan ajoyib imoratlar, saroylar qurbanlar. Mil.avv. II – mil. VII asrlarda Bombey yaqinida tog'ni o'yib, 29 ta budda ibodatxona, ya'ni Ajanta majmuasi bunyod etilgan. Bu dunyo madaniyatida arxitektura, xaykaltaroshlik va tasviriy san'atning o'ziga xos sintezi hisoblanadi. Chunki uning qurilishida yuqorida ko'rsatilgan san'at turlarining hammasidan foydalaniilgan. Mil.avv. 950 va milodning 1050-yillari davomida Chandellas sulolasi davrida qurilgan Vxodjuraxo – ertaksifat sevgi bayrami ibodatxonasi o'zining ajabtovor ko'rinishi jihatidan qovunga o'xshaydi. Hindlar o'sha davrdayoq xaykaltaroshlik sohasida o'zining nozik did, ulug'vorlik va insonparvarlikni tarannum etuvchi, kishini hayratga soluvchi asarlarni yaratganlar. Bularga xudo Vishna (Krishna) va Shiva timsolidagi xaykallarni nisbat berish mumkin.

Hind madaniyati O'rta Osiyo, Xitoy singari qo'shni mainlakatlar xalqlari ma'naviy hayotiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Shunday qilib, qadimgi Hindiston madaniyati jahon sivilizatsiyasining qadimgi beshiklaridan biri sifatida shuhrat topib, u jahon madaniyati rivojiga o'z samarali ta'sirini ko'rsata olgan.

Xitoy Markaziy va Sharqiy Osiyodagi eng qadimgi davlat. Tabiatli keskin o'zgaruvchan va mo'tadil. Markaziy Xitoy tog'laridan boshlanib Tinch okeani havzalariga quyiladigan Xuanxe (Sariq daryo) va Yantszi daryolari Sharqiy Xitoy pasttekisligi orqali oqib o'tadi. Yog'ingarchilik vaqtlarida Xuanxe daryosi toshib, ko'plab tashvishlar keltirganligi uchun unga xitoyliklar «Tentak daryo», «Xitoening sho'ri», «Ming xil kulfat keltiruvchi daryo» deb nom berishgan. Shu daryolarning bo'ylaridagi yerlar unumdar bo'lib, ilk dehqonchilik vujudga kelgan. Bu o'lka qadimdan o'simliklar va hayvonot olamiga boy, yerosti qazilma boyliklari ham mashhur bo'lgan.

Xitoy sivilizatsiyasi mil.avv.3-mingyllik oxirida shakllandi. Xitoy tarixini birinchi bo'lib, tarixchi Sima Szyan 30 bobdan iborat «Tarixiy xotiralar» asarida yoritilgan sulolaviy davrlarga bo'lgan. Qadimgi Xitoyda ko'hna Mesopotamiya va Misr singari qadimiy o'ziga xos madaniyat yaratilgan.


Xitoyliklar Shan sulolasi davrida (mil.avv.2-minginchi yil o'rtalarida) o'z yozuvini yaratganlar. Bu yozuv bir necha o'n ming belgi-iyerogliflardan iborat. Milodning I asrigacha bu iyerogliflar hozirgi yozuv ko'rinishiga ega bo'ldi<sup>19</sup>. Qadimgi Xitoy yozuvi asosida keyinchalik Koreya, Vietnam va Yapon yozuvlari paydo bo'ldi.

Chjou davrida Xitoyda metall tangalarni (dunyoda birinchi marta) muomalaga chiqarildi. Dengizlarda suzish uchun kompas ixtiro qilingan (uning strelkasi Shimolni emas, Janubni ko'rsatgan). Dunyoda birinchi bo'lib, Xitoyda porox ixtiro qilingan bo'lib, undan bayramlardagi mushakbozlikda foydalanilgan. Artilleriya, miltiq, arbalet-miltiqlar ham dastlab Xitoyda yaratilgan.

Mil. avv. I asr oxiri va yangi asr arafasida xitoyliklar latta, po'stloq va bambuk aralashmasidan qog'oz tayyorlaganlar. Qog'oz yog'och, bambuk va shoyiga qaraganda arzon bo'lib, u yozish va saqlash uchun qulay hisoblangan. Qog'ozning ixtiro qilinishi maorif, fan, madaniyatning rivojlanishi va davlat ishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Buyuk Xitoy devori qurilishi mil. avv. IV asrda boshlanib, bir necha asrlar davomida shimoldagi Xunn-qabilalarining hujumiariidan saqlanish va savdo-sotiq ishlarini ko'zlab qurilgan. Devor Leodun qo'ltig'i qirg'og'idagi Shayxayguan shahridan boshlanib, g'arbda Dunxuan qal'asigacha davom etgan. Devorning umumiy uzunligi 5.000-6.000 km, uning balandligi joyiga qarab 6-10 metr, qalinligi 5,5-7 metr bo'lib, soqchilar uchun har 100-200 metrda mustahkam baland burj va minoralar qurilgan.

Xitoy ajoyibotlaridan yana biri, bu ipakning kashf etilishi va Buyuk ipak yo'liga asos solinishidir. Imperator rafiqasi Si-Lingchi tomonidan mil. avv. 2600-yili ipakning kashf etilishi va mil.avv.128-yili



6-rasm. In va Yan  
ramizi

<sup>19</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 55.

Xitoy sayyohi-diplomati Chjan-Szyan tomonidan Buyuk ipak yo'liga asos solinishi katta tarixiy o'zgarish bo'lgan.

Buyuk ipak yo'li birgina savdo-sotiq bilan cheklanibgina qolmay u ayni paytda diplomatiya, diniy va ma'naviy qadriyatlarni tarqalish yo'li ham edi. U Sharq va G'arb sivilizatsiyasini bog'lovchi yo'i bo'lib, unda Markaziy Osiyo xalqlari vositachilik rolini o'ynaganlar.

Shuningdek, badiiy madaniyat Bobil, Misr, Hindistonda dinga tobelik xususiyatiga ega bo'lgan bo'lsa, Xitoyda badiiy asarlar ko'proq dunyoviy yo'nalishga ega bo'lgan. Masalan, Konfutsiy ta'llimotiga ko'ra «Shi szin»ga («Qo'shiqlar kitobi»ga) madhiyalar, xulq va urf-odatlar masalalari kiritilgan. She'r iyat lirikasida va tasviriy san'atda tabiat go'zalligi har bir kishiga tushunarli tarzda hayotiy, zavq beruvchi tarzda tasvirlangan. Haykaltaroshlar dimog'dor amaldor, laganbardor xizmatchi va holdan toygan qullarning og'ir mehnatini mahorat bilan aks ettirganlar.

Qadimgi Xitoy tabiblari kasallik va jarohatlarni davolashda uqalash, igna sanchib davolashdan, o'simlik va hayvonlardan hosil qilinadigan dorilardan, xususan, jenshen, kiyik shohidan olinadigan panti, choy va boshqa dori-darmonlardan keng foydalanganlar. O'sha davrdayoq Xitoy tibbiyotida mingdan ortiq dorilar bo'lgan. Qadimgi Xitoy tabiblari ichida Va Shu Xe, Ban Sio va Xua Tu lar mashhur bo'lgan. Van Shu tibbiyotga oid «Ney-Szin» («Odam tabiatini va hayoti»), Ban Sio esa «Qiyinchilik haqida kitob» kabi asarlar yozganlar.

Bulardan bittasi Konfutsiylik bo'lib, uning asoschisi Kun Futszi yoki Kun-tszu edi. U mil. avv. 552-yilda zodagon oilada tug'ilgan bo'lib, 15 yoshidan o'zi mutolaa qilib, ma'lumot olgan. Uning ta'llimotida qadimgi urf-odatlar va ularga to'la rivoja qilish muhim o'rinn tutadi. Hammaning ularga amal qilishi jamiyatni halokatdan qutqarib, uni gullab-yashnashiga olib keladi deb uqtiriladi. Davlat to'g'risidagi ta'llimotda «... agar podsho haqiqiy podsho o'mida bo'lsa, fuqarolar – fuqaro o'mida, ota – ota, ona – ona o'mida, bola – bola o'mida bo'lsagina davlat gullab-yashnaydi» deyiladi. Agar davlat o'z nomiga munosib bo'lsa, unda yetarlicha oziq-ovqat, yetarlicha qo'shinlar bo'lishi va unga ishonch bo'lishi zarurligi ko'rsatiladi.

Konfutsiylik ta'llimoticha insonparvarlik, odob, yuksak fazilat tufayli jamiyat rivoj topadi, adolat tantana qiladi. Burchni ado etish tufayli inson kamolotga erishadi. Uning negizida quyidagi hayotiy tamoyillar yotadi:

1. «Sen o'zing nimaga erishishni istasang, unga boshqalarning ham erishishiga ko'maklash»;

2. «Sen nimani orzu qilmasang, uni boshqalarga ham ravo ko'rma».

Konfutsiy mil.avv. 479-yili 72 yoshida vafot etgan. Uning ta'limoti Xitoyda va uning tashqarisida hozirgacha ham mashhurdir. Xitoyning Syuyfu shahrida dunyoga mashhur «Konfutsiy yodgorlik majmuyi» bunyod etilgan (mil. av. 56 – mil. 1911 yy).

Ikkinchisi, Daosizm ta'limoti, Dao – xitoycha aql bilan bilib bo'l-maydigan hayotiy butunlik, «Qonun», «Yo'l» ma'nosini bildiradi. Uning asoschisi – Lao-Szi (mil.av.VI-V asrlar) bo'lib, uning taxallusi «Dono qariya» bo'lgan. Daosizm ta'limotining markazida tabiat, koinot, inson turadi. Dao – ko'rinishlarga ega bo'Imagan tanasiz, absolut kuch. Dao hamma narsalarni, shu jumladan, dunyonı yaratgan. Dao bo'yicha dunyo doim harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi. Daosizm «Dao»ga rioya qilish insonga «O'z tabiatini butunlikda saqlab qolishga» imkon beradi, deb da'vat etadi<sup>20</sup>.

Qadimgi Xitoyda adabiyot ham ancha rivoj topgan. Avvalo, xalq og'zaki ijodi, keyinchalik yozuvning kelib chiqishi bilan yozma adabiyot ham rivojlangan. Jumladan, xalq qo'shiqlari asosida «Shitszin» to'plami, tarixiy, falsafiy «Chun-tsyu» (Bahor va kuz) kitoblari diqqatga sazovor.

Qadimgi Xitoy tarixchilarini ichida mil.avv. 145-90-yillarda yashagan Sima Szyan mashhur bo'lib, yuqorida qayd qilingan «Tarixiy xotiralar» asarini yozgan. Unda Xitoyning eng qadimgi davridan II asrgacha bo'lgan davri yoritilgan. Milodiy 32-92-yillarda yashagan Ban Gu o'zining «Xan podsholigi tarixi» asarini yozgan.

*Mil. avv. XII-VI asrlarda Xitoyda dunyoni misflar orgali tasavvur qilishdan falsefiy mushohada qilishga o'tiladi. Falsefa o'zining «oltin asr» deb nomlangan o'sha davrning cho'qqisiga chiqadi. Falsefiy qarashlar ichida ikkitasi muhim ahamiyatga ega.*

Qadimgi Xitoyning kulolchilik mahsulotlari, ayniqsa, chinni buyumlar hozirgacha o'zining nafisligi, betakrorligi, pishiqligi bilan

<sup>20</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 60.

ajralib turadi. Ularda ishlatilgan rang, tanlangan manzaraning go'zalligi kishini hayratda qoldiradi.

III asrga kelib yagona Xan podsholigining Vey, Shu va U kabi mayda uchta davlatlarga bo'linib ketishi bilan Qadimgi Xitoy davri tugaydi va o'rta asrlar davri boshlanadi.

Shunday qilib, Qadimgi Xitoy o'ziga xos betakror madaniyat bilan jahon madaniyatini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Uning ta'siri, ayniqsa, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida kuchliroq aks etdi.

O'rta Osiyo ham ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lib, uning moddiy va ma'naviy madaniyatining boshlanishi va rivojlanishi paleolit, eneolit, bronza davrlarida sodir bo'lib borgan.

Qadimgi madaniyatning tasviriy san'at namunalarini O'zbekistonning janubida Zarautsoy yonidan topilgan toshga chizilgan rasmlar, chunonchi, o'sha davrdagi ov manzarasi misolida tasavvur etish mumkin.

Eneolit va bronza davrlarida (mil.avv. IV-II ming yillar) sopol buyumlar, bronzadan, suyakdan mayda murakkab qurollar yasaladi va bu jarayon asta-sekin moddiy madaniyatning yuksalishiga olib keladi.

Mil.avv.2 minginchi yil oxiri -1 mingyilliklar boshlarida O'rta Osiyoda muhim tarixiy etnografik voqealar sodir bo'ladi: Baqtriya, Sug'd va Xorazm kabi tarixiy-madaniy hududlar, qadimgi baqtriyaliklar, xorazmliklar, sug'dlar, saklar singari etnik qavmlar shakllanadi. Shu etnoslar asosida Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya, so'ngra Sug'd, Qang'a, Parkana davlatlari vujudga keldi. Shu davrda Midiya mixxat yozuvi asosida Xorazm, Baqtriya, Sug'd, O'rxun-Enasoy yozuvlari paydo bo'ldi va mintaqada xalq og'zaki ijodi bilan birligida yozuv madaniyati rivojlandi.

Biz uzoq ajdodlarimiz to'g'risida asosan «Avesto»da, ko'proq yunon tarixchilari Gerodot, Polien, Kvint Kursiy Ruf, Rim adibi Yustinning, Pompey Trog, Plutarx, Arrian, Diodot asarlarida ma'lumotlarni uchratamiz.

Mil.avv. 529-329-yillar O'rta Osiyo Eron Ahmoniylari tobelligida bo'lishiga qaramay mintaqaning moddiy rivojlanishi o'ziga xos yo'ldan bordi. Shu bilan qadimgi davrdagi O'rta Osiyo madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga Eron, Ellin, Hind madaniyatlarining ta'siri va ularni o'zaro bir-biri bilan boyib, rivojlanib borish

jarayoni ham muhim o'rin tutdi. Buyuk ipak yo'lining kuchli ta'siri o'larq mintaqaviy, qit'alararo madaniy aloqalar kuchayib bordi.

Shahar madaniyatining (arxitektura, xaykaltaroshlik, tasviriy san'at) gullab-yashnashida Ellinizm madaniyatining ta'siri kuchli bo'ldi. Masalan, to'g'ri chiziqli, to'rtburchakli uylar, Ark (ustunli), hammomlar qurilishi bizga Yunonistondan kirib kelgan. Numizmatika sohasida Yunon-Baqtriya davlatida chiqarilgan noyob metall tangalar bizgacha yetib kelgan.

Haykaltaroshlik va tasviriy san'atda O'rta Osiyo, Yunon va Hind uslublari qo'shilib, buning samarasida Kushonlar va Eftaliylar davlatlarida noyob asarlar yaratilgan. Bularga «Musiqachi ayollar», Varaxsha, Xolchayontepa kabi joylardan topilgan tasviriy san'at namunalari misol bo'la oladi. Ko'p xudolikdan yakka xudolikka o'tish davrining birinchi dunyoviy dini – Zaroastrizm (Otashparastlik) va uning ilohiy kitobi (21 kitobdan iborat) «Avesto» vatani Qadimiy Xorazm hisoblanadi. Kitobda tilga olingan hududlar orasida eng e'zozlangani – «Ayryanam Vaeju» o'troq qabilalar, chorvadorlar yashagan keng sayhonlar, daryo va ko'llar, tog'lar yon bag'rida joylashgan Xorazm o'lkasidir. Xorazmliklarning «Lazgi», «Norim-norim», «Orazibon» kabi jozibali raqlari ham zardushtiylarning ming yillar davomida takrorlanib kelayotgan marosim (ritual) raqlarini eslatadi. Xorazm hofizlarining «Dugoh», «Segoh», «Chorgoh», «Panchgoh» kabi qo'shiqlari ham ma'lum ma'noda qadimgi ajdodlarimizning «Goh» va madhiyalariga o'xshab ketadi.

Zardushtiylik dinining payg'ambari Zardusht ibn Sofit Tumon 628-yil-da Midianing Ragi shahrida yashagan kohin Purushasp (Sofid ibn Tumon) va uning xotini Dugdovadan dunyoga kelgan. Onasi xorazmlik sarbon Faroximning qizi bo'lgan. Zehni o'tkir, ko'plab dunyoviy va diniy bilimlarni egallagan Zardusht yangi dunyoviy ilmga asos soladi. Bu ta'limotning bosh xudosi – Axura-Mazdaga sig'inishni targ'ib qila boshlaydi. Axura-Mazda olamni yaratuvchi, yorug'lik, farovonlik, sihat-salomatlilik, tinchlik kabi yaxshi ezgu niyatlar xudosi. Uning aksi o'laroq, Axriman esa zulmat, urush, o'lim kabi qabihliklar xudosidir. Zardushtiylik dinida olov nihoyatda mu-qaddas sanalgan. Quyosh yorug'lik manbayi bo'lib, olov uning bir qismi hisoblangan. Quyosh nuri barcha birliklar manbayidir (haqiqatdan ham shunday).

Zardushtiylikda Ahuramazdan tashqari Mitra, Farna, Nohid (Anaxita), Mirrix, Xutbi kabi xudolar ham tilga olingan. Mitra-Quyosh va yorug'lik xudosi. U jangovar yigit siy whole tasvirlanadi. Farna mahalliy aholi tilida Xumo ba'zan Anqo nomi bilan yuritilgan. U baxt va tole ma'budasi. Nana yoki Nohid hosildorlik va farovonlik ma'budasi. U bir qo'lida anor yoki olma tutgan go'zal ayol qiyofasida tasvirlanadi. Mirrix – urush va g'alaba xudosi, harbiylar madadkori bo'lib, qurollangan jangchi qiyofasida aks etadi. Xutbi – suv xudosi, qayiqchilar va miroblar homiysi, zabardast yigit siy whole tasvirlanadi.

Bu dinda, olov, tuproq, suv va havo kabi to'rt unsurni iflos qilish yoki tahqirlash eng katta gunoh hisoblangan. «Avesto»da xalq tabobati, odobi, estetikasi, sog'lom turmush tarzi o'z ifodasini topgan. Unda har bir inson ezgu fikr, odil so'z va halol mehnat bilan yashashi zarurligi ko'rsatilgan.

Zardushtiylik dinidagi quyidagi tamoyillar boshqa dunyoviy dirlarda ham o'z aksini topgan. Bular:

1. 5 vaqt xudoga sig'inish;
2. Narigi dunyo to'g'risida;
3. Odamlarning ruhlarini jannat va do'zaxga ajratuvchi qil ko'priq haqida;
4. Oxirat haqida;
5. Sog'lom turmush haqida;
6. Tabiatni e'zozlash va unga to'g'ri munosabatda bo'lish haqida...

Zardushtiylik dini o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy hayot va adolatni himoya qiluvchi din sifatida shakllangan. Shu sababli u Turon, Eron va Xurosonda keng tarqalgan. Jumladan, Eron Kayoniylari sulolasi Gushtasp davrida zardushtiylik davlat dini sifatida tan olingan. Gushtasp mamlakatda ko'plab otashkadalar qurdirgan, Avestoni oltin taxtachalarga yozdirib, markaziy ibodatxonalarga qo'yishni buyurgan. Eronda sosoniylar sulolasi davrida «Avesto» 21 ta kitob shaklida to'la holda yozilgan va podshoning kutubxonasida saqlangan. Kitoblar sanskrit tilida, 48 harfdan iborat pehlaviy yozuvida bitilgan. Uning to'la qismi Aleksandr Makedonskiy bosqini davrida uning qo'liga tushgan va 3/5 qismi yo'q qilingan. Chunki bunday dini, ma'naviyati yuqori bo'lgan xalqlarni tobe qilish oson bo'lmasligini bu jahongir fotih tushunib yetgan edi.

«Avesto»ning bizgacha yetib kelgan «Yasna», «Vidavdat», «Visparat», «Yasht» duo-yu tadbirlar, qo'shiqlar, madhiyalardan iborat qismlari milodning III-VII asrlarida qayta yozilgan.

Qadimgi davrda O'rta Osiyoda ko'pdinlik mavjud bo'lgan. Chunonchi, bu hududda buddaviylik, moniylik, shomonlik, nasroniylik dirlari hukm surgan. Bu dirlarga sig'inuvchilar o'rtasida bir-birlarini hurmat qilish, diniy bag'rikenglik tenglik amalda bo'lgan. Bu esa kishilar ongida baynalmilallik hislarini shakllantirishda muhim omillar bo'lib xizmat qilgan.

Markaziy Osiyoning tub xalqlari tabiatida boshqa millatlarning vakillariga nisbatan kengfa'llik azalda mavjud bo'lib kelgan. Bu sofinsoniy tuyg'u, masalan, o'zbeklarda shu qadar rivojlanganki, milliy-ma'naviy kengfa'llik, toqatlilik ularning umumiyligi madaniyati va ruhiyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan.

Shunday qilib, Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy kabi O'rta Osiyo ham jahon ilk sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblanadi. Chunki bu yerda ham juda qadimdan boshlab jahon madaniyati va ma'naviyatining bebahos durdonalari yaratilib kelingan. Bu esa biz vorislarda, birinchidan, buyuk o'tmishdoshlarimizga nisbatan minnatdorchilik hislarini tug'dirsa, ikkinchidan, ular bilan faxrlanish tuyg'usini hosil qiladi.

### Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lim uchun vazifalar

1. Jahon xalqlari madaniyatini o'rganishda «Sharq» va «G'arb» tushunchalarining mazmuni va mohiyatini izohlang.
2. Sharq va G'arb madaniyati tiplarini sharhlab bering.
3. Sharq mamlakatlarining rivojlanish xususiyatlarini tushuntirib bering.
4. Qadimgi Sharq xalqlarining jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasini izohlang.
5. Sharqda ilk davlatchilikning paydo bo'lishini sharhlang.
6. "Daryo sivilizatsiyalari" tushuntirib bering.
7. Sharq madaniyati bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
8. "Sivilizatsiya nima?" mavzusida falsafiy esse yozing.
9. Qadimgi Sharq madaniyatiga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.

10. Sharq sivilizatsiyasining o‘ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.

11. Sharq va G‘arb madaniyatlariga oid eng umumiy jihatlarni toping va slayd tayyorlang.

12. Insert usulidan foydalanib, quyidagi jadvalni to‘ldiring (1-ilova).

### **Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi**

1. Ma’ruza matnini o‘qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

V – bilaman

Q – men uchun yangi ma’lumot

- – men bilgan ma’lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo‘sishimcha ma’lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

**1-ilova**

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

### **O‘quv topshiriq:**

“Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo‘linib ishlash” orqali o‘qituvchi talabalarni to‘rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

#### **1 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Jahon xalqlari madaniyatini o‘rganishda «Sharq» va «G‘arb» tushunchalarining mazmuni va mohiyatini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhdha muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 2 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Sharq va G'arb madaniyati tiplarini gapirib berish. 5 daqiqa

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					

## 3 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Sharq mamlakatlarining rivojlanish xususiyatlarini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

#### 4 – guruhsiz topshirig'i

1-bosqich. Qadimgi Sharq xalqlarining jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhsiz muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					

#### Guruhsiz bo'yicha baholash mezonlari

Har bir guruhsiz boshqa guruhlarni baholaydi.

Har bir talab bo'yicha – 2 ball

Guruhsiz №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazma-lilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faolligi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					
3.					
4.					

## Hisob natijasi

Guruhlar №	Umumiy ball				
1.					
2.					
3.					
4.					
Umumiy hisob Ballari					
Baho					

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun tavsija etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.–T.: TDSHI, 2006.

## **4-mavzu. QADIMGI SHARQDA ASOTIRIY TASAVVURLAR VA FALSAFIY BILIMLARNING PAYDO BO'LISHI**

### **Reja**

1. Falsafiy tizimlarning uzoq tarixga ega ekanligi.
2. Dunyoni asotiriy tafakkur (afsonaviy fikrlash) orqali tasvirlash.
3. Inson umrining o'tkinchiligini idrok etish zamon haqidagi tasavvurning paydo bo'lishiga sabab bo'lganligi.
4. Qadimgi davning ba'zi afsonalarida zamon qadriyat mezoni sifatida namoyon bo'la boshlaganligi.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Falsafiy tizimlar, asotiriy tafakkur, afsonalar va mislar, dunyoning kelib chiqishi, Yaqin Sharq, Sharq falsafasi, Sharq madaniyati, G'arb, G'arb falsafasi, G'arb madaniyati, falsafa, Fales, Yunon madaniyati, falsafiy matnlar, ong va tafakkur rivoji, Sharq va G'arb madaniyatlari tiplari, Sharqda ilk davlatchilik tarixi, Danilevskiy, "Daryo sivilizatsiyalari".*

Dunyoning kelib chiqishi, uning mohiyati va insonning undagi o'mi haqidagi savolga javob topishga harakat qilgan qadimgi falsafiy tizimlar o'zining uzoq tarixiga egadir. Insonni o'rabi turgan dunyo tadrijiy ravishda uning faoliyati uchun mavzuga aylana borgan. Inson dunyoga bo'lgan o'z munosabatini dastlab nazariy shakllarda ifoda qila olmagan. Inson amaliy faoliyatining rivojlanishi voqealarning muayyan izchillikda mushohada qilishga asoslangan uning qobiliyatini takomillashishiga olib kelganligi orqasida tabiat hodisalarining ba'zi qonuniyatlarini idrok etishga muvaffaq bo'lgan. Tilning rivoji va avvalo, majhul tushunchalarning paydo bo'lishi nazariy tafakkurning shakllanishiga turki bo'lgan. Inson umrining o'tkinchiligini idrok etish, zamon haqidagi tasavvurning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Qadimgi davning ba'zi afsonalarida zamon qadriyat mezoni sifatida

namoyon bo‘la boshlagan. Faqat abadiy narsagina mukammal bo‘lishi haqidagi tasavvur kelib kelib chiqqan. Abadiylik ilohiy mavjudlik va faoliyatlilik sifatida namoyon bo‘la boshlagan.

Inson tafakkuri taraqqiyotining muhim natijasi sifatida yozuv kashf etilgan. U bilimlarni avlodlardan avlodlarga uzatishning yangi imkoniyatini beribgina qolmay, balki bilimlarning e‘z taraqqiyoti tagzaminini ham boyitgan.

Sharq mamlakatlaridagi falsafiy tafakkur taraqqiyoti to‘g‘ri chiziq bo‘ylab rivoj topmagan. Garchi ba’zi taraqqiyot bosqichlarida va ayrim sohalarda o‘zaro ta’sirni istisno qilmagan holda, Sharqqa taalluqli bo‘lgan o‘rganilayotgan uch mintaqa, ya’ni Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoy – mustaqil madaniy butunlikni tashkil etgan.

Yaqin Sharq tom ma’noda qadimgi davrda falsafiy an'anaga asos sola olmagan. Ammo u dunyoning boshqa mintaqlaridan farqli o‘larоq, dehqонchilik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jihatidan doimiy ravishda ilgarilab ketgan. Bu narsa bilim va tajriba to‘planishiga omil bo‘lgan. Hosil qilingan amaliy ma’lumotlar nazariy tafakkur rivoji u chun turki bo‘lgan. Ular umuman diniy tasavvurlar, mafkura va madaniyatga o‘z ta’sirlarini o’tkazganlar.



7-rasm. Zamonaviy Yaqin Sharq

Ushbu boy meros asoslarini Kichik Osiyo qirg‘oqlarida yashovchi yunonlar va ular orqali butun ellistik dunyo o‘zlashtirib olgan. Insoniyatning barcha bilim sohalariga Yunoniston qo‘sghan buyuk hissani, shu jumladan, falsafa sohasidagi tafakkur taraqqiyotini yuqoridagi asoslarsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Yaqin Sharqning qadimgi madaniyati Hindiston bilan aloqada bo‘lgan. Ammo bu yerdagi fikr taraqqiyoti avval boshdanoq ozmiko‘pmi mustaqil ravishda rivojlangan. Hindistonda iqtisodiy, siyosiy va irqiy o‘zgarishlarga qaramasdan, falsafiy an’ana to‘laligicha hech qachon uzilmagan. Bu an’ana hind jamiyatida doimiy barhayot merosning barqaror unsuri sifatida mayjud bo‘lgan.

Xitoyning qadimgi va o‘rta asrlar falsafasini ham Xitoy jamiyatining ma’naviy hayotidan ajratib bo‘lmaydi. U ham mustaqil ravishda taraqqiy etgan. Ammo faqat buddaviylik unga sezilarli ta’sir etgan bo‘lsa ham, biroq bir necha asrlar davomida u mahalliy an’ana va ma’naviy hayotga moslashtirilgan.

Miloddan oldingi IV va III ming yilliklar orasida Baynalmahrayn va Misr zaminida yozuvning mavjudligi haqida birinchi dalillar qo‘lga kiritildi. Ammo Yaqin Sharq o‘lkalaridagi yozma yozgorliklar aniq tushunchalar dastgohiga ega bo‘lgan to‘la falsafiy tizimlar emasligi ayon bo‘ldi. Unda borliq va dunyoning mavjudligi (borliq haqidagi ta’limot) haqidagi muammo hamda insonni, uni o‘rab turgan dunyon bilish imkoniyatlari (bilish nazariyasi) haqidagi masalada anqlik yo‘q. Bunday taraqqiyot bosqichiga Yevropa falsafiy fikri an’analari ibtidosida turgan qadimgi yunon mutafakkirlarigina chiqqanlar. Ammo qadimgi yunon falsafasi rivojini va unga bog‘liq bo‘lgan butun fikriy taraqqiyotni Yaqin Sharqdagi qadimgi madaniyatlarning merosisiz to‘la tushunib bo‘lmaydi. Biroq Yaqin Sharqdagi madaniyatlar ta’sirini izchil tadqiq etish ishiga nisbatan kech kirishilganligi uchun keyingi yuz yil ichida qo‘lga kiritilgan natijalar bilangina chegaralanishga to‘g‘ri keladi<sup>21</sup>.

Dunyoni asotiriy tafakkur orqali tasvirlash diniy tasavvurlar bilan yaqindan bog‘liq bo‘lib, tabiat kuchlarini shaxslar faoliyati bilan ifodalashdir. Ammo u tabiat va inson jamiyatni haqidagi asrlar davomida to‘plangan bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mantiqiylar fikrlash (falsafa)gina inson tafakkurini afsonaviy an’alar

<sup>21</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 26.

va uni bevosita hissiy taassurotlarga bog'lab qo'ygan zanjirlardan ham xalos qila olish imkoniyatini beradi.


O'tmishdag'i Sharq falsafasini o'rganish o'sha davrdagi nuqtai nazarlarni bugungi erishilgan nazariy natijalar bilan qiyoslash imkoniyatini beradi. Sharq falsafasi dunyoni va jamiyatni tushunishda asosiy falsafiy muammolarni bayon qilish usullarining muayyan majmuini o'z ichiga olgan. U o'ziga xos sharqona tafakkur tarzini shakllantirganki, hozirgi yosh avlod ham undan benasib qolmasligi kerak.

Falsafa fanini o'rganishning nazariy-ilmiy va uslubiy asoslari xolislik, ilmiylik, tarixiy-mantiqiylikka tayanadi. Falsafaning asosiy muammolari uning ma'naviyatda tutgan o'mi bilan belgilanadi. Falsafa inson hayotiy faoliyatining mohiyati va ruhiy mazmunini ifodalaydi. Uning vositasida kishilar o'zlarini anglaydilar, jamiyat, tabiat va ularning mavjudligi hamda taraqqiyot xususiyatlarini o'rganadilar, qonunlarini kashf etadilar, hamda ularga tayanib o'z turmush sharoitlari, amaliy faoliyat muammolarini hal etadilar. Dunyoning kelib chiqishi, uning mohiyati va insonning dunyodagi o'mi haqidagi savolga javob topishga harakat qilgan qadimgi falsafiy tizimlar o'zining uzoq tarixiga egadir. Ma'lumki, insonni o'rabi turgan dunyo tadrijiy ravishda uning faoliyati uchun mavzuga aylana borgan. Inson dunyoga bo'lgan o'z munosabatini dastlab nazariy shakllarda ifoda qila olmagan. Inson amaliy faoliyatining rivojlanishi voqealarning muayyan izchillikda mushobada qilishga asoslangan uning qobiliyatini takomillashishiga olib kelganligi natijasida tabiat hodisalarini ba'zi qonuniyatlarini idrok etishga muvaffaq bo'lgan. Inson umrining o'tkinchiligini idrok etish zamon haqidagi tasavvurni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Qadimgi davrning ba'zi afsonalarida zamon qadriyat mezoni sifatida namoyon bo'la boshlagan. Faqat abadiy narsagina mukammal bo'lishi haqidagi tasavvur kelib chiqqan. Abadiylik ilohiy mavjudlik va faoliatlilik sifatida namoyon bo'la boshlagan.

Inson tafakkuri taraqqiyotining eng muhim natijasi sifatida yozuv kashf etilgan. U bilimlarni avlodlardan avlodlarga uzatishning yangi imkoniyatini beribgina qolmay, balki bilimlarning o'z taraqqiyoti tagzaminini ham boyitgan.

*Sharq mamlakatlaridagi falsafiy tafakkur taraqqiyoti to'g'ri chiziq bo'ylab rivoj topmagan. Garchi ba'zi taraqqiyot bosqichlarida va ayrim sohalarda o'zaro ta'sirni istisno qilmagan holda Sharqqa taalluqli uch mintaqa, ya'ni Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoy – mustaqil madaniy butunlikni tashkil etgan.*

Yaqin Sharq tom ma'noda qadimgi davrda falsafiy an'anaga asos sola olmagan. Ammo u dunyoning boshqa mintaqalaridan farqli o'laroq, dehqonchilik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jihatidan doimiy ravishda ilgarilab ketgan. Bu narsa bilim va tajriba to'planishiga omil bo'lgan. Hosil qilingan amaliy ma'lumotlar nazariy tafakkur rivoji uchun turki bo'lgan. Ular umuman diniy tasavvurlar, mafkura va madaniyatga o'z ta'sirlarini o'tqazganlar. Ushbu boy meros asoslarini Kichik Osiyo qirg'oqlarida yashovchi yunonlar va ular orqali butun ellistik dunyo o'zlashtirib olgan. Insoniyatning barcha bilim sohalariga Yunoniston qo'shgan buyuk hissani, shu jumladan, falsafa sohasidagi tafakkur taraqqiyotini yuqoridagi asoslarsiz tasavvur qilish mumkin emas.



9-rasm. Zamонавиј Узоq Sharq

Yaqin Sharqning qadimgi madaniyati Hindiston bilan aloqada bo‘lgan. Ammo bu yerdagi fikr taraqqiyoti avval boshdanoq ozmiko‘pmi mustaqil ravishda rivojlangan. Hindistonda iqtisodiy, siyosiy va irqiylar o‘zgarishlarga qaramasdan falsafiy an’ana to‘laligicha hech qachon uzilmagan. Bu an’ana hind jamiyatida doimiy barhayot madaniy merosning barqaror unsuri sifatida mavjud bo‘lgan.

Xitoyning qadimgi va o‘rtalar falsafasini ham Xitoy jamiyatining ma’naviy hayotidan ajratib bo‘lmaydi. U ham mustaqil ravishda taraqqiy etgan. Ammo faqat buddaviylik unga sezilarli ta’sir etgan bo‘lsa ham, biroq bir necha asrlar davomida u mahalliy an’ana va ma’naviy hayotga moslashtirilgan<sup>22</sup>.

Miloddan oldingi to‘rtinchı va uchinchi ming yilliklar orasida Baynalnahrayn va Misr zaminida yozuvning mavjudligi haqida birinchi dalillar qo‘lga kiritildi. Ammo Yaqin Sharq o‘lkalaridagi yozma yodgorliklar aniq tushunchalar dastgohiga ega bo‘lgan to‘la falsafiy tizimlar emasligi ayon bo‘ldi. Unda borliq va dunyoning mavjudligi (borliq haqidagi ta‘limot) haqidagi muammo, hamda insonni uni o‘rab turgan dunyoni bilish imkoniyatlari (bilish nazariyasi) haqidagi masalada aniqlik yo‘q. Bunday taraqqiyot bosqichiga Yevropa falsafiy fikri an’analari ibtidosida turgan qadimgi yunon falsafasi mutafakkirlarigina chiqqanlar. Ammo qadimgi yunon falsafasi rivojini va unga bog‘liq bo‘lgan butun fikriy taraqqiyotni Yaqin Sharqdagi qadimgi madaniyatlarning merosisiz to‘la tushuntirib bo‘lmaydi. Biroq Yaqin Sharqdagi madaniyatlar ta’sirini izchil tadqiq etish ishiga nisbatan kech kirishilganligi uchun keyingi yuz yil ichida qo‘lga kiritilgan natijalar bilangina chegaralanishga to‘g‘ri keladi.

*Asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash) – insonning dunyoga va bilvosita ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan munosabatini muayyan butunlikda ifodalash shakllaridan biridir. U garchi hayoliy bo‘lsa ham, bu dunyoning paydo bo‘lishi, tabiiy tartibning ma’nosi haqidagi savolga berilgan birinchi javobdir.*

Dunyoni asotir tafakkur orqali tasvirlash diniy tasavvurlar bilan yaqindan bog‘liq bo‘lib, tabiat kuchlarini shaxslar faoliyati

<sup>22</sup> Qurang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 55.

bilan ifodalashdir. Ammo u tabiat va inson jamiyatni haqidagi asrlar davomida to‘plangan bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mantiqiy fikrlash (falsafa)gina inson tafakkurini afsonaviy an’analor va uni bevosita hissiy taassurotlarga bog‘lab qo‘ygan zanjirlardan ham xalos qila olish imkoniyatini beradi.

Sharq falsafasining vazifasi nima? – degan savol tug‘iladi. Ma’lumki, o‘tmishdagi Sharq faylasuflari ham bizning zamondoshlarimizga o‘xshab haqiqatni gapi rayyapmiz, deb ta’kidlashgan. Shu ma’noda ularni o‘rganish o‘sha davrdagi nuqtai nazarlarni bugungi erishilgan nazariy natijalar bilan qiyoslash imkonini beradi. Sharq falsafasi dunyoni va jamiyatni tushunishda asosiy falsafiy muammolarni bayon qilish usullarining muayyan asosiy ro‘yxatini o‘z ichiga oladi. U sharqona tafakkur tarzini shakllantirganki, hozirgi avlodlar ham undan benasib emaslar<sup>23</sup>.

VII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan yangi din bo‘lgan islomning shakllanishi natijasida arab xalifaligi ta’sir doirasidagi mamlakatlar ma’naviy-madaniy hayotida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bu jarayonni asosan islom dinining Arabiston yarim orolida markazlashgan davlat tuzishdagi o‘rni bilan baholash mumkin. Chunki o‘sha davrdagi tarqoq arab qabilalari juda qiyinchilik bilan bo‘lsa ham, faqat islom ta’limoti ta’siri ostidagina birlashgan edilar. Aynan muayyan bir g‘oya ostida shunday birlashish jarayoni kuchli hokimiyatni vujudga keltirdi. O‘z navbatida bu hokimiyatning boshqa hududlarni bosib olishiga qulay shart-sharoitlar yuzaga keldi. Arab xalifaligi deb nom olgan bu ulkan imperiya tarkibiga Arabiston yarim orolidan tashqari Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarining barchasi, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Kavkaz orti davlatlari va O‘rta Osiyo kirar edi.

Islomning dastlabki yoyilishi VII asrning 30-40-yillariga taalluqli bo‘lib, arablar Sosoniylar imperiyasiga uzil-kesil zarba berib, 651-yilda butun Eronni egalladilar. So‘ngra VIII asrning boshida O‘rta Osiyoni bosib oldilar. Arablarning harbiy yutug‘i O‘rta Osiyo va Eronning iqtisodiy va siyosiy zaiflashganligi tufayli yuz berdi. O‘rta Osiyo Turk hoqonligi bilan to‘xtovsiz urush olib borganligidan zaiflashgan bo‘lsa, Eron uzoq vaqt davomida (604-630-yillar) Vizantiya bilan qonli janglar olib borgan edi. Natijada,

<sup>23</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P. 2.

arman tarixchisi Sebeosning ta'kidlashicha, "forslar podsholigi o'sha vaqtda inqirozda edi", Vizantiyaning esa "yunonistonlik shohi qo'shin to'plashga qodir emas edi".

*IX-XI asrlar musulmon fani va madaniyati tarixida katta yutuqlar va muhim ilmiy kashfiyotlar davri bo'lganligidan, bu davrni ba'zi tadqiqotchilar Sharq fani va madaniyatining "oltin davri" deb e'tirof etadilar*

Islomning barcha musulmonlar uchun birodarlik, tenglik, soliq va qullikdan ozod qilish haqidagi shiorlari Eron va O'rta Osiyo madaniyatiga o'z ta'sirini o'tqazmay qolmadi. Shuning uchun aholi arablarga qarshi qat'iy qarshilik ko'rsatmadи.

Islomning yoyilishi turli yo'llar bilan, jumladan, zo'rlik bilan ham amalga oshirildi. Bu yerda shuni ham ta'kidlash lozimki, uni qabul qilish uchun qisman zamin ham tayyorlangan edi. Bunga zardushtiylikdagi yakkaxudolik aqidasining rivoji, yahudiylirk va xristianlik oqimlari bo'lgan monofizitlik va nestorianlikning mavjudligi ham o'z hissasini qo'shdi. Misr tadqiqotchilari Rashid al-Baraviy va Muhammad Hamza Uleyshlarning ta'kidlashlaricha, zardushtiylik, monofizitlik va nestorianlikning siqib chiqarish asta-sekinlik bilan olib borilgan. "Ba'zilar yangi e'tiqodni o'z ishonchlariga ko'ra, boshqalar esa – moddiy manfaat tufayli, yana ba'zi birovlar esa – o'zlarini hukmron doiralar tomonidan ta'qib qilinishlaridan saqlash maqsadida qabul qildilar".

Abbosiylar davrida Bag'dod shahriga asos solinib, u xalifalikning siyosiy markazi bo'libgina qolmay, balki sultanatning iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy markaziga aylantirilgan edi. Abbosiy xalifalar Mansur (754-776-yy), Xorun ar-Rashid (786-809-yy) va Ma'mun (813-833-yy) davrida ilm-ma'rifatga katta e'tibor berilgan. Masalan, yirik ilmiy markazga aylangan "Bayt al-hikma"ga asos solinib, bu joyda o'z davrining mashhur olimu faylasuflari, tabib, munajjim, musiqachi, me'mor, muhandislari to'plangan edi. Bu davrda arablar, yahudiylar, nasroniylar, forslar, movarounnahrlik va xurosonliklar tomonidan yahudiy, yunon, suryoniy, fors, hind va boshqa tillardagi riyoziyot, falakiyot, mantiq, alkimyo, handasa, tarix, tibbiyot fanlariga oid madaniy, ilmiy-falsafiy asarlar arab tiliga tarjima qilingan. Qadimgi yunon faylasuflari Ptolemyning "Almajistiy" (Almagest), Yevklidning handasa (geometriya), Aflatun va Arastuning qator asarlari arab tiliga o'girildi. Ayniqsa, Arastuning

mantiqqa oid asarlarining tarjima qilinishi Bag'dod ziyolilari dunyoqarashining butunlay o'zgarishiga olib kelgan edi<sup>24</sup>.

IX-XI asrlar musulmon fani va madaniyati tarixida katta yutuqlar va muhim ilmiy kashfiyotlar davri bo'lganligidan, bu davrni ba'zi tadqiqotchilar Sharq fani va madaniyatining "oltin davri" deb e'tirof etadilar. O'sha davrda arab xalifaligi tarkibiga kirgan Mavarounnahr va Xuroson mintaqasi yuz bergan madaniy-ma'rifiy yuksalishni ta'minlovchi va harakatlantiruvchi asosiy kuchlardan biri edi. Bu xulosa, birinchi navbatda, bu ilmiy yuksalishda ishtirok etgan mutafakkirlarning asosiy qismi ushbu zamin farzandlari bo'lgani bilan izohlanadi

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar**

1. Falsafiy tizimlarning uzoq tarixga ega ekanligini izohlang.
2. Dunyoni asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash) orqali tasvirlashni sharhlang.
3. Inson umrining o'tkinchilagini idrok etish zamon haqidagi tasavvurning paydo bo'lishiga sabab bo'lganligini isbotlang.
4. Qadimgi davrning ba'zi afsonalarida zamon qadriyat mezoni sifatida namoyon bo'la boshlaganligini sharhlang.
5. Dunyoqarash tiplari bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
6. "Asotir nima?" mavzusida falsafiy esse yozing.
7. Dunyonineg kelib chiqishiga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
8. Sharq sivilizatsiyasining o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.
9. Sharq va G'arb madaniyatlariga oid eng umumiy jihatlarni toping va slayd tayyorlang.
10. Mavzu yuzasidan B/B/B jadvalini to'ldiring (1-ilova).
11. Insert usulidan foydalaniib, quyidagi jadvalni to'ldiring (2-ilova).

<sup>24</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P. 18.

## Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma'ruza matnnini o'qib, matnnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

Q – men uchun yangi ma'lumot

– men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarini jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

### O'quv topshiria:

“Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash” orqali o'qituvchi talabalarni to'rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

#### 1 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Falsafiy tizimlarning uzoq tarixga ega ekanligini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida).

10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faoliigi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## **2 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Dunyoni asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash) orqali tasvirlashni gapirib berish. 5 daqiqa

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida).  
10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## **3 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Inson umrining o‘tkinchiligini idrok etish zamон haqidagi tasavvurning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lganligini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida).  
10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 4 – guruh topshirig‘i

1-bosqich. Qadimgi davning ba’zi afsonalarida zamon qadriyat mezoni sifatida namoyon bo‘la boshlaganligini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida).

**10 daqiqa**

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlар	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va rog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

### **Guruh bo‘yicha baholash mezonlari**

Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.

Har bir talab bo‘yicha – 2 ball

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko‘rgazma-lilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faolligi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					

### **Hisob natijasi**

Guruhlар №	Umumiy ball				
1.					
2.					
Umumiy hisob Ballari					
Baho					

**Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun  
tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. -T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.-T.: TDSHI, 2006.

## 5-mavzu. QADIMGI MISR MADANIYATI

### Reja

1. Misr madaniyatining shakllanishi.
2. Qadimgi misrliklarning dini, yozuvi, marosimlari.
3. Qadimgi Misr madaniyati va me'morchilik san'ati.

### Tayanch so'zlar va iboralar

*Abidos, Amon, Anubis, Aleksandriya, Axetaton, Vizantiya, Gik-soslar, Delta, Iyeroglislar, Inkrustatsiya, Isida, Imxotep, Kaduf, Kanopa, Karnak, Manetho, Memfis, Mo'miyolash, Nomlar, Osiris, Piramida, Sarkofag, Sfinks, Ellinizm.*

Misr davlati o'zining qadim madaniyati, boy tarixi bilan boshqa rivojlangan davlatlar orasida yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Misrning ko'p asrlik tarixi va madaniyati toshlarda, sarkofaglarda, rassomlarning asarlarida, usta-hunarmandlarning ijodlarida, me'morchilik inshootlarida muhrlanib qolgan.


Miloddan 3000 yil burun rivojlana boshlagan bu madaniyat rimlik istilochilar Misrni egallab olgung'a qadar, ya'ni milodiy 30-yillarigacha bo'lган davrni o'z ichiga oladi. Misr madaniyatining shakllanishida Nil daryosi salmoqli o'rinni egallaydi.

Ma'lumki, qadimgi xalq madaniyati haqidagi qimmatli ma'lumotlarni maqbaralardan bilish mumkin. Maqbaralardan topilgan bosh suyaklaridan ko'rindiki turli qabilalardagi odamlarning hammasi ozg'in va past lekin bitta irqqa mansub bo'lmagan. Tarixchilar qadimgi Misr madaniyati va me'morchilik san'ati tarixi baqida fikr yurtganlarida davrlarning xilma-xilligini sulolalar orqali ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb bilganlar. Hatto Misr payg'ambari Manetho miloddan avval 300 yil burun birinchi bo'lib ana shu usulni qo'llashni talab etgan. Milodiy 638-yilidan Misr tarixida mutlaq yangi davr – musulmonlar davri boshlanadi. Lekin biz qadimgi Misr madaniyatiga e'tibor qaratganimizda, asosan uning buyuk davlat darajasiga

ko'tarilgan davridagi me'morchiligi va san'ati haqida ko'proq fikr yuritamiz<sup>25</sup>.

Qadimgi Misrda quldorlik davlatini boshqargan shoxlarni fir'avnlari deb ataganlar. Bu so'z bizga xristian va yahudiylarning diniy kitobi Tavrot orqali ma'lum. Fir'avn shoh lavozimiga hech qachon saylanmagan. Ba'zilar bu lavozimni armiya yordamida kuch bilan qo'lga kiritgan bo'lsalar, boshqalarga, ya'ni sulolaga dahldorlarga u meros bo'lib qolgan. Fir'avn bo'lish uchun taxtga da'vogar o'zidan oldingi fir'avnning beva qolgan xotiniga yoki uning qizlaridan biriga uylanishi shart bo'lgan. Chunki Qadimgi Misrda shohlik qonining tozaligini saqlash qonuni mavjud edi. Shu boisdan, aka va singil o'rtasidagi nikoh maqsadga muvofiq deb topilgan. Odatda, fir'avnning bir qancha xotini bo'lgan. Ammo ularning ichida faqat bittasi, ya'ni asosiysi qirolicha lavozimida turgan. Bundan tashqari, fir'avnning yana qonunsiz, u bilan nikohda turmagan ayollari ham bo'lgan. Demak, shoh farzandlari ko'p bo'lgan va erkaklar davlatning yuqori vazifalarida turganlar.

Fir'avn davlat hukmdori sifatida buyuk xudo «Quyosh Ra»ning yerdagи farzandi va yer osti dunyosnnnng xudosi Osirisning merosxo'ri deb hisoblangan. Shunga ko'ra, u diniy davlatning dohiysi o'mida ulkan ibodatxonalar qurdirgan va qurbanliklar keltirgan. Janglarda shaxsan boshchilik qilgan. Fir'avnlar orasida ba'zilari chindan ham mohir jangchi bo'lgan. Lekin arxaika va qadimgi podsholik davrlarida ular hech qachon qo'shni mamlakatlarga yurishlar uyuشتirmaganlar. Ammo G'arbiy Sahroi Kabirdagi Liviyalik va Janubdagи Nubiyalik ko'chmanchilardan o'zlarini himoya qilish maqsadida askarlarni safarbar qilib turganlar<sup>26</sup>.



8-rasm. Qadimgi Misr nomlari

<sup>25</sup> Qurang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 13.

<sup>26</sup> Qurang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 19.

Mamlakat Narmer davrida yagona davlatga aylantirilgan vaqtданоq Misrliklar metalldan foydalanish yo'llarini bilib olganlar. Avvaliga misdan, keyin esa bronzadan har xil asboblar, kurol-yarog'lar ishlaganlar. Ammo bu kashfiyotga qaramasdan, toshni ishlash va duradgorchilik san'ati muhim o'r'in tutgan. Chunki bu hunarni misrliklar mukammal darajada bilganlar. Masa-lan, shohlar qabrlaridan topilgan toshdan ishlangan ajoyib ko'zalar va guldondalar Miloddan avvalgi 2800-yillarga, ya'ni birinchi sulola davriga to'g'ri keladi. Shuningdek, duradgorning bolta, arra, pichoq, bolg'a, parma kabi ish asboblari ham xuddi, hozirgi zamон duradgorining ish qurollariga o'xshab ketadi. Qadimgi maqbaralardan topilgan mebel, kursi-o'tirg'ich, sandiq va boshqa amaliy buyumlar qoldiqlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, Misr madaniyatining o'ziga xos xususiyati eramiz boshlanmasdan 30 asr ilgari sodir bo'lgan.

O'z kuchlarini mustahkamlash va uzoq yashash maqsadida misrliklar tashqi muhitdan foydalanish yo'llarini izlaganlar. Nil atrofida joylashgan dastlabki ko'chmanchilarni o'ziga jalb etgan bu daryo inson uchun eng zarur bo'lgan hayotiy bir manba edi.

To'g'ri, har yili Nilda bo'lib turadigan suv toshqiniga qarshi biron kuch ishlatishga misrliklar ojiz edilar. Ammo, ular qurg'oqchilik paytiarida yerlarni sug'orish uchun kanallar va hovuzlar qazib, suv saqlashni o'zlashtirib olganlar. Bir kanaldan ikkinchi kanalga suv chiqarish uchun «kaduf»lardan, ya'ni o'z o'qi atrofida aylanuvchi ingichka xodaning bir uchiga chelak, ikkinchi uchiga esa og'ir tosh bog'langan oddiy nasoslardan foydalanganlar.

Misrliklar suv toshqini hajmini ham oldindan ko'ra bilganlar. Buning uchun ular toshdan yasalgan va xuddi oddiy chizg'ichga o'xshatib chizilgan asbob «nilometr»lar qo'llaganlar. Nilometrlar Nil qirg'og'iga qurilgan devorga tik holda o'matilgan bo'lib, ular suv sathidan chiqib turgan. Toshayotgan suv nilometrdagi belgilarni

<i>Nomer</i>	<i>Hajmiflyus</i>	<i>Differ-</i> <i>tsion</i>	<i>Differ-</i> <i>tsion</i>
.	+	+	+
.	II	R	R
*	III	X	X
*	IV	U. B. M.	U. B. M.
*	V	K	K
*	VI	S	S
*	VII	M	M
*	VIII	L	L
*	IX	P	P
*	X	A. SH.	A. SH.
*	XI	Z	Z
*	XII	T	T
*	XIII	W	W
*	XIV	T	T
*	XV	W	W

9-rasm. G. Shampolon-ning alifbo jadvali

yuvib, yuqoriga ko'tarilgan va yangi sathdan joy olgan. Shunday yo'1 bilan misrliklar bo'lajak suv toshqininining hajmi haqida axborot olib turganlar.

Nil daryosi faqat hayot va madaniyat manbai emas, balki tashqi dunyo bilan asosiy aloqa qilish yo'li ham bo'lgan. Unda turli xildagi kemalar, ayniqsa, savdo kemalari doimo ko'p bo'lgan. Kemalardan ba'zilari hatto O'rta dengizga chiqishga ham jur'at etganlar.

Misr o'zida o'rmon bo'limganligi sababli tashqaridan keder daraxti, keyinchalik esa tayyor holda yelkanli hamda eshkakli harbiy kemalarni sotib olgan. Bunday qayiqlar arxeologik qazilmalar vaqtida ehromlarda ko'milgan holda topilgan. Bu texnik rivojlanish o'z navbatida oliy muhandislar, riyoziyotchilar va olimlarni yuzaga chiqardi. Xuddi qadimgi rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi Misrda ham bunday kishilarning deyarli barchasi dindorlardan iborat bo'lgan va ular avliyo hisoblanib, o'sha davr fir'avnulariga katta ta'sir ko'rsata olganlar.

Yozuv san'ati Misrda Narmer davrida, balki undan ham ilgari yaratildi. Misrda yozuv majburiy ravishda arxivlarni saqlash, ayniqsa, xalqdan soliq olish jarayonida dunyoga keldi. Dastlabki yozuvlar faqat rasmlarda ifodalanib, ular erkakni, ayolni, sigirni, qo'shni va boshqa buyumlarni aks ettirgai. Sonlar esa chiziqlarda ko'rsatilgan. Keyinchalik rasmlar yoki belgilarni buyum yoki narsalarni emas, balki so'z, ovozni ham bildirgan. Misrliklar yozuvda fonetikani qo'llaganlar. Demak, aytildigan so'zlar ana shu belgilarga qarab ijro etilgan. Yunonlar bu belgilarni iyeroglislar, ya'ni «muqaddas belgililar» deb ataganlar, chunki ular bu belgilarni mutlaqo tushunmaganlar. Kizig'i shundaki, misrliklar undosh tovushlarnigina ishlatganlar. Maktubning umumiy shakli o'quvchiga uning mazmunini aniqlab bergan<sup>27</sup>.

Hozirgi zamon kishisi qadimgi Misr yozuv san'atini shunchaki bir oddiy narsa deb aytolmaydi, albatta. Shuning uchun ham arxeolog olimlar hanuzgacha to'liq tushunarli bo'limgan bu «muqaddas» belgilarni yoki iyeroglislarini o'qish uchun juda ko'p vaqt sarf qilganlar. Dastlab belgililar loydan ishlangan idishlarda tasvirlangan. Keyinchalik misrliklar Nil qirg'oqlarida o'sadigan «papyrus» o'simligidan yozuv qog'ozni kashf qilganlar.

Vafot etgan fir'avnning barcha buyumlari shu xonalardan birida saqlangan. Chunki uning tirikiik chog'idagi idish-tovoqlari, kiyim-

<sup>27</sup> Qurang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 18.

kechaklari, yog‘och sandiqlari, mebellari va shunga o‘xhash narsalari u dunyodagi hayoti uchun zarur bo‘ladi, deb hisoblangan. Lekin o‘sha davrlardayoq qabrlarning deyarli hammasi o‘g‘irlangan. Shunday bo‘lsa ham u yerlarda qolgan buyumlarning parchalaridan qabrlarda nimalar saqlanganini ko‘z oldimizga keltirishimiz qiyin emas.

Jasad saqlangan ba’zi bir qabrlarda fir‘avnning nomi ko‘rsatilgan. Ana shunday qabrlar Memfis yaqinidagi Sakkara va O‘rta Misrdagi Abidos degan joylarda ko‘plab topilgan. Arxeologik qazilmalarning natijalariga qaraganda ikki qator joylashgan mastabalarning hammasi faqatgina bitta fir‘avnning nomi bilan atalgan. Buni quyidagicha nzohlash mumkin:

Misrliklar afsonaviy xudolar ichida eng asosiysi hisoblangan Osirisning boshi Abidosga ko‘milgan deb o‘ylaganlar. Demak, Abidos muqaddas joy hisoblangan. Shuning uchun ham fir‘avn bu joyni o‘limidan keyin ham ziyorat qilishi zarur bo‘lgan. Chunki u bir vaqtning o‘zida ikki joyga dafn etilishi mumkin emas-ku! Har holda qadimgi misrliklar o‘lgan fir‘avnning ruhi qabrdan-qabrga ko‘chib yurishiga va har yili Osiris xotirasi uchun bo‘ladigan diniy bayramda ishtirok etishiga ishonganlar.

Ba’zi bir olimlarning o‘ylashicha, katta ehrom yonidan qazib olingan qayiq ana shu ko‘chish uchun mo‘ljallangan. Lekin boshqa olimlarning aytishlariga qaraganda, bu kema o‘lgan fir‘avnning ruhini osmondagи quyosh xudosi «Ra»ning jamiyatiga eltish uchun xuzmat qilgan<sup>28</sup>.

«Nom»liklarda din ular Nil atrofida yashay boshlagan vaqt dan boshlab paydo bo‘lgan. Qadimgi misrliklarda bir-biriga aralashgan, qaysiki, mahalliy xudomandlarni hurmatlash, Osiris va Isidalarga sajda qilish, quyosh xodosi Amon Raga topinish kabi diniy qarashlar mavjud bo‘lgan. Ular mamiyatda hokimiyat va jamiyat hayotini belgilagan. Shu bois me’morchilik yodgorliklarining talaygina qismi ni diniy inshootlar – ibodatxonalar va maqbaralar tashkil etgan. Dehqonchilikning rivojlanishida Nilda bo‘ladigan va davriylikka asoslangan bahorgi va kuzgi suv toshqini, ketidan keladigan qurg‘oqchilik va ularning yana takrorlanishi misrliklarda tabiatning rivojlanishi, o‘lishi va yana rivojlanishi tushunchasini shakllantirgai.

<sup>28</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 17.

Bu esa inson hayoti, xudo Osirisning o'lishi va yana tirlishi haqidagi diniy ishonchning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Haqiqatan ham qadimgi misrliklar inson hayotini va tabiatdagи takroriy o'zgarishlarni xudolar boshqaradilar deb ishonganlar. Ammo negadir xudolarni hayvon boshli odam qiyofasida tasavvur etganlar. Fikrimizcha, bu tushuncha misrliklarda avlodlari ovchilik bilan hayot kechirgan vaqtan buyon saqlanib qolgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Albatta, biz bu yerda Qadimgi Misr dinining o'rta murakkabligini hisobga olgan holda, fikrimizni chuqurlashtirmay, me'morhilik san'ati bilan bog'liq bo'lgan asosiy xudolarga nazar tashlaymiz.

Qadimgi Misrliklarning xudolari podshosi bu lochin boshli quyosh xodosi Ra hisoblangan. U suratlarda doimo podsholik ramzi sifatida dumaloq shar shaklida tasvirlangan. Misrliklar fir'avn Raning yerdagi farzandi, u har kuni oltin qayiqda osmonda sayr qiladi va yerga tushadi deb ishonganlar.

Fir'avnning xodosi bu lochin qush ko'rinishidagi «Xorus» bo'lgan. Demak, Narmer podsholik qilgan poytaxt Memfisning xodosi Ra Narmerning xodosi esa Xorusdir. Buni Xierakopolis degan joydan topilgan Narmerning mashhur toshtaxta politrasida ko'rish mumkin. Unda shoh va uning atrofidagilar tantanavor qadam tashlab, dushman saflarini yorib o'tayotgani umumiy chiziqlarda ko'rsatilgan. Yana palitradada ma'lum darajada aniq va noaniq belgilangan rasmlar ham bor. Chamasi ularda shoh g'alaba qilgan shaharlar ko'rsatilgan bo'lsa kerak. Xudo Ra hukmdorlik huquqidан foydalangan bo'lishiga qaramasdan, Xorus hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U o'simlik va dehqonchilik homiysi, yer osti dunyosining xodosi Osiris va uning rafiqasi ham singlisi, tabiat ma'budasi Isidalarning o'g'li 2000 ta Misr xudolari sag'anasi «PANTEON»ning bir bo'lagidir. Yirtqichilar orasida eng xavfisi sher hisoblangan. Eng dahshatli musibat – davolab bo'lmaydigan kasalliklarni o'lat kasalligi keltirgan. Ana shundan xabar topgan sher boshli urush ma'budasi g'azabga



10-rasm. Firavn  
Narmerning qalqoni

kelib, jang boshlagan. O'lim chekinishi bilan ashula, raqs va musiqa xudosi Bes o'yin kulgi boshlagan.

Yana Ibis (laylaksimon qush) boshli aqlu-idrok va yozuv xudosi Taxt, chiyabo'ri boshli mo'miyolash xudosi Anubis va boshqa bir qancha xudolar mavjud. Ularning barchasi me'morchilik yodgorliklari, ibodatxona va maqbaralarda o'z aksini topgan.

Mo'miyolashdan asosiy maqsad tanani u dunyodagi hayot uchun saqlashdir. Agar tana halok bo'lsa, uning ruhi «Ka» ham nobud bo'ladi. Oilaning imkoniyatiga qarab mo'miyolashning har xil usullari mavjud bo'lgan. Eng yaxshi va lekin eng qimmat usul tanadan uning barcha ichki a'zolarini olishni talab etgan. Ularni yaxshilab quritish va o'rab, «kanopa» deb atalgan idishlarga solib qo'yish kerak bo'lgan. So'ng bosh miya olingan. Yurak esa alohida mo'miyolangan va qaytadan tanaga qo'yilgan. Chunki bu a'zo (bosh miya emas) aql manbai deb baholangan. Tana 90 kun mobaynida o'yuvchi natriy eritmasiga solib qo'yilgan. Shundan so'ng unga hayot ko'rinishini berish maqsadida yuz terisi orasiga mohirlik bilan yostiqchalar qo'yilgan. Keyin tananing hammasini surp bilan o'rashgan. Shohlarni yoki muhim shaxelarni mo'miyolaganda, ularning qimmatbaho oltinkumush buyumlarini belbog' orasiga yashirganlar. Lekin maqbara o'g'rilari jasad bezatilgan xazinani olish maqsadida mo'miyolangan tanani yalang'ochlaganlar. Mo'miyolangan tanani oltpn plastinka bilan qoplangan yog'och tobutga solganlar. Xo'sh, bularni biz qaerdan bilamiz? Agarda mashhur Tutanxamon maqbarasi bo'yicha fikr yuritadigan bo'lsak (bizga ma'lum bo'lgan fir'avniarning dafnlari ichida o'g'irlanmay topilgan yagona maqbaradir), undagi tobut juda chuqur (uchtasi ustma-ust qo'yilgan) va toza oltindan ishlangan.

Fikrimizcha, bunday mo'miyolash odati podsholik uchungina bo'lib, ayniqsa u yangi podsholik davrida Nubyi mamlakatidan ko'plab oltin olib kelish vaqtida avj olgan.

Hozirgi zamon misrshunoslarining hisoblashicha, piramidalar qurishdan oldin misrliklar dastlab tog'lik yerlarda zovurlar qazib, tekis va yaxlit poydevor qilishga erishganlar. Buning uchun zovurni suv bilan to'ldirib, unga qoziqlar qadaganlar va suvning yuzasini belgilaganlar. So'ng atrofni tekislab, zovurni tog' toshiari bilan to'ldirganlar va qoziqlardagi belgililar bilan baravarlashtirganlar. Natijada bo'lajak piramidaning tekis va yaxlit poydevori vujudga kelgan. Bu vaqtida tosh yotqizuvchi mutaxassis piramida uchun

ishlatiladigan toshlarni bir necha yil mobaynida tekislab pardozlagan. Bloklar faqat uch oyga yetadigan qilib tayyorlangan, chunki har yili bo'ladigan suv toshqini natijasida uch oy davomida ishsiz qolgan dehqonlar ana shu piramida qurilishiga jalb etilganlar. Birinchi qator toshlar o'rnatilgach, uning atrofiga shag'al yotqizilib, bir tomonga nishab tortilgan. Keyin bloklarni tortish yo'li bilan nishabga olib chiqilgan va birinchi qator ustiga qo'yilgan. Ana shu yo'sinda piramida sekin-asta qatorma-qator yuqoriga ko'tarilgan sari uning atrofidagi shag'aldan qilingan nishab ham spiral shaklida ko'tarilib borgan.

Piramida cho'qqisiga oxirgi tosh qo'yilganda, u qum aralash shag'alga burkangan massani eslatgan. Xuddi shu vaqtida mohir va tajribali tosh teruvchilar piramidaning sirtini silliq bloklar bilan yuqoridan pastga qarab pardozlay boshlaganlar. Ishchilar esa bir vaqtning o'zida pardozlash ishlarini yuqoridan pastga tushishiga qarab qum va shag'allarni chetga torta boshlaganlar. Tashqaridagi ishlar tamom bo'lguna qadar piramidaning ichkarisida ichki yo'llar va dafn qilish xonasi qurilgan. Dafn etish marosimi tugagach, uni barchadan sir tutish maqsadida xonaga olib boruvchi barcha eshiklarni ilgaritdan tayyorlab qo'yilgan ulkan blok toshlar bilan berkitib, muhrlab qo'yanlar. Gizadagi ulkan ehrom yaqinida sirli sfinks bor. U kim tomonidan va nima uchun yaratilganligi hanuzgacha noma'lum. Ammo tushunish mumkinki, yarim odam va yarim sher sifatida yaratilgan bu hukmdor o'mida Misr fir'avni Xefren o'z aksini ko'rgan bo'lsa ajab emas. 3-sulolaning birinchi fir'avni Joser (Zoser) bo'lган. Joser ehromi (piramidasining qurilishi katta toshlardan ulkan binolar ixtiro qilgan va yozuv san'atida yuksak yutuqlarga erishgan me'mor Imxotep nomi bilan bog'liq. Joser qabri Qohiradan taxminan 6 km narida joylashgan. Toshdan ishlangan bu ulkan maqbara dunyodagi eng qadimgi yodgorlikdir. Uning qurilish vaqtini miloddan avvalgi 2780- yilga to'g'ri keladi.

Bu inshoot bir qator zinapoyalardan tashkil topgan ehrom bo'lib, ustma-ust qo'yilgan va yuqoriga ko'tarilgan sari kichrayib boruvchi bir qancha mastabalar yig'indisidan iborat. Piramidaning asosi kvadrat bo'lib, u qoyaning 25 m ichkarisiga joylashgan. Yana pastroqda esa fir'avnning dafn qilish xonasi bo'lган. Piramida va uning atrofi ohak toshlardan terilgan baland devor bilan o'rab olingan. Ana shu devorning ayrim qismlari hozirgacha saqlangan yoki ular qayta

tiklangan. Ichki devorning qarama-qarshi tomonida qator yodgorliklar qad ko'targan. Ehtimol, ular har xil xudolarga bag'ishlangan ibodatxonalar bo'lsa kerak. O'ziga xos bir ko'rinishda, butunlay yog'och va somondan buniyod etilgan bu bino haqiqatda esa toshdan yo'nib ishlangan, chunki endi shohning kulbasi mangu bo'lishi talab etilgan. Imxotepning qiyofasn binoning ichkarisida xaykal ko'mnishiда paydo bo'ladi. Bu bilan misrliklar vazirning obro'si va qudrati naqadar yuksak ekanligini ko'rsatganlar. 3-sulola uning oxirgi fir'avni Snofruning vafoti bilan tamom bo'lgan. U tiriklik vaqtida o'zi uchun tomonlari tekis bo'lgan ikkita ulkan piramida qurdirgan. 4-sulolaga kelib piramidalar qurish katta davri boshlangan<sup>29</sup>.

Misrda 70 dan ortiq piramida bor. Ular Sakkarax va Dashurdan to G'arbdagi Xauvaragacha cho'zilgan. Har bir piramida faqat bitta fir'avntining qabridan iborat bo'lgan. Joser podsholik qilgan davrdan so'ng malikalar ham o'zlarining shaxsiy piramidalariga ega bo'la boshlaganlar. Bu piramidalar kichikroq va erlarining yonida bo'lgan. Asosiy piramidaning atrofida esa oliyjanob va yuqori mansabli kishilar uchun mastabalar joylashgan. Fikrimizcha, bu kishilar o'z xo'jayiniga uning tirikligida qanday, xizmat qilgan bo'lsalar, u o'lgandan keyin ham unga xuddi shunday xizmat qilishlariga ishonganlar. Piramidalar ochig'ini aytganda, hamma maqbaralar Nil daryosining g'arbiy qirg'og'ida – botayotgan quyosh mamlakatida joylashgan. Shu qirg'oqda joylashgan o'liklarni har xil nom bilan ataganlar. Ularga «G'arbliklar» deb nom ham bergenlar.

Nil daryosi Misrni hozirgi kunda ham ikkiga ajratib turadi va misrliklar o'zları yashab turgan daryoning sharqiy qismini «Tiriklar mamlakati», o'zlariga qarama-qarshi bo'lgan daryoning g'arbin qismini «O'liklar mamlakati» deb ataydilar. Misrdagi mashhur piramida 4-sulolanipg birinchi fir'avni Hufu tomonidan qurilgan. Uni yunonliklar Xeops deb ataganlar. Bu piramida Qohira yaqinida Nilning g'arb tomonidagi toshloq yerda qad ko'tarib turadi. Undan



11-rasm. Misr piramidalari

<sup>29</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 16.

uncha uzoq bo'lmagan masofada Xeops merosxo'rlari Xafr (Xefren – yunoncha) va Mikerinoslarning piramidalari joylashgan. Ana shu uchala piramida birgalikda ta'sirchan arxitektura uyg'unligini vujudga keltiradi. Xeopsning ulkan piramidasi yagona saqlangan piramida bo'lib, yunonliklar uni Yetti Iqlim mo'jizasi deb ataganlar. Darhaqiqat, u yaxlit va yetarli darajada mustahkam inshoot bo'lib, 2.300.000 ta ohaktosh bloklaridan ishlangan.

Jumladan har bir blok hisobda 2,5 tonna og'irlikda bo'lган. Piramidaning ichida bir nechta bir-biri bilan chalkash yo'llar bor bo'lib, ulardan biri shohning jasadi qo'yilgan xonaga olib boradi lekin bu yerdagi jasad o'sha Joserning go'rxonasidan farq qilgani holda, piramidaning o'rtasiga joylashgan. Xona granit bloklar bilan qoplangan. Har biri taxminan 60 tonna keladigan bloklar 900 km masofadan – Assuandan keltirilgan. Sarkofag hamda tosh tobutning sirtqi tomoni mustahkam granitdan ishlangan. Miloddan 4500 yil avval qad ko'targan bu bino bizni hanuz taajjublantiradi, chunki misrliklar bu davrda g'ildirak bilan hali tanish emas edilar. Qurilishda ular ixtiyorida faqat silindrsimon jismlardan dastag bor edi xolos. Ammo odamlar ulkan bloklarni somondan to'qilgan arqon yordamida ter to'kib qanday tashiganlar? Kishini hayratda qoldiradigan mo'jizalardan yana biri ulkan imoratni shimol, janub, sharq va g'arb tomonga yo'naltirishdir. Qarangki, piramida o'ichovlarining juda katta bo'lishiga qaramasdan (asosining har bir tomoni 137 m, balandligi 147 m), uning yo'nalishi absolyut aniqlik bilan bajarilgan.

Aytishlaricha, hozirgi zamon dengiz kompassi bilan ulkan piramidaning yo'nalishlarini tekshirish mumkin. Bugungi kunda Xeops piramidasining tashqi qiyofasi zinapoyali shotini eslatsa-da, aslida chiroyli oppoq toshlardan qoplangan bo'lib, yaxlit va silliq yuzadan iborat bo'lган. Bunga ishonch hosil qilish uchun Xefren piramidasiga murojaat qilamiz. Uning yuqorisidagi qoplamaning asosiy qismi hali ham mavjud. Ana shunday qoplama toshlarning ba'zilari Xeops piramidasining ostonasida ham topilgan. Qoplamar shunchalik yo'nib tekislangan va hech qanday eritma ishlatmasdan bir-biriga shunchalik tutashtirilganki, oralig'idan hatto bir parcha qog'ozni ham o'tkazib bo'lmaydi. Ana shu qoplamarining mavjudligi haqida Qadimgi Yunon tarixchisi Gerodot ham fikr bildirib, quruvchilar piramida sirtini qoplashni uning yuqorisidan boshlaganlar degan xulosaga kelgan.



## 12-rasm. Misr xudolari

Haykaltaroshlik san'ati Misrda qadimgi podsholik davridayoq yuksak darajada bo'lgan. Qimmatbaho diorit toshidan yasalgan va hozirgi kunda Qohira muzeyida saqlanayotgan Xefrenning bosh xaykali dunyodagi eng nodir asarlaridan biridir. Bu xaykal asarda fir'avnning boshi bilan yelkasi tasvirlangan. Uning yasama sochi, orqasidagi homiysi xudo lochin Xoryusning qanotlari orasiga yashiringan. Portretda birorta keraksiz egri, ortiqcha chiziqlarni topish qiyin. U yuksak darajada mahorat bilan ishlangan. Bu darhaqiqat, qudratli siymo. Savlatli yelkalar haqiqatan ham shohlarga xos buyuklikni sezdirib turadi. U ham shoh, ham xudo hisoblangan.

Qadimgi podsholik davridagi xaykallarning ko'pchiligi shunga o'xhash sifatga ega bo'lgan. Keyingi sulolalar davrida san'at ko'proq vatanparvarlik yo'nalishida bo'lgani bilan u hoch qachon qadimgi podsholik davridagi singari ta'sirchanlik darajasiga ko'tarilgan emas. Bu ajoyib xaykallarni inson o'z ko'zi bilap ko'rish sharafiga ega bo'limganligi bizga g'alati tuyuladi. Shubhasiz buning sababi bor. Jahon muzeylariga qo'yilgan bu noyob asarlarning ko'pchiligi, ya'ni xaykal «Ka» dastlab mastabalarning yer osti xonalariga yashiringan. Odatta misrliklar o'lgan kishining ruhi, ya'ni Ka oziq-ovqatlar, sovg'alar olishiga, hatto xushbo'y narsalar – Fimiamaning hidlarini sezishi mumkinligiga ishonganlar. Shuning uchun ham fir'avnning jasadi qo'yilgan xonada uning siy whole chi xaykal o'rnatilgan. Haykalning ichida esa uning ruhi Ka yashagan. Haykalning qarama-qarshi tomonidagi devorda teshik bo'lib, ruh ana shu teshikdan oziq-ovqatlar olib turgan.

Aslida esa ovqatlarni ruhlar nomidan kashishlar olganlar va ularni ovqatlantirib turganlar. Shu boisdan, inson qo‘li bilan yaratilgan xaykallar inson ko‘zidan g‘oyib bo‘lgan.

### Atamalar

Amon – Misrliklar xudosi, Fiva homiysi. Unga atab Karnakda ibodatxona qurilgan. Keyinchalik u Misrning asosiy xudosi Raga singdirilgan (Amon–Ra).

Anubis – Mo‘miyolash xudosi. U Misr san’atida doimo chiya-bo‘ri boshli odam qiyofasida tasvirlangan.

Aleksandriya – Makedoniyalik Aleksandr Nil deltasida qurdir-gan shahar.

Axetaton – miloddan avvalgi XIV asrda Amenofis IV Yuqori Misrda barpo etgan shahar. Hozirgi Tel-El-Amarna.

Barelef – Past sayoz relef. Haykal shaklidagi tasvirni tekis yuzadagi ko‘rinishlaridan biri. Bunda shakllar yuzaga nisbatan biroz bo‘rtgan bo‘lib, yorug‘-soya o‘yinlari keskin sezilmaydi.

Bes – Ashula, raqs va musiqa xudosi.

Vizantiya – milodiy IV asrda Rim davlatining parchalanishi natijasida vujudga kelgan Sharqiy Rim imperiyasi.

Gator – Qadimgi misrliklarning go‘zallik va sevgi ma’budasi. Yunonliklar uni Afroditga o‘xshatganlar. Ma’buda sigir yoki sigir boshli ayol qiyofasida tasvirlangan.

Gator ustuni – Kapiteli gator ko‘rinishida bo‘lgan Misr ustuni.

Iyerogliflar – Qadimgi xalqlarda so‘z ma’nosini anglatuvchi yozuv belgiliari. Misr yozuvidagi belgilarni yunonliklar «muqaddas» deb ataganlar.

Inkrustatsiya – Tosh, yog‘och yoki metall buyumlarga oltin, kumush va rangli qimmatbaho toshlarni qo‘sib, joylashtirish yo‘li bilan yaratilgan asar.

Isida – Qadimgi misrliklarning afsonaviy ma’budasi. Nikoh, oila va tabiat homiysi. Xudo Osirisning singlisi ham rafiqasi, xudo Xorusning onasi.

Imxotep – Me’mor, Joser ehromining muallifi. Qadimgi Misr yozuvining asoschisi. Shoh saroyidagi barcha ishlarning boshqaruv-chisi. Keyinchalik u xudo Ptaxning o‘g‘li sifatida ilohiylashtirilgan.

Kaduf – Qadimgi Misrda sug‘orish ishlarida qo‘llanilgan nasos.

Ka – O’lgan kishining ruhi.

Kanopa – O’lgan odamning ichki a’zolarini saqlaydigan idish.

Kapitel – Ustunning yuqori qismi bezagi – muqarnas.

Kannelyurlar – Ustunda tik chiziq bo’ylab o’yilgan ariqchalar.

Katakombalar – Qadimgi Misrda mo’miyolarni saqlaydigan yer osti xonalari.

Karnak – Fiva xarobalarida tiklangan qishloq. U yerda Amon ibodatxonasi qurilgan.

Mastaba – Qabr ustiga ishlangan trapetsiya shaklidagi sag’ana.

Mo’miyolash – O’lgan kishi tanasini chirishdan saqlash maqsadida maxsus tayyorlangan qorishmaga bo’ktirish.

Narmer – Qadimgi Misrda birinchi quldarlik davlatiga asos solgan fir’avn. Miloddan avvalgi 2860 yil.

Nef – Ibodatxona ichini ustunlar qatori bilan xonalarga ajratish.

Nomlar – Nil daryosi bo’yida dastlab vujudga kelgan viloyatlar.

Osiris – Qadimgi Misrning afsonaviy xudosi. O’simlik va dehqonchilik homiysi. Yer osti dunyosining podshosi. Afsonaviy mabuda Isidaning akasi va eri.

Papirus – Nil qirg’og’idagi botqoqlikda o’sadigan qiyogli o’simlik. Qadimgi davrda undan yozuv qog’ozni tayyorlangan.

Piramida – Ehrom. Qadimgi podsholik davridagi shoh qabri. Ularning bir guruhi (Xeops, Xefren, Mikaren) Gizada topilgan.

Ra – Qadimgi misrliklar xudolarining xudosi. U quyosh Ra. Devoriy suratlarda dumaloq shar ostida lochin boshli odam qiyofasida ifodalangan.

Sarkofag – Tosh, metall yoki yog’ochdan bezaklar bilan ishlangan ulug’vor tobut.

Sfinks – Tanasi sher, boshi odam qiyofasidagi ajib mahluq. Balandligi 17 metr, uzunligi 39 metrga teng bo’lgan sfinks Gizada topilgan.

Xorus – Misrliklar xudosi, Osiris va Isidalarning farzandi, unga atab Edfuda ibodatxona qurilgan, lochin qush yoki lochin boshli odam ko’rinishida ifodalangan. Xonsu – Oy xudosi, Amon-Ra va uning xotini Mutlarning o’g’li. Unga atab ko’p ibodatxonalar qurilgan.

Ellinizm – miloddan avvalgi IV–I asrlarda O’rta Yer dengizi havzasida yunon-makedon davlatining hukmronligi davri.

## Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar

1. Misr madaniyatining shakllanishi tarixini sharhlang.
2. Qadimgi misrliliklarning dini, yozuvi, marosimlari izohlab bering.
3. Qadimgi Misr madaniyati va me'morchilik san'atini sharhlab bering.
4. Misr madaniyati bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
5. "Piramida nima?" mavzusida falsafiy esse yozing.
6. Misr ilohlariga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
7. Sharq sivilizatsiyasining o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.
8. Misr va Yaqin Sharq madaniyatlariga oid eng umumiy jihatlarni toping va slayd tayyorlang.
9. Mavzu yuzasidan B/B/B jadvalini to'ldiring (1-ilova).
10. Insert usulidan foydalananib, quyidagi jadvalni to'ldiring (2-ilova).

1-ilova

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

### O'quv topshiriq:

"Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash" orqali o'qituvchi talabalarni to'rt guruhg'a ajratadi. Har bir guruhg'a muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqn ni havola qilinadi:

### **1 – guruh topshirig'i**

1-bosqich. Misr madaniyatining shakllanishi tarixini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 2 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Qadimgi misrliklarning dini, yozuvi, marosimlarini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 3 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Qadimgi Misr madaniyatini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

#### 4 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Qadimgi Misr me'morchilik san'atini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

#### Guruh bo'yicha baholash mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.

Har bir talab bo'yicha – 2 ball

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazma-lilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faolligi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					

## Hisob natijasi

Guruhsar №	Umumiy ball				
1.					
2.					
Umumiy hisob Ballari					
Baho					

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun tavsija etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. -T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.-T.: TDSHI, 2006.

## **6-mavzu. QADIMGI MISRDA FALSAFIY FIKRLARNING PAYDO BO'LISHI**

### **Reja**

1. Misrliklar tasavvurida inson tabiatini, o'limi va narigi dunyo-dagi hayoti.
2. «Arfa chaluvchining qo'shig'i» asarining mazmuni.
3. «Hayotdan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z ruhi bilan suhbat» qo'lyozmasining mohiyati.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Misr madaniyati, misrliklar tasavvurida inson tabiatini, Misrda diniy dunyoqarash, "Arfa chaluvchining qo'shig'i", "Hayotdan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z ruhi bilan suhbat" dotoni, Falsafiy tizimlar, asotiriy tafakkur, qfsonalar va misflar, dunyoning kelib chiqishi, Yaqin Sharq, Sharq falsafasi, Sharq madaniyati.*

Miloddan oldingi IV va III ming yilliklar orasida Baynalnahrayn va Misr zaminida yozuvning mavjudligi haqida birinchi dalillar qo'lga kiritildi. Ammo Yaqin Sharq o'lkalari dagi yozma yozgorliklar aniq tushunchalar dastgohiga ega bo'lgan to'la falsafiy tizimlar emasligi ayon bo'ldi. Unda borliq va dunyoning mavjudligi (borliq haqidagi ta'limot) haqidagi muammo hamda insonni, uni o'rabi turgan dunyoni bilish imkoniyatlari (bilish nazariyasi) haqidagi masalada aniqlik yo'q. Bunday taraqqiyot bosqichiga Yevropa falsafiy fikri an'analarib ibtidosida turgan qadimgi yunon mutafakkirlarigina chiqqanlar. Ammo qadimgi yunon falsafasi rivojini va unga bog'liq bo'lgan butun fikriy taraqqiyotni Yaqin Sharqdagi qadimgi madaniyatlarning merosisiz to'la tushunib bo'lmaydi. Biroq Yaqin Sharqdagi madaniyatlar ta'sirini izchil tadqiq etish ishiga nisbatan kech kirishilganligi uchun keyingi yuz yil ichida qo'lga kiritilgan natijalar bilangina chegaralanishga to'g'ri keladi.

Asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash) – insonning dunyoga va bilvosita ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan munosabatini muayyan butunlikda ifodalash shakllaridan biridir. U garchi hayoliy bo‘lsa ham, bu dunyoning paydo bo‘lishi, tabiiy tartibning ma’nosи haqidagi savolga berilgan birinchi javobdir.

Dunyoni asotir tafakkur orqali tasvirlash diniy tasavvurlar bilan yaqindan bog‘liq bo‘lib, tabiat kuchlarini shaxslar faoliyati bilan ifodalashdir. Ammo u tabiat va inson jamiyatni haqidagi asrlar davomida to‘plangan bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mantiqiy fikrlash (falsafa)gina inson tafakkurini afsonaviy an'analar va uni bevosita hissiy taassurotlarga bog‘lab qo‘ygan zanjirlardan ham xalos qila olish imkoniyatini beradi<sup>30</sup>.

O‘tmishdagи Sharq falsafasini o‘sha davrdagi nuqtai nazarlarni bugungi erishilgan nazariy natijalar bilan qiyoslash imkoniyatini beradi. Sharq falsafasi dunyoni va jamiyatni tushunishda asosiy falsafiy muammolarni bayon qilish usullarining muayyan majmuini o‘z ichiga olgan. U o‘ziga xos sharqona tafakkur tarzini shakllantirganki, hozirgi yosh avlod ham undan benasib qolmasligi kerak.

Falsafa fanini o‘rganishning nazariy-ilmiy va uslubiy asoslari xolislik, ilmiylik, tarixiy-mantiqiylikka tayanadi.

Falsafaning asosiy muammolari uning ma’naviyatda tutgan o‘rnii bilan belgilanadi. Falsafa inson hayotiy faoliyatining mohiyati va ruhiy mazmunini ifodalaydi. Uning vositasida kishilar o‘zlarini anglaydilar, jamiyat, tabiat va ularning mavjudligi hamda taraqqiyot xususiyatlarini o‘rganadilar, qonunlarini kashf etadilar, hamda ularga tayanib o‘z turmush sharoitlari, amaliy faoliyat muammolarini hal etadilar. Dunyoning kelib chiqishi, uning mohiyati va insonning dunyodagi o‘rnii haqidagi savolga javob topishga harakat qilgan qadimgi falsafiy tizimlar o‘zining uzoq tarixiga egadir. Ma’lumki, insonni o‘rab turgan dunyo tadrijiy ravishda uning faoliyati uchun mavzuga aylana borgan. Inson dunyoga bo‘lgan o‘z munosabatini dastlab nazariy shakllarda ifoda qila olmagan. Inson amaliy faoliyatining rivojlanishi voqealarning muayyan izchillikda mushohada qilishga asoslangan uning qobiliyatini takomillashishiga olib kelganligi natijasida tabiat hodisalarini ba’zi qonuniyatlarini idrok etishga muvaffaq bo‘lgan. Tilning rivoji va avvalo majhul

<sup>30</sup> Qurang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 13.

tushunchalarning paydo bo'lishi nazar-  
riy tafakkurning shakllanishiga turki  
bo'lgan.

Inson umrining o'tkinchiligini idrok etish zamon haqidagi tasavvurni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Qadimgi davrning ba'zi afsonalarida zamon qadriyat mezoni sifatida namoyon bo'la boshlagan. Faqat abadiy narsagina mukammal bo'lishi haqidagi tasavvur kelib chiqqan. Abadiylik ilohiy mavjudlik va faoliyatatlilik sifatida namoyon bo'la boshlagan.

Dunyoning kelib chiqishi, uning mohiyati va insonning undagi o'mni haqidagi savolga javob topishga harakat qilgan qadimgi falsafiy tizimlar o'zining uzoq tarixiga egadir. Insonni o'rab turgan dunyo tadrijiy ravishda uning faoliyati uchun mavzuga aylana borgan. Inson dunyoga bo'lgan o'z munosabatini dastlab nazariy shakllarda ifoda qila olmagan. Inson amaliy faoliyatining rivojlanishi voqealarning muayyan izchillikda mushohada qilishga asoslangan uning qobiliyatini takomillashishiga olib kelganligi orqasida tabiat hodisalarining ba'zi qonuniyatlarini idrok etishga muvaffaq bo'lgan. Tilning rivoji va avvalo, majhul tushunchalarning paydo bo'lishi nazariy tafakkurning shakllanishiga turki bo'lgan. Inson umrining o'tkinchiligini idrok etish, zamon haqidagi tasavvurning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Qadimgi davrning ba'zi afsonalarida zamon qadriyat mezoni sifatida namoyon bo'la boshlagan. Faqat abadiy narsagina mukammal bo'lishi haqidagi tasavvur kelib kelib chiqqan. Abadiylik ilohiy mavjudlik va faoliyatatlilik sifatida namoyon bo'la boshlagan.

Inson tafakkuri taraqqiyotining muhim natijasi sifatida yozuv kashf etilgan. U bilimlarni avlodlardan avlodlarga uzatishning yangi imkoniyatini beribgina qolmay, balki bilimlarning o'z taraqqiyoti tagzaminini ham boyitgan.

Sharq mamlakatlaridagi falsafiy tafakkur taraqqiyoti to'g'ri chiziq bo'ylab rivoj topmagan. Garchi ba'zi taraqqiyot bosqichlarida va ayrim sohalarda o'zar o'sirni istisno qilmagan holda, Sharqqa



13-rasm. F. Shampolon  
(1790-1832)

taalluqli bo'lgan o'rganilayotgan uch mintaqa, ya'ni Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoy – mustaqil madaniy butunlikni tashkil etgan.

*Rozetta bitigi 1799-yilda Misrning Iskandariya shahri yaqinidagi Rozetta shaharchasidan (hoz. Rashid) topilgan granodioritdan iborat plita. Bitikda qadimgi Misr tilida qadimgi Misr ieroglifi asosida va misr demotik alifbosи qadimgi yunon tilida bitilgan matnlar bor. 1802-yilda buyon Britaniya muzeysida YeA 24-raqami ostida saqlanmoqda. Bitik matnida miloddan avvalgi 196-yilda Misr kohinlarining Ptolemylar sulolasidan bo'lgan hukmdor Ptolemy V Yelisanga yo'llagan minnatdorchilik maktubi ifodalangan.*

Yaqin Sharq tom ma'noda qadimgi davrda falsafiy an'anaga asos sola olmagan. Ammo u dunyoning boshqa mintaqalaridan farqli o'laroq, dehqonchilik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jihatidan doimiy ravishda ilgarilab ketgan. Bu narsa bilim va tajriba to'planishiga omil bo'lgan. Hosil qilingan amaliy ma'lumotlar nazariy tafakkur rivoji uchun turki bo'lgan. Ular umuman diniy tasavvurlar, mafkura va madaniyatga o'z ta'sirlarini o'tkazganlar.

Ushbu boy meros asoslarni Kichik Osiyo qirg'oqlarida yashovchi yunonlar va ular orqali butun ellistik dunyo o'zlashtirib olgan. Insoniyatning barcha bilim sohalariga Yunoniston qo'shgan buyuk hissani, shu jumladan, falsafa sohasidagi tafakkur taraqqiyotini yuqoridagi asoslarsiz tasavvur qilish mumkin emas.

Yaqin Sharqning qadimgi madaniyati Hindiston bilan aloqada bo'lgan. Ammo bu yerdagi fikr taraqqiyoti avval boshdanoq ozmiko'pmi mustaqil ravishda rivojlangan. Hindistonda iqtisodiy, siyosiy va irqiy o'zgarishlarga qaramasdan, falsafiy an'ana to'laligicha hech qachon uzilmagan. Bu an'ana hind jamiyatida doimiy barhayot merosning barqaror unsuri sifatida mavjud bo'lgan.

Xitoyning qadimgi va o'rta asrlar falsafasini ham Xitoy jamiyatining ma'naviy hayotidan ajratib bo'lmaydi. U ham mustaqil ravishda taraqqiy etgan. Ammo faqat buddaviylik unga sezilarli ta'sir etgan bo'lsa ham, biroq bir necha asrlar davomida u mahalliy an'ana va ma'naviy hayotga moslashtirilgan.

Miloddan oldindi IV va III ming yilliklar orasida Baynalnahrayn va Misr zaminida yozuvning mavjudligi haqida birinchi dalillar qo'lga kiritildi. Ammo Yaqin Sharq o'lkalaridagi yozma yozgorliklar aniq tushunchalar dastgohiga ega bo'lgan to'la falsafiy tizimlar emasligi

ayon bo'ldi. Unda borliq va dunyoning mavjudligi (borliq haqidagi ta'lilot) haqidagi muammo hamda insonni, uni o'rab turgan dunyoni bilish imkoniyatlari (bilish nazariyasasi) haqidagi masalada aniqlik yo'q. Bunday taraqqiyot bosqichiga Yevropa falsafiy fikri an'analarib ibtidosida turgan qadimgi yunon mutafakkirlarigina chiqqanlar. Ammo qadimgi yunon falsafasi rivojini va unga bog'liq bo'lgan butun fikriy taraqqiyotni Yaqin Sharqdagi qadimgi madaniyatlarning merosisiz to'la tushunib bo'lmaydi. Biroq Yaqin Sharqdagi madaniyatlar ta'sirini izchil tadqiq etish ishiga nisbatan kech kirishilganligi uchun keyingi yuz yil ichida qo'lga kiritilgan natijalar bilangina chegaralanishga to'g'ri keladi.

Asotir tafakkur (afsonaviy fikrlash) – insonning dunyoga va bilvosita ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatini muayyan butunlikda ifodalash shakllaridan biridir. U garchi hayoliy bo'lsa ham, bu dunyoning paydo bo'lishi, tabiiy tartibning ma'nosi haqidagi savolga berilgan birinchi javobdir.

Dunyoni asotir tafakkur orqali tasvirlash diniy tasavvurlar bilan yaqindan bog'liq bo'lib, tabiat kuchlarini shaxslar faoliyati bilan ifodalashdir. Ammo u tabiat va inson jamiyatni haqidagi asrlar davomida to'plangan bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Mantiqiy fikrlash (falsafa)gina inson tafakkurini afsonaviy an'analar va uni bevosita hissiy taassurotlarga bog'lab qo'ygan zanjirlardan ham xalos qila olish imkoniyatini beradi.

O'tmishdagi Sharq falsafasini o'sha davrdagi nuqtai nazarlarni bugungi erishilgan nazijalar bilan qiyoslash imkoniyatini beradi. Sharq falsafasi dunyoni va jamiyatni tushunishda asosiy falsafiy muammolarni bayon qilish usullarining muayyan majmuuni o'z ichiga olgan. U o'ziga xos sharqona tafakkur tarzini shakllantirganki, hozirgi yosh avlod ham undan benasib qolmasligi kerak.



14-rasm. Misr iyerogliflari

Miloddan avvalgi IV-III mingyilliklar orasida yagona Misr davlati paydo bo'lmasdan oldin misrliklar tasavvurida inson tabiatini, o'limi va narigi dunyodagi hayoti haqida muayyan qarashlar shakllangan edi. Misrliklar fikricha: "Ismga ega bo'lmanan narsa, mavjud bo'lmaydi". Shuning uchun tabiiyki, qabr toshida abadiylashtirilgan ism o'lgan kishi hayotini abadiylashtiradi; va aksincha, ismni yo'q qilish, uni egasini yakson qilish bilan barobardir. Misrliklar tasavvurida jasadni butun holda saqlash narigi dunyodagi abadiy hayotga zamin bo'lar edi. Shuning uchun jasadni mumiyolash rasm bo'lgan.

*Rozetta bitigi 1799-yil 15-iyulda Misrdagi fransuz qo'shinnari kapitani Per Fransua Bushar tomonidan topilgan va Qohiradagi Napoleon tomonidan tashkil qilingan Misr institutiga topshirilgan. 1822-yilda Jan Fransua Shampolon bиринчи bo'lib bitikdagи Ptolemy va Kleopatra, shuningdek, yangi davrga oid Ramzes II va Tutmos III nomlarini o'qiy oldi.*

Qadimgi Misrdagi kishilarning dunyo va jamiyat haqidagi qarashlari ma'lum darajada afsonalar va ertaklar, rivoyatlar va qo'shiqlar kabi xalq og'zaki ijodi namunalarida saqlanib qolgan. Ular orasida «Isida va Osiris haqida»gi afsona, «To'g'ri va egri haqida»gi ertakni ko'rsatish mumkin. Qadimgi yunon mutafakkirlari Plutarx («Isida va Osiris haqida») va Gerodotning («Tarix») asarlari ham misr afsonalari haqidagi ma'lumotlar manbai hisoblanadi<sup>31</sup>.

Qadimgi misrliklarning qarashlarida turmush va dunyoning mavjudligi (ontologiya) muammolari hamda insonning bilish imkoniyatlari (gnoseologiya) haqidagi masalalar hali o'zining tugalligi va aniqligiga erishmagan edi. Ko'pchilik hollarda bu qarashlar dunyoning paydo bo'lishi, tabiiy tartibotlarning ma'nosи, unson mavjudligining mazmuni nimada ekanligi to'g'risidagi dastlabki savollarga ko'proq afsona tarzidagi javoblar edi.

Dunyonи afsonaviy tasvirlash ko'pincha diniy tasavvurlar bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Plutarxning fikricha, misrliklar Ra xudosini dunyoning yaratuvchisi deb hisoblashadi. Bu Osiris, Isida, Seta va boshqa xudolarni hamda dastlabki insonlarni yaratgan.

<sup>31</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 14.

Vaqt o'tishi bilan qarib va kuchsizlanib qolgan Ra xudosiga boshqa xudolar va kishilar bo'ysunmay qo'yishadi. Ana shunda Ranning tashabbusi bilan xudolar kengashi chaqiriladi va unda kishilarni jazolashga qaror qilinadi. Uni amalga oshirish Xator xudosiga topshiriladi, u yerga tushib kishilarni halok qilishga kirishadi. Nihoyat Ra kishilarga rahm qiladi va qirg'inbarotga chek qo'yiladi. Qartayib qolganligi bois Ra podshohlik qilishdan voz kechadi.

*Tomas Yung (1773-1829) ingliz diplomati va sharqshunosi bo'lib, Rozetta bitiklarini tarjima qilishga harakat qilgan va bunga muvaffaq bo'lgan. Ingliz zabon dunyo aynan Yungni qadimgi Misr yozuvini tarjimonи sifatida tan oladi.*

Radan so'ng ketma-ket uning uch juft farzandlari – juft xudolar podshohlik qilishadi. Podshohlik qilgan so'nggi juft xudolar – Osiris va Isida hisoblanadi. Ular kishilarni yaxshi xulqli qilib tarbiyalashga intiladilar va ular orasida madaniyatni keng yoyishga harakat qiladilar. Osirisning vafotidan so'ng podshohlik qilish yarim xudolarga o'tadi. Ulardan so'ng esa podshohlik qilish kishilarga nasib etadi.

Bunday tasavvurlar Misorda o'sha paytda ko'pxudolik – politeizm mavjudligidan dalolat beradi. Firavn Amenxeton IV (Exnaton) davriga kelib (mil.avv.1419–1400-yy) Quyosh xudosi hisoblanmish Atonga yagona xudo sifatida sig'inish joriy qilingan.

O'zlarining hukmronligini yanada mustahkamlash maqsadida shohlar o'zlarini u yoki bu xudoning o'g'li deb e'lom qiladilar. Qadimiy podshohliklar davrida firavn shaxsini ulug'lash, uni xudoning o'g'li deb e'lom qilish, to'g'rirog'i uni yerdagi xudo deb bilish o'sha davr uchun tabiiy holat edi.

Yuz berayotgan barcha siyosiy hodisalar yer va osmondag'i xudolar istagini ko'rinishi deb tushunilardi. Bu haqda Misrdagi piramidalarning ichki devoriarida hozirgacha saqlanib qolgan yozuvlar, firavnlar sha'niga to'qilgan madhiyalar dalolat beradi. Shunday yozuvlardan bizgacha saqlanib qolganlaridan biri «Ptaxotepning nasihatlari»dir. U mil.avv.I ming yillikda yaratilgan bo'lib, shu nomdag'i vazirning nomidan olingan. Unda kishilarning tengsizligiga tabiiy hodisa sifatida qaraladi.

Past tabaqadagi kishi yomon, yuqori tabaqa kishisi esa yaxshi, ahamiyatli, muruwatli kishi deb hisoblanadi. Past kishi yuqori tabaqadagi kishiga bo'ysunishi lozim. Ayni holda yuqori tabaqa kishisi past tabaqa kishilariga rahm-shafqat qilishi lozim, ularni xo'rmaslik va ularga yomonlik qilmaslik kerak.

Narigi dunyodagi abadiy hayotga qarshi bo'lgan aqidani ifodalovchi asar bo'lgan "Arfa chaluvchining qo'shig'i" O'rta saltanat davrida, ya'ni mil.avv. III mingyillik oxirida XI sulo-la fir'avni Intef hukmronligi davrida paydo bo'lgan edi.

Bu asarda qayd etilishicha, yerdagi barcha narsa foniylar bo'lib, hammasi yo'q bo'lishi muqarrardir; asrlar davomida kishilik jamiyatidagi avlodlar birlari ketidan boshqalari qabrga manzil tutadilar, qabr yodgorliklari yemiriladi va yo'qoladi, va ko'milganlardan hatto hech qanday esdalik qolmaydi; faqat qadimgi dunyoning donish-mandlari bo'lgan Imxotep va Djedefxorni shuning uchun eslaydilarki, ularning aytganlarini hamma biladi va takrorlab turadi; o'lganlardan hech biri narigi dunyodan qaytib kelmaganki, tiriklarga ularni nima kutayotganligini gapirib bersa; shuning uchun hayotning barcha na'matlardan foydalanish kerak, shodu-xurramlik va lazzatlanish zarur, negaki, o'limning barhaqligini hech qanday narsa bartaraf qila olmaydi<sup>32</sup>.

"Arfa chaluvchining qo'shig'i" yerdagi hayotga yuqori baho beribgina qolmay, narigi dunyoga nisbatan bo'lgan e'tiqodga, yashirmasdan, umidsizlarcha qarashni boshlab berdi.

Berlinda saqlanayotgan papiruslarda bitilgan qadimgi Misr adabiyotining eng qiziq va mashhur asari "Hayotdan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z ruhi bilan suhbati", deb nomlangan. Papirus O'rta saltanat davriga taalluqlidir. "Suhbat" savol-javob shaklida bo'lib, hayotdan to'yan va o'zini o'zi o'ldirmoqchi bo'lgan shaxsning o'z ruhi bilan ichki muloqotidirki, unda ruh hayotni zarurligini ta'kidlab, uni sohibini o'z ra'yidan qaytarmoqchi bo'lgan.

"Bugun men yuragimni kimga ochay?" "Hafsalasi pir bo'lgan kishi"ning javobi ham o'ziga xos: "Yuraklar ochko'zlik bilan to'lib toshgan, har kim birovning haqiga qo'l cho'zadi"; "Olijanob kishilar yo'qligidan, mushtumzo'r larga keng maydon ochiq"; "Behayo o'z qurbanini toptaydi, kishilarga esa, tomosha bo'lsa-bas!"; "Ilgarigi

<sup>32</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 15.

yaxshi zamonalarni hech kim eslamaydi. Yaxshilikka yaxshilik qaytishini kutmaysan”; “Do’stlar po’panak bosib qoldilar, birovlardangina rahm-shavqat kut”; “Adolatli kishilar yo‘q, yer makkorlarga berilgan”; “Qabohat yer yuzini bosib ketgan, uning boshi ham, oxiri ham yo‘q”.

“Hafsalasi pir bo‘lgan”ga a’tiroz bildirib, uning “ruhi” yer yuzidagi tartiblarga to’xtalmaydi, ammo o’lim va narigi dunyo to‘g’risida butunlay boshqa nuqtai nazarni bayon qiladi. Uning fikricha, o’lim va narigi dunyo to‘g’risida o’ylashning hech keragi yo‘q; ehromlar va maqbaralar qurishning ham zaruriyati yo‘q. Ular baribir buziladilar va hech kimga yaroqsiz holatga tushadilar. Shuning uchun hayotning lazzatlaridan foydalanish kerak.

Qarshimizda qadimgi Misr jamiyatni ijtimoiy fikrining ikki bir-biriga qarshi oqimi vakillarining savol-javoblari turganligi ayondir. “Hafsalasi pir bo‘lgan kishi” muhofizakor (konservativ) yo‘nalish vakili bo‘lib, an’anaviy ta’limot bo‘lgan o’lim va narigi dunyodagi hayotga qat’iy ishonadi va jamiyatdagi yangi munosabatlarni shafqatsiz va chidab bo‘imas, deb qoralaydi. Uning “ruhi” esa, bar aks, hamma tomonidan qabul qilingan abadiy barhayotlik diniy aqidasini tanqid qilib, qanday ko‘rinishda bo‘imasin insonni o‘z hayoti bilan murosaga kelishga undaydi.

### Seminar mashg‘uloti va mustaqil ta’lim uchun vazifalar

1. Misrliklar tasavvurida inson tabiatini, o’limi va narigi dunyodagi hayotini izohlang.
2. “Arfa chaluvchining qo’shig‘i” asarining mazmunini sharhlang.
3. “Hayotdan hafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z ruhi bilan suhbat” qo‘lyozmasining mohiyatini izohlang.
4. Misr madaniyati bo‘yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
5. “Qadimgi Misrda diniy tasavvurlar” mavzusida falsafiy esse yozing.
6. Misr ilohlariga oid internet materiallarini to‘plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
7. “Hayotdan hafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z ruhi bilan suhbat” dostonining o‘ziga xos jihatlarini topping va referat tayyorlang.

8. "Arfa chaluvchining qo'shig'i" ga oid eng umumiy jihatlarni toping va slayd tayyorlang.

9. Mavzu yuzasidan B/B/B jadvalini to'ldiring (1-ilova).

10. Insert usulidan foydalananib, quyidagi jadvalni to'ldiring (2-ilova).

### **Insert usulidan foydalananib ishlash qoidasi**

1. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V -- bilaman

Q -- men uchun yangi ma'lumot

- -- men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? -- noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarни jadval shaklida rasmiylashtiring.

**2-ilova**

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

### **O'quv topshiriq:**

"Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash" orqali o'qituvchi talabalarni to'rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

#### **1 – guruh topshirig'i**

1-bosqich. Misrliklar tasavvurida inson tabiatini, o'limi va narigi dunyodagi hayotini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va-rog'ining to'l-dirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 2 – guruhi topshirig'i

1-bosqich “Arfa chaluvchining qo'shig'i” asarining mazmunini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruha muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va-rog'ining to'l-dirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 3 – guruhi topshirig'i

1-bosqich. “Hayotdan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z ruhi bilan suhbat” qo'lyozmasining mohiyatini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruha muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va-rog'ining to'l-dirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 4 – guruh topshirig‘i

1-bosqich. Qadimgi Misr me’morchilik san’atini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faoliigi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

### Guruh bo‘yicha baholash mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.

Har bir talab bo‘yicha – 2 ball

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko‘rgazmalilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faoliigi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					

### Hisob natijasi

Guruhlar №	Umumiy ball				
1.					
2.					
Umumiy hisob Ballari					
Baho					

**Seminar mashg‘uloti va mustaqil ta’lim uchun  
tavsiya etilgan adabiyotdar:**

1. Adamson Peter. *Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction*. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. *A History of Islamic philosophy*. New York, 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .*The Essential World History, Volume I: To 1800*: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. *Eastern Philosophy. The Basics*. New York, 2013.
5. Po‘latova D. Qodirov M. va boshq. *Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma*. –T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. *Mas’ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.*–T.: TDSHI, 2006.

## **7-mavzu. MESOPATAMIYA VA QADIMGI ERON, MARKAZIY OSIYO, KAVKAZBO'YI VA SHARQIY O'RTAER DENGIZ BO'YLARI XALQLARI MADANIYATI**

### **Reja**

1. Qadimgi Mesopotamiya madaniyati.
2. Suriya va Finikiya madaniyati.
3. Elam o'lkasi. Eronda qadimgi dinlar, madaniyat, san'at, me'morchilik, Ahmoniyalar imperiyasi.
4. Midiya, Mitanni, Qadimgi Xett, Frigiya, Lidiya, Urartu davlatlari madaniyati.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Mesopotamiya madaniyati, Suriya va Finikiya madaniyati, finikiyaliklar koloniyalari, finikiya alifbosi, Tir va Sidon madaniyatlari, Elam, Suza, Elam madaniyati, Qadimgi Eronda diniy tasavvurlar, Midiya madaniyati, Ekkatan, Ahomaniylar imperiyasi, Beqistun yodgorligi, Xett madaniyati, Urartu madaniyati, Teyshabaini, misflar, dunyoning kelib chiqishi, Yaqin Sharq, Sharq falsafasi, Sharq madaniyati.*

Mil.avv.III ming yillikda Falastinda Megiddo, Quddus va Laxesh shaharlari shakllanadi. Barcha shaharlar mustahkam devorlar bilan o'rab olingan. Iordan darvosi vodiysida Xasor shahri yirik markazga aylanadi. Mil. avv. III niung yillikda Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'ogi abolisi o'z tarkibiga ko'ra xilma-xil edi. Shimolda xurrit qabilalari yashagan. Mil.avv. II mitig yilliklarda bu yerda xettlar kirib keladi. Ammo mil.avv.IV ming yilliklarda asosiy aholi semit shoxobchasi tillarida so'zlashadi. Tadqiqotchillar sharqiy O'rtaya yer dengizi qirg'og'ida III-II ming yilliklarda mavjud bo'lgan eblaid. qadimgi xanaan, ugarit va amoriy tillarini ko'rsatadilar. Damashqning yuksalishi mil. avv. II ming yillik oxirida Arabistonдан kelgan somiy qabilalaridan biri oromiyalar bilan bog'liq. Ular Arabistonda tuyu

boqish va ko paytirish bilan mashg ul bo'lganlar. Mil. avv. I ming yillik boshlarida oromiyalar I Suriya va Shimoliy Mesopotamiyada oromiy-xurrit aholisini to'la assimilyatsiya qiladilar. Bu vatga kelib, oroniyy tili Old Osiyoda asosiy tillardan biriga aylanadi. Er. avv. II ming yillik oxirlarida kontinental Suriyada savdo vo'llari kesishgan nuqtada Arabistonidan kelgan somiy qabilalaridan biri oromiylarning Suriyadagi bosh markazi Damashq shahri kuchayib ketadi. Damashq podsholigining iqtisodiyoti rivojlangan I chorvachilik, butun Yaqin Sharqqa mash-hur bo'lgan qurolozlik va oliy navli jun bilan vositashilik savdosiga asoslangan. Damashq podsholari Qadimgi xurrit podsholari unvonlarini eslatadigan "Xudo Bo'ri O'g'li" ("Ben-Xadam") unvonini I olganlar.

Mil. avv. IX asr o'rtalarida Damashq osur podsholari Ash-shurnasirpal II va Salmanasar III ni Sharqiy o'rtaer dengizi hududida bosqinchilik urushlariga qarshi kurashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mil. avv. 853-yil Damashq podshosi Ben Xabad II va Isroil podshosi Axav boshechiligidagi birlashgan qo'shin Qarqara yonidagi jangda Salmanasarni 120 ming kishilik qo'shining hujumini qaytardi. Mil. avv. 841-yilda esa Salmanasar Damashq qo'shinarini yengadi va shaharni qamal qiladi, lekin uni ishg'ol qila olmaydi. Mil. avv. VIII asr boshlarigacha Ossuriya Sharqiy O'rtayer dengizini bo'ysundi-rishga harakat qiladi, lekin bu yerda o'rasha olmaydi.

Mil. avv. IX asrning II yarmida Damashq podshosi Benxabad III Isroilning Iordan daryosi ortidagi mulklarini qo'lga kiritadi. janubiy Falastinga ham kiradi va Yahudiyadan xiroj oladi. Damashq podshosi Benxabad III shimoliy Suriyani 17 hokimini birlashtirib, ularni Orontdag'i o'zining raqibi Xamat podsholigiga qarshi qo'yadi. Mil. avv. IX asr oxirida beto'xtov urushlar sababli zaiflashib qolgan Damashq Ossuriya podshosi Adadnerari III qo'shinalari tomonidan bosib olindi. Ossuriyaliklar bu yerda ulkan miqdorda temirni o'lja sifatida oladilar<sup>33</sup>.



Mesopotamiya mixxat  
yozuvি

<sup>33</sup> Qaraqog. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 22.

Sharqiy O'rtayer dengizida birinchilikni da'vo qilgan qudratli davlatlar Tir-Sidon va Damashq bilan bir qatorda kichik davlatlar ham mavjud bo'lgan. Jumladan, Shimoliy Suriyadagi Karxemish boy savdo hunarmandshilik markazi bo'lgan. Xett davlati yemirilgach, u mustaqil bo'ladi va xett tili, xett madaniy an'analarini saqlab qoladi.

Mil. avv. XII asrda Falastin hududida kelgindi ko'chmanchi Isroil qabilalari va mahalliy xananlar birlashib 12 qabila ittifoqini shakllantiradilar.

Mil. avv. XI asr boshlarida Falastinda temir qurollar ishlab chiqarishda yetakshi bo'lgan filistimlar hukmronligi o'matiladi. Isroil qabilalari filistimlarga qarshilik ko'rsata olmaydi. Falastinda isroil qabilalari Misrdan kelib o'mashadilar. Mil. avv. XIII asrda o'n ikki yahudiy qabilalari Falastinga bostirib kirib, mahalliy Xanaan shahardavlatlarini bo'ysundirganlar. Yahudiy so'zi etimologik jihatdan «daryo ortidagi aholi» degan ma'noni bildiradi. Saylab qo'yiladigan yo'lboshchi-Shofetlar ("Qozi"), oliy kohinlar vazifasini-bajarib, qabila ko'ngili qo'shinlariga boshchilik qilganlar va tinslik paytida ajrim ishlari bilan shug'ullanganlar. Saylab quyiladigan yo'lboshchilar asosida metosiy podsho hokimiyyati shakllanadi. Filimstyanlar bilan bo'lgan janlar davomida podsho qilib Saul saylanadi. U birinchi merosiyl podsho bo'ladi. Saul Filistimlar bilan bir necha g'olibona urushlar olib boradi, lekin navbatdagi urushda mag'lub bo'lgani uchun o'zini o Idiradi. Mil. av. 1000-yillar atrofida Saulning oddiy jangchisi Dovud Isroil podshosi bo'ladi. Dovud, markazlashgan harbiyy-byurokratik davlat tuzishga harakat qiladi. Dovud (mil. avv. 1010-970 yy.) podsholigi davrida markazlashgan davlat tuziladi. Bosib olingan Quddus yangi davlatning poytaxti bo'lgan. Mamlakatni boshqarish uchun markaziy davlat organlari tuziladi. Podsho kritlik va filistimlardan o'ziga sodiq yollanma qo'shin tuzadi. Dovud faol tashqi siyosat olib boradi. U filistimlar bilan sulkh tuzadi. Iordan daryosi ortidagi yerlar filistimlar va janubiy Suriya oromiyalarini bo'ysundirib davlat chegarasini Akab qo'ltig iga olib boradi. Dovudning taxtini uning kichik o'g'li Sulaymon (mil. avv. 970-930-yy.) egallaydi. Sulaymon davrida qurilish ishlari keng yo'lda qo'yiladi Uning davrida Quddusda xudo Yaxva sharafiga ibodatxona quriladi. Davlat hududi 12 okrugga bo'linadi. Ularning har biri yilda bir oy podsho saroyiga oziq-ovqat yetkazish majburiyatini olganlar. Mehnat majburiyati joriy qilinadi. Rivoyatlarda Sulaymon dono va adolatli podsho deb ta'riflanadi.

Haqiqatda esa Sulaymon hokimiyatparast hukmdor bo'lib, aholiga ko'plab soliq va majburiyatlamli yuklagan. Boshqa xalqlarga nisbatan shafqatsiz siyosat yuritgan<sup>34</sup>.

Sulaymon podsholigining so'nggi yillarda shimolda Damashq podsholigi kuchayadi. Sulaymonning shafqatsiz siyosatidan norozi bo'lган 10 shimoliy yahudiya qabilalari ajralib chiqib, Isroil podsholigini tashkil qiladilar. Uning poytaxti yangi qurilgan Samariya shahri bo'lган. Dovud sulolasи hukmdor bo'lган Quddus podsholigi uning bosh qabilasi nomi bilan Yahudiya deb atalgan. Ikkala podsholik ham bir-biri bilan dushmanchilik munosabatida bo'lib vaqtiga qabilasi nomi bilan Yahudiya deb atalgan. Ikkala podsholik ham bir-biri bilan dushmanchilik munosabatida bo'lib vaqtiga qabilasi nomi bilan Yahudiya deb atalgan. Ikkala podsholik ham bir-biri bilan dushmanchilik munosabatida bo'lib vaqtiga qabilasi nomi bilan Yahudiya deb atalgan. Misr fir'avni Sheshonk I Mil.avv. 926-yilda Falastinga yurish qilib Yahudiya va Isroilni bosib oladi. Mil.avv. VIII asri o'rtalaridan-VI asrlarida Sharqiy O'rtayer dengizi.

Mil. avv. I ming yillikda Falastinda savdo-hunarmandchilik, dehqonchilik rivoj topadi. Tashqi savdo kuchayib, ortiqcha g'alla va boshqa mahsulotlar Tir shahriga sotiladi. Yerga xususiy mulkchilik paydo bo'ladi. Mil. av. VIII-VI asrlarda Falastinda quyidagi 4 toifa mavjud bo'lган: dunyoviy zodagonlar, diniy zodagonlar (koxinlar, payg'ambarlar), yerli xalq (erkin aholining asosiy qismi), begona yurtliklar (kelgindi va ko'shib kelganlar), eng pastki pog'onada quyllar turgan.

Mil.avv.VIII asr o'rtalarida Ossuriya, (mil. avv. 732-722-yy) Damashq va Isroil davlatlarini tor-mor qiladi. Tir-Sidon podsholigining katta qismi Ossuriya tomonidan bosib olinib, tobe hududga aylantiriladi. Finikiyaliklar Ossuriya zulmiga qaishi kuchli qarshilik ko'rsatdilar. Yuz yil davomida Tir shahri 5 marta Ossuriya tobelligidan qutulishga harakat qildi. Irim shunday ikkinchi qarshiligidan podsho Sinaxxeribni mil.avv. 701-yilda bostirishi natijasida lir shahridan boshqa barcha Finikiya shaharlari ajratib tashlanadi. Natijada Tir-Sidon podsholigi dengiz orti hududlari bilan tugatiladi. Ossuriyaning g'arbiy qismiga skiflarning hujumi Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ida Ossuriya hukmronligiga chek qo'yadi.

Yahudiya podshosi Iosiya (mil. avv. 640-609-yy) davlat mustaqilligini tiklab, podsholar Dovud va Sulaymon davridagi davlat chegaralarini tikladi. Misr esa Frot daryosigacha bo'lган yerlarni bosib olib, mil. avv. 616-yilda bobilliklarga qarshi Mesopotamiyada Ossuriyalik-

<sup>34</sup> Qurang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 20.

larga yordamga keladi. Bu vaqtida Tir shahri vaqtinchalik butun Finikiyada yetakchi davlatga aylanadi. Tir savdogarları mil. avv. VII asr oxiri VI asr bosħlarida Kichik Osiyoning sharqi va Janubiy Arabistonga suqilib kirdilar, Ispaniyadan kumush hamda Britaniyadan qo'rg'oshin tashiganları ehtimoldan holi emas. Iosiy davrida Yahudiyada mono-teistik harakat boshlanadi. Yaxve, yagona xudo deb e'lon qilinadi.

Ossuriyaning halokatidan keyin Sharqiy O'rtayer dengizi Misr va Bobil o'rtasidagi raqobat maydoniga aylanadi. Mil. avv. 609-yilda fir'avn Nexo II Megiddo yonidagi jangda Osiya qo'shinlarini yengib, Yahudiya Misrga tobe bo'ladi. Misr va Bobil o'rtasidagi raqobat oxir-oqibatda mil.avv. 587-yilda Yahudiyani halokati, yahudiyalarning Mesopotamiyaga asir qilinib olib ketilishi, butun Sharqiy O'rtayer dengizini Bobilga tobe bo'lishi bilan yakunlanadi. Mil. avv. 539-yilda Ahmoniyalar tomonidan Bobilni bosib olinishi bilan bu hududda forslar hukmronligi o'rnatiladi va Ahmoniyalar Quddus hamda uning atrofida-gi hududlarga cheklangan muxtoriyatlar berdilar<sup>35</sup>.

Sharqiy O'rtayer dengizi hududini eng katta yutug'i alifboli yozuvni yaratilishi edi. Mil.avv. II ming yillikda Sharqiy O'rtayer dengizi shaharlarida savdo-hunarmandchilik, dengizchilikni taraqqiyoti, barchani qondiradigan savdo ishlarini tez yuritishga imkon beradigan oddiy yozuvni yaratishni talab qildi.

Mil.avv.XV-XII asrlardayoq Ugaritda o'ttiz belgili mixxat alifbosi qo'llanilgan. Finikiya alifbosi nisbatan takomillashgan tizim bo'lib yunonlar tomonidan qabul qilinib, keyinchalik barcha zamonaviy alifbolarga asos bo'ldi.

Sharqiy O'rtayer dengizi xudolar panteoni tabiat kuchlarini aks ettiradi. Har bir shaharni o'z homiy ma'budi bor edi: Bal (hokim) yoki En (xudo), ba'zida Melek ("podsho", boshqacha aytilishi Molox), Tir shahrida Mel kart ("shahar podshosi"), ayol ma'buda Astarta (Mesopotamiyada Ishtar). Falastinda mil. avv. VIII-VI asrlarda monoteistik ta'limot keng tarqaldi.

Ugarit va Ebla shaharlarida hashamatli me'morshilik inshootlari saroylari bunyod qilingan. Dengizshilik kemasozlik sohalari yuksak darajaga kotaiiladi. Yog och va toshdan podsho va ma'budalar xaykalari yasalgan. Mil. avv. 600-yillar atrofida firavn Nexo buyrugi bilan finikiyaliklarni dengizshilik tarixida ilk bor Gibrallar orqali Atalantika


<sup>35</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 23.

okeaniga chiqib, Afrikani aylanib o'tishlari buyuk kashfiyat edi. Finikiyaliklar mohir kemasoz bo'lganlar. Ularning kemalaridan misrliklar va boshqa Old Osiyo xalqlari keng foydalandilar.

Damashqning yuksalishi mil.avv. II ming yillik oxirida Arabistondan kelgan somiy qabilalaridan biri oromiyilar bilan bog'liq. Ular Arabistonda tuya boqish va kopaytirish bilan mashg'ul bolganlar. Mil.avv.I ming yillik boshlarida oromiyiar Suriya va Shimoliy Mesopotamiyada oromiy-xurrit aholisini to'la assimilyatsiya qiladilar. Bu vatga kelib, oromiy tili Old Osiyoda asosiy tillardan biriga aylanadi. Mil.avv. II ming yillik oxirlarida kontinental Suriyada savdo yo'llari kesishgan nuqtada Arabistondan kelgan somiy qabilalaridan biri oromiylarning Suriyadagi bosh markazi Damashq shahri kuchayib ketadi. Damashq podsholigining iqtisodiyoti rivojlangan chorvachilik, butun Yaqin Sharqqa mashhur bo'lgan qurolsozlik va oliy navli jun bilan vositashilik savdosiga asoslangan. Damashq podsholari Qadimgi xurrit podsholari unvonlarini eslatadigan "Xudo Bo'ri O'g'li (Ben-Xadam) unvonini organlar.

Mil.avv. IX asr o'rtalarida Damashq osur podsholari Ashshurnasirpal II va Salmanasar III ni Sharqiy O'rtayer dengizi hududida bos-qinchilik urushlariga qarshi kurashda hal qiluvchi rol yo'naydi. Mil.avv. 853-yil Damashq podshosi Ben Xadam II va Isroil podshosi Axav boshchiligidagi birlashgan qo'shin Qarqara yonidagi jangda Salmanasarni 120 ming kishilik qo'shini hujumini qaytardi. Mil.avv. 841-yilda esa Salmanasar Damashq qo'shinlarini yengadi va shahg'mi qamal qiladi, lekin uni ishg'ol qila olmaydi. Mil.avv. VIII asr boshlarigacha Ossuriya Sharqiy O'rtayer dengizini bo'yundirishga harakat qiladi, lekin bu yerda o'masha olmaydi.

*Leyyord Ostin (1817-1894) ingliz arxeologi va sharqshunosи bo'lib, 1845-1851-yillarda qadimgi Ossuriya shaharlarini arxeologik tadqiqotini o'tkazgan. 1849-yilda Nineviya shahri, xususan, mashhur Ashshurbanipol saroyini va kutubxonasini topgan.*



Ashshurbanipolning askarları

Poytaxti Sard bo'lgan Lidiya podsholigi taxminlarga ko'ra miloddan avvalgi XII asrda Anatoliyaga (hozirgi Turkiya hududi) egey-bolqon bosqinlaridan keyin xett kolonistlari, mahalliy liviya qabilasi bo'lgan meonlar tomonidan tashkil etilgan. Miloddan avvalgi VIII asrda Lidiya Frigiyaga bo'ysunadi. Miloddan avvalgi 685-yillar atrofida taxtni podsho navkari Gig (Gug), egallab olib yangi Mermnad sulolasiga asos soldi. Bu sulola davrida Lidiya buyuk davlat mavqeini oldi. Miloddan avvalgi 675-yildan Lidiya mustaqil bo'ldi. Biroz vaqt o'tmay Lidiyaga kimmeriyalar bostirib kirdi. Lidiya podshosi Gig Ossuriyaga yordam so'rab murojaat qildi va Ashshurbanipal (mil. avv. 667-yil) hokimiyatini rasman tan oldi. Ossuriya bilan ittifoq bo'lib kimmeriyalar hujumi qaytarildi. Miloddan avvalgi 654-yil Lidiya zaiflashgan Ossuriya tarkibidan shiqib Misr bilan ittifoq tuzdi. Miloddan avvalgi 644-yilda kimmeriyalar Sardni bosib oldilar, Gig o'ldirildi, uning vorisi yana Ossuriyaga tobe bo'ldi. Kimeriyalar skiflar tomonidan tor - mor qilindi (mil. avv. 643-yil). Skif-Ossuriya urushi (mil.avv.630-yillar oxiri) Lidiyani mustaqil bo'lishiga imkon yaratdi. Lidiya podsholar Aliat va uning vorisi Krez (mil.avv.561 - 547yy) davrida Patagoniya, Vifiniya, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari bo'ysundirildi. Lidiya Likiyadan tashqari Galis daryosidan g'arbdagi butun Kichik Osiyoni bo'ysundiridi. Lidiya dunyoda birinchi bo'lib oltin va kumushning tabiiy qo'shilmasi-elektralon (mil. avv. VII asr) tanga zarb qildi va oltin tanga VI asrda zarb qilindi. Krez davrida savdo-hunarmandchilik - gullab yashnadi. Ammo mil.avv.547-yilda Krez Sard shahri yonida Kayxusrav boshchiligidagi fors qo'shinlari tomonidan tor-mor qilindi va Lidiya fors davlati tarkibiga kirdi.

Lidiya arxaik harbiy davlat edi. Podsho otliq qo'riqshi va muntazam qo'shinga tayanib davlatni boshqargan. Podsho odida zodagonlar kengashi va xalq yig'ini bor edi. Lidiya tarixga musiqa san'ati rivojlangan mamlakat sifatida kirdi.

Urartu tarixiga oid osur, urartu hujjatlari, podsho yozuvlari mavjud, shuningdek, oz miqdorda xo'jalik hujjatlari ma'lum. Xurritlarga qarindosh bo'lgan Urartu (Uruatriy) qabilalari mil. avv. 1300-yillar atrofida qabilalar ittifoqiga birlashganlar. Miloddan avvalgi IX asr o'rtalarida bu ittifoq Biayncli ("Van"; osurlar Urartu deb atagan) nomli davlayni barpo qildilar. Uning markazi Tushpa bo'lib, Van ko'lini sharqida joylashgan edi.

Urartu davlatining o‘z taraqqiyotini gullab-yashnagan davri podsho Menua (810-786 yy) va uning vorislari hukmronligi vaqtida (mil. avv. IX asr oxirida) zaiflashgan davri Rusa I podsholigi hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. Davlat xo‘jaligining asosini sug‘orma dehqonchilik tashkil etib, ekinzorlarda erkin dehqonlar mehnat qilganlar. Asir qullar ko‘p sonli bo‘lgan. Ular podshoh xo‘jaligida, dehqonchilik va hunarmandchilik sohalarida ishlaganlar. Urartuni davlat boshqaruvi podshoning yakka hukmronligiga asoslangan<sup>36</sup>. Podsholarning eng birinchi vazifasi mamlakatni qudratli dushman Ossuriya bosqinidan himoya qilish edi.

Urartu davlati uzoq vaqt Ossuriya davlatining bosqiniga uchradi. Ossuriyaning ko‘p sonli qo‘sishnlari Urartu qal’a, shaharlarini talontaroj qildilar. Mil. avv. VIII asr oxirida Urartularning diniy markazi Musasir Ossuriya qo‘sishnlari tomonidan bosib olingan. Podsholar Argishti va Sarduri II Ossuriyaga qarshilik ko‘rsatishga harakat qildilar. Ular Ossuriyaga qarshi turli koalitsiyalarga kirdilar, lekin Ossuriya kichik Urartuni o‘ziga tobe qildi. Bundan tashqari ko‘chmanchi kimmeriyalar Urartu shahar, qishloqlarini taladilar. Zaifashib qolgan Urartu mil.avv. VI asrda Midiya tomonidan bosib olindi. Urartuni madaniyati va iqtisodi to‘g‘risida arxeologik qazishmalar boy ma lumot beradi. Teyshebani (Karmir Bilur) Eribuni (qadimgi Yerevan) va Argishtihinil (podsho Argimshi qurgan) shaharlari kuchli fortifikatsiya inshootlari bilan o‘rab olingan. Teyshebani qal’asidagi ombor va oziq-ovqat saqlanadigan omborlarda birdaniga 5000 gettarli dala va uzumzorlar hosilini saqlash mumkin edi.

Mil. avv III-II ming yilliklardagi davlat uyushmalari Tavr tog‘laridan va Frot daryosining o‘rtaya oqimining Misrgacha bo‘lgan Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘og‘i hududi va Suriyani qadimda yunonlar Finikiya va Falastin deb nomladilar. Qadimda bu hududning katta qismini Xanaan deb atalgan dengiz qirg‘ogi tashkil etardi. Shu bilan birga Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘ogi temir rудаси, keng o‘rmonlar jumladan, mashhur Livan kedriga boy bo‘lgan. Qadimda Sharqiy O‘rtayer dengizi qirg‘ogida yashagan qabilalar va xalqlar to‘g‘risida qo‘shti davlatlar manbalari (Misrning Tell-Amarna arxivisi, Xett hujjatlari, Ossuriya ma’muriy yozishmalarij‘va mahalliy yahudiy dini yodgorligi bo‘lgan Bibliya (yunon tilida «kitoblar» ma’nosini

<sup>36</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 23.

bildiradi) ma'lumot beradi. Yahudiy bibliyasi xristian bibliyasini bir qismi bilan to'liq mos keladi va Eski Ahd (Vetxiy Zavet) deb ataladi. Yangi Ahd Iso payg'ambar hayoti va uning shogirdlari faoliyati to'g'risidagi xristian kitoblaridan iborat. Yangi Ahd yangi asr boshlarida rasmiylashdi. U an'anaviy birinchi bo'lim qonun yoki ta'limot (Tora), undan keyin keladigan Payg'ambarlar va Pisaniya (Yozuv) qismlaridan iborat.

Mil.avv.IV ming yillik oxirida Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i jamoalarida hunarmandchilik va dehqonchilik rivojlanadi. Dastlab shimol keyin janubda kulolchilik charxi va sopol kuydirish uchun maxsus o'choqlardan foydalanish joriy etildi. Metalldan keng foydalana boshlandi, g'alla, zaytun daraxti va uzum yetishtira yo'lga qo'yildi.

Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoni rivojlanishi mil.avv. III ming yillikda shahar tipidagi manzilgohlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ana shunday shaharlardan biri Finikiyada Bibldir. Bibl tosh devor bilan o'rabi olingan. Shahar tosh to'shalgan ko'cha va tosh devorlar bilan birga ibodatxonalarga ega bo'lgan. Bibldan Misrga kedr yóg'ochi, smola, zaytun moyi olib ketilgan. Misrda smoladan mumiyolashda toydalanilar edi. Misrda Biblga badiiy buyumlar, munchoqlar, alebastr va diorit ko'zalar, qimmatbaho qutichalar, tilla va kumushdan ziynatlangan qurollar olib kelingan. Qirg'oq shaharlarida mulkiy tabaqalanish natijasida ijtimoiy qatlamlarni paydo bo'lishi kuchayib borgan. Taxminlarga ko'ra, shu davrda shahar-davlatlarining ilk uyushmasi paydo bo'ladi. Sekin-asta qirg'oqda Bibldan boshqa yana Finikiya shaharlari Ugarit, Sidon va Tir paydo bo'lgan. Mamlakat ichkarisida shimoliy Suriyada Alalax shahri (mil.avv.IV ming yilliklar oxiri-III ming yilliklar birinchi yarmida) shakllanadi. Mil.avv. III ming yilliklarda Suriyadagi Ebla shahrida (hududi-56 ga) taxminan 20-30 ming aholi yashagan. Eblada asosan, hunarmandchilik va savdo rivojlanadi. Mil. avv. XIV-XIII asrda bu shaharda saroy ansamblari shakllangan. Bu yerda arxivlar, xom ashyo zahiralari, qimmatli chet el mollari saqlangan. Eblada Misr fir'avnlari nomlari yozilgan alebastr xumlari, 32 kg lazurit topilgan. Ebla Akkad hokimlari tazyiqiga ushraydi. Mil. avv. 2225-yilda Eblani Akkad podshosi Naramsuen bosib oladi. Ijlimoiy jihatdan Ebla shahar-davlat bo'lgan. Davlat tepasida podsho turgan va u taxminan diniy vazifalarni bajargan. Unihg oldida maslahatchilar bo'lgan.

Arabiston Osiyodagi eng katta yarim orol bo'lib, 3 mln. kv.km. hududni egallaydi. Uni g'arbda Qizil dengiz, sharqda Fors va Ommon qo'ltiqlari suvi. janubda Adan qo'ltig'i va Arabiston dengizi yuvadi. Arabistonning bepoyon yerlari asosan sahrolardan iborat. Daryolar juda kam. Arabiston yarim oroli tabiiy boyliklarga boy. Qadimgi Sharqda o'zining ziravorlari va xushbo'y moylari bilan mashhur bo'lgan. Ziravor va xushbo'y moylardan qadimda kosmetika va parfyumeriya, tibbiyotda, diniy marosimlarni bajarishda foydalangan. Arabistonni o'rab turgan dengizlardan qadimdan marvarid, qizil va qora marjonlar olingan. Yarim orolda oltin, temir, qalay, mis va surma kabi xomashyolar bor. Janubiy-g'arb va janubiy-sharqda qadimda oq marmar, oniks, alebaster, qimmatbaho toshlar: zumrad, berulliy, feruza, va tuz qonlari bor edi.

Arabiston yarim oroli orqali qadimda xalqaro savdo yo'llari o'tgan. Bosh savdo yo'li «Xushbo'y moy yo'li» deb atalgan. Arabistonning janubiy-sharqi, sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'iga ikki yo'nalish bilan: biri G'azo va Ashdad, boshqasi, Tir va Damashqqa yo'nalgan, yana bir savdo yo'li janubiy Arabistondan janubiy Mesopotamiyaga borgan. Bundan tashqari, Qizil dengiz va Fors qo'ltig'i dengiz yo'li orqali Arabiston, Sharqiy Afrika va Hindiston bilan savdo aloqalari o'rnatilgan.

Arabiston yarim orolida odamning izlari paleolit davriga borib taqaladi. Mezolit va neolit (mil.avv. X-V ming yilliklar)ga oid yodgorliklar mavjud. Arabiston yarim orolining mil.avv. IV-III-ming yilliklarda aholisi to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q. Shumer hujjatlarida Magan va Melukka (ba'zi tadqiqotchillar Maganni Arabiston yarim orolining sharqi deb taxmin qiladilar) mamlakatlari to'g'risida eslatib o'tiladi.

Mil.avv. II ming yillikda Arabiston yarim orolining janubiy g'arbida semit tillarining janubiy arab shevasida so'zlashadigan Saba, Mina va Kataban ittifoqlari vujudga keladi. Arabistonning shimoliy g'arbiy qismida mil.avv. II ming yillikda midianit qabilalari yashagan. Arabiston yarim orolining qadimgi tarixiga oid manbalar to'rt asosiy qismdan iborat: epigrafik ma'lumotlar, ashyoviy yodgorliklar, yozma manbalar. Antik mualliflar ma'lumotlari Janubiy Arabistonning tosh, jez, sopolga yozilgan va o'z mazmuniga ko'ra ikki guruhga bo'linadigan davlat hujjatlari (podsho farmonlari, podsholarning harbiy va ichki siyosatiga oid yozuvlari) va xususiy huquqiy qabrtosh

lavhalari, sun'iy sug orish inshootlaridagi yozuvlardan 2500 tasi saqlanib qolgan.

*Ossuriya podshohi Ashshunbanipol (mil.avv.669- mil.avv. 627 yy)  
qadimgi dunyoning eng yirik kutubxonasini tashkil qilgan.  
Ashshurbanipol Ossuriya podshohlari orasida yagona savodli  
hukmdor hisoblanadi. Kutubxona podshohning farmoniga ko'ra  
Nineviya shahrida 25 yil mobaynida shakllantirilgan. Arxeologlar  
tomonidan kutubxonaga tegishli bo'lgan 25000 dan ortiq mixxat  
yozuvidagi taxtachalar topilgan. Ushbu kutubxona arxiv rolini ham  
bajargan.*

Arxeologik qazishlar bizga boy ma'lumotlar beradi. Sana podsholigining bosh shahri Marib xarobalari (Yamandagi Sanaga yaqin joy) o'r ganilgan. Shaharda saroy qoldiqlari, devorlar, xaykaliar topilgan. Shahaming g'arbidagi ulkan Marib to'g'oni qoldiqlari kishini hayratga qoldiradi. Kataban poytaxti Timna shahrini ibodatxonalar, nekropol, qal'a qoldiqlari qazib ochilgan. Nabatey podsholigi poytaxti Petra shahrida me'morchilik inshootlari, xaykallar topilgan.

Bundan tashqari, Arabiston va arablar to'g'risidagi qisqa ma'lumotlar Ossuriya, Yangi Bobil, Eron manbalari va Bibliyada uchraydi. Antik tarixchilar Gerodot (mill.avv. V asr)ning «Tarix» asarida, Feofrastning (mil.avv. IV asr) «O'simliklar tarixi», Diodorning (mil.avv.I asr) «Tarixiy kutubxona» va Strabonning (mil.avv.I asr) «Geografiya» kabi asarlarida qadimgi Arabiston to'g'risida qator ma'lumotlar bor.

Arabiston tarixi milodiy XIX asrdan o'r ganila boshlandi. Dastlab epigrafik yozuvlar o'r ganildi. XX asrda Belgiya, Fransiya, Avstriya, AQSHda Arabiston xalqlarining geografiyasi, madaniyati, dini va xronologiyasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar e'lon qilindi.

Arab qabilalari qadimgi mashg'ulotlari Shimoliy Arabiston, Suriya va Mesopotamiya cho'llarini qamrab olgan keng hududda chorvachilik bo'lib, it, eshak, yirik shoxli qoramollar boqilgan.

Bu hududda yashagan urug' va qabilalar, qabilalar ittifoqi va kichik davlat birlashmalarini shakllantirganlar. Ularni hokimlari Ossuriya hujjatlarida «podsho» deb atalgan. Qadimgi davlat birlashmalar sekin-asta harbiy san'atni va qo'shnlarni shakllantiradilar. Jangchilar tuyaga ikki kishidan minib, jang qilganlar. Arablar o'zlarini

ning kuchli qo'shnilarini Misr, Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'inining kichik davlatlari va Ossuriya bilan xalqaro ziddiyatlarga tortilganlar.

Mil.avv. IX asr o'ttalarida mil. avv. 853-yilda Qarqara yonidagi bo'lgan jangda Ossuriyaliklar arablar ham kirgan koalitsiya qo'shnilarini tor-mor keltiradilar. Arablar Ossuriyaning Misrga qarshi yurishida asosiy to'siq bo'lganlar. Bir necha arab qabilalari Ossuriya tomonidan bo'ysundiriladi. Arablar Ossuriyaning raqiblari Misr va Bobil bilan iltifoq tuzadilar. Ossuriya mil.avv. VII asrning 40 yillarda arab qabilalarini to'liq bo'ysundirishga erishadi. Yangi Bobil podsholigi ham Arabiston yarim orolida o'mashib olishga uringan. Bobil podshosi Nabonid Shimoliy Arabistonning bosh markazlaridan biri Teymuni bolsundirib, uni o'z qarorgohiga aylantiradi. bir necha qo'shni arab qabilalarining shahar va vodiylarini o ziga bo'ysundiradi. Mil.avv. VI asrda Eron davlatining qudratini kuchayishi va uning bosqinshilik yurishlarini rejasni Arabiston yarim orolining shimoliy qismida forslarning arablar bilan aloqa o'rnatishiga olib keladi. Shartnomaga bo'yisha fors podshosi Kambiz mil.avv. 525-yil Misrga yurish vaqlida arab nabateylari yeridan o'tish huquqini va sahroda o'tish davrida ulardan fors qo'shnilarini suv bilan ta'miniashga roziligini oladi. Arah qabilalari ahmoniyalar Eroniga bir yilda ming talant (30 t.) miqdorida xiroj to'lamaganlar va arablar harbiy yurishlar davrida fors qo'shnilarini tarkibiga kiritilganlar. Arablar yunon - fors urushlari davrida (mil. avv. IV asr) Gazo shahri uchun jangda vunon-makedon qo'shnilariga qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Iskandarning Misrga yurishi davrida arab qabilalarining ko'pchiligi yunon-makedonlarga bo'ysunmaydi. Shu sababli Iskandar sharqqa yurishini tugatgash, unga bo'ysunganliklarini bildirib, elchi yubormagan arab-larga qarshi yurish qilishni rejalashtiradi. Arablar Rim davlati bilan ham aloqada bo'lganlar. Rimliklar mil.avv.106-yillar atrofida Yaman-ga suqilib kirishga urinadilar va Nabatey avlatini bosib oladilar.

Arabiston yarim oroli janubi va janubiy-g'arbida (ozirgi Yaman Arab respublikasi va Yaman-arab demokratik respublikaiari hududlari) qadimda mil. avv.X-IX asrlarda hir necha davlatlar vujudga kelgan. Eng shimalda bosh shaharlari Isil va Karnava bo'lgan Main davlati tashkil topgan. Maindan janubroqda markazi Marib shahri bo'lgan Saba, undan janubroqda poytaxti Timna bo'lgan Kataban, Katabandan janubroqda Ausan davlat, sharqroqda markazi Shabva bo'lgan Xadramaut davlatlari bor edi.

Xett davlati miloddan avvalgi XVIII asrda Kichik Osiyoda (xozirgi Turkiya) vujudga kelgan. Mil.avv.XIV asr boshlarida Old Osiyoda Misr, kassitlar Bobili va Mitanni davlatlari zaiflashib, xalqaro munosabatlarda Xett davlatining kuchayishi uchun qulay shart-sharoit tug'iladi. Mil. avv. 1450-yillar atrofida kelib chiqishi xetlit bo'lgan omadli amaldor taxtni egallab yangi xett sulolasiga asos soladi. Yangi sulola podsholari qadimgi xett buyuk davlatshiligi g'oyalarini qaytarishga davo qilib, harbiy-byurokratik monarxiyani tashkil qildilar. Podsho ilohiyashtirilgan mutlaq hukmdorga aylandi va o'ziga voris tayinladi. Xett shaharlari, ayniqsa, poytaxt Xattusining mudofaa inshootlari mustahkamlandi. Suppilium I Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'i mayda davlatchalarini va Mitanni davlatini o'ziga bo'ysundiradi. Mitanniga tegishli Suriya viloyatlarini va shaharlarini bosib oladi. Suppilium I o'z kuyovini Mitanni taxtiga o'tkazadi. U Suriyada markazi Karxamish va Xalpa bo'lgan xettiarga qaram davlatlarga asos solib, bu davlatlarni hukmdori qilib o'z o'g'illarini tayinladi. Bobil va Axey davlatlari Suppilium bilan do'stlik aloqalarini o'rnatishga majbur bo'ldilar.

Uning vorisi Mursili II otasining davlatini to'la hajmda saqlab qoldi, lekin qaram hududlardagi isyonlar, qo'zg'alonlar va boshqa qudratli davlatlarni mamlakat hududiga tazyiqiga qarshi to'xtovsiz urushiar olib borishga majbur bo'ldi. Mursili II Kichik Osiyodagi janubiy Frigiya va Lidiya hokimlarini bo'ysundiradi. U an'anaviy raqib Arsava podsholigiga qarshi g'olibona yurish qilib Egey dengizi qirg'og'igacha chiqadi.

Ammo Mursili II podsholiginining so'nggi yillarda Misr XIX sulola davrida yanada kuchayadi va Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'ogi uchun Xett davlati bilan yana raqobat boshlaydi. Miloddan avvalgi 1286-yilda Kadesh shahri yonida har ikki tomon uchun hal qiluvchi janglardan biri bo'lib o'tadi. Jangda Misr qo'shnilarini yengiladi. Shunga qaramasdan Misr fir'avni, ista'dodli sarkarda Ramzes II yana urushga tayyorlanib, xettlarni Falastin, Finikiya va Suriyani katta qismidan siqib chiqaradi. Oxir oqibatda Misr va Xett davlati Miloddan avvalgi 1280-yilda tinslik shartnomasini imzolaydilar. Shartnoma bo'yisha Suriyaning bir qismi, Shimoliy Finikiya Xett davlati ta'siri ostida qoladi. Har ikki davlat o'rtasida savdo aloqalari kuchayadi<sup>37</sup>.

<sup>37</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 20.

Yangi Xett davrining xo'jalik va ijtimoiy munosabatlarini tavsiflovchi asosiy manba Xett qonunlaridir. Xo'jalikning asosi dehqonchilik, chorvachilikning qo'yechilik sohasi bo'lgan. Dehqonchilikda sun'iy sug'orish sezilarli bo'limgan. Sun'iy sug'orish inshootlari cheklangan holatda barpo qilingan.

Hunarmandchilikning taraqqiyoti to'g'risida qonunlar va boshqa hujjatlarda temirchi, kulol, duradgor va tikuvchi kasblari tilga olinadi. Mehnat qurollari va harbiy aslahalar ishlab chiqarish uchun asosiy xom ashyo dastlab mis, keyinchalik qalay edi. Temirdan faqat diniy marosimlar uchun xaykalcha va boshqa buyumlar yasashda oz miqdorda foydalanilgan. Xett davlatida podsho oilasi va podsho bosh koxin sifatida juda katta miqdorda yerga egalik qilgan. Podsho va ibodatxona yerlarida ishlovchilar o'z yerlariga berkitib qo'yilib, turli soliq va majburiyatlar o'taganlar. Xett davlati ma'muriyati qarori bilan ekin yerlari ishlovchilar bilan birga o'z foydasiga soliq yig'ish huquqi bilan podsho va ibodatxonalariga berilganlar. Ayrim ibodatxonaiar umum davlat soliqlaridan ozod qiluvchi immunitet yorliqlarini olganlar. Davlat va ibodatxona yerlaridan tashqari boshqa yerlar xususiy mulk bo'lib oldi-sotti qilingan.

Xett jamiyatida barcha aholi ikki guruhga bo'lingan. Soliq to'lovlari va boshqa majburiyatlarni o'tovchi kishilar erkin bo'limgan mavqega ega bo'lib, kansitilganlar. To'la ma'noda erkin kishilar deb zodagonlar, amaldorlar, koxinlar va katta yer egalari hisoblanganlar. Xett davlati bosib olgan hududlarni boshqarmagan, faqat ulardan xiroj olish bilan cheklagan.

Xett jamiyatida o'z madaniy taraqqiyotida Misr va Mesopotamiyaning yuksak madaniyatlari ta'siri yaqqol seziladi. Xett madaniyatida ayniqsa, xurritlarning ta'siri kuchli bo'lgan.

Xett dini o'ziga xos belgilarga ega edi. Xettlarning ming ma'bud va ma'budalari to'g'risida manbalarda eslatishlar mavjud. Amalda esa, cheklangan miqdorda ilohlarga sig'inilgan. Poytaxt Xattusining oliy homiysi chaqmoq xudosi edi. Shu bilan birga xurritlarning chaqmoq xudosi Tesubga ham sig'ingan. Podsho quyoshga o'xshatilib ilohiyashtirilgan. Shu sababli xettlar o'z podsholarini «quyoshim» deb sig'inganlar. Xett yozma asarlaridan bizgacha yetib kelgan podsholarning «tarjimai hollari» juda qiziqarli va batafsil bayon qilingan. Ularda yorqin obrazlar chuqr kechinmalar va o'ziga xos axloqiy qarashlar seziladi. Xett yilnomalarida mamlakat tarixini uch-

davrga bo‘lishga urinish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xett arxivlarida boshqa mamlakatlar, masalan, Akkad tarixi to‘g‘risida ma’lumotlar ham mavjud. Xett podsholigining boshqa xalqlar bilan yaqin aloqasi mavjudligidan dalolat beradigan yana bir madaniy yutuq uch tilli shumer-bobil-xett lug‘atlarining tuzilishidir.

Xett xaykal va relefлari vazmin va ulug‘vorligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda ayniqsa, mudofaa inshootlari qal‘a devorlari qurish yuqori darajada bo‘lgan. Xett madaniyati ko‘p asrlik shimoliy Mesopotamiyada va unga yaqin boshqa hududlarda yashagan qabila va xalqlaming madaniyatini o‘zida aks ettirgan va boshqa madaniyatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Xettlarning madaniy merosi Xett davlati halokatidan keyingi asrlarda ham boshqa qo‘sni mamlakatlar madaniyatiga ijobiy ta’sir o‘tkazadi.

*Bo‘g‘ozqoya arxivi Turkiya hududida topilgan bo‘lib, 14 ming mixxat taxtachalaridan iborat. Bu taxtachalarda Xett podshoxligi davriga oid ma’lumotlar bitilgan. Bu arxiv 1906-yilda German sharqshunoslik jamiyatini tomonidan tashkil qilingan Gugo Vinkler boshchiligidagi ekspeditsiya tomonidan topilgan. Ushbu mixxat taxtachalari 1915-yilda Berjix Grozniy(1879-1952) tomonidan tarjima qilina boshlagan.*

Qadimgi fors davlati tarixi bo‘yisha manbalar xilma-xil: bu xo‘jalik hujjatlari, tarixiy yozuvlar, amaldorlarning rasmiy yozishmalari. Hozirgi vaqtدا qadimgi fors tilida elam va akkad tillariga tarjima qilingan 200 ga yaqin (podsholar) mixxat yozuvlari chop etilgan.

Eronda mezolit va neolit davriga oid manzilgohlar, arxeologik topilmalar, kulolchilik buyumlari Suza shahrining ilk qatlamlari yodgorliklari, Eron poytaxt shaharlari Suza, Ekbatana, Pasargad xarobalaridan topilgan ulug‘vor xaykallar, qoyatosh relefлari qimmat-baho metallardan qilingan buyumlar, harbiy qurollar va taqinchoq-bezaklar topib o‘rganilgan.

Midiya shimoliy g‘arbiy Eronda joylashgan edi. Mamlakatning g‘arbiy qismi Zagros tog‘i hududi bo‘lib, keyinchalik Midiya Atropatenasi deb atalgan. Atropatenadan sharqda Midiyani tekislik

qismi joylashgan. Mil.avv. III - II ming yilliklarda bu hududlarda kassit, kutiy, xurrit tillarida so'zlashadigan o'troq va ko'chmanchi shorvadorlar yashaganlar.

*Georg Grotefend (1775-1853) mashhur nemis filologi va qadim-shunosi bo'lib dunyoda birinchi bor mixxat yozuvlarini, xususan, qadimgi fors mixxat yozuvlarini o'qishga muvaffaq bo'lgan. Uning birinchi o'qigan so'zleri qadimgi Eron shohlaridan Kserks, Doro va Gistasb nomlari bo'lgan.*

Mil.avv.559-yilda fors podshosi bo'lgan Kayxusrav I keyingi ikki yil davomida Parfiya va Girkaniyani bosib oladi. Mil.avv.545- va 539-yillarda Kayxusrav hozirgi Afg'oniston, O'rta Osiyo yerlarini bosib oladi. Fors davlat hududi Hindistonning shimoliy-g'arbiy chegaralarigacha, Hindikushning janubiy yon bag'irlari va Sirdaryo havzalarigacha yetdi. Kayxusrav shimoliy-sharqiyo yo'nalishlarda o'z ta'sirini mustahkamlagash, Bobilga yurish qiladi. Mil.avv. 539-yilda ikki oy davomida avgust-sentabr oylari Bobil yerlari bosib olinadi. Bobil podsholigi rasman saqlab qolinadi, uning ijtimoiy tuzilmasi o'zgartirilmaydi. Bobil shahri fors podsholari turadigan qarorgoh-lardan biriga aylanadi. Bobil davlat apparatida bobilliklar yetakshi o'rinda qolaveradi. Bobilliklarning qadimgi diniy e'tiqodlariga fors podsholari homiylik qiladilar. Amalda Bobil mustaqil siyosiy birlashmadan ahmoniyalar satrapiyasi (viloyatiga) aylanadi, mamlakat mustaqil siyosat yuritishdan mahrum bo'ladi, ichki siyosatda oliy harbiy va ma'muriy hokimiyat fors podshosi noibi qo'lida bo'lgan<sup>38</sup>.

Bobil bosib olingenidan so'ng, barcha g'arbiy mamlakatlar (Suriya. Falastin. Finikiya) Misr chegarasigacha forslar qo'liga o'tadi. Finikiya. Bobil va Kichik Osiyoning savdo-hunarmandlar qatlamlari tranzit savdo yo'llarini xavfsizligini ta'minlaydigan kuchli markazlashgan davlatdan manfaatdor bo'lganlar. Shu sababli ular fors davlatini qullab-quvvatlaydilar.

Qadimgi Eron mafkurasida mil.avv.I ming yillikda shakllangan diniy talimot zardushtiylik muhim o'rinni egalladi. Zardushtiylik Midiya podshosi Astiag davridayoq rasmiy dinga aylangan edi. Zardushtiylik

<sup>38</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 23.

dininin koxinlari diniy an'ana urf-odat va rasm-rusumlarni saqlovchi maglar bo'lgan. Zartushtiylik odamlarni qurbanlik qilishni taqiqladi, odamlarni bir-biriga mehribon bo lishni targ ib qildi. Doro I mil. avv. 520- yil atrofida zartushtiylikni rasmiy davlat dini deb e'lon qildi. Forsda qadimgi zartushtiylik tabiat xudolari Mitra (quyosh xudosi), Anaxita (suv va hosildorlik xudosi) va yorug lik, oy, shamol kabilarni o'zida ifodalagan xudolarga sig'inilgan. Fors podsholari zardush-tiylikning afzalligini tan olib, rasmiy din sifatida qabul qilgan bo'lsalarda eng qadimgi xudolardan voz kechmaganlar. Ahmoniyalar boshqa dirlarga ham homiylik qilganlar. Doro I Bobil, Elam va Yahudiyadagi buzib tashlangan ibodatxonalarni qayta tiklashga buyruq beradi. Misr ishgol qilingach, Kambiz Misr urf-odatlari bo'yicha toj kiydi. U Sais shahridagi ma'buda Neyt ibodatxonasida diniy marosimlarga qatnashadi. Doro I o'zini ma'buda Neytningo'g'li deb e'lon qiladi, xudo Amon va boshqa Misr xudolariga bag'ishlab ibodatxonalar quradi. Diniy e'tiqodni markazlashtirish maqsadida Kserks Eronda diniy islohat o'tkazadi. U Mitra, Anaxita va Zardusht inkor qilgan boshqa qadimgi ibodatxonalarni yo'q qilmoqchi bo'ladi. Bu islohat o'z maqsadiga erishmaydi, yarim asrdan so'ng, qadimgi xudolarga sig'inish yana keng avj oladi. Ahmoniyalar ibodatxonalarni iqtisodiy qudrati haddan tashqari kuchayib ketmasligiga yo'il qo'ymaslik uchun Misr, Bobil va Kichik Osiyodagi ibodatxonalari davlat soliq majburiyatlarini o'tashga majbur qiladilar.

Ahmoniyalar davlati uchun turli xalqlarning madaniyati va diniy qarashlarni sinkretizini xarakterli edi. Mamlakat turli hududlarining doimiy iqtisodiy - ijtimoiy va siyosiy aloqasi, madaniyatlarining o'zaro ta'siriga ijobjiy turki beradi. Turli xalqlarning yagona davlat hududiga yashab turishi xalqlarning, ilmiy bilimlari, san'at va adabiyotlarning bir-birini boyitishiga olib keldi. Forslar va boshqa xalq-elatlari Bobil, Misr va Elamning qadimiylarini o'zlash-tirib oladilar. Forslarning eng katta madaniy yutuqlaridan biri o'ziga xos mixxatning yaratilishi bo'lgan. Fors mixxati akkad alibbosidan farq qilgan holda bor-yo'g'i 40 belgidan iborat bo'lib deyarli aliboli yozuv bo'lgan.

Qadimgi fors me'morchiliginining ulug'vor inshootlari Pasargad va Suzadagi saroy ansamblari edi. Pasargad shahri maydoni 135000 kv.mni tashkil qiladi. Bundan tashqari, 12000 kv.m sun'iy maydon hosil qilingan Fors podsholari barpo qilgan Persepol saroyiga 110

zinapoyali keng xashamatli pillapoyadan chiqilar edi. Doro I ning saroyi 3600 kv.m. katta, tomining balandligi 20 m bo'lgan 72 ustunli zali bilan mashhurdir. Zinapoyaning bir tomonida rel'eclar bilan 33 qaram xalqlarning xiroj olib kelayotgani tasvirlangan. Bu haqiqiv etnografik muzey, qaysiki bu yerda turli xalq va qabilalarning o'ziga xos kiyimlari, qurollari va ularning kasblarini ifodalaydigan tasvirlari toshga o'yib tushirilgan. Persepolda boshqa Ahmoniy podsholarning saroylari ham joylashgan. Persepoldan 3 km uzoqlikda Naqshi Rustam deb nomlangan qoyalarda Doro I va boshqa fors podsholarining relyeflar bilan bezatilgan qabrlari mavjud. Doro I davrida Suzada katta qurilishiar olib borilgan. Qurilish ashvolari 12 mamlakatdan olib kelangan.

Qadimgi fors san'ati, Eron madaniyati an'analari Bobil, Misr. Osuriya va boshqa xalqlarning badiiy an'analari va texnika usullarining sintezi edi. Qadimgi fors san'ati namunalari ichida nozik did bilan ishlangan toshdan ishlangan vazalar, metall qadah, fil suyagidan yasalgan riton qadaxlar, zeb-ziynat buyumlari, lazurit xay-kallar mavjud. Badiiy buyumlar ichida agat, xalqidon, yashma kabi qimmatbaho toshlardan ishlangan silindrsimon muhrlarda podshotar, afsonaviy qahramonlar va afsonaviy mavjudotlar tasviri tushirilgan. Ular nihoyatda mohirlik bilan yasalgan bo'lib, haqiqiy san'at asari hisoblanadi. Fors san'atida ayniqsa o'simlik va hayvonlarni tasvirlari bo'lgan badiiy buyumlar bizni hozirgacha hayratga soladi.

### Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar

1. Qadimgi Mesopotamiya madaniyatini sharhlab bering.
2. Suriya, Finikiya madaniyatipi izohlang.
3. Elam o'liasi va Eronda qadimgi dirlar, madaniyat, san'at, me'morchilik, Ahmoniylar imperiyasini sharhlab bering.
4. Midiya, Mitanni, Qadimgi Xett davlati, Frigiya. Lidiya. Urartu mamlakati madaniyatini tushuntirib bering.
5. Mesopotamiya madaniyati bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
6. "Finikiya madaniyati" mavzusida falsafiy esse yozing.
7. Elam ilohlariga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.

8. Xett madaniyatiing o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.

9. "Mesopotamiya madaniyati va Eron madaniyati" ga oid eng umumiy jihatlarni toping va slayd tayyorlang.

10. Insert usulidan foydalanib, quyidagi jadvalni to'ldiring (1-ilova).

### **Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi**

1. Ma'ruza matmini o'qib, matning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

Q – men uchun yangi ma'lumot

- – men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

**1-ilova**

Mavzu savellari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

### **O'quv topshiriq:**

"Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash" orqali o'qituvchi talabalarni to'rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

### **1 – guruh topshirig'i**

1-bosqich. Qadimgi Mesopotamiya madaniyatini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 2 – guruh topshirig'i

1-bosqich Suriya, Finikiya madaniyatini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish .5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 3 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Elam o'lkasi va Eronda qadimgi dinlar, madaniyat, san'at, me'morchilik, Ahmoniyalar imperiyasini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlari	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.				.	
2.					

#### 4 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Midiya, Mitanni, Qadimgi Xett davlati, Frigiya. Lidiya. Urartu mamlakati madaniyatini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlari	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

#### Guruh bo'yicha baholash mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.

Har bir talab bo'yicha – 2 ball

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazma-lilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faolligi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					

## Hisob natijasi

Guruhsiz №	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball
1.					
2.					
Umumiy hisob Ballari					
Baho					

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York, 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York, 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.–T.: TDSHI, 2006.

## **8-mavzu. QADIMGI SHUMER VA BOBILDA IJTIMOIY TAFAKKUR**

### **Reja**

1. Baynalnahrayn (Mesopotamiya) madaniyati.
2. Shumerliklar marosimi va taqdir haqidagi tasavvurlari.
3. Xammurapi qonunlari majmuasi.

### ***Mavzuning tayanch tushunchalari***

*To son to 'g'risida, Shumer afsonasi, Zuisudra, ilohiy vahiy, Tilmun (Bahrain), "Ism" shumerliklar tasavvurida, "Inson va uning shaxsiy xudosi", podsho Xammurapi qonunlari majmuasi.*

Dunyoning kelib chiqishi, uning mohiyati va insonning undagi o'rni haqidagi savolga javob topishga harakat qilgan qadimgi falsafiy tizimlar o'zining uzoq tarixiga egadir. Insonni o'rab turgan dunyo tadrijiy ravishda uning faoliyati uchun mavzuga aylana borgan. Inson dunyoga bo'lgan o'z munosabatini dastlab nazariy shakllarda ifoda qila olmagan. Inson amaliy faoliyatining rivojlanishi voqealarning muayyan izchillikda mushohada qilishga asoslangan uning qobiliyatini takomillashishiga olib kelganligi orqasida tabiat hodisalarining ba'zi qonuniyatlarini idrok etishga muvaffaq bo'lgan. Tilning rivoji va avvalo, majhul tushunchalarning paydo bo'lishi nazariy tafakkurning shakllanishiga turtki bo'lgan. Inson umrining o'tkinchiligini idrok etish, zamon haqidagi tasavvurning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Qadimgi davrning ba'zi afsonalarida zamon qadriyat mezoni sifatida namoyon bo'la boshlagan. Faqat abadiy narsagina mukammal bo'lishi haqidagi tasavvur kelib kelib chiqqan. Abadiylik ilohiy mavjudlik va faoliyatlilik sifatida namoyon bo'la boshlagan.

Inson tafakkuri taraqqiyotining muhim natijasi sifatida yozuv kashf etilgan. U bilimlarni avlodlardan avlodlarga uzatishning yangi imkoniyatini beribgina qolmay, balki bilimlarning o'z taraqqiyoti tagzaminini ham boyitgan.

Sharq mamlakatlaridagi falsafiy tafakkur taraqqiyoti to‘g‘ri chiziq bo‘ylab rivoj topmagan. Garchi ba’zi taraqqiyot bosqichlarida va ayrim sohalarda o‘zaro ta’sirni istisno qilmagan holda, Sharqqa taalluqli bo‘lgan o‘rganilayotgan uch mintaqqa, ya’ni Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoy – mustaqil madaniy butunlikni tashkil etgan.

Yaqin Sharq tom ma’noda qadimgi davrda falsafiy an'anaga asos sola olmagan. Ammo u dunyoning boshqa mintaqalaridan farqli o‘laroq, dehqonchilik va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jihatidan doimiy ravishda ilgarilab ketgan. Bu narsa bilim va tajriba to‘planishiga omil bo‘lgan. Hosil qilingan amaliy ma’lumotlar nazariy tafakkur rivoji uchun turtki bo‘lgan. Ular umuman diniy tasavvurlar, mafkura va madaniyatga o‘z ta’sirlarini o‘tkazganlar.

Ushbu boy meros asoslarni Kichik Osiyo qirg‘oqlarida yashovchi yunonlar va ular orqali butun ellistik dunyo o‘zlashtirib olgan. Insoniyatning barcha bilim sohalariga Yunoniston qo‘sghan buyuk hissani, shu jumladan, falsafa sohasidagi tafakkur taraqqiyotini yuqoridagi asoslarsiz tasavvur qilish mumkin emas<sup>39</sup>.

Yaqin Sharqning qadimgi madaniyati Hindiston bilan aloqada bo‘lgan. Ammo bu yerdagi fikr taraqqiyoti avval boshdanoq ozmiko‘pmi mustaqil ravishda rivojlangan. Hindistonda iqtisodiy, siyosiy va irqiy o‘zgarishlarga qaramasdan, falsafiy an’ana to‘laligicha hech qachon uzilmagan. Bu an’ana hind jamiyatida doimiy barhayot merosning barqaror unsuri sifatida mavjud bo‘lgan.

Xitoyning qadimgi va o‘rta asrlar falsafasini ham Xitoy jamiyatining ma’naviy hayotidan ajratib bo‘lmaydi. U ham mustaqil ravishda taraqqiy etgan. Ammo faqat buddaviylik unga sezilarli ta’sir etgan bo‘lsa ham, biroq bir necha asrlar davomida u mahalliy an’ana va ma’naviy hayotga moslashtirilgan.

Miloddan oldingi IV va III ming yilliklar orasida Baynahnahrayn va Misr zaminida yozuvning mavjudligi haqida birinchi dalillar qo‘lga kiritildi. Ammo Yaqin Sharq o‘lkalaridagi yozma yodgorliklar aniq tushunchalar dastgohiga ega bo‘lgan to‘la falsafiy tizimlar emasligi



Hammurapi  
va Shamash  
rasmi

<sup>39</sup> Qurang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 10.


ayon bo'ldi. Unda borliq va dunyoning mavjudligi (borliq haqidagi ta'limot) haqidagi muammino hamda insonni, uni o'rab turgan dunyoni bilish imkoniyatlari (bilish nazariyasi) haqidagi masalada aniqlik yo'q. Bunday taraqqiyot bosqichiga Yevropa falsafiy fikri an'analarib ibtidosida turgan qadimgi yunon mutafakkirlarigina chiqqanlar. Ammo qadimgi yunon falsafasini rivojini va unga bog'liq bo'lgan butun fikriy taraqqiyotni Yaqin Sharqdagi qadimgi madaniyatlarning mero-sisiz to'la tushunib bo'lmaydi. Biroq Yaqin Sharqdagi madaniyatlar ta'sirini izchil tadqiq etish ishiga nisbatan kech kirishilganligi uchun keyingi yil ichida qo'lga kiritilgan natijalar bilangina chegaralanishga to'g'ri keladi.

Asotiriy tafakkur (afsonaviy fikrlash) – insonning dunyoga va bilvosita ijtimoiy munosabatlarga bo'lган munosabatini muayyan butunlikda ifodalash shakllaridan biridir. U garchi hayoliy bo'lsa ham, bu dunyoning paydo bo'lishi, tabiiy tartibning ma'nosi haqidagi savolga berilgan birinchi javobdir.

Dunyoni asotir tafakkur orqali tasvirlash diniy tasavvurlar bilan yaqindan bog'liq bo'lib, tabiat kuchlarini shaxslar faoliyati bilan ifodalashdir. Ammo u tabiat va inson jamiyatni haqidagi asrlar davomida to'plangan bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Mantiqiy fikrlash (falsafa)gina inson tafakkurini afsonaviy an'analar va uni bevosita hissiy taassurotlarga bog'lab qo'ygan zanjirlardan ham xalos qila olish imkoniyatini beradi.

O'tmishdagi Sharq falsafasini o'rganish o'sha davrdagi nuqtai nazarlarni bugungi erishilgan nazariy natijalar bilan qiyoslash imkoniyatini beradi. Sharq falsafasi dunyoni va jamiyatni tushunishda asosiy falsafiy muammolarni bayon qilish usullarining muayyan majmuini o'z ichiga olgan. U o'ziga xos sharqona tafakkur tarzini shakllantirganki, hozirgi yosh avlod ham undan benasib qolmasligi kerak.

Shumerliklar madaniyati Misr bilan bir qatorda dunyodagi eng qadimgi yodgorliklardan biridir. Miloddan avvalgi IV mingyillik oxirida Baynalnahrayndagi Dajla va Frot daryolari vodiysida mehnat taqsimoti tufayli jamiyat toifalarga bo'lingan edi. Ammo Misrdan



Hammurapi  
qonunlari matni

farqli o'laroq, Baynalnahrayn madaniyati bir xil emas edi. Uni vujudga kelishida Shumer xalqi ishtirok etgan bo'lib, uning tili bizga ma'lum bo'lgan tillar guruhining hech biriga kirmaydi. Baynalnahrayn yozuvi Shumer xalqi ijodidir. Bu mixxat yozuvini avval akkadliklar, keyinroq Old Osiyoning boshqa xalqlari ham iqtibos qilgan edilar. Bu yozuv uch ming yil davomida tadrijiy rivojlanish va takomillashishda bo'lganligi isbotlangan. Shumer yozuvi matnlarining bizgacha yetib kelganlari Miloddan avvalgi XIX-XVIII asrlarga taalluqli bo'lib, bu vaqtida Shumer tili yo'q bo'la boshlagan edi.

To'fon to'g'risidagi Shumer afsonasida xudolar tomonidan inson zotining yaratilishi va yer yuzidagi tartiblarning qanchalik mukammalligi bayon qilingan edi. Ammo noma'lum sabablarga ko'ra, xudolar insoniyatni yo'q qilishga qaror qilganliklari bayon etiladi. Adolatli va taqvodor hukmdor Ziusudra ilohiy vahiyga bo'ysunib, katta kema qurbanligi va shu tufayli najot topib, xudolar tomonidan abadiy hayotga loyiq ko'rilmaganligi ta'kidlangan. Matnda "barcha o'simliklar va inson urug'i ismlarining najotkori", deb atalgan Ziusudra xudolar tomonidan Quyosh chiqadigan mamlakat oroli bo'lgan Tilmunga (Bahrain) joylashtirilganligi qayd etilgan. "Ism, shumerliklar tasavvurida dunyoning barcha moddiy hodislarining ruhiga o'xshash mohiyatdir"<sup>40</sup>.

Shumerliklarning ko'mish marosimida kuylanadigan marsiyalarining biri "inson va uning shaxsiy xudosi", deb nomlanadi. Unda taqdirga tan bergen, aqli kishining to'satdan kasallikka chalinganligi va shu munosabat bilan o'z xudosiga najot istab murojaat qilishi tasvirlangan. Bu ilk diniy-falsafiy asar ekanligi uning mazmunidan anglashiladi. Bunda azob-uqubatlar sababi, dunyoviy adolatsizlik, taqdiring ko'r-ko'rona ish tutishi, olijanob kishi hissasiga tushgan sinovlarning bayoni berilgan. "Men – aqli raso kishi bo'laturib nega johil yoshlar bilan ish yuritishim kerak, - deb savol qo'yadi azob tortayotgan shaxs. Men bilag'on kishi bo'lsamu, nega meni johillar qatoriga qo'yishadi? Atrofda yegulik farovon bo'lsa-da, mening yeguligim – ochlik".

Bir tomonidan ayrim shaxslarning qo'lida katta boyliklar to'planishi, ikkinchi tomonidan esa, quyi tabaqadagi ozod yollanma kishilarning qashshoqlashib borishi, ijtimoiy qarama-qarshiliklarni keskinlashtirganligi birinchi Bobil sulolasi davrida (mil.avv. II

<sup>40</sup> Qurang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 11.

mingyillik boshida) ochiq namoyon bo‘lgan edi. Natijada shu davrda mashhur podsho Xammurapining qonunlar majmuasi ishlab chiqilgan edi. Bunda diniy qarashlardan ko‘ra, ko‘proq dunyoviy ishlarga, jumladan jinoyat va jazoga, yangi iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqib yondoshilganligi aks etgan. Jinoyatni kelib chiqishi talqinida “g‘ayri tabiiy” kuchlar aralashuviga yo‘l qo‘yilmagan. Yuridik hujjatlarning guvohlik berishicha, hukmdorlar o‘z qaror va hukmlarida hurmat yuzasidan ilohiy kuchlarga murojaat qilsalar-da, muayyan huquqiy tadbirlarda ko‘proq dunyoviy jihatni hisobga olganlar. Hukmlar ijtimoiy boshqaruv ehtiyojlарини hisобга оlib hukmdorlar-ning hокимиятини mustahkamlashga qaratilgan edi.

*Ashshurbanipol kutubxonasida jamiyatning barcha sohasiga tegishli asarlar va hujjatlar saqlangan. Ularning orasida “Gilgamesh haqidagi doston”, “To‘son haqidagi doston”, “Xammurapi qonunlari” kabi asarlar va hujjatlar mashhurdir. Asarlar asosan akkad tilida bitilgan. Shuningdek, ossur va shumer tillarida yozilgan asarlar va hujjatlar ham yetib kelgan. Ashshurbanipol kutubxonasidagi ma‘naviy xazinaning 10%ига бизгача саqlanib yetib kelgan.*

*Jorj Smit (1840-1876) mashhur ingliz arxeologi, sharqshunosи va ossuriyashunosи. Smit mashhur Ashshurbanipol kutubxonasida topilgan mixxat yozuvi taxatachalarini o‘rgangan va tarjima qilgan. Smit Ashshurbanipolning tarixiy yilnomasini, mashhur Gilgamesh haqidagi dostonni va shu doston tarkibida “Buyuk to‘son” haqidagi rivoyatni mixxatlar asosida tarjima qilgan. Shuningdek, “Dunyoning yaratilishi” kabi dostonlarni ham tarjima qilgan.*

Qonunlar to‘plamining tuzilishi Hammurapining jiddiy siyosiy tadbiri edi, chunki bu to‘plam Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan edi. Qonunlar to‘plami kirish, qonunlar va xulosani tashkil qilgan uch qismdan iborat edi.

Hammurapi davrida Bobil iqtisodiyoti sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdodan iborat bo‘lgan. Qadimgi Bobilda bu davrda ekin yerlari ko‘payadi, bog‘dorchilikda xurmo yetishtirish gullab-yashnaydi, g‘alla ekinlaridan, donli o‘simliklardan yuqori hosil

olinadi. Bunday yutuqlar faqat sun'iy sug'orish tizimini butun mamlakat miqyosida kengaytirish asosida amalga oshiriladi. Maxsus amaldorlar katta-kichik kanallarni ko'rish va ta'minlashni nazorat qilib turganlar. Aholining barcha mehnatga qobiliyatli qismi erkin kishilardan tortib qullargacha sug'orish inshootlarini qazish va ta'minlash majburiyatini o'tagan, undan bosh tortganlarga o'lim jazosigacha berilgan. Hammurapi qonunlarida maxsus to'n modda dehqon jamoasining o'z yerida, sug'orish inshootlariga befarq qarashiga qarshi qaratilgan, agar dehqonning yeridan qo'shnilar yeriga suv toshib ket-sa, u keltirilgan zararni to'lashga majbur bo'lgan, agar puli bo'lmasa o'zi va mol-mulki qo'shniga keltirgan zararni qoplash uchun sotilgan.

Chorvachilik yirik hajmda rivojlangan. Qonunlarda bir necha bor yirik chorva to'g'risida eslatiladi. Ko'pincha qoramolni dala ishlariga, xirmon va yuk tashishga ijraga berilgan. Hunarmandchilikning xilmashil sohalari rivojlangan. Qonunda bajarilgan ish uchun qat'iy baho berilgan va ishning past sifati uchun hunarmand qattiq jazo olgan. Hammurapi qonunlar to'plamining 229-moddasida shunday deyiladi: «Agar quruvchi kishiga uy qurdi va o'z ishini mustahkam qilmadi, u qurgan uy yiqilib, uy egasini o'ldirib qo'ydi. bu quruvchi o'limga hukm qilinishi lozim». Erkin kishini muvaffaqiyatsiz muolaja qilgan jarrohning barmoqlari chopilgan (218-modda).

Savdoning rivojlanishiga butun Mesopotamiyaning yagona Bobil davlatiga birlashushi muhim omil bo'ldi. Bobildan g'alla, xurmo, kunjut yog'i, jun va hunarmandchilik buyumlari eksport qilingan. Metall, qurilish toshi va yog'och, qullar va zeb-ziynat buyumlari import qilingan. Bobilda savdo bilan maxsus savdo agentlari - tamkarlar shug'ullangan, o'z xizmatlari uchun ular yer, bog', uy olganlar va sudxo'rlik bilan ham shug'ullanganlar. Bobil, Nippur, Ur, Larsa kabi yirik shaharlar, katta savdo markazlari bo'lgan. Qonunlarning barcha moddalarida xususiy mulk himoya qilingan.

Bobil aholisining asosiy qismini xazinaga tushadigan soliqlarni to'lovchisi mayda ishlab chiqaruvchi va mayda mulkdorlar tashkil qilgan. Shu sababli ularning huquqlari qonun moddalarini bilan himoyalangan. Misol uchun ba'zi moddalar ularni sudxo'rlar zo'ravonligidan himoya qilgan: sudxo'rga qarz uchun hosilni olishi ta'qiqlangan, kumush uchun qarz 20 foizi, g'alla qarzi uchun 33 foiz bilan cheklangan. Garovga olingan kishiga nisbatan shafqatsiz muomala uchun qat'iy chora o'lim jazosi qo'llangan, qarz uchun

qaramlik 3 yil muddat bilan cheklangan. Bobil jamiyatida erkin kishilardan tashqari «muchkenum» atamasi «pastga egilgan» ma’nosini bildirgan. Muchkenumlar jamoa bilan aloqasi uzilgan, yeri bo‘lmagan kishilar bo‘lib, ular cheklangan fuqarolik huquqiga ega bo‘lganlar. Ular podsho xo‘jaligida ishlaganlar, podshodan yerni shartli olganlar. Muchkenumlarga tan jarohat yetkazilsa, qoidaga ko‘ra pul jarimasi to‘langan, erkin kishiga nisbatan talion huquqi (ko‘z uchun ko‘z, tish uchun tish) qo‘llanilgan. Muchkenumni davolash erkin kishiga nisbatan ikki marta arzon bo‘lgan. Qonunlarga qaraganda muchkenumlar pul mablag‘i va mulkka egalik qilganlar.

Bobil jamiyatining eng quyi tabaqasi qullar («vardum») bo‘lgan. Qullikning manbasi Urushlar, mulkiy tabaqlanish natijasida qarzi uchun qul qilish, otaning patriarxal hokimiyati ostida oila a‘zolarining huquqsizligi, otaning farzandlarini garovga berish, qullikka sotish huquqi, ba‘zi jinoyatlari uchun qul qilish (misol uchun, asrandi o‘g‘ilning o‘z ota-onasidan voz keshishi, xotinning isrofgarchiligi, jamoasining sun‘iy şug‘orish inshootiga loqayd qaragani) va qullarning tabiiy ko‘payishi bo‘lgan.

Bobil oilasi ota hukmron bo‘lgan patriarchal oila bo‘lgan. Oila nikoh shartnomasi asosida qurilgan va er nikoh sovg‘asi, xotin sep keltirgan. Xotin o‘z sepiga va erining sovg‘asiga o‘z huquqini saqlagan, erining o‘limidan so‘ng bolalar balog‘at yoshiga yetguncha beva oila mulkiga egalik qilgan. Qonunlar ayolning sog‘lig‘ini himoya qilgan, agar ayol eriga yomon muomala qilsa, va uni mol-mulkini sovursa, ayol qulga aylantirilgan; eriga xiyonat qilsa, o‘lim jazosiga hukm qilingan. Ajralish va qayta erga chiqish qiyinlashtirilgan. Ota-oni mulkiga «somondan oltingacha egalik qilish» huquqiga o‘g‘il-qiz ega bo‘lgan, ammo o‘g‘ilga ko‘proq moyillik bildirilgan<sup>41</sup>.

Moliya-soliq mahkamasi kumush va mahsulot, chorva, hunarmandchilik buyumlari bilan olinadigan soliq yig‘ish bilan shug‘ulangan. Podsho hokimiyati og‘ir qurollangan janchilardan iborat qo‘shinga tayangan. Ularning huquq-majburiyatları Hammurapi qonunlar to‘plamining 16-moddasida belgilangan. Harbiylar xizmatlari uchun yer-mulk olganlar. Qonun askarlarni harbiy boshliqlar zo‘ravonligidan himoya qilgan. Ularni asirlikdan qutqarish uchun to‘lov belgilangan, jangchi oilasi moddiy ta‘minlangan. Askarlar harbiy xizmatni

<sup>41</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 13.

sidqidildan o'tashlari zarur bo'lgan, aks holda ular o'lim jazosiga hukm qilinganlar.

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar**

1. Baynalnahrayn (Mesopotamiya) madaniyatini izohlang.
2. Shumerliklar marosimi va taqdir haqidagi tasavvurlarini sharhlang.
3. Xammurapi qonunlari majmuasini izohlang.
4. Mesopotamiya madaniyati bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
5. "Shumer madaniyati" mavzusida falsafiy esse yozing.
6. Shumer ilohlariga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
7. Akkad madaniyatiing o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.
8. "Xammurapi qonunlari" ga oid eng umumiy jihatlarni toping va slayd tayyorlang.
9. Insert usulidan foydalanib, quyidagi jadvalni to'ldiring (1-ilova).

### **Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi**

1. Ma'ruza matnnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

Q – men uchun yangi ma'lumot

– men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

**2-ilova**

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

## O‘quv topshiriq:

“Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo‘linib ishlash” orqali o‘qituvchi talabalarini to‘rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

### **1 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich Baynalnahrayn (Mesopotamiya) madaniyatini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

### **2 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Shumerliklar marosimi va taqdir haqidagi tasavvurlarini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

### 3 – guruh topshirig‘i

1-bosqich. Xammurapi qonunlari majmuasini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va-rog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

### 4 – guruh topshirig‘i

1-bosqich. Midiya, Mitanni, Qadimgi Xett davlati, Frigiya. Lidiya. Urartu mamlakati madaniyatini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va-rog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## **Guruh bo'yicha baholash mezonlari**

**Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.**

**Har bir talab bo'yicha – 2 ball**

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazmaliilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faoliigi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					

### **Hisob natijasi**

Guruhsiz №	Umumiy ball				
1.					
2.					
Umumiy hisob . ballari					
Baho					

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.–T.: TDSHI, 2006.

## **9-mavzu. QADIMGI YUNON, ISKANDARIYA VA SURIYA FALSAFASI**

### **Reja**

1. Yunon falsafasining so‘nggi markazlaridan biri bo‘lgan Iskandariya shahrining arablar qo‘liga o‘tishi.
2. Yunon tilini o‘rganish hamda Harron va Jandishopurdagi ilmiy markazlar.
3. Yoqub Rahoviyning (vaf. 708-yil) ilohiyot va falsafaga doir asarlarning yoyilishi.
4. Kvint Sentimiy Florens Tertullian (160-230-yy) g‘oyalarining tarjima qilinishi.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Yunon falsafasi, Iskandariya maktabi, neoplatonizmning shakllanshi, Arab istilosи, Harron va Jundishopur ilmiy markazlari, Yoqub Rahoviyning asarlari, Kvint Sentimiy Florens Tertullian g‘oyalari, Yaqin Sharq, Sharq falsafasi, Sharq madaniyati.*

G‘arb tadqiqotchilarining islom falsafasi taraqqiyoti haqidagi izlanishlari islom falsafasini alohida yo‘nalish sifatida o‘rganishga imkon berdi. Islom falsafasining ruhi va qarashlari hatto XX asrda ham o‘rta asrlardagi tafakkur tarzida qolganligi taajjublanarli holdir.

Islom falsafasining Ovro‘po falsafasi va xristian ilohiyoti rivoji bilan bevosita yoki bilvosita aloqasi borligi G‘arb tadqiqotchilari tomonidan ta’kidlangan.

Ma’lumki, II asrning oxirida xristian Cherkovi shakllanib, xristian ilohiyoti oldida yangi vazifalar paydo bo‘ldi. Xristianlik bu vaqtda ma’jusiylik, yahudiylilik va hokimiyat namoyandalaridan o‘zini himoya qilishga muhtoj bo‘lib qolmasdan, balki Isoning ta’limotini yoyish va uni targ‘ib qilish ishiga kirishdi.

II asrning oxirida aleksandriyalik Kliment, Tertullian, Origen, Minusiy Feliks, Laktansiy va boshqa ilohiyotchilar maydonga

chiqdilarki, ularning qarashlari asosida xristianlik cherkovi tafakkuri shakllana boshladi. Biz shulardan faqat birinchisining ijodiga qisman to'xtab o'tamiz.

Iskandariyalik Kliment (Aleksandriyskiy) (150-215) Shimoliy Afrikadagi Rim viloyati bo'lgan Aleksandriyada tug'ildi. Shunisi qiziqliki, u birinchi bo'lib o'zining xristianlik falsafasini ishlab chiqishga azmu-qaror qilib, falsafani xristianlik bilan bog'lamoqchi bo'ldi. Kliment Iskandariyalik Filon (mil.avv. 21-28-yillar – mil. 41 yoki 49-yy) izidan borib, falsafa ilohiyotning xizmatkori bo'lishi kerakligini ta'kidladi. U birinchi bo'lib, falsafa bilan din, e'tiqod va aql muammosining bir-biriga o'zaro muvofiqligini o'rta ga qo'ydi. Falsafa va dinni bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi, deb hisobladi. Uning fikricha, xristianlik o'zida qadimgi yunon falsafasi va Injilning Qadimgi Ahd qismini birlashtiradi. Uning aqidasicha, xudo o'z inoyati bilan bashariyatni Iso Masih orqali najot tomon boshlab boradi. Ammo barcha xalqlarni U turlicha yo'llar bilan boshlab boradi. Isroil xalqini Muso orqali ato qilgan Qonun vositasida, Yevropa xalqlarini esa falsafani taqdim etish inoyati vositasida boshlab boradi. Shuning uchun Kliment nazarida Suqrot yunonliklar uchun qanday maqomga ega bo'lsa, Muso ham yahudiylar uchun shunday ahamiyatga egadir<sup>42</sup>.

Qadimgi yunon falsafasining kamchiligi shundan iborat ediki, u dinga nisbatan bir munkha ishonchhsizlik va mensimaslik bilan qarar edi. Kliment o'z fikrini davom ettirib, shuni qayd etadiki, yunonis-tonliklar o'zlarining barcha qoidalarini yahudiylardan olganlar. Yahudiylilik dinining kamchiligi esa shunda ediki, u falsafani nazarpisand qilmas edi.

Xristianlik yuqorida aytilgan barcha bilim shakllaridan shuning uchun afzal ediki, u birinchi marta Qadimgi Ahd payg'ambarlari tomonidan berilgan dinni va qadimgi yunonlilar tomonidan ishlab chiqilgan falsafani birlashtirar edi. Xavoriy Pavelning aytishicha, o'zları bilmagan holda yunonlilar o'z falsafalari orqali Xudoni hurmat qila boshladilar.

Kliment kimki, din bilimni ortiqcha qilib qo'yadi, deb hisoblasa, ular bilan muvofiq emas, ammo u shunday alohida o'ziga xos bilim borki, u o'z ulug'vorligi bilan e'tiqodni behuda narsa qilib qo'yadi,

<sup>42</sup> Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.P. 5.

deb ta'kidlovchi gnostiklar nuqtai nazarini ham rad etadi. Kliment o'zining "Stromatalar" asarida yozishi-cha, "falsafa – shunday beba ho ha-zinaki, uni qo'liga kiritishga biz bar-cha kuch-quvvatimizni sarflamog'i-miz lozim"<sup>43</sup>.

Kliment fikricha, bizga aqlning berilishi tasodifiy emas, negaki, uning ob'yekti fikrdir, maqsadi esa – haqiqatni bilişdir; aql bizga behudaga berilgan emas, va shuning uchun biz falsafiy mushohada yuritib va fikrga sho'ng'ib, haqiqatni qidirishimiz lozim.

Kliment aqidasiiga ko'ra, falsafa haqiqiy va yolg'on bo'lishi munkin. Yolg'on – bu sofistika, moddiyuncha falsafa va xokazo. Haqiqiy falsafa Xudo va inson haqida talim beradi, u insonning qanday qilib xudoga qaytishi haqida ham fikr yuritadi. Haqiqat yagona bo'lib, unga borish yo'llari ko'pdır. Bu shunday ma'noga egaki, tizimlarning ko'pligi tufayli juda ko'plab xususiy haqiqatlarga yetishish imkoniyati mavjuddir.

Qadimgi yunonistonliklarga aql chirog'i ato etilganligi tufayli, ular uning vositasida haqiqatni tushunishga erishdilar. Qadimgi yahudiylarga berilgan aql chirog'i va Qonun, bir yagona o'sha manbaga, ya'ni o'sha yagona Logosga ega. Ko'plab dalillarga ko'ra, ushbu nazariyani Kliment Iskandariyalik Filondan olgan. Shuning uchun falsafa ko'pchilik jihatdan xristianlikdan oldin vujudga kelgandir va shu bois xristianlar uni Qadimgi Ahd kabi hurmatlab, e'zozlashlari lozim.

Kliment fikricha, e'tiqod va aql, bir-biriga qarama-qarshi emas. Aqlga asoslangan fanlarda subordinatsiya (xizmatda kichik unvonlilarning katta unvonlilarga bo'ysunishi qoidasi) mavjud. Quyi fanlar falsafaga olib boradi, falsafa esa – ilohiyotga olib boradi. Shuning uchun u majburiyidir, negaki, u ilohiyotni qo'liga dalil uchun qurol beradi, u xristianlikni yoyish va himoya qilish uchun bahs quroli hamdir.

Gnostiklar bilan bo'lgan bahsda Kliment qayd etadiki, e'tiqod bilan aqlning nisbati bir-biriga muvosiqdir. Insonning har bir



Iskandariya shahrining tarhi

<sup>43</sup> Лега В. П. История западной философии. - Т., 1998. - С.1.

qobiliyati (e'tiqod ham, aql ham) qandaydir maqsad uchun zarurdir. E'tiqod ba'zi bir imtiyozga ega, u bilish ob'yektini oshib beradi, u ko'proq jo'n, oddiy bo'lib, tushunishga oson, negaki, barcha kishilar qandaydir e'tiqodga egadirlar. U tayyor holda beriladi va bilimda hamma vaqt e'tiqod unsuri ishtirok etadi. Inson qadimgilar aytgan, isbot qilib bo'lmaydigan juda ko'p qoidalarga ishonadi. Kitoblardan bo'ladimi yoki boshqalar aytgan gaplardanmi yoki taxminlardanmi – har holda barcha jarayoniarda bizning aqliy bilimlarimiz shunday qoidalarga tayanadiki, ularga kishi jo'ngina ishonadi. Biroq, e'tiqod poydevor sifatida yetarli emas, negaki, bunday poydevor ustiga xushbichim binoni aqliy dalillar yordamida qurish lozim. Shuning uchun e'tiqod va aql bir-birini istisno etmasdan, biri ikkinchisini to'ldiradi. E'tiqod binoning poydevori bo'lsa, aqliy bilim ushbu poydevorga tiklangan devorlardir. Devorlar poydevorsiz buziladi, ammo devorsiz poydevor ham – bu binoning o'zi emas, balki faqat poydevordir. Demak, e'tiqodsiz bilim yo'q, e'tiqodsiz bilim esa - hech narsa emas.

E'tiqod ham, bilim ham umumiy qobiliyat bo'lgan o'sha yagona oqillikning namoyon bo'lishidir. Shuning uchun har bir xristianning orzusi, ana shu oqilikka erishishdir. Xristian gnosti – bu Xristian e'tiqodining o'zi bo'lib, u aqliy mushohada yordamida idrok etishga olib boradi. E'tiqod va aqlning o'zaro munosabatini mana shunday tushunishda Iskandariyalik Kliment shunday kuchli an'ana boshida turadiki, uni keyinchalik Avgustin, Foma Akvinskiy, Anselm Kenterberiyскиy va boshqa xristian ilohiyotchilari qo'llab-quvvatladilar.

Inson qanday qilib Xudoni bilishi mumkin? Hammadan yuqori turuvchi va bilib bo'lmaydigan narsani qanday qilib tushunishi mumkin? Kliment qadimgi dunyo qoidasi bo'lgan o'xhash narsani, unga o'xhash narsa orqali bilish mumkin, degan fikrga qo'shiladi. Shuning uchun agar insонning ko'p narsani bilishi mumkin bo'lsa, u vaqtida qandaydir tarzda u o'zida ilohiy tabiatni mujassam etgan bo'ladi. Ammo barcha sohalarda Xudo insondan ustunlikka ega bo'lganligidan, Xudoni bilish jarayoni – bir odam umri doirasida erishib bo'lmaydigan cheksiz jarayondir. Demak, haqiqiy bilish uchun vahiyning bo'lishi zarurdir. Shuning uchun dinning ikki shakli mavjuddir: Xudoni tabiiy bilish va vahiylik dini bo'lib, jumladan, u qadimgi Isroiilga berilgan. Xristianlik dini tabiiy din va Vahiylik dinini o'zida qo'shami va shuning uchun haqiqiy va uzil-kesil dindir.

Iskandariyalik Kliment Xudoni cheksiz mohiyat sifatida tushunishda Aflatunga ko'p jihatdan yaqin edi. Negaki, xudo inson ruhi ega bo'lgan tabiatga egadir. Butunlay ehtimoldan holi emaski, Kliment ushbu tushunchani o'zining yahudiy o'tmishdoshi bo'lgan Iskandariyalik Filondan olgan. Shuningdek, undan Muqaddas yozuvni sharhlash va tushuntirish usulini, ya'ni ramziy talqin uslubini qabul qilgan. Jumladan, Kliment Xudoni dunyoni hech nimadan yaratgalligini Aflatun o'zining "Timey" asarida qanday keltirgan bo'lsa, o'shanday talqin qiladi: yaratilish ba'zi bir tartibsizlikdan, xaosdan yuz berdi. Kliment ko'p jihatdan xristianlikning Vahiylilik dini va ma'jusiylik davri falsafasining uyg'unlikda yashash asosiga tamal toshini qo'ydi.

Islom falsafasi suriyaliklar, arablar, eronliklar, turkiy xalqlar, barbarlar va boshqa millat vakillari ishtirok etgan murakkab fikriy jarayon hosilasidir. Xurosandan tortib Andaluziyagacha VIII-XVII asrlarda yuqorida xalqlar tomonidan qo'llanilgan ilmiy adabiyot arab tilida yozilgan.

Yaqin Sharq, jumladan, Iskandariya, 641-yilda Umar Os tomonidan fath etildi. Bu mintaqaning arablar qo'liga o'tishi asrlar davomida davom etib kelgan Eron va Rum istilolariga barham berdi.

Iskandariya VII asrda yunon falsafasi va ilohiyotini tadqiq qiladigan muhim markazga aylangan edi. Yunon tilini o'rganish Suriya va Iroqda IV asrda, Antokiya, Harron, Edissa (arabchasi: Urfo yo Arraho) shaharlarida, Suriya shimolidagi Qinnasarin, yuqori Iroqdagagi Nisaybin va Rossilaynda sal keyinroq boshlangan edi. Yunon tilini o'rganish Iskandariyadan o'tgan yunon ilohiyotini, jumladan, Kliment Iskandariy ta'limotini o'rganishdan boshlangan edi. Kvint Sentiliy Florens Tertullian (160-230-yy) aytganlarining moniylikka qarshi qaratilgan joylari suryoniy tilga tarjima qilingan edi. Ilohiyot matnlari qatorida mantiqqa doir kitoblar ham arab tiliga tarjima qilingan edi. Yaqub Rahoviyning (vaf. 708-y) ilohiyot va falsafaga doir asarlarining yoyilishi erkin fikr mavjudligidan guvohlik beradi<sup>44</sup>.

VII asrda Harron va Jandishopurda (Eron janubida) yunon ilmlarini o'rganadigan ikki markaz mavjud bo'lgan. Jandishopur o'quv yurti 555-yilda Xusrav I Anushervon tomonidan ta'sis etilgan edi.

<sup>44</sup> Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.P. 12.

Yunon falsafasining islom falsafasiga ta'sirini nechog'lik muhim ekanligini biz Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida yaqqol ko'ramiz. Lekin Yunon falsafasining Hindiston va Xitoy falsafasiga ta'siri bu darajada kuchli bo'limganligi ayondir.

Islom falsafasini o'rganilishini boshlab bergen tadqiqot Alambe Jourdanning 1819-yilda nashr etilgan "Arastu asri yunon hujjatlarini arab tiliga qilingan tarjimalarining tanqidi" kitobidir. Bu kitob islom falsafasining G'arb falsafasiga, maxsusan lotin tilidagi ta'lumotlarga ta'sirini ochib bergen. 1852-yili Ernest Renanning "Ibn Rushd va uning falsafasi" nomli kitobi nashr etildi. 1859-yili Solomon Munk tomonidan "Yahudiy va arab falsafasi majmui" nomli kitob nashr etilgan bo'lib, hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. XX asr boshida De Boer tomonidan "Islomda falsafa tarixi" (1901-y) kitobi nemis tilida nashr etilib, 1903-yilda ingliz tiliga ham tarjima qilingan. 1922-yili De Lasi Oleariy tomonidan "Islomiy tafakkur va uning tarixdagi o'rni" nomli kitob nashr etildi.

1957-yili Kruz Hernandez tomonidan "Andaluziya musulmon falsafasi" nomli kitob nashr etildi. 1962-yili Montgomeri Vott muallifligida "Islom falsafasi va ilohiyoti" nomli kitob nashrдан chiqdi. 1964-yili Henri Korbon tomonidan "Islom falsafasining tarixi" kitobi bosilib chiqdi. 1970-yili Mojed Faxriyning "Islom olamida falsafa davoni" kitobi Beyrutdag'i Amerika universiteti tomonidan ingliz tilida nashr etildi. Bu kitob 1983-yili Nasrullo Pur Javodiy tarjimasida Tehronda fors tilida bosilib chiqdi.

Ummaviylar xonardonidan chiqqan xalifalar (661-749-yy) deyarli bir asr davomida hokimiyatni mustahkamlash bilan band bo'ldilar. Abdulmalek ibn Marvon (685-705-yy) davrida boshqaruva sohasida islohotlar o'tkazildi va arab tili yunon va fors tillari o'rniga idora ishlarida rasmiy til sifatida joriy etildi.

Amaliy mulohazalar eng qadimgi ilmiy va ayniqsa, tabobat sohasidagi matnlarni arab tiliga tarjima qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Eng qadimgi arab tilidagi manba bo'lgan Ibn Nadimning (vaf.925-y.) "Al-fehrist" ("Ro'yxat") kitobidagi ma'lumotlarga ko'ra, birinchi marta kimyo, astronomiya va tabobatga doir asarlarni arab tiliga tarjima qilish tashabbusi Ummaviy amiri Xolid ibn Yazidga (vaf.704-y.) taalluqli ekan. Ilgari zardushtiy dinida bo'lib, keyin islomga kirgan Abdullo ibn Muqaffaning (757-y. qatl et.) paxlaviy tilidan arab tiliga hind olimi Bidpoy Hakimning "Kilila va Dimna"

asarini tarjima qilganligi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning qadimgi fors tilidan arab tiliga qilgan tarjimalaridan "Xudoynoma" ("Qadimgi fors davlatchiligi tarixi"), "Oyinnoma" ("Yo'l-yo'riqlar, urf-odatlar"), "Mazda kitobi", "Anushervonning hayot yo'li" va boshqa adabiy-axloqiy risolalar islom mintaqasi madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Arastuning "Kategoriyalar" ("Ma'qulot"), "Birinchi analitika" ("Tahlile avval"), Porfiriyning "Isog'uchi" ("Mantiqqa kirish") asarlarini Abbosiy xalifa Mansur (754-770) uchun arab tiliga tarjimasini ham Ibn Muqaffa bajargan (Qiftiy. "Tarixi hukamo". 220-sahifa). Xalifa Mansur tarjima ishlariiga jalg qilgan olimlar orasida Navbaxtiy xonadonining a'zolari hamda eng mashhur olim Albitriq ham bor edi. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, mazkur xalifa hukmronligi davrida Arastuning bir necha risolalari, Iskandariyada ijod qilgan Ptolemeyning "Almagest", Yevklidning "Geometriya usuli" va boshqa bir necha asarlar yunon tilidan arab tiliga tarjima qilingan (Mas'udiy. "Muruj az-zaxab", Parij, 1861-77, 8-jild, 291-292 betlar). Ammo malakali tarjimonlarning yetishmasligi sababli IX asr boshigacha tarjimachilik ishlari unchalik rivoj topmagan. Haqiqiy tarjimachilik ishini Mansurning nevarasi Ma'mun (813-833-yy) yo'lga qo'ygan. Xorun ar-Rashid saroyining tabibi Yuhanno ibn Mosul o'z asrining eng buyuk olimlaridan biri bo'lgan. Ma'mun uni 830-yili "Baytul hikma" ("Donishmandlik uyi") raisligiga saylagan. U Aflatunning "Timey" asarini arab tiliga tarjima qilgan.

Hajjoj ibn Matar, Yah'yo ibn Albitriq, Hunayn ibn Ishoq (809-873-yy)larning tarjimachilik faoliyati jo'shqin bo'lgan. Salamo ismli olim va tarjimon "Sohibe Baytul hikma" ("Donishmandlik uyining egasi") laqabiga sazovor bo'lgan (Ibn Nadim. Kitobe alfehrist. 353-bet). Hunayn ibn Ishoq o'z shogirdi Iso ibn Yah'yo bilan birgalikda o'z homiyulari bo'lgan Muhammad ibn Muso uchun ko'plab tarjimalar qilganlar. Hunayn muharrirligi ostida uning do'stlari, o'g'li Ishoq, jiyani Xubash va shogirdi Iso ibn Yah'yo tomonidan Arastuning deyarli barcha asarlari, Aflatunning bir qism kitoblari tarjima etilgan. Hozirgacha arab tilida mavjud bo'lgan Iskandariyada yashagan Jolinus (Galen) va Buqrot (Gippokrat) kitoblari Hunayn tarjimasida yetib kelgan<sup>45</sup>.

<sup>45</sup> Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.P. 13.

Yirik tarjimonlar bo‘lgan Ibn Noemaye Alhamsiy (vaf. 835), Abu Bishr Matto (vaf. 940), Yah’yo ibn Adiy (vaf. 974), Qisto ibn Luqo (vaf. 900), Abu Ali ibn Zara (vaf. 1008), Hasan ibn Savor (vaf. 1017) yoki Ibn Xammor, Sobit ibn Qurra Harroniylarning faoliyati sermahsul bo‘ldi.

Arablarning Eron va Hind madaniyati bilan tanishuvi VIII asrdayoq boshlanib, tabobat va siyosiy tuzum sohalaridagi fanlarda o‘z aksini topgan edi. Arab tiliga tarjima qilingan birinchi kitoblar orasida hind olimi Brahamaguptaning astronomiyaga oid “Sinhento” (Sinhed) asari mavjud bo‘lib, islomda astronomiya ilmini rivojiga muhim hissa qo‘shdi. Abbosiylar bo‘lgan Mansur va Horun hukmronligi davrida ularning ajamlik vaziri Yah’yo Barmakiy tashabbusi bilan bir qancha boshqa kitoblar ham hind tilidan arabchaga o‘girildi. Shunday bo‘lsa ham, musulmonlarning hind falsafasiga qiziqishi ilmi nujum va tabobatga nisbatan kam edi (Ibn Nadim, “Kitobe Alfehrist”. 438, 498-betlar). Ibn Nadimning xabar berishicha, muallifi noma'lum bo‘lgan hindlarning “Milal hind va adyonahum” (“Hind millatlari va ularning dinlari”) nomli kitobining arabcha nushasini Abu Ishoq al-Kindiy (vaf. 866-y) o‘z qo‘li bilan yozganligini qayd etgan. Abu Rayhon Beruniy (vaf. 1048-y) 1030-yilda yozgan o‘zining “Tahqiq Molalhind” (“Hind mulkining tadqiqi” yoki “Hindiston”) asarida IX asr ikkinchi yarmida yashagan olim Eronshahriy to‘g‘risida gapirib, uning hindlarning diniy aqidalarini xolis tadqiq qilganligini eslatib o‘tadi. Eronshahriy nomini Nosir Xisrov (vaf. 1061-y) ham eslatib o‘tgan. Uning qayd etishicha, Muhammad Zakariyo Roziy (IX asr) Hind aqidalarini Eronshahriydan iqtibos qilgan. Roziy inson va jahon to‘g‘risidagi o‘z falsafiy ta‘limotida dunyo besh azaliy ibtidodan tashkil topganligi va jismlarning atomlardan (bo‘linmas zarrachalar) iborat ekanligi, ruhlarning ko‘chib yurishi, ya’ni tanosuh aqidasi haqida mulohaza yuritadiki, uni hind falsafasining ta’sirida shakllangan, deb hisoblash mumkin. Jismlarning atomdan tashkil topganligi haqidagi aqida Roziydan tashqari, musulmon mutakallimlari o‘rtasida ham yoyilgan edi. Bu Arastu falsafasiga qarama-qarshi qo‘yilgan sanaviyat (dualizm) aqidasi bo‘lib, unga binoan javhar (substansiya) va oraz (aksidensiya) ikki mustaqil ibtido sifatida talqin qilinadi. Sanaviyat tez orada imon shartlaridan biri sifatida maydonga chiqdi. Musulmon mutakallimlari faqat bir istisno bilangina modda, makon va zamon

haqidagi atom nazariyasini qabul qildilar va uning asosida mustahkam kalom qoidasini ishlab chiqdilarki, unda mutlaq hokimiyatga ega bo'lgan yagona zot xudo edi.

Buddaviylik aqidasining ikki firqasi bo'lgan Vaybxashika va Sovtrantika, braxmanlarning ikki firqasi Nyaya va Vaysheshika hamda Jayna firqasi yunonlilardan mustaqil ravishda V milodiy asrda atom nazariyasini ishlab chiqqan edilarki, unda atom modda, zamon va makonning sifati maqomida bo'lib, abadiy tabiat uning tarkibidan hosil bo'lgan sanalar edi. Ammo arozni (aksidensiya) musulmon mutakallimlari mavjudotlardan alohida olib qaradilar va uni atom iplari sifatida ta'rif etdilar. Ular tushunchasidagi aroz Ash'ariya ta'lomitidagi kabi o'z zotiga ko'ra, boqiy ravishda qolishga qodir emas edi.

Hind tafakkurining arablarga ta'siri haqida gap ketganda, Braxma firqasini va uni payg'ambarlik va vahiyga ehtiyoji yo'qligini ta'kidlaydilar. Musulmonchilik aqidalaridan ratsionalizm oqimi firqasida ham shunday fikr mavjudki, aql osmoniy kuchlar yordamiga muhtoj bo'lmaganligi sababli, vahiyga ham unchalik zaruriyat sezmaydi.

Arab manbalarida yana bir sirli hind firqasi bo'lgan So'mniya haqida gap boradiki, musulmonlar orasida uning tarafdarlari bo'lgan guruhlar mavjud bo'lgan. Yunon shakkokiyl falsafasi bilan tanish bo'lmagan mutakallimlar So'mniya aqidasiga ehtirom bilan qarab, uni hech narsaga ishonmaslik ma'rifatining asoschilari, deb bilihgan. Ularning aqidasida hissiy ma'rifatdan yuqori turuvchi har qanday narsaning bo'lishiga shubha bildirilgan.

X asrda musulmon olamida shunday olimlar mavjud edilarki, ilohiyot va falsafada Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo xalqlarining ilgarigi merosini yunonlilar va arabiarnikidan kam emasligini ta'kidlaganlar. Ana shunday fikrlar bayon etilgan muhim majmua eronlik faylasuf Miskaveyhga (vaf. 1030-y) taalluqlidir. Bu pahlaviy tilidan tarjima qilingan "Jovidone xirad" ("Abadiy aql-zakovat") nomli kitobdir.

Eronliklarning nazariy tafakkuriga moniylik aqidasidasi ta'sir ko'rsatgan. Bu aqida haqidagi bahslar, mulhid (dinsiz) va zindiq (e'tiqodi zaif), deb atalgan ayblovchi tushunchalar, moniylikka qarshi qaratilgan edi. Natijada bahsli mavzularda ko'plab ilohiyotga va falsafaga doir asarlar yaratildi. Bu bahslarda tavhid aqidasi sayqal topdi.

Yunon falsafasining islom tafakkuriga to'la ta'siri arab tiliga qilingan tarjimalar natijasida IX asrda namoyon bo'ldi. Bundan oldingi davrda musulmonlar siyosiy va harbiy masalalar bilan band bo'lganlar. She'r ham ko'pincha siyosat xizmatkoriga aylangan edi. Islom dini bilan siyosat, shariat ahkomlari bilan e'tiqod usullari orasida yaqinlik paydo bo'lgan edi. Musulmonlar o'rtasidagi birinchi siyosiy nizo ummatga (musulmonlar jamoasiga) rahbarlik qilish masalasida ro'y berdi.

To'rtinchi xalifa bo'lib saylangan payg'ambar kuyovi Ali bilan Shom (Suriya) volysi (gubernatori) Muoviya o'rtasida shiddatli kurash ketdi. Muoviya Alidan uchinchi xalifa Usmonni o'ldirgan kishilarни tutib berishni, agar shunday qilmasa, uni xalifa sifatida tan olmasligini bildirib xat yozdi. Usmonni o'ldirishda qatnashgan kishilar Alini xalifa qilib saylanishida faol ishtirok etgan edilar. Bundan tashqari musulmon ummatining birinchi rahbaridan biror narsani talab qilish isyon bilan barobar edi. Shuning uchun Ali bilan Muoviya o'rtasida Saffin degan joyda shiddatli jang 657- yilda ro'y berdi. Alining to'la g'alabasiga bir bahra qolganda Muoviya hiyla ishlatib, jangni to'xtatishni va masalani oqsoqollar kengashida hal qilishni talab etdi. Ali qon to'kilishi oldini olish maqsadida bu taklifga ko'ndi. Ammo oqsoqollar kengashi Muoviyani ham jangda mag'lub bo'lmaganligini e'lon qilib, uni Shomga rahbarligini tan oldi. Ali bunga rozi bo'lsa ham, uning qo'shinidagi askarlardan 12 ming kishi Alidan yuz o'girib, uning qarorgohidan chiqib ketdilar va shuning uchun ular keyinchalik xavorij (tashqariga chiqib ketganlar) nomini oldilar. Ularning aqidasiga ko'ra, siyosimi yoki siyosiy emasligidan qat'iy nazar musulmonlardan birontasi og'ir gunoh qilib qo'ysa, u musulmonchilikdan chiqadi. Xalifani yagonaligini tan olmaslik ham og'ir gunoh edi. Agar xalifaning o'zi ham og'ir gunoh qilib qo'ysa, uni maqomidan mahrum qilish, hatto qatl etish ham shariat nuqtai nazaridan joiz bo'ladi. Keyinchalik ulardan biri Aliga suiqasd qilib, uni o'lirdi. Xavorij oqimi o'zining murosasizligi tufayli keyinchalik hukmdorlar tomonidan tor-mor qilinib, tugatildi. Ali shahid bo'lgandan keyin uning tarafдорлари shia mazhabiga asos soldilar Ular hokimiyatga faqat payg'ambar xonodonidan bo'lganlargina boschilik qilishga haqli deb hisoblaganlar. Ularning aqidasiga ko'ra, xalifa va imomni saylash xalq qo'lida bo'imasligi lozim. Keyinchalik ular

imomni xato va adashishlardan holi bo'lgan shaxs sifatida ilohiyashtirdilar<sup>46</sup>.

632-yilda payg'ambar Muhammad alayhissom (570-632-yy) vafotlaridan keyin arablar yagona din ostida birlashib, o'z yarim orollaridan tashqariga islomni yoyish uchun yurish boshlaganlarida ular birinchi bo'lib Suriya va Iroq hududlarida qo'lga kiritgan narsalardan eng muhimi qadimgi Suriya tilida so'zlashuvchi xristian aholisi edi. Ana shu hududlarda turli xristianlik mazhablari (avval nasoriylar va monofizitlar yoki yaqubiylar) o'zlarida Iskandariyadagi qadimgi yunon ta'limotini mujassamlashtirgan edilar. Ularning qarashlarini rasmiy xristian cherkovining qudratli boshqa yo'naliishlari bid'atda ayblar edilar. Ushbu aqliyatni tashkil etgan xristian mazhablari islam hokimiyatining homiyligidan bahramand bo'lib, ular yashaydigan hududlar o'z-o'zini boshqaradigan islam vasiyligidagi jamoalar hisoblandi (xristianlar, yahudiylar, "sabiyonlar").

Qadimgi xristian mazhablaridan tabiblar, riyozidonlar (matematiklar) va astronomlar yetishib chiqdi. Tabobat ilm-fan va ilohiyot orasida bog'lovchilik maqomida turar edi. Negaki, qadimgi xristian ilohiyotchilari inson jismini ham, ruhini ham davolashga tayyorlanar edilar. Iskandariyada ijod qilgan buyuk olim Jolinus (Galen) tavsiyasiga ko'ra, mantiq fani tabiblar tayyorlash o'quv dasturining muhim qismi hisoblanar edi.

Nasoro o'quv yurtlari o'z o'quv rejalarini ikki qismga bo'lib, uch sohaning biridan jiddiy faoliyatga tayyorlaydigan oddiy dastur tuzgan edilar: astronomiya, tabobat (tibbiyat) va ilohiyot. Jundashopurdagi (Bag'doddan sharqroqda 170 km masofada) o'quv yurtida tabobat fakulteti (unga biriktirilgan kasalxona bilan birga) va rasadxonasi bilan birgalikda astronomiya fakulteti mavjud edi. Riyoziyot bilan bir qatorda mantiq o'quv dasturidagi asosiy mavzu hisoblanib, turli fan sohalarini bir-biriga bog'lashda muhim o'rinn tutar edi. Qadimgi Suriya faylasufiari mantiq, riyoziyot, fizika (ruhshunoslikni ham o'z ichiga olar edi) va ilohiyot bo'yicha zo'r salohiyatga ega edilar. Shunday hollar uchrar ediki, monofizit ilohiyotchisi Severus Sebxoktga o'xshab, ba'zida ayrim mualliflar ilohiyot sohasida bo'lgani kabi mantiq va astronomiyada ham risolalar yozar edilar. Ana shunday har tomonlamalik natijasida Suriya va Iroqdagi suriyali xristianlar

<sup>46</sup> Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P.113.

tomonidan Arastuning mantiqqa doir asarlari tarjima qilinib, o'rganilar va tahlil qilinar edi. Ushbu Suriyali an'ana V-VI asrlarda Iskandariya an'anasini davom ettirdi.

Arastu mantig'ining qadimgi Suriya tilidagi tarjimalari haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Ularning ko'pchiligi saqlangan bo'lib, ba'zilari nashr ham etilgan (jumladan, Kategoriyalar, Talqinlar haqida va Birinchi analitika). Porfiriyning "Isogoga" ("Isag'udi") asari "Organon"ning boshida muqaddima sifatida joy olgan.

Mantiq tabiblar tayyorlashda asosiy o'rinn tutishda davom etdi va shu sababli IX-XII asrlar davomida arab tili joriy bo'lgan mam-lakatlarda mantiq fani taraqqiy etdi. Bunday tabobat-falsafiy an'anaga Abu Bakr Muhammad Zakariyo Roziy va ibn Sinogina emas, hatto XII asrda Ispaniyada ijod qilgan Maymonid ham duchor bo'lib, yigitlik chog'ida tabobat mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida mantiq bo'yicha ham o'zining yagona asarini yaratdi.

Yunon mantig'ini arablarga o'tqazishda katta vositachilik xizmatini nasoro mazhabi ruhoniylari bajardilar. Ularning Jundashopurdagi o'quv yurti yunon mantig'i matnlarini arabchaga tarjima qiluvchilar birinchi avlodining beshigi bo'ldi. Horun ar-Rashid va uning vaziri Ja'far ibn Barmakiyning tabibi bo'lgan Jibril ibn Baktishu bu yerda tahsil olgan, keyinchalik ushbu o'quv yurtining boshlig'i va kasalxonaning boshqaruvchisi bo'lgan edi. Uning o'rindoshi bo'lgan Abu Zakariyo Yah'yo (yoki Yuxanno) ibn Masovay Jibrilning taklifiga muvofiq Jundashopurdan Bag'dodga saroy tabibi sifatida chaqirildi<sup>47</sup>.

Unga ko'p kitoblar alohida tarjima qilish uchun topshirildi. Xalifa al-Ma'mun topshirig'iga muvofiq u tarjima markazi bo'lgan Bayt al-Hikmani, aftidan Jundashopur o'quv yurti namunasida tashkil etdi. Bu markazning boshlig'i sifatida uning o'rnini mashhur olim Hunayn ibn Ishoq egalladi. U ham o'sha an'analar ruhida tarbiya topgan edi. Bu muassasaning gullab-yashnagan davri ibn Masovay, ayniqsa, Xunayn va uning o'rnini egallagan o'g'li Ishoq rahbarligi vaqtiga to'g'ri keldiki, o'shanda xodimlarning asosiy ko'pchiliginini nasorolar tashkil etar edi.

Monofizitlar (yaqubiylar) arab tilidagi mantiq taraqqiyotida kamroq o'rinn tutdilar, ammo ularning xizmati shundaki, ular ba'zi jihatlarni kiritdilarki, ular nutqning ko'tarinki ruhda bo'lishini

<sup>47</sup> Qarang: Николас Ремер. К истории арабской логики. -Питсбург. Изд-во Питсбургского университета. 1963.

ta'minladilar. Nasorolar Ammonius sharhlarini afzal, deb bilsalar, yaqubiylar Filopon sharhlariga tayanan edilar. Nasorolar Iskandariya yangi aflatunchiligining aralash-quralash holatiga tayanganliklari tufayli bunday holat arablarga ham o'tdi. Aflatunga qiziqish Abu Nasr Forobiy kabi olimlarda ko'proq sezilar edi.

Umumaviylar davrida (661-750) "ajnabiy fanlar" deyarli qo'llab-quvvatlanmadı, ammo Abbosiyarlarning hokimiyatga kelishi bilan hamma narsa o'zgardi. Abbosiyarlар sulolasining ikkinchi xalifasi bo'lgan Al-Mansur (hukmronlik yillari 754-775) astronomiyaga juda qiziqqanligi sababli, bu sohadagi yunoncha asarlarni o'rganishni qo'llab-quvvatladi. U 765-yili oshqozoni kasal bo'lganligi munosabati bilan yunonlar tabobatiga ham alohida e'tibor qaratadi. Abbosiylardan bo'lgan beshinchи xalifa Horun ar-Rashid (hukmronlik yillari 786-809) bunday tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashda davom etdi. Bu mantiq ilmi taraqqiyoti uchun juda muhim edi.

Ushbu suloladan chiqqan yettinchi xalifa Al-Ma'mun (hukmronlik yillari 813-833) yunonlar ta'limotini o'ziga xos zo'r tashabbus bilan qo'llab-quvvatlar ekan, ayniqsa, yunon falsafasiga alohida rag'bat ko'rsatdi. U mashhur tarjimon Hunayn ibn Ishoqqa tarjima qilgan kitoblari og'irligida oltin bilan haq to'ladi. Ma'mun tomonidan tashkil etilgan Bayt al-hikma (Donishmandlik uyi) o'ziga xos ilmiy-tekshirish instituti bo'lib, yunon fani va falsafasiga doir hujjatlarni tarjima qilishga ixtisoslashgan edi. Birinchi bo'lib bu muassasa boshida nasoro olimi Yah'yo (yoki Yuhanno) ibn Masovay (790-857) turgan ediki, uning ixtisosi tabobatga doir asarlarni tarjima qilish edi.

Hunaynning o'g'li Ishoq ibn Hunayn (845-910) o'z otasining ishlarini davom ettirdi. Bu davrda, ayniqsa al-Mu'tamid (869-892) va al-Mu'tadid (892-902) xalifalik qilgan yillarda shunday tadqiqotlarga katta yordam berildi<sup>48</sup>.

Yah'yo ibn Xolid ibn Barmakiy (740-805) Horun ar-Rashidning mashhur murabbiysi va vaziri bo'lib, 790-yillarda "Almajistiy"ning ("Almagest") ilk tarjimasini mablag' bilan ta'minladi. Uning o'g'li va dadasi o'rniga Horun ar-Rashid vazirligiga o'tirgan Ja'far ibn Barmakiy o'zining butun obro'-e'tiborini yunon fanlarini o'rganish tashviqiga bag'ishlab, saroy e'tiborini shu ishga qaratdi.

<sup>48</sup> Adamsen Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York 2015. P.33.

Aslzoda arab urug'idan va qudratli doiralarda aloqasi bo'lgan Yaqub ibn Ishoq al-Kindiy (805-873) o'zini yunoncha asarlar tarjimalarining homiysi sifatida namoyon qildi. Ularni o'rghanishda u faol ishtirok etib, mantiqqa doir bir necha risolalar yozdi. U Ma'mun tomonidan qo'llab-quvvatlanib, falsafaga doir asarlarni yunonchadan arab tiligi tarjima qilinishiga erishdi.

Abbosiylar hukmronligining birinchi asri davomida astronomiya va ayniqsa tabobat (medisina) Bag'dodning islom dunyosiga qo'yilgan birinchi qadamlari bo'lib, ular orqali yunon fani va falsafasi o'zining g'olibona yurishini boshladi. Bunday sharoitda sharqiy xristian olimlari tomonidan taqdim etilgan mantiq, boshqa barcha arab ilmlari orasida markaziy o'ringa qo'yildi.

Yunon mantig'i arab tiliga Arastuning "Organon" ("Arg'anun")iga kirgan birinchi kitoblar tarjimasi bilan 810-820-yillarda kirib keldi. Shu davrda mantiqning to'rt kitobi mazmuniga bag'ishlangan izohli to'plam ham paydo bo'ldi. Ushbu asarlarni mashhur "Kalila va Dimna" tarjimoni bo'lgan Abu A'lo ibn Muqaffaning unchalik nomi chiqmagan o'g'li Abdulla ibn al-Muqaffaga taalluqli, deyish mumkin.

Bayt al-hikmaning birinchi davri oxirida, ya'ni taxminan 835-840 yillarda mantiqqa doir yetti kitobdan oltasining arabcha tarjimasi mavjud edi. Arastuning "Ritorika" ("Ilmi balog'at") asari ham arab tiliga tarjima qilingan edi. Porfiriyning "Isagoga" ("Isog'iji") asarining tarjimoni Ayyub ibn al-Qosim ar-Rakkiiy edi. "Kategoriylar" ("Ma'qulot") ham shu davrda, ehtimol Yah'yo (Yuhanno) ibn al-Bitrik tomonidan tarjima qilingan edi.

Teodor arab tiliga "Birinchi Analitika"ni tarjima qildi. Uning tarjimasi Hunayn ibn Ishoq tomonidan tekshirilib, shu holatda umum tomonidan e'tirof etildi. "Topika"ning ham tarjimasi mavjud bo'lib, uning tarjimoni Timoteus sifatida berilgan. Abdal Masih ibn Abdulla ibn Naim taxminan 830-yilda "Sofistika"ni qadimgi yunon tilidan arab tiliga tarjima qilgan. Uning tarjimasi keyinchalik (970) Abu Ishoq ibn Ibrohim ibn Bakkus al-Ashariy tomonidan taqriz qilinib, tuzatilgan<sup>49</sup>.

Yuqorida aytilgan tarjimonlar ko'pincha qadimgi suriya tilidan arabchaga so'zma-so'z tarjima qilar edilarki, bunday usulni Hunayn ibn Ishoq haqli ravishda tanqid qilib, uni boshqacha, mazmunga e'tibor beradigan usul bilan almashtirdi.

<sup>49</sup> Qamng. Николас Ремер. К истории арабской логики. (Arab mantig'i tarixiga doir). -Питсбург. Изд-во Питсбургского университета. 1963. -С.26.

Hunayn ibn Ishoq yunon falsafiy matnlarini arabcha tarjimasini tubdan o'zgartirdi. U quyidagi yangiliklarni kiritdi:

1) yunon matnlarining tushunishga muvofiqlarini to'g'ridan-to'g'ri arabchaga tarjima qilish yoki ularning qadimgi suriya tiliga qilingan tarjimalarini solishtirilgandan keyin, ular yuzasidan yangi arabcha tarjimaga qo'l urish;

2) ishonchli matnga ega bo'lish uchun turli qo'lyozmalarni taqqoslab ko'rish;

3) so'zma-so'z emas, balki katta ifodalar mazmuniga ko'ra, matnlarni tarjima qilish.

Bunday buyuk ishni bajarish (840-900) ikki avlod vakillariga nasib etdi.

Eng yaxshi yunoncha mantiqqa doir matnlar arablar tushunchasiga yetib kelganligi va buning natijasida yunon fani va falsafasiga qiziqish yoyilganligi tufayli Arastu mantig'ining arab tilidagi ravnaqi boshlandi. Bunda sharhlar va mustaqil tadqiqotlar muhim o'rinn tutdi. Bunday ishlarni Abu Ishoq al-Kindiy boshlab berdi.

Hunayn ham, uning o'g'li ham mantiq bo'yicha mustaqil asarlar yaratmadilar. Bu jihatdan al-Kindiyning birinchi izdoshi Sobit ibn Qurra bo'lib, u Bayt al-hikmada u bilan hamkasblik qilar edi. U arab tilida o'sha vaqtida mavjud bo'lgan mantiqqa doir barcha asarlarga sharhlar yozdi. Hunayn vafotigacha mantiq sohasida mashhur bo'lgan arab mualliflaridan Al-Kindiyning shogirdi Ahmad ibn Muhammad ibn at-Tayub as-Seraxsiy va uning zamondoshi Habib ibn Bozrizni ko'rsatish mumkin.

877-yili Hunayn vafot etib, arab tilidagi mantiq rivojining ikkinchi davrida burilish yuz berdi. Hunayn yunoncha asarlarning arab tilidagi yaxshi matnlarini tayyorlash bilan o'zidan keyingi tadqiqotchilar uchun ajoyib zamin yaratdi. Uning ishini davom ettirgan mantiqshunoslarning soni 25 kishidan ortadi.

### Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lim uchun vazifalar

1. Yunon falsafasining so'nggi markazlaridan biri bo'lgan Iskandariya shahrining arablar qo'liga o'tishiga oid ma'lumotlarni tekshiring.

2. Yunon tilini o'rganish hamda Harron va Jandishopurdagi ilmiy markazlarini izohlab bering.

3. Yoqub Rahoviyning (vaf. 708-yil) ilohiyot va falsafaga doir asarlarning yoyilishini sharhlab bering.

4. Kvint Sentimiy Florens Tertullian (160-230-yy) g'oyalarining tarjima qilinishini izohlang.

5. Yunoniston madaniyati bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.

6. "Iskandariya maktabi" mavzusida falsafiy esse yozing.

7. Jundishopur ilmiy markaziga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.

8. Harron madaniyatiing o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.

9. Mavzu yuzasidan B/B/B jadvalini to'ldiring (2-ilova).

10. Insert usulidan foydalanim, quyidagi jadvalni to'ldiring (2-ilova).

### **Insert usulidan foydalanim ishlash qoidasi**

1. Ma'ruza matnnini o'qib, matnnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

Q – men uchun yangi ma'lumot

- – men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

**1-ilova**

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

### **O'quv topshiriq:**

"Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishslash" orqali o'qituvchi talabalarni to'rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

## **1 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Yunon falsafasining so‘nggi markazlaridan biri bo‘lgan Iskandariya shahrining arablar qo‘liga o‘tishiga oid ma’lumotlarni gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlар	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## **2 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Yunon tilini o‘rganish hamda Harron va Jandishopurdagi ilmiy markazlarini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlар	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

### **3 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Yoqub Rahoviyning (vaf. 708-yil) ilohiyot va falsafaga doir asarlarning yoyilishini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

### **4 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Kvint Sentimiy Florens Tertullian (160-230)ning g‘oyalalarining tarjima qilinishini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida) 10 daqiqa

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish 5 daqiqa

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## **Guruh bo'yicha baholash mezonlari**

**Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.**

**Har bir talab bo'yicha – 2 ball**

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazma-lilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faolligi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					

## **Hisob natijasi**

Guruhsiz №	Umumiy ball				
1.					
2.					
Umumiy hisob ballari					
Baho					

## **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. -T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.-T.: TDSHI, 2006.

## **10-mavzu. QADIMGI MARKAZIY OSIYO XALQLARI MADANIYATI**

### **Reja**

1. Markaziy Osiyo qadimgi madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Markaziy Osiy hududidagi ilk davlatlar madaniyati.
3. Yunon-Baqtriya madaniyati miqyosida Sharq ellistik madaniyati.
4. Kushon madaniyati.
5. Zardo'shtiylik va uning jahon dinlari shakllanishiga ta'siri.
6. «Buyuk ipak yo'li» – Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rta-sidagi madaniy muloqot yo'li.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Qadimgi Xorazm va Baqtriya madaniyati, So'g'diyona, Yunon-Baqtriya madaniyati, Sharq ellinizmi, Kushon madaniyati, Kanishka, Demetriy, zardushtiylik, Avesto, Buyuk ipak yo'li, Sharq va G'arb madaniyatları muloqoti.*


Miloddan avvalgi IX-III-II asrlarda qadimgi Xorazm mustaqil davlat bo'lib, Iskandar, Salavkiylar va Yunon-Baktriya davlatlari tarkibiga kirmagan. Bu hol Xorazmda o'ziga xos mahalliy davlatchilik tizimi rivojiga muhim omil bo'ldi.

O'rta Osiyoda Miloddan avvalgi 3 ming yillikning o'rtalarida bronza (mis, qalay va qo'rg'oshin qorishmasi) davri boshlanishi bilan ota urug'i - patriarxat topadi. Bronza davrida dehqonchilik xo'jaligi yangi erlarda, jumladan, O'zbekiston hududida ham keng yoyilgan. Mazkur davrda ishlab chiqarish munosabatlari tez rivojlanib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar yangi asosda taraqqiy etadi.

O'rta Osiyoda qabilalar tomonidan yangi yerlarni keng o'zlash-tirish jarayoni miloddan avvalgi 4 ming yillikning oxiri - 3 ming yillikda boshlangan. Zarafshonning yuqori qismida, Panjikent

shahridan 15 km g'arbda topilgan 90 hektar maydonda joylashgan Sarazm qishlog'i harobasi moddiy topilmalarida Janubiy Turkmaniston ziroatchilari va Xorazmning Kaltaminor madaniyatlariga mansub buyumlar bor. Xuddi shu davrda (mil. avv. 4-3 ming yillik) Afg'onistonning shimoli-sharqida Hind-Pokistonning mashhur Xarappa madaniyati vakillarining makonlari paydo bo'ladi.

Bronza davrida O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida baland bo'yli, boshi cho'zinchoq, yuzi tor odamlarning vakillari tarqalgan. O'rta Osiyoning shimoliy dasht va cho'l qismida janub aholisidan farq qilgan boshi dumaloq, yuzi juda keng va cho'ziq bo'limgan qabilalar yashagan. Janubiy qiyofali odamlar O'rta er dengizi irqining vakillari deb ataladi. Ular Olb Osiyo, Mesopotamiya, Eron, Afg'oniston, O'rta Osiyoning janubi, Hindiston kabi katta grafik hududga yoyilganlar. Shimoliy qiyofali odamlar Janubiy Sibir hududidan to Qozog'iston va O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy qismida, Ural, Volga yerlarigacha tarqalganlar.



## Ahmoniyilar davlati haritasi

Miloddan avvalgi 2 ming yillikning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo hududida qadimgi janubiy va shimoliy qiyofadagi, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan odamlar vakillarining aralishib ketishi jarayoni boshlanadi. Shu davrga kelib bronza davri qabilalari O'rta Osiyodagi turli elatlarga asos solganlar.

O'zbekiston hududida joylashgan shu elatlarning vakillari - so'g'dlar, baqtriyalar, xorazmiylar va saklar, o'zbek xalqining qadimgi

ajdodlaridan bo'lib, ular haqida ayrim ma'lumotlar qadimgi yozma manbalarda saqlangan.

Miloddan avvalgi 1 ming yillikdan boshlab, yirik madaniy-tarixiy viloyatlar - Xorazm, Baqtriya, So'g'd, Farg'on'a, Shosh (Choch) qadimdan, to o'rta asrlargacha Sharq hududlarida juda mashhur bo'lgan.

Antropologik va yozma manbalarning ma'lumotlari O'rta Osiyoda alohida eng qadimgi elatlarning shakllanishi va etnik hududlarning ajrala boshlashi miloddan avvalgi IX - VIII asrlarga oid bo'lgani haqida dalolat beradi. Bu masalani o'rganish juda murakkab muammo bo'lsa ham, shubhasiz aytib o'tish kerakki, miloddan avvalgi VI asrning ikkinchi yarmida Erondag'i ahmoniyalar sulolasiga podsholarning O'rta Osiyoga yurishlari boshlanganda bu elatlarning ajrala borish jarayoni butunlay tugagan va turli qadimgi xalqlarning hududiy joylashuv chegaralari, viloyatlarning umumiyligi chegaralari ahmoniylardan ancha oldingi davrlarda shakllangan edi. Yozma manbalarga ko'ra, ahmoniyalar O'rta Osiyoning alohida yirik viloyatlariga qarshi harbiy yurishlarni boshlaganlar. Demak, O'rta Osiyo viloyatlari va aholisi haqida, ularning hududiy joylashuvi va ayrim viloyatlarning chegaralari haqida Sharqda turli ma'lumotlar to'plangan edi<sup>50</sup>.

Jahon tarixidagi ilk davlatlar dehqonchilik kabi ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar paydo bo'lgan joylarda shakllandilar. Ming yillar davomida faqat termachilik va ovchilik hisobiga yashab kelgan, dehqonchilikni bilmagan ko'pgina qabilalar va elatlar davlatchilik bosqichiga ko'tarila olmadilar.

Eng qadimgi davlatlar miloddan avvalgi 4-ming yillikda Ikki daryo oralig'ida (Mesopotamiya) va qadimgi Misrda paydo bo'ldi. Bundan 10 ming yillar ilgariyoq bu erda termachilik va ovchilik asosida ekinlarni yetishtirishga va yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatish - chorvachilikka o'tish boshlanadi. Asta-sekinlik bilan dehqonchilik bu yerdan qo'shni hududlarga (Kavkazorti, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoyga) tarqaladi. Miloddan avvalgi 3-2-ming yillikdayoq Qadimgi Sharq mamlakatlari o'rtasida qalin tarixiy-madaniy aloqalar mayjud edi.

Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatmoqdaki, miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida O'zbekiston (Surxon vohasi)da qadimgi

<sup>50</sup> William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.P. 25.

dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlanadi. Bu jarayon bosqichma-bosqich rivojlanishining o'ziga xos xususiyat va qonunlarga ega edi.

Ilgarigi o'quv qo'llanmalari va darsliklarda ilk davlatlarning shakllanishini ekspluatatsiyaning paydo bo'lishi yoki boshqa kishilar mehnati bilan yaratilgan mahsulotni o'ziniki qilib olishning vujudga kelishi natijasida jamiyatning bir-biriga dushman sinflarga bo'linishi bilan bog'lab tushuntirilar edi. Aslida, turli manbalar ilk davlatchilikka o'tishda boshqacha tarixiy vaziyatni ko'rsatmoqda.

Dastlabki davlatlar alohida makonlar yoki ilk shaharlar hamda ishlov beriladigan erlar va sug'orish tizimi maydoni bilan chegaralangan nisbatan kichik hududda, ya'ni zinch o'zlashtirilgan, xo'jalik va ishlab chiqarish maqsadida keng foydalaniladigan qadimgi sug'orma dehqonchilik vohalarida paydo bo'lgan. Bunday vohalar aholisi uchun tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish, makonlar va manzilgohlar hududini mudofaa qilish, sug'orish va dehqonchilik ishlarini tashkil etish, jamoaning ichki va tashqi aloqalarini boshqarib turish masalalarni yechish muhim va hayotiy zaruriyat edi.

Shu tariqa, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan taraqqiyoti jamiyatda alohida hurmat-e'tiborga bo'lган kishilarning ajralib chiqishga olib keldi. Ular ijtimoiy ishlab chiqarishda doimiy band bo'lmasdan, faqatgina ijtimoiy va xo'jalik hayoti ustidan nazorat va rahbarlikni amalga oshirdilar. Lekin, ular na boy-badavlat kishilar, na ekspluatorlar va na quldorlar edi. Jamiyatda bunday kishilarning ajralib chiqishiga ularning axloqiy hislatlari va obro'-e'tibori sabab bo'lgan xolos. Ammo bu muhit keyinchalikkina alohida to'q oilalarning paydo bo'lishiga olib keldi va asta-sekinlik bilan jamoadagi yuksak hurmatga asoslangan hokimiyat meros tariqasida otadan o'g'ilga o'ta boshladи<sup>51</sup>.

O'rta Osiyoda dastlabki davlat uyushmalari ham dehqonchilik vohalari aholisini chetdan bo'ladigan bosqinchilardan himoya qilish va jamoadagi munosabatlarni huquqiy boshqarib turish uchun tashkil topdi.

O'rta Osiyo xalqlari ajdodlarining ilk davlatchiligi ancha qadim ildizlarda ega. Milliy davlatchiligimiz shakllangan bronza davriga oid birorta yozma ma'lumotlar yo'q. O'zbekistonning bu davrga oid tarixi faqatgina arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida yoritilib, ular

<sup>51</sup> William J. Dakker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.P. 26.

jamiyat taraqqiyotidagi barcha murakkab jarayonlarni to'liq ochib bera olmaydi.

O'zbekistonning miloddan avvalgi 1 ming yillikning birinchi yarmiga oid tarixi yozma manbalarda qisman yoritilgan. Zardushtiyarning muqaddas kitobi «Avesto»da, ahamoniylar davri mixsimon yozuvlarida va qadimgi Yunon-Rim yozma manbalarida o'lkamizdagi xalqlarning nomlari, alohida joylar, tog'lar, daryolar va ko'llarning nomlari, afsonaviy qahramonlar va podsholarning nomlari, aholining turmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

«Avesto» asarida Xorazm, Baqtriya va So'g'd tuproq'ida paydo bo'lgan. «Avesto»ning eng qadimgi geografik nomlari O'rta Osiyo va unga chegaradosh viloyatlari bilan bog'lanadi. «Avesto» kitoblari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi: qadimgi geografik tushunchalar, hududiy, etnik, qabilalar va viloyatlar nomlari, qadimgi va siyosiy tuzum, zardushtiyarning falsafasi, dunyo tarixining rivojlanishi haqida ma'lumotlar.

Yunon-fors urushlari boshlanishi bilan miloddan avvalgi VI - IV asrlar siyosiy voqealarida ishtirok etgan O'rta Osiyo xalqlarining tarixi qadimgi yunon tarixshunoslarning asarlarida yoritilgan.

Bu borada O'rta Osiyo xalqlari to'g'risida qisqa bo'lsa-da, juda aniq ma'lumotlar beruvchi Gerodotning «Tarix» kitobi qismlari ayniqla, qimmatlidir. Qadimgi davrlardan boshlab bu kitob dunyoda eng mashhur tarixiy asarlardan biri bo'lib hisoblangan. Uning muallifi Gerodot «tarixning otasi» deb nom olgan.

«Avesto» qadimgi fors yozuvlari, Gekatey, Gerodot, Ktesiy va boshqa yunon tarixshunoslarning asarlarida O'rta Osiyo tarixiy viloyatlari nomlari quyidagi tartibda ko'rsatib berilgan:

«Avesto»	Qadimgi fors yozuvlari	Yunon tarixchilar
Mouru	Marg'un	Marg'iyyona
So'g'da	So'g'uda	So'g'diyona
Bahdi	Baqtrish	Baqtriyona
Xvarizam	Xvarazmin	Xorasmiya
-	Partava	Parfiyona
Tur, danu	Shak, sak	Saklar, massagetlar

Mouri Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Marg'iyona yerlari Murg'ob vohasi, So'g'diyona - Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Baqtriyona (Baqtriya) - Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismi, Janubiy Tojikiston va Surxondaryo viloyati, Xorazm - Amudaryoning o'rta va quyi qismidagi yerlarini o'z ichiga olgan.

Saklar O'rta Osiyo va Qozog'istonning tog'lari, dashtlari va cho'llarida yashagan ko'chmanchi chorvador qabilalaridir. Ahamoniylar yozuvlarida saklar quyidagi guruhlarga bo'lingan: saka tigraxauda «tigra» - bu «o'tkir», xauda - «bos kiyim», «saka-xaumovarka» - «xaomani ulug'lagan saklar» («xaoma» - «iuqaddam ichimlik»), «saka tiay darayyo» - «daryo, dengiz narigi yog'idagi saklar».

Saklarning yodgorliklari - qadimgi qabristonlar va mozor - qo'rg'onlar juda keng hududda topib tekshirilgan (Kaspiy, Orol dengizi atrofidan Balxash ko'ligacha, pomir va Tangritog' o'lkalarida, Quyi Zarafshon, Amudaryo, Sirdaryo yerlarida). Saklar xo'jaligida chorvachilik ayniqsa, katta ahamiyatga ega bo'lган. Bu kabilalar qoramol mayda chorva hamda otni ko'plab urchitganlar. Saklarning yodgorliklarida bronza va temirdan ishlangan harbiy qurollar, zebziyat, mehnat qurollari va sopol idishlar uchraydi.

XIX asrning oxiridan boshlab oldingi yillar jahon tarixshunosligida O'rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo'lishi muammolarini o'rganishda «Avesto»dagi ma'lumotlar, Gekatey va Gerodot asarlari, shuningdek, tarixshunos Ktesiyning ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qildi.

Ilmiy adabiyottarda O'rta Osiyoda ahamoniylar davrigacha mavjud bo'lган quyidagi davlat uyushmalari haqida so'z yuritganlar.

1. Arshayyona - O'rta Osiyodagi qadimgi viloyatlarning uyushmasi;

2. Ayyornam Vayjo - bu ham Aryoshayyonadek yoki uning markazi Ariya va Marg'iyonada bo'lган «Katta Xorazm» yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati;

3. Qadimgi Baqtriya davlati.

Olimlarning aytishicha, Aryoshayyona «Avesto»da tilga olingan Kavi Vishtasining podsholigi bo'lib, miloddan avvalgi IX - VIII asrlarda Drangiana, Satagadiya, Ariya, Marg'iyona va Amudaryo va o'rta oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. G'arb olimlari V.B.Xenning, I.Gershevichlar Kavi Vishtasining davlati Marv va Xirot atrofida joylashgan «Katta Xorazm» deb hisoblaganlar.

Bu masala ko'plab ilmiy ishlar yozilgan, munozaralar bo'lgan bo'lsa-da, «katta Xorazm» muammosi to'la yechimini topmagan. Bu ilmiy nazariya Gerodotning Akes daryosi suvlaridan foydalanish haqidagi ma'lumsotlariga asoslanib, paydo bo'lgan. Gerodot yozadi: «Osiyoda bir fodiy bor. Uning barcha tomoni tog' bilan o'ralgan, tog'ni esa beshta dara kesib o'tadi. Bir vaqtlar bu vodiylar qarashli bo'lib, xorazmliklar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylarning chegaradosh yerlarida joylashgan. Forslarning hukmronligi boshlang'ich vodiylar fors podshosi hukmronligiga o'tgan. Vodiyni o'rabi olgan tog'dan Akes nomli yirik daryo boshlanadi».

Ba'zi tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, axamoniylar davridan oldin xorazmliklar Parfiya chegaradaridan sharqiyo yo'nalishda Kopetdog' yonbag'irlarida joylashganlar.

Xorazm davlatining markazi Marv va Xirot atrofida bo'lib, bu davlatni forslar podshosi Kir II tomonidan bo'yundirilgandan so'ng xorazmliklar Quyi Amudaryo - hozirgi Xorazm viloyatiga ko'chib borganlar deb faraz qilingan. Ushbu nazariyaga ko'ra, xorazmliklarni Quyi Amudaryo yerlariga janubdan miloddan avvalgi VI asrda qadimgi forslar siqib chiqarganlar.

S.P.Tolstov, Ya.G'ulomovlar bu nazariyaga qarshi bo'lib, xorazmliklar O'rta Osiyoning janubidan ko'chib kelmaganlar. Xorazm davlati Quyi Amudaryoda qadimgi zamonlardoq vujudga kelgan deb xulosa qilganlar. Ammo bu davlatning chegaralari hozirgi Xorazm viloyati hududidan ancha keng bo'lgan.

Miloddan avvalgi 700-540-yillar qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri bo'lib, bu yirik davlatning hududi chegaralar Marg'ob vohasi. Hindiqush tizmasi, Badaxshon, Nurota tizmasi va Buxoro vohasiga borib taqalgan bo'lishi mumkin.

O'rta Osiyoda rivojlangan dastlabki davlatlardan qadimgi Baqtriya eng yiriklaridan biri bo'lgan. Bu davrda Baqtriya viloyatlariga qadimgi Xorazm davlati va sak-massagetiarning harbiy-siyosiy uyushmasiga tegishli o'lkalar chegaradosh bo'lgan.

Marg'iyona va So'g'diyona qadimg Baqtriya davlatining ayrim qismlari bo'lganligi haqida turli manbalar xabar qiladi. Qadimgi fors podshosi Doro I ning Marg'iyonadagi Frada boshchiligidagi qo'zg'onlonni (mil. avv. 521-y.) tor-mor qilishi haqida Behistup yozuvlaridagi xulosa: «man a nimalarni men Baqtriyada qildim». Doro III davrida Baqtriya va So'g'diyona birlashtirilgan o'lka bo'lib, unda Bess ismli

satran hokimlik qilgan vaziyati va Marg'iyona, Baqtriya hamda So'g'diyona aholisining urf-odatlari va madaniyati bir-biriga ancha o'xshashligi ham shular jumlasidandir.

Arxeologik manbalarga ko'ra, Baqtriya va So'g'diyona viloyatlariga nisbatan, Xorazm tuprog'ida miloddan avvalgi IX - VIII asrlarga oid paxsa yoki xom g'ishtdan qurilgan uy-joylar, mudofaa devorlari va turli inshootlar topilmagan. Sopol idishlar qo'lda yasalgan va kulolchilik charxi bu davr mahalliy hunarmandchiligidagi noma'lum bo'lган. Ayrim tadqiqotchilar shu vaziyatni hisobga olib, ahamoniylargacha bo'lган davrda Xorazm tuprog'ida yirik davlat tashkil topmagan deb xulosa chiqarganlar.

Ammo, shunga e'tibor berish kerakki, miloddan avvalgi VII asrning oxirlariga kelib, qadimgi Xorazm shahar markazlaridan biri Qo'zaliqir mudofaa devorlarining tuzilishi bilan Baqtriyadagi Qiziltepa shahar devorlarini tuzilishida ancha o'xshashliklar topildi. Baqtriya va Xorazm shahar markazlari mudofaa devorlarining o'rtaida jangchilar yurishi uchun maxsus yo'lak bo'lган. Shahar devorlari ustiga o'q otish uchun mudofaa burjlari qurilgan. Devorlarda har 2 metrda shinaklar qoldirilgan. Demak, shu davrga kelib Xorazm tuprog'ida yirik shahar markazlari paydo bo'ldi.

O'rta Osiyo viloyatlarining madaniy o'xshashliklariga sabab xalqlarning qo'shni-qarindoshligi, umumiyligi, urf-odatlari, tili, savdosotiqlik, madaniy aloqalari, janubda yuqori darajada rivodlangan madaniyatning ta'siri, janubiy aholi bir qismining Xorazm chegaralari yonida va aynan viloyat hududiga tarqalishi deb faraz qilinadi. Agar ko'rsatib o'tilgan fikrlar, jumladan, oxirgisi to'g'ri bo'lsa, qabilalarning ko'chish jarayoni fors podshosi Kir II ning yurishlaridan ancha oldingi davrlarda boshlangan Janubiy viloyatlarining vakillari va mahalliy aholisi qo'shilish natijasida yangi madaniy va etnik jarayonlar vujudga kelishi mumkin edi. Bu vaziyat, arxeologik va antropologik ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo va xususan O'zbekiston hududida bronza davrida va miloddan avvalgi 1 ming yillikning boshlarida ancha taraqqiy topgan.

Misol uchun, miloddan avvalgi IX - VIII asrlarda Janubiy So'g'diyonada (Qashqadaryo vohasi) charxda ishlangan idishlarning paydo bo'lishi, qurilishida g'isht bilan naxsaning ishlatalishi, uy-qo'rg'onlar va ayrim qal'alarining bino qilinishi Baqtriyaning So'g'diyonaga

madaniy ta'sirini va baqtriyaliklar tomonidan ba'zi tumanlarning o'zlashtirilishini tasdiqlaydi.

Qadimgi Xorazm davlati miloddan avvalgi VII asrda Amudaryo o'rta oqimi qismidan tortib Orolga yaqin bo'lgan yerlarda vujudga kelgan, degan xulosaning to'g'riliqi tasdiqlandi. Bu davlat Marg'i-yonadagi Marv atrofida shakllanmagan, chunki manbalarga ko'ra, Marg'iyona qadimgi Baqtriya davlatining yirik viloyati bo'lgan. Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari O'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tgan. Shu yerlarda bir-biriga ro'para holatda ikkita qadimgi istehkom - Odoytepa va Qushqal'a qurilgan. Xorazmliklar egalik qilgan yerlar So'g'diyona, Marg'iyona va Baqtriyaga tegishli o'lkalarga borib taqalgan Balki shuning uchun ham Gekaney xorazmliklar viloyatini parfiylardan sharqiy tomonda joylashtirgan Gerodot esa parfiyaliklar va xorazmliklarini yerlari chegaradosh bo'lgan deb ko'rsatgan.

Kir II O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarini istilo qilib, shu yerning bir qismi aholisini yurtimizning shimoliy viloyatlariga siqib chiqarish mumkin edi, ammo Qadimgi Xorazm davlatining vujudga kelishi turli murakkab madaniy, etnik va siyosiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, axamoniylar davridan oldingi zamonlarda boshlangan.

Miloddan avvalgi VII - VI asrlarda shakllangan va ancha yirik bo'lgan Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlarining aholisi qon-qarindosh elatlar bo'lib, bir-biriga o'xshash tilda gaplashganlar va yaqin madaniy an'analarga ega edilar. Bu davrda jamiyatning hududiy bo'linishi ko'zga tashlanib o'rtoqlashuv jarayoni kuchaydi. Shaharlar qishloq xo'jalik ekinzorlari bilan o'ralib, qal'alar paydo bo'ldi, muhim savdo yo'llari bo'yicha tayanch istehkomlar qurildi, turli makonlar qurilishida mudofaa inshootlarning ahamiyati birinchi o'ringa chiqdi, mustahkam qal'a-panogohlar qurildi, makonlarning harbiy-ma'muriy, hunarmandchilik yoki qishloq xo'jalik faoliyati yanada ko'proq yuzaga chiqdi.

O'zbekistonning turli viloyatlarida arxeologlar qadimgi shahar xarobalarni topib tekshirdilar. Ko'plab arxeologik topilmalarning dalolat berishicha, bu shaharning ba'zilarning yoshi 2700 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob (Samarqand), Qiziltepa (Surxon vohasi), Uzunqir, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo vohasi) va boshqalar kiradi. Bu qadimiy shaharlar tarixi hozirgi Samarqand (Afrosiyob, Marokanda), Kitob-Shahrisabz (Uzunqir) yoki Qarshi (Yerqo'rg'on) hududlarida

davom etdi. Ya'ni, O'zbekistonning ko'pgina zamonaviy shaharlari ancha qadimgi shaharlar tarixi bilan yaqin aloqadorlik ko'zga tashlanib turibdi.

Eng qadimgi shaharlarga xos umumiy belgi ularning mudofaa devorlari bilan o'rالganligidir. Devorlar suv to'ldirilgan chuqur xandaq bilan o'rالgan bo'lib, bu mudofaa tizimi ancha mustahkam edi. Shaharlar ichki qal'a, aholini guzarları, hunarmandchilik ustaxonalari va savdo qatorlari joylashgan qismlardan iborat bo'lgan. Shahar atrofidagi soy va anhorlar bo'yalarida dehqonlarning uy-qo'rg'onlari joylashib, ular bog'lar, ekinzorlar bilan o'rالgan edi. Dehqon xo'jaliklarini asosan katta ota urug'i oilalarning vakillari tashkil etgan. Ular alohida uy-joylar, xo'jalik va tomorqa binolarga hamda hosildor erlariga egalik qilganlar. Bundan uy-qo'rg'onlar, Xorazmda (Dingilja), Surxondaryoda (Qizilcha) va Samarqand atrofida (Qo'rg'oncha) topib tekshirilgan.

«Avesto» ma'lumotlariga ko'ra, urug'-«vis» (ayrim qishloq jamoasi 185 ta katta oila a'zolaridan iborat bo'lgan (75-90 kishi). Surxondaryodagi Qiziltepa shahri atrofida to'rtburchak shaklida qurilgan qadimiy uy-qo'rg'onlar (Qizilcha) 3-4 qo'shni uylardan iborat bo'lib, alohida joylashgan ayrim qishloq jamoasini tashkil qilganlar. Har bir katta oila jamoasi ayrim uy-joyga, chorvaga va yerga egalik qilgan. U ma'lum darajada iqtisodiy mustaqil bo'lgan. Qishloq jamoalarining hududiy, iqtisodiy va ijtimoiy birlashuvi, ibtidoiy davrlarga oid urug'-qabilaviy birlashuvidan ancha farq qilib, ilk davlat tizimi vujudga kelishi haqida dalolat beradi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo xalqlarining shakllanishida va uning davlatchiligi paydo bo'lishida tub o'troq dehqon aholi alohida o'rin tutganligi haqida muhim tarixiy xulosaga kelish mumkin. O'rta Osiyo xalqlari ajdodlarining ilk davlatchiligi taraqqiyoti qadimgi shaharlar tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan.

Ilk davlatlarning tashkil bo'lishida, jamiyat rivojining ichki qonuniyatlaridan tashqari (ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darjasи, hunarmandchilik, al mashuv va savdoning tez rivojlanishi, sug'orma dehqonchilik va boshqalar) tashqi sabablar - kuchayib bora-yotgan siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy to'qnashuvlar ham ta'sir qildi.

Yuqorida keltirilganlardan ko'pi tasodifiy bo'lmay, aniq shart-sharoitlarga bog'liq edi. Miloddan avvalgi VII - VI asrlarda O'rta

Osiyo va Qozog'istonning ko'pgina tog' va dasht joylarida yilqichilik va ko'chmanchi chorvachilik keng tarqaldi. Ko'chmanchilar yarog'-aslahalar taraqqiyotida katta yutuqlarga erishib, qudratli harbiy kuchga aylandi. Uyushgan ko'chmanchi qabilalarning o'troq dehqonchilik vohalarga xavfi yanada kuchaydi. O'troq aholi uchun keng ko'lardagi va ishonchli himoyani tashkil qilish zarur bo'lib qoldi. Shuning uchun ham Xorazm, Baqtriya, Marg'iyona va So'g'diyonadagi o'troq aholining harbiy-siyosiy ittifoqi (uyushmasi) shakllanishida, uyushgan ko'chmanchi qabilalardan tuzilayotgan harbiy xavf hamda ehtimol, Midiya podsholigining Shimoli-sharqiy Eron va O'rta Osiyoning janubiy chegaralariga bo'lgan hududiy bosqini sabab bo'ldi.



Zardushtiylik dini ramzi

O'zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi tarixi geografik, hududiy ma'noda nafaqat O'zbekistonning hozirgi hududi bilan, balki qo'shni viloyatlarda ham qadimda yuz bergan etnik, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan bog'liq holda talqin qilinmog'i lozim. Tarixning qadimgi davrlarida ilk davlatlar orasida va ajdodlarimizning yashash joylari o'rtasida aniq ma'muriy chegaralar bo'lmagan. Qadimgi Xorazm, Baqtriya va So'g'd chegaralari tabiiy bo'lib, yaqin hududlardagi o'troq yashash joylarning tabiiy geografik bo'luchisi sifatida dashtlar, cho'l va tog'lardan foydalanylган.

Xulosa qilib aytganda, yozma manbalar, arxeologik ma'lumotlar va zamonaviy tarixiy tadqiqotlar asosida O'zbekiston hududida ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni quyidagi davrlar bilan belgilash mumkin:

**1. Bronza davri.** Miloddan avvalgi 2 ming yillikning o'ttalarini va ikkinchi yarmida va janubiy O'zbekistonda unchalik katta bo'lmagan dehqonchilik vohalari asosida (misol uchun, qadimgi Sherobod vohasi) ilk davlatchilik tizimiga o'tish davri.

**2. Bronza davridan temir asriga o'tish davri.** Miloddan avvalgi IX - VIII asrlar. Mayda davlat tashkilotlarning rivojlanishi va yirik harbiy-siyosiy uyushmalarning vujudga kelishi. Marg'iyona, Baqtriya, So'g'diyona, Xorazm.

**3. Ilk temir davri.** Miloddan avvalgi VII - VI asrlar. Qadimgi Xorazm va Qadimgi Baqtriya misolidagi yirik davlat uyushmalarining paydo bo'lishi.

Buni tasdiqlamoqda.

«Avesto»da huquqiy munosabatlар. «Avesto» va zardush-tiylarning ta'lomi inson hayoti va odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari ma'lum qonun-qoidalarga asoslangani haqida ma'lumot beradi.

O'rta Osiyo xalqi davlatchilik tarixi Dovon davlat tarixi bilan uzviy bog'liq. Bu davlat shu nom bilan Xitoy manbalarida tilga olinadi (boshqa manbalarda «Parkana», devilgan). Dovon davlati taxminan miloddan avvalgi III asrda paydo bulgan.

Dovon davlatini tadqiqotchilar qadimgi Farg'ona hisoblaydilar. Yozma manbalarga ko'ra, «Dovon diyorida 70 tacha katta-kichik shahar bor: aholisining soni bir necha yuz mingga etadi». Olimlar aytishicha, qadimgi Farg'ona da 300 ming aholi yashagan. Shaharlarning ichida davlat poytaxti Ershi shahri alohida ahamiyat kasb etgan. Miloddan avvalgi 104-101-yillarda Xitoy qo'shirlari Dovonga yurishlar qilib Ershi shahrini qamal qiladilar. Shu paytda Kang davlati qo'shirlari yordamga kelib, xitoyliklarga qarshi kurashda faol qatnashdilar. Xitoy lashkarlari sulhga rozi bo'lib Dovonni tashlab chiqadilar.

Dovon davlatining aholisi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Qadimshunoslarning tadqiqlari natijasida Farg'onada ko'p sonli uy-qo'rg'onlar, qishloq va shahar xarobalari topib tekshirilgan. Ular ayrim hosildor dehqonchilik tumanlarida joylashgan.

Qadimgi Farg'ona qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va binokorlik yuksak darajada rivojlangan o'lka edi. Dovon dehqonlari arpa, sholi, bugdoy va beda yetishtirish, bog'dorchilik va uzum yetishtirishda katta yutuqlarga erishganlar.

Farg'ona o'zining «samoviy» otlar zoti bilan mashhur bo'lgan. Xitoy imperatorining Dovonga bostirib kirishi sabablaridan birini yozma manba shunday ochib beradi: «Dovon davlatining Ershi shahrida g'aroyib otlar mavjudligi haqida saroyga xabar keldi. Imperatorning «samoviy» otlarga ishtiyoqi ortdi».

Dovon davlati Xitoy, Hindiston va boshqa Sharq mamlakatlari bilan bo'lgan xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan.

Miloddan avvalgi IV-III-II asrlarda qadimgi Xorazm mustaqil davlat bo'lib, Iskandar, Salavkiylar va Yunon-Baktriya davlatlari tarkibiga kirmagan. Bu hol Xorazmda o'ziga xos mahalliy davlatchilik tizimi rivojiga muhim omil bo'ldi.

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar**

1. Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini izohlang.
2. Markaziy Osiy hududidagi ilk davlatlar madaniyatini sharhlang.
3. Yunon-Baqtriya madaniyati miqyosida Sharq ellistik madaniyatini izohlang.
4. Kushon madaniyatini tavsiflang.
5. Zardo'shtiylik va uning jahon dinlari shakllanishiga ta'siri.
6. «Buyuk ipak yo'li» – Sharq va G'arb sivilizatsiyalari o'rtaсидagi madaniy muloqot yo'li.
7. Qadimgi Baqtriya madaniyati bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
8. "Qadimgi Xorazm madaniyati" mavzusida falsafiy esse yozing.
9. Yunon-Baqtriya madaniyati ilmiy markaziga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
10. Kushan madaniyati o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.

#### **1-illova**

##### **O'quv tonshiria:**

"Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash" orqali o'qituvchi talabalarni to'rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

##### **1 – guruh topshirig'i**

1-bosqich. Markaziy Osiyodagi qadimgi madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 2 – guruh topshirig‘i

1-bosqich. Markaziy Osiy hududidagi ilk davlatlar madaniyatini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## 3 – guruh topshirig‘i

1-bosqich. Yunon–Baqtriya madaniyati miqyosida Sharq ellenistik madaniyatini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

#### 4 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Kushon madaniyatini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhi	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

#### Guruh bo'yicha baholash mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.

Har bir talab bo'yicha – 2 ball

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazma-lilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faolligi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					

## **Hisob natijasi**

Guruhi №	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball
1.					
2.					
Umumiy hisob ballari					
Baho					

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. -T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.-T.: TDSHI, 2006.

## **11-mavzu. QADIMGI TURON VA ERON XALQLARI TAFAKKURI. “AVESTO”DAGI FALSAFIY G’OYALAR**

### **Reja**

1. Qadimgi Turon va Eron xalqlari tafakkuri.
2. “Avesto”da borliq falsafasi.
3. “Avesto”da antropologiya masalalari.

### **Tayanch tushunchalar:**

*Qadimgi Xorazm va Baqtriyada madaniyati, Qadimgi Eron, Qadimgi Turon, So’g’diyona, zardushtiylik, Avesto, Gotlar, Yashtlar, Buyuk ipak yo’li, Sharq va G’arb madaniyatlarini muloqoti. Axuramazda, Axriman.*

Jo’g’rofiy tushuncha bo’lgan Turonda yashagan turkiy va unga qo’shni bo’lgan Eron xalqlarining eng qadimiy va boy milliy qadriyatlarga ega ekanliklariga manbalar guvohlik beradi. Ushbu qadriyatlarning asl ildizlari mil. avv. X asrlarga borib taqaladi.


Ko’hma Sharq og’zaki ijodining ilk namunalari bo’lmish Mitra, Ardvisura, Anaxita, Vertragna kabi ma’budlarga bag’ishlangan afsonalarda milliy qadriyatlarning ohanglari seziladi. Ana shunday ibtidoiy e’tiqod va qarashlar tadrijoti juda qadim zamonalardayoq Ko’k Tangriga, Muqaddas Qo’ng’ir Yer-Suv xudosiga, Umay Momo, Nanay Marg’iyona-Malxiyona, Mehr (Quyosh), Anaxita (hosildorlik va suv) xudolariga, o’tgan ajdodlar ruhlariga sig‘inish e’tiqodlari, ilmfani, tibbiyoti, taqvim, yil hisobi to‘g’risidagi tasavvuriga, Xubboz ota ruhiga sig‘inish, Jadda toshi yordamida urush, qirg‘in-barotlarni daf qilish, yomg’ir va suv chaqirish, qurbanliklar qilish, marosim va ma’raka, urf-odat, an’analarning paydo bo‘lishiga, ularga amal qilishga olib kelgan. Juda qadimgi davrlardan boshlab, Turon va Eron xalqlari dunyoning barcha xalqlari, elatlarida bo’lganidek, yuqorida sanab o’tilgan totemistik, feteshistik, butun olam bir butun jonli, deb

e'tiqod qilish (animizm), sehrgarlik, jodulash, shomonchilik, ruhlarga sig'inish bilan bog'liq qarashlarni, ta'limotlarni boshdan kechirganlar. Xalqimizning eng qadimgi yozma yodgorliklarida ham milliy qadriyatlarga katta e'tibor berilgan. Milliy qadriyatlarimizning ko'p qirralarini o'zida mujassamlashtirgan eng muhim yozma yodgorlik "Avesto" kitobidir. Uning ilk sahifalari bundan uch ming yil ilgari Xorazmda yaratila boshlagan. Miloddan oldingi VII asrga kelib, uni Amudaryo sohilidagi tuya boquvchi qabilalardan yetishib chiqqan Zaratushtira qayta ishlab chiqqan. Zaratushtira yoki sodda qilib aytganda, Zardusht "Avesto"ning qadimgi qismi bo'lgan "Yashtlar"dagi ko'pxudolik aqidalariga zid o'laroq, uning "Gohlar" qismida yakkaxudolik g'oyalarini targ'ib etgan.

Qadimgi yunon donishmandi Pliniy ta'biri bilan aytganda, "bir million qo'shiqdan iborat" bo'lgan "Avesto"da din nazariyasi, amaliyoti bilan bir qator Movarounnahr va qadimgi Eron xalqlarining tarixi, madaniyatiga oid qimmatli dalillar mavjud. "Avesto"ning "Vandidot" qismida huquqshunoslikka oid fikrlar keng va bat afsil bayon etilgan.

"Avesto"ning axloqiy ta'limoti uch asosga: ezgu niyat, ezgu fikr va ezgu amalga tayanganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Unda yaxshilik, barkamollik, hurfikrlilik, insonparvarlik kabi xislatlar yagona xudo – Axuramazda irodasi sifatida ko'rsatilgan. Insonning qadri yaxshilikning g'alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzida, ma'naviy qiyofasida va ijtimoiy faoliyatida o'z ifodasini topgan. "Avesto"da yurtimiz zaminida yashagan xalqlarning islomgacha bo'lgan davrdagi tabiiy-ilmiy, axloqiy qadriyatlarining rivojlanishi tarixiga oid g'oyat qiziqarli ma'lumotlar bor.

"Avesto" Turon, Xuroson, Ozarbayjon, Iroh, Eron, Kichik Osiyo xalqlarining miloddan oldingi qadimiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam va odam to'g'risidagi tasavvur, urf-odat va ma'naviy qadriyatları haqida ma'lumot beradi. U milloddan avvalgi 7-6 asrlarda yaratilgan. Milloddan avvalgi XIII asrdan - milodiy IV-asrgacha bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni o'zida aks ettirgani uchun milliy g'oyalarni asrab-avaylash, xalqni jipslashtirish, uni ma'naviy yuksaklikka da'vat etish, odamlar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini mustahkamlash va milliy an'analamni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etgan.



### Behistun yozuvlari eskizi

Zardushtiylik dinining asosiy aqidalarini o'zida mujassam etgan bu kitobda o'sha davrdagi ustuvor g'oyalar, ma'budalar sha'niga aytilgan madhiyalar, duolar qam o'z ifodasini topgan. Tarixchi Mas'udiying yozishicha, podsho Doro ibn Doro xazinasida «Obisto»ning («Avesto») 12 ming oltin taxtaga, Balxiyning «Forsnomá» kitobi va Abu Rayhon Beruniy asarlarida yozilishicha, 12 ming oshlangan mol terisiga tilla suvida yozilgan 32 kitobdan iborat nusxasi bo'lgan<sup>52</sup>.

Tarixdan ma'lumki, makedoniyalik Aleksandr miloddan avvalgi 334-329-yillarda Markaziy Osiyoni zabit etib, otashxonalarini vayron qilgan. Shu davrda "Avesto"ning bir qancha bo'limlari ham yondirib yuborilgan. Ayni zamonda uning tibbiyat, falakiyat, falsafa va adabiyotga doir bo'limlari yunon tiliga tarjima qilingan.

Milodiy I asrda Parfiyadagi arkashiylar hukmndori Vologes tomonidan turli manbalarda saqlanib qolgan yozma va og'zaki namunalari qayta to'plangan. Shuningdek, soso niylar sulolası hukmronlik qilgan bu davrda zardushtiylik diniga bo'lgan qiziqish kuchaygan. Podsho Ardascher (242-272-yy) davrida esa zardushtiylik yana davlat diniga aylangan, "Avesto" alohida kitob holida tiklangan. O'sha davrda hukmronlik qilgan shoh Xusrav Anushirvon (531-579yy) "Avesto"ni hatto ruhoniylar ham tushunishi qiyin bo'lgani uchun qadimgi Xorazm tilidan zamonasining adabiy tili hisoblangan

<sup>52</sup> William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 22.

pahlaviy tiliga o'girtirgan. Shuningdek, asosiy matnga sharhlar yozilib, izohlar ham berilgan.

Sosoniy hukmdorlar tomonidan qayta tiklangan bu kitob "Zand Avesto" deb atalgan. "Zand" bayon qilish va izohlash demakdir. «Zand Avesto» zardushtiylik dini ta'limotini to'lih aks ettirolmaydi.

Birinchidan, "Avesto"ning beshdan uch qismi (18 nasxi) noma'lum bo'lib, faqat 12 nasxi kishilarning yodida qolgan og'zaki qo'shimchalar asosida kitob holiga keltirilgan. Ikkinchidan, kitobni qayta tiklash davrida astronomiya, tibbiyat, jug'rofiya, etika kabi fanlarga oid asarlar qam uning matniga ho'shib yuborilgan, degan taxminlar bor. Shuningdek, kitobning qajmi katta bo'lgani bois, dindorlarning qar kuni foydalanishiga o'ng'ay qilish uchun qisqartirilib «Kichik Avesto» shakli yaratilgan. Unga, asosan, tanlab olingen ba'zi duo va madhiyalar kiritilgan.

VII-VIII asrlarda O'rta Osiyoning arablar tomonidan istilo qilinishi va islomning keng tarhalishi bilan ushbu xududda zardushtiylik va uning bosh kitobi – "Avesto" taqiqlangan. Shu sababli, kitobning aksariyat qismi yo'qolib ketgan va to'liq matni hozirga qadar topilmagan. Bugungi kunda uning «Yasht», «Videvdat», «Visperat», «Yasna», «Xurdo Avesto» (**Kichik Avesto**) nomli qismlarigina saqlanib qolgan. "Avesto"da zardushtiylik davrining huquqiy, axloqiy ma'yoriari o'z ifodasini topgan. Dualizm, ruh va moddiylilikning hayotiyligini tan olishga asoslangan zardushtiylik diniga binoan, olam nur va zulmat, hayot va o'lim, tana va jon, yaxshilik va yomonlik, erkinlik va tobelik singari hodisalarining azaliy va abadiy kurashidan iborat. Shunga ko'ra, hayotning kechishi tabiatda (nur va zulmat), borliqda (hayot va o'lim), ijtimoiy hayotda (yaxshilik va yomonlik), nafosat olamida (go'zallik va xunuklik), dinda (Axura Mazda bilan Axrimanning azaliy va abadiy kelishmasligi) turli xil kuchlar o'rta-sidagi kurash shakllari sifatida namoyon bo'ladi. Avesto ta'limotiga ko'ra, olov - olamni nurafshon qiladigan, odamlarni gunohlardan poklaydigan sehrli kuch, yer va suv – rizq, hayot manbai.



Behistun yozuvi  
matni

Olamni anglash, borliq-koinot sirlarini kashf etish, mavjudot dunyosining yaralishi sirlarini tadqiq qilishning sardaftari, shubqasiz, Sharq xalqlarining qadimiy va nodir yozma yodgorligi – “Avesto”dir. Bashariyat tamaddunining mushtarak merosi bo’lgan bu jahonshumul tarixiy obida olam va uning yaralishi, mafkuraviy va ma’naviy hayotning ibridoiy asoslari, hayot, borliq, mavjudot, umuman, tirik materiya haqidagi eng birlamchi tasavvurlar yig’indisidan iborat. Ma’lumki, “Avesto”gacha olamning yaralishi xususidagi gipotezalar sof mifologik va ramziy xususiyatga ega bo’lgan. Koinot, uning yaralishi, mavjudotning zuhur etishi xususida asotiriy qarashlar barcha xalqlar va millatlar tarixida mavjud hodisadir. Ammo zamonaviy ilm-fan so’nggi yuz yil davomida olam haqidagi tasavvurlarni ostin-ustin qilib yubordi va yaralishning zamir-zamirida eng oddiy modda mavjudligini isbotladi. Shunga qaramasdan, zamonaviy fan yana yangi bir muammoga duch keldi. Amerikalik tabiatshunos olim Jon Pfefer “Kakhshon va inson” kitobida yozadi: “Moddaning paydo bo’lish masalasi tafakkur doirasidan tashqaridagi hodisadir. Xuddi shu yerdan koinotning paydo bo’lish jarayoni boshlanadi”. Washington universitetining professori doktor Gomov ta’kidlashicha, “Dunyo ibtidoda havo qatlqidagi parokanda gazzlardan iborat edi. Bu gazlar harorati va tarkibini tasavvur qilishning imkon yo’q”. Ushbu xulosa olamning yaralishi hamon odamzod oldidagi eng muhim muammolaridan biri ekanini tasdiq etadi.

Dunyo xalqlarining asotirlari, jumladan, Sharq xalqlarining ham eng nodir yodgorligi hisbolanmish “Avesto” kitobi olam yaralishini ilmiy-nazariy asoslarini ramziy-mifologik timsollar vositasida tadqiq etadi.

Avesto moddiy borliqni bus-butun holatda “Zirvon – Zamon”, deb ataydi. Zamon vaqt va o’zining doirasida cheksiz. Zamongacha ham uning o’zi va undan keyin qam uning o’zi mavjud. Butun mavjudot ana shu doirada jamuljam, shu doira borliq-olamning asosi.

Zirvongacha na zamin va na koinotda tirik jon mavjud bo’lmagan. Olam haqidagi dastlabki tasavvurlar ham xuddi shu muammo qoshida ojizligini e’tirof etadi. Avesto ta’limotiga muvofiq, Zirvon ilk substansiya, Mutlaq ong. Adabiyotlar bu tilsimni sifatlashda ulkan ta’birlarni ishga soladilar. Jumladan, poyonsiz, cheksiz Zirvon, bu - chek-chegarasi yo’q Zamon demakdir. “Zamon” tushunchasi bugun ham o’zining azaliy mohiyatini yo’qotgan emas.

Demak, avesto ta'limotga ko'ra, ota-bobolarimiz butun mavjudot, koinot, zaminu osmon ibtidosini Zamonda mujassam etganlar<sup>53</sup>.

Zamon kategoriyasi borliqning kvintessensiyasi, javhari. U – Birlamchi Ong, Mutlaq Zot. Avestoga e'tiqod etguvchilarining nazarida, hatto ana shunday murakkab tushuncha bo'lmish Zamon ham moddiy, ya'ni jonli xarakterga ega. Politeistik ta'limotga ko'ra, borliq olam ustidan ikki kuch – ezgulik va yovuzlik hukmronlik qiladi. Garchi bunday qarashlarning ta'sirini monoteistik ta'limotda ham uchratish mumkin bo'lsa-da, ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtaсидаги abadiy tengsiz kurash hamma davr va zamonalarga xosdir.

"Avesto" ta'limotiga muvofiq, borliq bag'rida na ezgulik va na yovuzlik, shuningdek, har ikkisining hosilasi bo'lmish ming bir tuyg'ular mavjud bo'lmasdan burun Mutlaq Zamondan boshqa hech narsa mavjud bo'lmagan. "Avesto"ning izohlarida, u (zirvon) "zirvoniyha" deb ataladi. Ushbu ta'limotga muvofiq, Axura Mazda (Ezgulik ilohi) va Axriman (Yovuzlik ilohi) har ikkisi Zirvon tomonidan yaratilgan.

Zirvon nurdan bino bo'lgan eng buyuk qudrat edi. (E'tibor bering, Zirvon – Zamon, Mutlaq Ong, o'z navbatida Nur). Unda (Zirvonda) nimadandir shak-shubha paydo bo'ldi. (Ya'ni, Mutlaq Ong o'z tasarrufi va qudratiga shubqa qila boshlaydi). Xuddi shu shakdan Axriman yaraldi. Buyuk Zirvon o'g'il ko'rish umidida 9999 yil hamd-sano aytdi. Biroq uning orzusi ro'yobga chiqmadi. Shunda u, ehtimol bu dunyo hech narsa emasdir, degan xayolga boradi. Shu guman Axrimanni dunyoga keltirgan bo'lsa, Zirvonning chin xayollaridan Axura Mazda yaraladi. Bularning har ikkisi ham ona qornida edi. Axura birinchi bo'lib tug'ilishi lozim edi. Ammo Axriman nayrang bilan ona qornini yorib chiqdi va olamni zabit etdi.

Fan o'z mohiyatiga ko'ra asotir va rivoyatlarni tan olmaydi, zotan dunyoni bilishning o'z usul va hoidalari bor, ammo rivoyat va asotirlarning asosida ham olamni anglashning teran omillari mavjudki, buni hech kim inkor eta olmaydi.

"Avesto"ning bugungi kungacha saqlanib qolgan juz'larida olamning yaralishi ramziy-mifologik hodisalar bilan ibtido topadi. Shunisi e'tiborga molikki, "Avesto"ning hozirgacha saqlanib qolgan qismlari ham ko'plab muammolarni hal etishga yaqindan yordam bera oladi. Zardushtiylarning muhaddas yodgorligida Zirvon –

<sup>53</sup> William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.P. 26

Zamon, Axura Mazda, Axriman kabi olam asoschilaridan tashqari, Ashah – haqiqat, Ezgu Niyat, Ormaitiy – Komil Aql, Olam Shahriyori, Go'shvarvan – Olam Ruhi kabi buyuk asotiriy timsollar bor. Ular olam tayanchlari, ustunlari, umuman, ta'bir joiz bo'lsa, dunyo ana shu tirdaklar ustiga qurilgan. Dunyodagi jamiki mavjudot xuddi shu tirdak – ustunlarga bo'yasinadi.

"Avesto"ning bиринчи qо'shig'i – Ahunavad gohda shunday voqeа bayoniga дuch kelamiz: balki kohin, balki mubad ibodat asnosida Ahura Mazdaga ilhaqlik bilan murojaat qiladi va undan haqiqat hurmati, donishmandlik va ma'rifat hamda Ezgu Niyat bilan Olam Ruhi bo'lmish – Go'shvarvanni xushnud aylashini o'tinadi. U dastavval Olam Ruhiga murojaat qilmoqchi. Uning uchun eng muhim, o'z ruhining yaratguvchisi bo'lmish Olam Ruhidir. Bu o'rinda materiya va ong birlamchiligi xususidagi azaliy bahsmunozaraning ildizi nechog'li chuqur ekanini anglash qiyin emas. Demak, "Avesto" ta'limotiga ko'ra, ruh - birlamchi, ya'ni olamda dastavval ruh paydo bo'lgan, materiya esa undan keyin yaralgan.

Eng qadimiy diniy manba bo'lmish "Avesto" falsafaning o'ta baqsli mavzusi – materiya va ruh muammosini ana shu tarzda hal qiladi. Fan olamni yaralishini tabiiy-moddiy nuqtai nazardan aniqlik bilan tadqiq qilarkan, hujayra va gazlarning zamonlar osha takomili jarayonida turli yulduzlar turkumi, keyincha Oy va Quyosh bino bo'lganini isbotlamohchi bo'ladi. Ammo u, eng asosiy narsa – bu jarayon o'z-o'zidan, stixiyali tarzda amalga osha boradimi yoxud uni biror substansiya boshqaradimi, javob bera olmaydi.

Bu mavhumlik o'tmisht va bugungi davr donishmandlarini xijolatlari ahvolga solib qo'yadi. "Zamin shakliga kira boshlaydi, – deb yozadi Abulkarim Beozor Sheroyi "Qur'on va tabiat" kitobida. – gazlar fazo bag'rida ko'zdan yo'qoladi. Zamin atrofi bo'm-bo'sh, havo ham mavjud emas. Na bulut, na yomg'ir. Na daryo, na dengiz. Zamin go'yo buyuk soqqa. Gazlar yer hatlariga yashiringan, unda atomlar mavjud. Bora-bora bu atomlar bo'linadi va ularning bo'linishidan kuchli issiqlik quvvati vujudga keladi. Bu issiqlik yer qa'rini yorib, yuqoriga harakat qiladi. Yer yuzida suv hosil bo'ladi.

Ulkan bulutlar uyuri harakatlana boshlaydi. Ilk yomg'irlar yog'adi. Ular million yillar davomida yer bag'riga singib boradi". Mazkur ilmiy farazlarni deyarli barcha olimlar tasdiqlasa-da, ammo hech kim ana shu global jarayonni harakatga soluvchi qudrat haqida

bosh qotirib o'tirmaydi. Hammasi tabiiy, tadrijiy suratda ro'y beradi. "Avesto" esa borliq olamdag'i barcha jarayonlarning zamirida Olam Ruhi yashashini alohida uqtiradi.

Xo'sh, Olam Ruhi nima? "Avesto"ning asl tilida bu – "go'shvarvan" (ma'nosi – mavjudot ruhi, olam ruhi yo zamin ruhi). Zamonlar o'tishi bilan Go'shvarvan, – Olam Ruhining azaliy ma'nosi torayib, u Ahuraning ruhi, undan so'ng jamiki hayvonot olamining ruhiga aylanadi. Umuman, barcha ilohiy asotirlar kabi "Avesto" qahramonlari ham zamon taqozosi bilan zaminga tushadi va insonlar bilan bahamti harakat qila boshlaydi. Bu holat Go'shvarvan – Olam Ruhi ga ham yet emas. Mayjud dunyo dirlari kabi "Avesto" ham olamlarni bino aylagan qudratga (yoxud qudratlarga) hamdu sano keltirish bilan boshlanadi. Ammo, bu hamdu sanoning aniq nomi bor.

Ashah – haqiqat, Ezgu Niyat, Go'shvarvan – Olam Ruhi, Ormaitiy – Komil Aql. Ko'rib turganingizdek, yuqorida nomlari sanalgan qudratlar sof ruhiy-hissiy hodisalardan iborat, ammo Ahura Mazda bu ruhiy ilohlar iznini olgach, o'z qudrati bilan olam va uning muhitini yaratishga kirishadi. Ya'ni, ilohiy kuchlar madadi bilan zamin ustida insonlar hayoti ibtido topadi.

Yer yuzida hayotning yaralishi va uning asosi bo'lmish hujayra xususida fikr yuritgan olimlarning aksariyati tasodif qonuniga ruju' qiladi va hayot asosi bo'lmish hujayra suv tarkibidagi kimyoviy o'zgarishlar oqibatida paydo bo'lganiga alohida urg'u beradi. Biroq boshqa bir guruh olimlar yer atmosferasida hayotning yaralishi uchun qanday qulay shart-sharoit bo'lishidan qat'i nazar, hayot hech qachon o'z-o'zicha yaralmasligini ta'kidlaydi. Xo'sh, unda "Avesto"ning barcha mavjudoddan burun yaralgan Zirvon olam asosimi, yoxud hujayrami? Ammo hozircha hech kim bu savolga tayinli javob bergenicha yo'q. Mazkur savolning javobi kelajakning ishi.

"Avesto"da "haqiqat" tushunchasi hamma o'rinnlarda «Ashah» istilohi bilan ifodalanadi. Avesto izohida o'qiyimiz: «Ashah – to'g'-rilik ma'nosini anglatib, Amshosipandlardan biri Arbabiqisht – Ashah Vaqiyshta nominining juz'idir. Ashah gohlarning hindiy, ovrupoiy va forsiy nusxalarida rostlik, haq, haqiqat, hakam, olam tartibi, yaratilishning abadiy qonuni, mukammal nazm va tartib, muqarrar mazdoiyl qoida kabi ma'nolarni mujassam etgan». Ma'lum bo'ladiki, olam nizomining jon tomiri, diniy va dunyoviy adabiyotlarda Mutlaq Ong

tarzida talqin qilingan haqiqat barcha davrlarda faqat bir umumiy ma'noni ifoda etgan ekan.

«Ashah» – haqiqatning “Avesto”dagi maqomi shu qadar ulug’ki, u ehtimol eng ko‘p, deyarli barcha o‘rin va holatlarda qo‘llaniladi. Bu hol borliq olam qat’iy bir nizom asosida yasharkan, uning zamirida faqat haqiqat bo‘lishi mumkin ekanini tasdiqlaydi, xolos.

Haqiqatning sobitligi uning o‘zini iloh tarzida talqin qilinishiga olib keldi. Olam yaralganidan buyon umumkoinot miqyosida hech bir davrda haqiqat mezonlariga putur yetmagan. Yer silkinishlari, bo‘ron, dovul, suv toshqini kabi tabiiy ofatlar bundan mustasno. Ammo insoniyat hamisha mutlaq va nisbiy haqiqatlarning aziyatini chekib kelgan. Turli qit’alar miqyosidagi ofatlar, muz ko‘chkilari, to‘fon va zilzilalar tufayli ming-minglab odamlarning yostig‘i qurigan, ko‘p odamlar vulqonlar domida qolib, jizg‘anak bo‘lgan. Yaratguvchining iznisiz tovoniga hatto tikan ham botmasligiga qattiq ishongan odamlar butun boshli shaharlarning yer ostiga cho‘kib, nest-nobud bo‘lganini sira-sira tushunaolmagan. Shu ma’noda, ilmiy adabiyotlar mutlaq, obyektiv va subyektiv haqiqatlar haqida so‘z yuritarkan, Mutlaq yoki Abadiy haqiqat bu asosiy substansiya, javqar, Aqli Kull iboralari bilan bahamti qo‘llanilgan. Falsafiy qomuslarda Abadiy va Mutlaq haqiqat biri-birining sinonimi tarzida qo‘llanilgan. Chunonchi, «Mutlaq haqiqat hech qachon o‘zgarish va taqrirga uchramaydi». Umuman, Abadiy va Mutlaq haqiqat nima va uning to‘la-to‘kis ta’rifi mavjudmi? Afsuski, bugungi kunda ham hech bir fan yoxud diniy ta’limotlar bu muammoni butkul hal qildik deya olmaydi.

Koinot, borliq olam nizomlari silsilasining ustuvorligi, uning qat’iy tartibi bu cheksiz va bepoyon qudratning nechog‘liq tengsiz ekanini tasdiq etadi. “Avesto”ning dastlabki satrlaridanoq Ashah – haqiqatga keltirilgan ibodatlar ham buni isbotlaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, iloh Mazda iltijo qilayotgan mubad, eng avvalo, haqiqat nomidan so‘z ochadi va uning vositasida Go‘sivarvan – Olam Ruhiga yetishmoqni istaydi. “Avesto”ning talqinicha, har ikki olam – fano va baho haqiqat tasarrufidadir. Demak, “fano” tushunchasi kuni kecha paydo bo‘lgan tasavvufiy istiloh bo‘lmay, necha ming-ming yillik tarixga ega obyektiv haqiqat ekan.

Abadiy yoxud Mutlaq haqiqatlar sirasiga yuqorida ta’kidlanganidek, fano va baho kabi hodisalar bilan birga vaqt va zamon, ong va ruh, koinot va butun olam tortishish qonuni, yulduzlar, oy va

huyosh harakati kabi umumdunyoviy hodisalar ham kiradi. Bu haqiqatlarning mutlaqligi shundaki, u hech kimning inon-ixtiyorida emas. Hech bir tuzum, hech bir zaminiy kuch ularning nizomiga ta'sir o'tkaza olmaydi. Inson umrining o'tkinchiligi, vaqtning uzuluksiz harakati, insonlar avlodlarining doimiy almasib turishi ham Mutlaq haqiqatdirki, hech qachon bu nizomga putur yetmaydi.<sup>54</sup>

Onglilik, yetuk aql sohibi bo'lish g'oyasi avestoiy qarashlarning tub mazmunini tashkil qiladi. Umuman, Avesto yaxlit holda ham inson tafakkurining shunday noyob sarchashmasiki, undagi olamni bilishning asosi tamoyillari eng avvalo, ruh va aqi, ong va tafakkur, tajriba va nazariyot shaklida namoyon bo'ladi. Chunonchi, olam bilishning anglangan shakli, ya'ni borliq olamda hech narsa tasodifiy emas. Olamning bino qilinishi Olam Ruhi – Go'shvarvan va Komil Aql – Ormaitiydan katta mas'uliyatni talab etadi. Chunki, u insonlar manfaatiga javob berishi, zamin mavjudotlarining oqilona hayot kechirishi uchun muvozanat va mo'tadillikni ta'min etmog'i kerak. Avesto buyuk ilohiy ong hosilasi – koinot, quyosh va sayyoralardan tortib, aqlning eng oddiy sifatigacha o'zida mujassam etgan umuminsoniy hodisadir. U ko'zga ko'rinnas dev – duruj va yovuzlikka xizmat qiluvchi eng mayda unsur – nasvdan global miqyosdagi yaxshilik va yomonlik kuchlarini ham diqqat-e'tibordan qochirmaydi. "Avesto"da olamni bilish uchlik shaklida namoyon bo'ladi va bu uchlikdan tafakkurning shunday doirasi yasaladiki, uning ichiga bemalol koinotni sig'dirish mumkin. Bu uchlik quyidagi shaklga ega.

### RUH —————— AQL —————— OLAM

Ruh mavjudotning gavqari. U yo'qdan bor bo'lgan emas, bordan yo'q ham bo'lmaydi. Ushbu qonuniyat moddiyunchilarining materiya haqidagi mashhur aqidasisiga («Materiya yo'qdan bor bo'lmaydi, bordan yo'q bo'lmaydi») mutlaqo teskari. Ruh olamning asosi, bilishning birlamchi pog'onasi. Undan avval va undan keyin ham faqatgina uning o'zi mavjud. Olam Ruhi yoxud Go'shvarvanning missiyasi nimalardan iborat? Avestoda u qanday maqomga ega? Nima uchun mazdoiylar uni bu qadar e'zozlaydi va surunkali ibodatlarda ulug'lab shon-shavkat gulchambarlariga chirmaydi. Birinchidan,

<sup>54</sup> William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.P. 26

Olam Ruhi – bu borliqning jismoniy olamdan farqli o’laroq, eng asosiy shakli. Olam ruh bilan bunyod bo’lgan, uyg’un va mukammal jonli tuzilmadan iborat olamning jismiga ruh singdirilgan.

“Avesto” ta’limotiga ko’ra, chetdan qaraganda jonsizdek tuyulgan olam bus-butun jonli mavjudotdir. Ruhsiz olam taraqqiyot va takomildan mosuvo, jonsiz jism. Koinotning bir zarrasi bo’lgan inson ruhi Olam Ruhi bilan uzviy bog’liq.

Har bir dinda bo’lgani kabi zardushtiylik, mazdaparastlik, yoxud otashparastlik nomi bilan olamga tarqalgan Avesto ta’limotida ham odam, uning vujudga kelishi, yaralishidan maqsad, borliq olamda odam naslining o’rnii va shu kabi muammolarga katta e’tibor berilgan. Bu masala “Avesto” kitobining bahs mavzusi sifatida teran va atroflicha o’rganilgan.

Aslida inson muammozi faqat diniy ta’limotlarning mavzusi bo’lnasa-da, lekin barcha diniy adabiyotlarda bu o’ta muhim mavzu o’z o’rniga ega. Odamning yaralishi haqida to’rt ilohiy kitob – Zabur, Tavrot, Injil va Qur’onning qarashlari bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Chunonchi ularning barida insonning tuproqdan yaralgani unga jon aто etilgani, jannatda makon tutgani, iblis va uning qutqusi kabi masalalar deyarli bir xil talqin etildi.

Bashariyat bu qarashlarga asrlar davomida ishondi, xuddi shu aqidalarni haqiqt deb bildi, e’tiqod qildi. Ammo XIX asrda ilm-fan taraqqiyoti ta’sirida ma’ulm muddat bu qarashlar e’tibordan qoldi, odamning yaralishi xususida fan o’z da’vosi bilan o’rtaga chiqdi. Bizning bahs mavzumiz odamning qanday paydo bo’lgani xususida emas. Bu o’rinda biz mazkur masala “Avesto”da qanday talqin etilgani haqida fikr-mulohazalarimizni bayon etmoqchimiz, xolos.

Avvalo, shuni alohida qayd etish kerakki, “Avesto”da moddiy olam va ruhiy olam o’rtasida katta tafovut bor, deb qaraladi. “Avesto”ning asosiy qahramonlari moddiy olamga mansub emas, dastlabki voqealar ham aslida inson aqlidan tashqarida, ya’ni “g’ayb” deb yuri-tilgvuchi olamlarda kechadi. Biz bu haqda qisman yuqorida hikoya qildik. Ajablanarlisi shundaki, aksariyat diniy adabiyotlardagi kabi, “Avesto”da ham yaratguvchi – Ahura Mazda olam va mavjudotni olti kunda yaratadi. Bu borada ham boshqa kitoblar bilan farq unchalik ko’p emas.

“Avesto” kitobida “gahanbor” degan tushuncha bor. Bu olti kunda yaratilgan olti mavjudot marosim – bayramlarning nomidir.

Ahuraviylar ta'limotiga ko'ra, oliv iloh Mazda olti turdag'i mavjudotni galma-galdan yaratgan. Bu marosimlar quyidagi nomlar bilan ataladi:

- 1.Birinchi gahanbor: "Maydyuzarim" – osmonning yaralishi.
- 2.Ikkinchi gahanbor: "Miydyusham" – suvning yaralishi.
- 3.Uchinchi gahanbor: "Patya Shhim" – zaminning yaralishi.
- 4.To'rtinchi gahanbor: "Ayosrim" – giyohlarning yaralishi.
- 5.Beshinchi gahanbar: "Miydyorim" – jonivorlarning yaralishi.
- 6.Oltinchi gahanbor: "Hamaspatmadami" – insonlarning yaralashi.

"Avesto" ta'limotiga ko'ra, olamda ilk bor yaratilgan insonning nomi Kayumarsdir. U Sharq adabiyotida turli nomlar bilan atalgan. Asl "Avesto" tilida "Gayah maritan", qadimiylar pahlaviy tilida "Gayumard" ya'ni o'lувчи, foniylar, yo'qlikka bo'ysinuvchi jondir. Boshqa dinlar kabi "Avesto"da ham inson vujudi o'tkinchi, zamон va vaqt ma'nosida abadiy emas. Ammo inson o'tkinchi umri davomida ham ko'plab ezgu ishlarni amalga oshirish imkoniga ega. "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" uning hayoti mazmunini tashkil etishi lozim.

Odam bolasining yer yuzidagi qisqa hayoti, bu hayot oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar xususida ham "Avesto" ta'limotida ibratlari qarashlar mavjud. Ezgulik va yovuzlik o'rtaisdagi azaliy kurash masalasi bundan bir necha ming yillar muqaddam insonlar oldidagi asosiy muammo bo'lgan va bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

"Avesto" sahifalarini varaqlar ekansiz, oddiy e'tiqodli inson hamma narsaga qodir oliv ilohlarga murojaat etib, haqiqat va adolat, yorug'lik va nur olamiga qanchalik chanqoqlik bilan intilishidan hayratga tushasiz. Odam bolasi vujudiga jo etilgan ishq-muhabbat mubtalolik, ezgulikka nisbatan buyuk ishonch hayratingizni chandon oshiradi. Haqiqatda odam bolasi – eng oliv xilqatga, ya'ni bu olamda butun iste'dodi va salohiyatini ezgulikka safarbar qilishi kerak. U nurga talpinmog'i, yaxshilik binosini tiklamog'i, odamiylik urug'ini ekmog'i, haqiqat va adolatni himoya qilmog'i lozim.

Aks holda, uning tom ma'nodagi insoniy vazifasi nihoyasiga yetmay, yorti bo'lib qolaveradi. Oqibat esa hamma diniy kitoblarda qayta-qayta ta'kidlanganidek, ko'rgiliklar, pushaymon va afsus-nadomat chekish bilan yakunlanadi. "Bas, dono odamlar uchun eng maqbul tarbiya – yaxshiliklarning otasi bo'lgan Ahurani Ashah - Haqiqat siymosidan o'r ganmoqdir, uni tanimoqdir. Ey, Mazda! Tafakkur ahli, donolar, sening rozlaring sirlini o'rganguvchi shogirdlar xirad va Ezgu Niyat partavida sening oshig'ing, muhlising va muhibbing

bo‘lg‘usi”<sup>55</sup>. Ya’ni odamzodning asosiy maqsadi oliy iloh - Ahurani ham Haqiqat – Ashah siymosini o‘rganmoqlikdir. Olamning o‘zak muammosi bo‘lgan Haqiqat o‘scha davrlarda ham eng yuksak tuyg‘ularning mohiyatini tashkil etganligiga e’tibor bering. Hatto bugungi kunda ham Haqiqatni oliy iloh vositasida tanimoq, lozimligini u voqealarning asosi, borliqning poydevori ekanini kim inkor qila oladi? “Avesto”da ta’kidlaganidek, “Ezgu andishali kishi begumon o‘z dini, so‘z va a’molini ham shunga munosib qilmog‘i kerak. Uning xohish-istagi his-tuyg‘ulariga mos bo‘lgay. Sening idroking intihosi shu – u nihoyat yaxshilik va yomonlikni bir-biridan judo aylaydi!”<sup>56</sup>.

Odamlarning amali niyatlariga esh bo‘lishi xususidagi qadimiy hikmatning ma’nosini “Avesto”da ham uchratish mumkin. Haqiqatda, juda ko‘plab adabiyotlar da’vo qilganidek, asladolat ma’yorlari ham, ezgulikka bo‘lgan tengsiz chanqoqlik ham kuni-kecha paydo bo‘limgan. Buni eng birlamchi manba – “Avesto” kitobi tasdiq etadi.

Islom payg‘ambari Muhammad alayhissalom ba’zi mavridlarda “Men Anushirvoni Odil zamonida tug‘ilganman” der ekanlar. E’tibor bering,adolat va ezgulik juda olis zamonlarga xosligi, boshqa tamaddunlarda ham ezgulik va adolatning qaror topishiga intilish mavjud bo‘lganligini shu birgina so‘zning o‘zi isbot etmoqda. Mana bu so‘zlar ham fikrimizni tasdiqlaydi: “Olamning obodligi, jahoning osoyishtaligi uchun jiddu jahd qilmoq, uni asramoq va yorug‘likka tomon eltnomoq kerak”<sup>57</sup>.

Dunyoni obod va farovon ko‘rmoq, insonlar hayotini ezgulik o‘zaniga solish, ajdodlar qoldirgan eng nodir ma’naviy yodgorliklarni asrash va ularni ko‘z qorachig‘idek e’zozlash, hamisha yaxshilik orzusida yashash eng oliy insoniy ideallar jumlasiga kiradi. Avesto buni qariyb uch ming yildan buyon qayta-qayta takrorlaydi. “Ey, Mazda! – deydi xayrixoh odam. – Ezgu Niyat bilan sening sarzaminingda yashab, unda barqaror tiriklikni bunyod aylaguvchilar ana shunday zotlardir va ularning amallari Ashah - Haqiqat asosida, mag‘firat soyasidadir. Haqiqatda, ular g‘azab va jaholatni butkul sindirib tashlashga taqdir qilingandlirlar”.

Odam bolalarini ezgulik va haqiqat yo‘lida kurashga safarbar etguvchi bunday da’vatkor g‘oyalari “Avesto”ning asosini tashkil qiladi.

<sup>55</sup> “Avesto” kitobi. Uchinchi qo’shiq. Sipantmada goh, yasna, 47-hot, b.26.

<sup>56</sup> O‘scha joyda.

<sup>57</sup> “Avesto” kitobi. Uchinchi qo’shiq. Sipantmada goh, yasna, 47-hot, b.26.

Insonning taraqqiyoti davomida har turli istibdod shakllarini kashf etish yo'lida musobaqalashib kelgan bo'lishiga qaramay, oxir-oqibat ezgulik g'alabasi bilan yakun topishi muqarrar. Ezgulik esa shunchaki osmon-dan tushib qolgan emas, balki u "Avesto"da aytilgani kabi, ulug'vor g'oyalar, buyuk dasturlar, mardonavor zotlar tomonidan yaratiladi.

"Avesto" kitobining yana bir muhim jihatni odamning moddiy va ruhiy-ma'naviy hayoti bilan bog'liq. "Avesto" insonni harchand osmonlar xilqati, deb ta'riflamasin, bari bir uning nihoyasi dunyo bilan uzviy bog'liq ekanini tan oladi. Jumladan, "Avesto" qahramonlari ham oxir-oqibatda moddiy olamning bir qismi sifatida bu dunyoni tark qiladi. Ular ham foniylari, ya'ni yo'q bo'lishiga mahkum. Ilk odam bo'lmish Kayumarsga neki xos bo'lgan bo'lsa, uning avlodlariga ham shu narsa xosdir.

E'tibor berilsa, yuqorida "Avesto" ta'limotida ilgari surilgan antropologik qarashlar muayyan bir tarzda barcha jahon dinlardagi qarashlarning asosni tashkil etadi. Ularning aksariyati inson taqdirini zaminga olib borib taqaydi. Dunyodagi mavjud dinlarning vakillari hamda ilm ahli bu muammoni qayta-qayta o'rgangan, bahs mavzusini sifatida chuqur va atroficha tadqiq etgan. Ammo mazkur masalada ham "Avesto"dagi antropologik qarashlar muammosi ko'proq kelajakning ishi bo'lib qolmoqda. Sharq falsafiy tafakkurining teran tomirlaridan biri bo'lgan "Avesto" kitobi bu borada ham chuqur va har tomonlama tadqiq etishni taqozo etadi.

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lim uchun vazifalar**

1. Qadimgi Turon va Eron xalqlari tafakkurini sharhlang.
2. "Avesto"da borliq falsafasini izohlang.
3. Avestoda antropologiya masalalarini sharhlang.
4. Qadimgi Turon madaniyati bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
5. "Avesto" mavzusida falsafiy esse yozing.
6. Zardushtiylik ta'limotiga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
7. Yashtlar va Gotlarning o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.
8. Mavzu yuzasidan B/B/B jadvalini to'ldiring (1-ilova).
9. Insert usulidan foydalananib, quyidagi jadvalni to'ldiring (2-ilova).
10. FSMU jadvalini to'ldiring (3-ilova).

“Bilaman, bilmoqchiman, bildim” jadvalini to’ldirish.

Bilaman	Bilmoqchiman	Bildim

### Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma’ruza matnini o’qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo’yib chiqing:

V – bilaman

Q – men uchun yangi ma’lumot

- – men bilgan ma’lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo’shimcha ma’lumot.

2. Olingan natijalarini jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollarji	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

FSMU uchun topshiriq: “Ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal”  
g‘oyasini tahlil etish

Yo‘naltiruvchi uslubiy tavsiya:

Turon, Eron, “Avesto”, Axuramazda, Axriman, ezgulik, yovuzlik, ta’limot.

Savol	“Avesto”dagi falsafiy g‘oyalari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababin-gizni isbotlovchi dalil keltingir	
(U) Fikringizni umumlash-tiring	

## O'quv topshiriq:

“Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishslash” orqali o'qituvchi talabalarini to'rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqnini havola qilinadi:

### **1 – guruh topshirig'i**

1-bosqich. Qadimgi Turon va Eron xalqlari tafakkurini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

### **2 – guruh topshirig'i**

1-bosqich “Avesto”da borliq falsafasini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

### 3 – guruh topshirig'i

1-bosqich Avestoda antropologiya masalalarini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

### 4 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Kushon madaniyatini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va roq'ining to'l-dirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

### **Guruh bo'yicha baholash mezonlari**

**Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.**

**Har bir talab bo'yicha – 2 ball**

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazma-lilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faolligi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					
3.					
4.					

### **Hisob natijasi**

Guruhlar №	Umumiy ball				
1.					
2.					
3.					
4.					
<b>Umumiy hisob ballari</b>					
<b>Baho</b>					

**Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun  
tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. *Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction*. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. *A History of Islamic philosophy*. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. *The Essential World History, Volume I: To 1800*: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. *Eastern Philosophy. The Basics*. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. *Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma*. –T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. *Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.* –T.: TDSHI, 2006.

## **12-mavzu. MARKAZIY OSIYODA BUDDAVIYLIK DINIV-FALSAFIY TA'LIMOTI**

### **Reja**

1. Budda ta'limotining yoyilishi va unda insonlar tengligining e'lon qilinishi.
2. Buddaviylikning falsafiy mazmuni.
3. Buddaviylikning bilish nazariyasi.
4. Buddaviylikning yo'nalishlari.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari**

*Budda, Buddha, Siddharta, Guatama, buddaviylik, Shakyamuni, braxmanlar, Uruvilva o'rmoni, tarki dunyochilik, dxarma, shoh Ashoka, karma, nirvana, sansara, madhyamika, yoga, chirog', shu'la, oqim, Radjagrica, Vayshala, Pataliputra, Kashmir, Mohayana, Xina-yana, andxra, Kumaragupta I, nalanda, vaybxashika, sautrantika, yogachara, vidjnyanavad, Dignaga, Dxarmakirti, "Pramanavartika", Hindiston, Xitoy, Tibet, Mo'g'uliston, Yaponiya, Gupta, Pala, hinduviylik.*

Budda (to'g'rirog'i Buddha, sanskrit tilida – oydinlashgan, nurlangan ma'nosida) Guatama urug'idan chiqqan Siddharta ismli shaxs bo'lib, buddaviylik an'anasisiga ko'ra, buddaviylik falsafasi va dinining asoschisidir. Siddharta Shakyamuni podsho Shuddxodan xonardonida tug'ilgan bo'lib, yoshligida braxman o'qituvchilarining nasihatlarini tinglagan. 29 yoshida saroyni tark etib, Uruviyava o'rmonida tarki dunyochilik holatida mushohada orqali dunyoning abadiy ravishda shakllanib turishini tushunib yetgan.

Arxeologik qazishmalarning guvohlik berishicha, miloddan avvalgi III asrda kishilar uni buddaviylik dinining asoschisi hisoblashgan. Ushbu din ijtimoiy hayotdan voz kechishni, zo'rlikka qarshi chiqmaslikni va taqdirga tan berishni targ'ib etgan. Hozirgi zamon fani Budda hayotini miloddan avvalgi 563-483-yillarga taalluqli ekanini ta'kidlaydi.

Buddaviylik qadimgi hind jamiyatida mavjud bo'lgan tabaqa (kasta) larga bo'linish va kohinlarga qarshi chiqqan. Barcha insonlarning tengligining e'lon qilinishi buddaviylikning keng yoyilishi sabab bo'lgan. Yirik davlatlar tashkil topishi sharoitida braxmanlik dinining kohinlariga qarshi qaratilganligidan, buddaviylik katta davlatlar hukmdorlariga foydaliroq edi<sup>58</sup>.

Miloddan avvalgi III asrda shoh Ashoka buddaviylikni qabul qilib, uni Hindistondan chetga chiqib yoyilishiha hissa qo'shgan. Buddha dini o'z navbatida urf-odatlar, sig'inish marosimlari va aqidalar tizimini ishlab chiqqan. Qadimgi Hindistonda mavjud bo'lgan ruhlarning ko'chib yurishi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqib, buddaviylik tirik mavjudotlarning qayta tug'ilish aqidasini olg'a surgan. Uning ta'kidlashicha, tirik mavjudotning o'limi uning zarrachalardan tashkil topgan tanasining sochilib ketishi bo'lib, shundan keyin uning yangi unsurlari bo'lgan – dxarmalarning yangidan tashkil topishi yuz beradi.

Dxarmalarning yangi kombinatsiyasi ilgarigi ko'chib yurish doirasida vujudga kelgan barcha xayrli ishlar va gunohlar majmuasiga bog'liq bo'lgan karma orqali tayin etiladi. Buddaviylikning ezgu orzusi – ruhning ko'chib yurish jarayonini to'la barham topishi va shu yo'l bilan go'yo hayot mohiyatini tashkil etuvchi azob-uqubatdan qutulish holati – nirvanaga erishish edi.

Buddaviylikning falsafiy mazmuni ikki jihatni o'z ichiga oladi: narsalar tabiat haqidagi ta'limot va bilish yo'llari to'g'risidagi ta'limot. Buddaviylikning narsalar tabiat haqidagi ta'limoti asosida draxmalar – "o'zining belgilari ega bo'lgan zarrachalar" yoki "bo'lakchalar", "unsurlar" to'g'risidagi tushunchalar yotadi. Bu ta'limotga ko'ra, draxma-zarrachalar dunyoviy ashyolaming hujayralari kabi butun moddiy va ruhiy olamning jarayonlarida ular tarkibida harakatda bo'lib, har lahma shu'lalanib va o'chib turadi. Uning har bir



Kushanlar imperiyasi

<sup>58</sup> William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.P. 43

o'chishi yangidan shu'lalanish va boshqatdan o'chishni anglatadi. Buddaviylik falsafasida dunyoni azaldan doimo o'zgarishda, qaytadan tug'ilishda ko'rish va oqib turgan daryo bilan taqqoslash g'oyasi yotadi.

Buddaviylikda dxarma – unsurlari uchun bir necha tasniflash ishlab chiqilgan. Ilk buddaviylik namoyon bo'lgan borliq – sansara va namoyon bo'limgan borliq – nirvanaga bo'linisini qayd etgan edi.

"Namoyon bo'lgan borliq" charxida bo'lish azob-uqubatlar tortish bilan hamroh bo'lib, undan qutulish – "axloqiy amalning sakkiz a'zoli yo'li"ni tushunishga olib boradi. Buddaviylik moddiy va ruhiy dunyolar yagonaligini ta'kidlaydi. Buni ta'kidlash madxyaliklar falsafa maktabi namoyandalari tomonidan tizimga solib ishlab chiqilgan.

Buddaviylikning ikkinchi jihatni, ya'ni bilishning yo'llari haqidagi ta'limot yogacha usulda mushohada qilishning sub'yektivg'oyaviy usuli bilan bog'liqdir. Buddaviylik ruhning mavjudligini, ya'ni inson ichidagi alohida ruhiy mohiyatni inkor etadi. Buddaviylik aqidasidagilar inson shaxsining moddiy va ruhiy xususiyatini tashkil etuvchi besh guruh unsurlardan tashqarida alohida mavjud bo'lgan atmanni inkor etadilar. Bu besh unsurlar quyidagilar: 1) ong, 2) tasavvurlar, 3) his-tuyg'u, 4) karma kuchlari, 5) inson tashqi sezgilari. Ushbu sxemada qandaydir o'zgarmaydigan, abadiy ibtidoga o'rinn yo'q. Sabab oqibatdan oldin keladi. Inson shaxsi, dunyodagi barcha narsalar kabi o'n ikki a'zoli "sababiy tug'ilish" ifodasida mujassamlashgan sabab va oqibat qonuniga bo'ysunadi. Mavjud insoniy hayot – faqat ilgarigi mavjudlikning xulosasidir, xolos. Ong yerdagi hayotning "shaxsiy oqimi" orqali oqib, o'rtadagi holatlarni orqali va undan keyin keladigan yangi qayta tug'ilish bosqichlarini bosib o'tib, har lahzada o'z mazmunini o'zgartirib turadi. Ushbu abadiy tashkil topish ko'pincha qadimgi hind falsafiy adabiyotidagi chirog' shu'lasiga o'xshatiladiki, undagi yonish va o'chish jarayoni to'xtovsiz davom etib, doimiylik tasavvurini tug'diradi.



Buddaviylik ramzi

Namoyon bo'Imagan borliq, ya'ni nirvanaga mansublik esa, chirog'da shu'lanning o'chishiga qiyoslanadiki, undagi yog' ta'mini tamom bo'lgani sababli, u o'chadi. Ammo o'chgan shu'la, yo'qolgan o't emas, balki boshqa holatga o'tgan shu'ladir. Buddaviylik dialektikasi bo'linib turuvchi oqim tushunchasini ishlab chiqqan.

Mamlakat sharqida "Katta jamoa" tarafdorlari yig'ildilarki, ular maktabini Mohayana ("Katta arava" yoki najotning "keng yo'li") deb atadilar. Qolgan maktablar Xinoyana ("Kichik arava") nomini olgan. Ashoka (mil. avv. III asr) va Kushonlar (II-III asrlar) davrida buddaviylik Hindiston hududlaridan tashqariga chiqqan. II va III asrlarda buddaviylik Andxra imperiyasida hukmron mavqega ega bo'lgan. IV-V asrlar davomida buddaviylik falsafasi hind madaniyatining barcha sohalariga kirib borgan. V asrning birinchi yarmida shoh Kumaragupta I Nalandada buddaviylik universitetini ta'sis etgan. Bu universitet keyinchalik xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan<sup>99</sup>.

I-V asrlar davomida to'rtta asosiy falsafa yo'nalishi uzil-kesil tashkil topgan edi: vaybxashika, saurantika, madxyamika, yogachara. Keyingi vaqtida tashkil topgan vidjnyanavada-yogacharlar orasida Dignava ·va uning izdoshi-Dxarmakirti tomonidan ishlab chiqilgan buddaviylik mantig'i va bilish nazariyasining kelib chiqishi muhim voqeа bo'ldi. Dxarmakirtining "Pramanavartika" asari Hindiston, Xitoy, Tibet, Mo'g'uliston va Yaponiya falsafiy adabiyotini boshlab borgan edi. Gupta davrining oxiri va ayniqsa Pala sulolasи davrida (VIII-IX asrlar) buddaviylikning ta'siri zaiflashgan edi. Nalanda universitetining inqirozga yuz tutishi buning natijasi edi. Buddaviylik va braxmanlikning yaqinlashishi yangi din bo'lgan hinduviylikning paydo bo'lishiga olib keldi. Hindistonda o'z hukmronlik mavqeini yo'qotgan buddaviylik Seylon, Birma, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarga keng yoyildi.

Buddaviylik turli milliy va diniy an'analar bilan kelishuvchanligi sababli ko'p millatlar tomonidan keng qabul qilindi. Buddaviylik hayotning barcha sohalari: diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy qatlamlariga kirib bordi. Buddaviylikni din yoki falsafa, maskura yoki madaniyat qoidalari to'plami yoxud hayot tarzi deb baholash mumkin.

Ayni kunda bu dingga e'tiqod qilib kelayotgan Sharq mamlakatlaridagi buddaviylik ta'limotini o'rganish u yerdagi siyosiy-iqtisodiy, ma'naviy madaniyatni tushunishning asosiy omillaridan biri

<sup>99</sup> William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. *The Essential World History, Volume I: To 1800*. Boston, 2007. P. 44

hisoblanadi. Bu davlatlarda ushbu dinga e'tiqod qiluvchilar nazarida buddaviylikning qoida va an'analari markaziy hukumat qonunlaridan ko'ra ustunroqdir, tabiiyki, buning zamirida uning potensial kuchi yotadi.

Buddaviylik qadimiy hind diniy-falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan, o'ziga xos nazariyot va amaliyotdan iborat bo'lgan diniy tizimdir.

Budda yangi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan, balki har bir inson tug'ilish va o'lim mashaqqatlaridan qutulishi uchun amal qilishi lozim bo'lgan bir necha ko'rsatmalami ishlab chikdi xolos. Uning ta'limoti insonning xayolida, ishlarida va o'zini tutishida samimiyligi olijanoblik g'oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta'limotini inkor qildi, hayvonlarni vahshiyona qurban qilishni qoraladi, varna (kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi.

Budda ta'limotining asosida «hayot – bu azob-uqubat» va «najot yo'li mavjud» degan g'oyalar yotadi. Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, inson o'ziga xos mavjudot bo'lib, tug'iladi, o'zini-o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g'oyalar Buddanining ilk da'vatida ta'birlangan to'rt haqiqatda o'z ifodasini topgan.

Birinchi haqiqat – «azob-uqubat mavjuddir». Har bir tirik-jon uni boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday dunyoviy hayat – iztirob, azob-uqubatdir.

Tug'ilish – iztirob, kasallik – azob, o'lim – kulfat, qiyinchilikka duch kelish – mashaqqat, ayriliq – ezelish, orzu-havasga yetolmaslik – uqubat. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga bog'likdik. Hech bir narsa ma'lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddaviylik dunyonи shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, har qanday narsa yoki hodisa, u xoh moddiy, xoh ma'naviy bo'lsin, dharma (element)lardan tashkil topgan. Ular o'z xususiyatiga ko'ra harakatsiz bo'lib, dxarmalarni qo'zg'atuvchi kuch insonning xayol va so'zlaridir. Obyektiv haqiqat bu doimiy ravishda o'zgarib turuvchi dxarmalar oqimidir. Harakatdagi dharmalar o'z mavjudligining besh shakli – tana, sezgi, his-tuyg'u,



Buddha xaykali

harakat, anglashni yaratadi. Mazkur besh shakl insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi, borliq bilan aloqada bo‘ladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Besh elementning o‘zaro mavjudligi insonning o‘limi bilan barham topadi. Insonni tashkil qiluvchi besh shakl (skandx) o‘z navbatida qayta tug‘iladi. Yangi tananing xususiyatlari asos bo‘luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumrohlik, xohish, istak va me’yor. Bu jarayon «hayot charhpalagi»ni tashkil qiladi. «Hayot charhpalagi»da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy iztirobqa duchor bo‘ladi.

Ikkinci haqiqat – «iztiroblarning sabablar mavjuddir». Inson moddiy narsalar yoki ma’naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va abadiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo‘lishga intiladi. Bu intilish hayotning davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karma hozirlaydi. Demak, qayta tug‘ilish, qaytadan iztiroblarga duchor bo‘lish davom etadi. Aksariyat buddistlar fikricha, Buddadan keyin hech kim nirvana holatiga erisha olmagan.

Uchinchi haqiqat – «iztiroblarni tugatish mumkin». Yaxshi yoki yomon niyatlardan, intilishlardan butunlay uzilish nirvana holatiga olib boradi. Bu holatda inson qayta tug‘ilishdan to‘xtaydi. Buddistlar fikricha, nirvana holati «hayot charhpalagi»dan tashqariga chiqish, «men» degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg‘ularini to‘la tugatishdir.

To‘rtinchchi haqiqat – «iztiroblardan qutulish yo‘li mavjuddir». Bu yo‘l sakkizta narsaga amal qilish, to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri harakat qilish, to‘g‘ri muomalada bo‘lish, fikrni to‘g‘ri jamlashdir. Bu yo‘ldan borgan inson Buddha yo‘lini tutadi.

Buddaviylik ta’limoti, asosan, uch qismdan iborat:

1) axloq; 2) meditatsiya; 3) donolik.

1. Axloq normalari – «Pancha chila» (Buddanining besh nasihatasi):

1). qotillikdan saqlanish;

2). o‘g‘rilikdan saqlanish;

3). gumrohlikdan saqlanish;

4). yolg‘on, qalbaki narsalardan saqlanish;

5). mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

2. Meditatsiya.

1) to‘g‘ri tushunish (to‘g‘ri e’tiqod qilish) – Buddanining birinchi da’vatida so‘z yuritilgan to‘rt haqiqatni bilish va unga ishonish;

2) to'g'ri niyat qilish – dunyoviy lazzat-halovatlardan xalos bo'lishga, ke-raksiz fikrlar va boshqalarga zarar yet-kazib qo'yishdan saqlanishga intilish;

3) o'zini to'g'ri tutish – o'ziniki bo'lmanan narsaga ko'z olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik;

4) to'g'ri anglash – o'z tanasi va ruhiga o'zini yo'qotib qo'ymaydigai darajada nazoratda bo'lish hamda bunda ehtiroslar va iztiroblarga chek qo'yish;

5) to'g'ri harakat qilish – o'zidagi yomon tuyg'ularni jilovlash hamda ezgu tuyg'ular va harakatlarni rivojlantirish;

6) to'g'ri hayot kechirish – noma'qul hayot tarzidan saqlanish;

7) to'g'ri fikr yuritish – kamolotning to'rt bosqichini ketma-ket bosib o'tish;

8) to'g'ri gapirish – yolg'ondan, tuhmatdan, haqoratdan va befoyda gaplardan saqlanish.

3. Donishmandlik – bu buddaviylikning asosiy maqsadi bo'lib, narsalar tabiatini to'g'ri tushunishdan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan uch amaliyot bosqichini o'tagan inson oxir-oqibat oliy saodatga, ya'ni nirvana holatiga erishadi. Nirvana so'zining lug'aviy ma'nosi – «o'chish, so'nish». Unda hayotning har qanday ko'rinishiga intilish yo'qoladi. Ushbu ta'limotning yoyilishida buddist jamoalarning (sangxa) roli katta bo'lgan. Ular yilning ob-havosi yaxshi bo'lgan to'qqiz oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, aholini bu dinga da'vat qilib yurganlar. Faqatgina musson yomg'irlari tinmay quygan uch oydagina o'z ibodatxonalarida muqim bo'lib meditatsiya bilan shug'ullanganlar.

Mil. av. 273 – 232-yillarda hukmronlik qilgan imperator Ashoka davrida buddaviylik keng hududlarga jadal tarqaldi. U buddist monaxlarga (rohiblar), ularning Hindiston bilan chegaradosh davlatlarga qilgan missionerlik harakatlariga xayrixohlik bildirardi. Buddhist missionerlari o'z prinsiplarida mahkam turib, yumshoqlik va kelishuvchanlik bilan harakat qildilar. Buddaviylik jamoalari begona din, madaniyat va urf-odatlar ustun bo'lgan sharoitlarda asrlar mobaynida o'zlarini saqlab qolish, fursat kelganda, ularga o'z



Bomiyondagi Buddha xaykali

ta'sirlarini o'tkazish qobiliyatiga egadirlar. Ularning bu xususiyatlari Hindistonda musulmon hukmdorlari davrida, Shri Lankada portugallar, gollandlar va inglizlar mustamlakasi davrida, Xitoy va Yaponiya konfutsiychilari davrida mazkur hududlarga buddaviylikning yoyilishida yaqqol namoyon bo'ldi.

Buddaviylik ta'limoti bir qator kitoblar shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng assosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka) – «uch savat» ma'nosini anglatadi. U uch qismidan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Bu manbaning qo'lyozma nusxasi Shri Lankada saqlanib qolgan. U milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Ular Buddha targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari – Sutra-pitaka, rohiblik axloqi, xonaqohlar nizomlariga bag'ishlangan vishya matnlari – Vinaya-pitaka, buddaviylikning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidarma matnlari – Abxidarma-pitakadan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, Tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylikga oid adabiyotlar ancha keng tarqalgan, ammalarning ilk buddaviylik tarixi uchun ahamiyati ozroq. Buddha hayotiga tegishli rivoyatlarning asosiysi Tripitakada jamlangan<sup>60</sup>.

Shunday qilib, buddaviylik mil. av. birinchi ming yillik oxirlarida Markaziy Osiyoni o'z ichiga olgan Kushon imperiyasiga kirib keldi. Bizning diyorimizda olib borilgan arxeologik qazilmalar asnosida O'ratega, Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzelaridan topilgan Shakyamuni sanamlari, hayvon xaykalchalar, ramziy g'ildiraklar va stupa qoldiqlaridan Kushon imperiyasida buddaviylikga katta ahamiyat berilganini anglash mumkin.

O'rta Osiyoda dinlar tarqalgaligi manzarasi rang-barang va tadqiq qilish uchun o'ta qiziqarli. Bu mintaqada boshqa qadimiy dinlar bilan bir qatorda buddaviylikning ham keng yoyilganligini kuzatamiz.

Bir guruh tadqiqotchilar mazkur din O'rta Osiyoga kirib kelishini Kushonlar shohi Kanishka hukmronligi davriga taalluqli deb biladilar (I asrning oxiri – II asrning boshlari). Ikkinci guruh esa bu jarayonning boshlanishini biroz ertaroq, deb hisoblaydi. Tadqiqotchi B.A. Litvinskiyning fikricha, buddaviylik Shimoli-G'arbiy Hindiston va Janubiy Afg'oniston (Qandahor) orqali taxminan mil.av.III asrda Baqtriyaga (O'zbekistonning janubiy hududlari) tarqala boshlagan.

<sup>60</sup> William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.P. 45

Baqtriyaga buddaviylikning kirib kelishi va yoyilishi haqida boshqa fikr ham mavjud. Tadqiqotchi R.Ch. Bagchi bu jarayon podshoh Ashoka (mil. av. 273-232-yy) hukmronligi davrida yuz bergen, deb hisoblaydi. Ammo bu fikrni tasdiqlovchi arxeologik materiallar yetarli emas. Shuning uchun ham buddaviylik bu hududga Kushonlar davrida kirib kelgan, degan fikr haqiqatga yaqinroq. Chunonchi B.Ya. Staviskiy bu fikrni Kushonlar hukumatining hind viloyatlari va buddist jamoalarning homiylari bilan aloqalari mustah-kam bo‘lganligi bilan isbotlaydi. Shu bilan bir qatorda baqtriyaliklarning Kanishkaga qadar buddaviylik bilan tanish bo‘lganliklarini tasdiqlovchi ma’lumotlar ham mavjud.

Mil.av.I asr va milodning IV asrlari oralig‘ida Kushon imperiyasida buddaviylikning Maxayana yo‘nalishi davlat dini deb e’lon qilindi. Bungacha buddaviylik Hindistonda uzoq tarixga ega bo‘lsa-da, u yerda asosiy yo‘nalish bo‘lgan Xinayana ham bunday mavqega erishmagan edi. Kanishka, Vima, Kadfiz va ulardan keyingi Kushon imperatorlari buddaviylikni keng yoydilar. Ular bu din an’analarini amalda rivojlantirish, boshqa xalqlar o‘rtasida tarqatish uchun Balx, Marv, Termiz, Samarcand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, O’sh, Bolosog‘un, Qoshg‘ar va boshqa shaharlarda buddaviylik takyagohlari va xonaqohlari, ibodatxolarini qurib, buddaviylikning muqaddas kitoblari, sutra va pastrilarni o‘rganish, tarjima qilish va sharplash uchun sharoit yaratib berdilar.

Buddaviylik Markaziy Osiyonidagi hind madaniyati bilan tanish-tirishda “ko‘prik” vazifasini bajargan. Bu dinning keng tarqalishi bilan Hindiston va O‘rtal Osiyo xalqlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlar rivojlanib ketdi. Bu o‘zaro aloqalar bir yoqlama bo‘limasdan, balki Hindistonda ham Markaziy Osiyo madaniyati izlari borligi namoyon bo‘limoqda. Masalan, Hindistondagi ko‘pchilik qo‘sish, harbiy va ma’muriy amaldorlar O‘rtal osiyoliklardan tayinlangan. Yana bu madaniyatning izlari – Yunon alifbosiga asoslanib Kushon yozuvida bitilgan Baqtriya tili, kiyim-kechaklari, cholg‘u asboblari va raqslari ham kirib bordi.

Yodgorliklarda tangalar ibodatxonaning Kushon podsholaridan Kadifiz I (mil I asr) davrida zarb qilinganligidan darak beradi. Xonalar ichida ganchdan tayyorlangan xaykallar maydalanim, markaziy qismi “shohlar zali” deb nomlangan, chunki u yerda xaykallar buddanining izzatlovchi podsho xonadonidagi va unga yaqin kishlarni ifodalaydi.

Bu xonaga maxsus yo'laklar orqali kirilib, qolgan xonalarda oziq-ovqat saqlangan va ba'zilarida kohinlar (monaxlar) istiqomat qilganlar.

“Shohlar zali” yonida Budda xaykali o'matilgan supaning poy-devori saqlanib qolgan, u asosan xom g'isht va paxsadan ishlangan. Xaykallar aksariyat “shohlar zali” va unga boradigan yo'lakdan topilgan, bizgacha yetib kelgan xaykallar bir-biridan ajoyib va nodir. Ularda podshoh, shahzoda, amaldorlar, Budda, uning muxlislari, shogirdlari va izdoshlari tasvirlangan.

Shahzodaning xaykalida uning qimmatbaho toshlar qadalgan maxsus tayyorlangan och ko'k rangli uzunchoq kulohi va yuz tuzilishi ustalik bilan ishlangan kushon podsholaridan biri II asrda hukmronlik qilgan Vasudeva o'zi zarb qildirgan mis tangalarda xuddi shunday kulohda tasvirlangan edi. Ikkinci xaykal esa kattaroq, uzunligi 1 metrga teng, uni aslida bo'lak-bo'lak holda xonaning u yer-bu yeridan topilib, San'atshunoslik institutining tajribali xaykaltarosh ta'mirchilari uni avvalgi holiga qaytardilar. Uning ustki kiyimi Kushon imperiyasi amaldorlarining libosini ifodalab, yuzi va shalvari qip-qizil rangda, mo'ylovi, sochi, osilib turgan belbog'i qora rangda. Jahon sivilizatsiya tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lgan buddaviylikning keng tarqalishida Dalvarzin shahri muhim o'rinn egalladi. Buddaviylik inshootlari Dalvarzin shahari devoridan yarim chaqirim uzoqlikda joylashgan, Budda dinini Kushon hukmdorlari o'z homiyligiga olishgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, Dalvarzin shahridagi bu ikkala budda inshooti juda hashamatli va dabdabali bo'lib, shaharni dushman qamal qilib turganda ham.

Kanishka ko'plab budda inshootlarini qurdirdi, poytaxtda buddaviylarning diniy yig'ilishini o'tkazdi. Uning zarb qilgan tangalarida boshqa xudolar bilan bir qatorda, Buddaning tasviri va “BOODOO” degan yozuv ham bitilgan edi. U hatto davlat boshqarish apparatida maslahatchi sifatida budda koxinlaridan ham foydalandi. Kushon podsholari bu dinni qabul qilish va boshqalarni shu dinga bo'ysundirish uchun o't qo'yib, qilich o'ynatib, boshqa dinlarga oid ibodatxonlarni yer bilan yakson qilmadilar. Bu ishni juda ustalik bilan ishontirish yo'li bilan amalga oshirib, kohinlar o'z ilmi va harakati bilan xalqni o'z ta'siriga o'tkazdilar. Ana shunday budda tashviqotchilaridan biri termizlik (ya'ni “tarmitalik”) Dxarmamitra boshliq tashviqotchilar, hatto bu dinni sharqiy Turkiston va Xitoya va boshqa joylarga tarqatdilar. Kushonlar imperiyasida Budda dini

yagona davlat dini bo'lmasdan, balki har qaysi elatning o'zi hohlagan dinlari bo'lib, ular o'z xudolariga ishonar va sig'inar edi. Buddaviylikning qulayligi yana shundaki, budda ibodatxonalariga yangi kelganlar nafaqat diniy risolalar va kitoblar o'qishar, balki shu bilan birga, dunyoviy adabiyotlar – tibbiyat, grammatika, musiqa, yer, osmon, shamol va yulduzlar haqida, rassomlik va she'r iyat ilmlarini o'rganishar edi. Shuning uchun ham, buddaviylik tadqiqotchilarining fikricha, buddaviylik o'zining 2500 yillik tarixi davrida ibodatxonalarni qurishda, xaykaltaroshlik va rassomlik sohasida, diniy-falsafiy risolalar yaratishda, targ'ibotchilikda va ziyoratchilikda, yirik buddaviylik mutafakkirlari sonining ko'pligi jihatidan Kushon imperiya-sidek yuqori darajaga erishmagan. Hatto xorazmlik alloma Abu Rayhon Beruniy ham buddaviylik haqida quyidagilarni yozib qoldirgan: "O'tmisz zamonalarda Xuroson, Fors, Eron va Mosuldan to Suriyaning chegarasigacha yashagan aholi buddaviy diniga sig'inar edi. Ammo keyinchalik Zoratushtra (Zartushtra) ta'limoti Gushtaspga yoqib, uni mag'rib va mashriqda tarqata boshladi. Chin mamlakatidan to Rum yerlariga qadar otashparastlik ibodatxonalarini qurildi".

Buddaviylikning O'zbekiston va Hindiston xalqi o'rtasida o'z davrida ma'naviy ko'prik bo'lib xizmat qilganligi aniq. Xalqlarimiz orasidagi do'stlik va birodarlikning ildizlari u davrga borib taqaladi va bugungi kunda aksariyat kishilar, ayniqsa, yoshlarimizning hind xalqi, uning madaniyat va san'atiga qiziqishi tasodifiy emas.

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lim uchun vazifalar**

1. Buddha ta'limotining yoyilishi va unda insonlarning tengligining e'lom qilinishini sharhlab bering.
2. Buddaviylikning falsafiy mazmunini izohlang.
3. Buddaviylikning bilish nazariyasini tavsiflang.
4. Buddaviylikning yo'naliishlarini sharhlang.
5. Buddaviylik dini bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
6. "Maxayanada dunyo masalasi" mavzusida falsafiy esse yozing.
7. Buddaviylik ta'limotiga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
8. Xinanyananing o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.

9. Mavzu yuzasidan B/B/B jadvalini to'ldiring (1-ilova).

10. Insert usulidan foydalaniб, quyidagi jadvalni to'ldiring (2-ilova).

1-ilova

### Buddaviylik ta'limoti

Ta'limotlar	Mazmuni	Paydo bo'lgan davri
Buddaviylik	Insonning oliv maqsadi qayta tugh'ilish emas, balki huzur-halovatli holat bo'lgan nirvanaga (yakka jonning mutlaq jon bilan qo'shilib ketishiga) erishishdir.	Mil.avv. VI asr oxiri-Vasr boshlari
Mohayana	Mohayana falsafiy tizimi axloqqa oid muammolarni qamrab olgan bo'lib, xalq ommasini sabr-qanoatga da'vat etgan.	Milodiy I asr
Moniylik	Ikki dunyo – “zulmat va ziyo dunyosi” mavjud bo'lib, birinchisidaadolatsizlik, zulm, zo'ravonlik hukm surgan, ikkinchisi abadiy, yemirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosidir.	Milodiy III asr
Mazdakiylik	Dunyoda sodir bo'ladigan jaryonlar ongli maqsadga yo'naltirilgan ezgulik va uning manbai bo'lgan yorug'lik bilan ko'r-ko'rona va tasodifiy harakat qiluvchi qorong'ulik (johillik) o'rtasidagi kurashdan iborat. Yaxshilikni barqaror qilish uchun ijtimoiy tengsizlikka barham berish lozim.	Milodiy VI asr

### O'quv topshiriq:

“Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash” orqali o'qituvchi talabalarini to'rt guruhg'a ajratadi. Har bir guruhg'a muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

## **1 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Budda ta’limotining yoyilishi va unda insonlarning tengligining e’lon qilinishini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## **2 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Buddaviylikning falsafiy mazmunini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## **3 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Buddaviylikning bilish nazariyasini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va rog'ining to'ldirish sifati	Guruh faoliigi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

#### 4 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Buddaviylikning yo'nalishlarini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va rog'ining to'ldirish sifati	Guruh faoliigi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

#### Guruh bo'yicha baholash mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.

Har bir talab bo'yicha – 2 ball

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazmalilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faoliigi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					

## **Hisob natijasi**

Guruhi №	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball
1.					
2.					
Umumiy hisob ballari					
Baho					

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. -T.: TDSHI, 2015.

## **13-mavzu. MARKAZIY OSIYODA MONIYLIK TA'LIMOTI**

### **Reja**

1. Moniy va uning merosi.
2. Moniychilar tavbanomasi «Xuastuanif»ning tavsifi.
3. Turk-moniy ta'limotining tavsifi.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari**

*Moniy, Moniy ibn Fatak, moniylikda dualizm, Xuastuanift, turkmoniylik ta'lomit, moniylikda rassomlik, moniylikda taqvo va ro'za amali, Turfon matnlari, mazdakiylik.*

Moniylilik O'rta va Markaziy Osiyoda yoyilgan yirik dinlardan biridir. Bu din III asr o'ttalarida Bobilda vujudga kelgan. Uning asoschisi Moniy bo'lgan.

Moniy va u asos solgan din haqida Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida quyidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan: «[Budosaf va Zardusht] ikkovidan keyin Foradun shogirdi Moniy keldi...»

Moniy «Shoburoqon» kitobining payg'ambar kelishi bobida hikoya qilishicha, u Bobilning yuqori Kuvso arig'i (yonidagi) Mardinu degan qishloqda Bobil munajjimlarining yillari, ya'ni Iskandar tarixidan besh yuz yigirma yettinchi yilda (milodiy 215-yilda) tug'ilgan. O'n uch yoshida, Bobil munajjimlari yillarining besh yuz o'ttiz to'qqizinchchi yilda va shahanshoh Ardashir (podshohligi) yillaridan ikki yil o'tganda (Moniya) vahiy kelgan.

Moniy yuzaga chiqqach, unga ishonuvchilar va tobeler ko'paydi. O'z injili, "Shoburaqon", "Tiriklar xazinasi", "Jabborlar haqida kitob", "Sirlar kitobi" kabi ko'pgina kitob va maqolalar ta'lif etdi va bu asarlarida (Iso) Masihning ramzlarini ochganini da'vo qildi".<sup>61</sup>

Moniy 240-yillardan boshlab sosoniyalar davlatida o'z ta'limotini xalqqa targ'ib eta boshladi. Boshlab Eron shohi Shopur I

<sup>61</sup> Abu Payhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, -T., 1968. B. 241-242.

uning faoliyatiga yaxshi munosabatda bo'lgan edi. Biroq 270- yilga kelib zardusht bid'atparastlari Moniy ta'llimotiga qarshi chiqqa boshladilar va oz vaqt o'tmay, uni qatl qildirtirdilar.

Monyilik ikki tarmoqda yoyildi. Bir tarmog'i O'rta Osiyoga o'tdi, undan Sharqiy Turkistonga qadar yoyildi. Ikkinci bir tarmog'i G'arbg'a o'tib, Rimda, ayniqsa, Karfagenda keng amal qildi. G'arbdagi Vizantiya imperiyasida xristianlik tomonidan ancha erta quvg'inga uchradi. Xristianlikning kuchli ta'qibi ostida moniy jamoatlari mahfiy ish tutishga ham majbur bo'lib qoldilar.

Sharqda uning mavqeい nisbatan yuqori bo'lgan. Bu tomonlarda u uzoq asrlar mobaynidagi o'z mavqeini saqlab qoldi, musulmon dini singari unga ham e'tiqod qiluvchilar ko'p edi. Bu yerda u XIII asrga qadar amal qilgan.



Axmoniyalar Eroni haritasi

Monyilik O'rta va Markaziy Osiyoga Erondan o'tgan. U, Xuronson orqali Marvga, undan Sug'dga o'tdi, Samarqand va Buxoroda amal qildi. Keyin Shosh, Axsikat, O'zgan, undan o'tib Koshg'arga tarqaldi.

Monyilikning O'rta va Markaziy Osiyo xalqlari orasidagi kechmishi uzoq ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq. Bu o'lkalarda uning keng yoyilib gurkiragan davri ham bo'lgan, kezi kelganda quvg'inga uchrab, tanazzulga yuz tutgan. 762-yilga kelib, Uyg'ur xoqonlig'ida Bo'gu xoqon zamonida moniyilik davlat dini

darajasiga ko'tarildi. Muhimi shundaki, Uyg'ur xoqonlig'i bir asrlik tarixining yaqin sakson yilida moniylik rasman amal qilgan.

Turk muhitida moniylikning eng gullagan davrlari ayni pallaga to'g'ri keladi. 840-yilga kelib xoqonliq yemirilgach, uyg'ular qaytadan buddiylikka o'tdilar. Shunday bo'lsa-da, Markaziy Osiyonning chekka o'lkalari buddiylikka e'tiqod qilmagani, shuningdek, islam ta'siridan uzoq xalqlar orasida moniylik keyingi yuzyilliklarda ham amal qilganligi ma'lum. Uning so'nggi holati xususida Abu Rayhon Beruniy yozadi: «Moniy da'vatini qabul etganlarning unga mansub qoldiqlari bo'lib, ularning Samarqanddagagi mashhur sobiylar guruhidan boshqasi islam shaharlarining biron joyida jam bo'lishlari mumkin bo'lmaydigan darajada tarqalib ketganlar. Islam mamlakatidan tashqarida esa sharq turklarining, Xitoy, Tibat aholisining aksari, hindlarning ba'zilari moniy dini va mazhabidalar»<sup>62</sup>.

Manbalarning guvohlik berishicha, Abbosiylar zamonida (X asrning birinchi yarmi) Samarqandda oz bo'lsa-da (taxminan 500 qadar) moniy jamoasi istiqomat qilar edi. Ayni kezlar Xuroson valiysi ularga nisbatan bosim o'tkaza boshladidi. Shunda to'quz o'g'uz hukmdori musulmon valiysiga 'jur'atkor bir ohangda tahdid qilib maktub yo'lladi. Maktubda to'quz o'g'uz o'lkasidagi musulmonlar Samarqanddagagi moniychilardan bir necha bor ortiq ekanligi ta'kidlangan. Mabodo, ularning bir nafari o'ldirilgan taqdirda to'quz o'g'uz hukmdori o'z o'lkasidagi butun musulmonlarni qilichdan o'tkazajagi, masjidlarini vayron etishi, boshqa o'lkadagi musulmonlarga shafqat qilmasligini bayon qilgan edi.<sup>63</sup>

Moniy yaratgan yoki uning ta'limoti yoritilgan asarlarning ko'pi yo'q qilingan. Qolganlarining soni juda oz. Shuning uchun bu dinning falsafiy qarashlari boshqa dindagilar, ko'proq musulmon va xristianlarning xotiralari, tarix kitoblaridagi ma'lumotlar asosida o'rGANILADI. Moniylik haqida xristian teologi Avgustin muhim asar yozib qoldirgan. XIX asr so'ngida Sharqiy Turkistondan moniy traktatlarining parchalari topilgan. XX asr boshlarida esa Misrdan ta'limot asoschisi Moniy asarining kopt tiliga tarjimasi chiqdi. Moniylik haqida Abu Rayhon Beruniy muhim ma'lumot keltirgan. Ushbu asarlarda moniylikning asosiy g'oyalari bayon etilgan.

<sup>62</sup> Abu Payhon Beruniy, Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. –T., 1968. –B. 243.

<sup>63</sup> Kitapçı Z. Türkistan'ın Müslüman Araplar Tarafından Fethi. – Konya, 2005. – B. 69-70

Monyi o‘zidan avval o‘tgan Budda, Zardusht va Isoning ilohiy bashoratlarini, ularning payg‘ambarligini e’tirof etgan. Moniy izdoshlari Isoni Moniydan keyingi o‘rinda turuvchi nur xabarchisi deb bilganlar.

Monyi ta’limotining mazmun-mohiyatii Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida yaxshi yoritilgan: «Monyi olamning borligi va ko‘rinishi haqidagi hujjat va dalillar natijalariga zid ravishda xabar berdi. Nur olamlariga, qadimgi insonlar va «hayot ruhiga» (ishonishga) da’vat etdi. Nur va zulmat qadimdan bor va bu ikkisi azaliy, dedi. Hayvon so‘yishni va unga alam yetkazishni, olov, suv, o‘simliklarga ziyon yetkazishni – eng ochiq ko‘z bilan - harom qildi. Siddiqlar, ya’ni moniy mazhabidagilarning taqvodorlari va zohidlari o‘zlariga farz qilgan qonunlar tuzdi».<sup>64</sup>

Monyi ta’limotiga ko‘ra, olam yaxshilik va yovuzlik asosiga qurilgan. Bu mangu va qarama-qarshi kuchlar dunyo turguncha turadi va bir-biri bilan kurashib yashaydi<sup>65</sup>.

Monyi ta’limotiga ko‘ra, taraqqiyot nurning zulmat ustidan to‘liq hukmronligiga olib bormog‘i kerak. Moniy va uning izdoshlari muhim diniy masalalardan biri dunyoda yovuzlikning yashab turishi sabablarini izlashdan iborat deb bilganlar. Dinning mohiyati ham inson uchun yovuzlikka qarshi kurashish yo‘llarini ochishdan iboratdir.

Dindorlar ikki toifaga bo‘lingan: oddiy «tinglovchilar» va «saylanganlar». Har bir ortiqcha narsa va dunyoning orzu havaslari shaytonning ishidir, deb hisoblangani bois, «saylanganlar» tarki dunyo qilib o‘tgan. Dindorlar ichida qandaydir ierarxik bo‘linish mavjud edi, biroq din miqyosida jamoalarning tabaqalanishi bo‘lgan emas.

### **Qadimgi turk–moniy yozma manbalari**

Turkiy xalqlarning falsafiy qarashlari tarixida moniylik muhitida yaratilgan yozma obidalar alohida o‘rin tutadi.

Monyi dini xoh buddaviylik bilan yonma-yon bo‘lsin, xoh islom davrida bo‘lsin – o‘zga dinlar tomonidan doimiy ta’qibga uchrab kelgan. Tabiiyki, bunday sharoitda moniy yodgorliklarini hech kimsa

<sup>64</sup> Abu Payhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, –T., 1968. –B. 243.

<sup>65</sup> William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel. The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.P. 46.

atayin saqlagan emas. Shu bois bizgacha moniy yodgorliklarining ko'pi parokanda va uzindilar holida yetib kelgan.

Bizgacha turk-moniy muhitida yaratilgan she'rlar, tavbanoma, moniy aqoidlarining parchalari (yo'riqnomalar), ta'birnomalar, grammatik asar uzindilari, shuningdek, epigrafik matnlardan yetib kelgan. Turk-moniy jamoatlarida ko'k turk (O'rxun-Yenisey), uyg'ur va moniy yozuvlari amal qilgan. Mavjud turk-moniy yodgorliklari ham mana shu yozuvlardadir. Moniylik falsafasini o'rganishda qadimgi turk-moniy muhitida yaratilgan she'r lar muhim o'rinni tutadi.

Moniylit davri turk adabiyotida *bašik*, *küg*, *taqşut*, *küg taqşut* kabi she'r turlari mavjud bo'lib, bizgacha ulardan ayrimlari yetib kelgan. She'r larning mazmuni har xil. Muhimi, ularning aksariyati falsafiy mazmunda. Ular ichida Tong tangriga atalgan alqovlar, Moniga bag'ishlovlari, o'lim va jahannamni tavsif etuvchi, hatto muhabbat mavzuidagi she'r lar bor. ularning ko'pi turk ijodkorlari tomonidan yaratilgan, ayrimlari boshqa tillardan qadimgi turkiy tilga tarjima qilingan.

Moniy muhitida yashab ijod etgan ayrim turk shoirlarining otlari ham ma'lum. O'z davrining taniqli shoirlaridan biri Aprincho'tigindir.

Qadimgi turk-moniy adabiy muhitida yaratilgan she'r iy asarlar hozirgi kezda Berlin fondidagi Turfon xarobalaridan topib keltirilgan matnlar orasida saqlanmoqda (TIID169; T.M.419; T.II.D.178; T.III.D.260-raqamlı yozmalar turk-moniy muhitida yaratilgan). Mazkur she'r larni A.f. Lekok, V. Bang, R.R. Arat transkripsiyasi, tarjimasi va izohlari bilan nashr ettilganlar. Yodgorliklar orasida TIID169-raqamlı just varaqqa bitilgan matn e'tiborga loyiq. Unda uchta turkiy she'r bor (qog'ozga sug'dcha-moniy matn ham bitilgan). Turkiy she'r larning uchovi uyg'ur xatida bo'lib, ular gimn(alqov) lardir. Alqovlar qadimgi turkiyda *bašik* deyilgan. She'r larning birinchisiga sug'dchada *Vam vağrı-nung baş* (Tong tangri alqovi), ikkinchisiga *Bağ ro:şan za:var ji:ri-ft-nung başta* (Yorqin, kuchli, dono tangrining alqovi), uchinchisiga esa boshqa bir turkcha alqovga *Adınçığ türkçä başık* deb sarlavhalar qo'yilgan. She'r larning birinchisi Tong tangri alqovidir.<sup>66</sup>

<sup>66</sup> Arat R. R. Eski Turk Siiri. Ankara, 1991. -B.10-13.

## Mana o'sha alqov:

<i>1. tang tāngri kelti</i>	<i>1. Tong tangri keldi,</i>
<i>tang tāngri özi kelti</i>	<i>Tong tangri o'zi keldi.</i>
<i>tang tāngri kelti</i>	<i>Tong tangri keldi,</i>
<i>tang tāngri özi kelti</i>	<i>Tong tangri o'zi keldi.</i>
<i>5.turunqlar qamağ</i>	<i>5.Turinglar hamma</i>
<i>beglär qadaşlar</i>	<i>beklar, birodalar</i>
<i>tang tāngrig ögälim</i>	<i>Tong tangrini madh etaylik.</i>
<i>körügmä kün tāngri</i>	<i>Ko'ringan Kun tangri,</i>
<i>siz bizni kuzäding</i>	<i>siz bizni kuzating.</i>
<i>körinügmä ay tāngri</i>	<i>Ko'ringan Oy tangri,</i>
<i>10. siz bizni qurtğarıng</i>	<i>10. Siz bizni qutqaring.</i>
<i>tang tāngri</i>	<i>Tong tangri,</i>
<i>yıldığ yiparlığ</i>	<i>hidli, iforli,</i>
<i>yaruqluğ yaşuqluğ</i>	<i>nurli-ravshan.</i>
<i>tang tāngri 5</i>	<i>Tong tangri! 5</i>
<i>15. tang tāngri 5</i>	<i>15. Tong tangri! 5</i>
<i>tang tāngri</i>	<i>Tong tangri,</i>
<i>yıldığ yiparlığ</i>	<i>hidli, iforli,</i>
<i>yaruqluğ yaşuqluğ</i>	<i>nurli-ravshan.</i>
<i>tang tāngri</i>	<i>Tong tangri!</i>
	<i>20. Tong tangri!</i>

Keltirilgan she'r ning mazmuni va tuzilishidan uning moniy jamoalarida nig'o'shaklarning ommaviy o'qishiga mo'ljal-langani anglashiladi. Bo'g'in tuzilishi, misralar takrori, xitob va murojaatlarda buni yaqqol kuzatish mumkin. Uning dastlabki ikki misrasi takrorlanib, alohida to'rtlikni tashkil etadi. 5-6- misralar avvalgi va o'zidan keyingi to'rtlikka bog'lanmagan. U jamoaga xitobdir. Ikkinchisi to'rtlikni shakkantirgan 7-10-satrlar esa Kun va Oy tangriga iltijodir. She'r ning 11-13- va uning aynan takrori bo'lmish 16-18-misralari ham alohida bandlarni tashkil qiladi. Bu bandlar Tong tangrining madhi sanaladi. Asar qo'lyozmasida 14-15-misralar qarshisiga sug'dcha «5» raqami qo'yib ketilgan. Bu esa ushbu misralarning besh bor takrorlanuviga ishoradir.

Misralardagi bo'g' inlarning goh ortib, goh kamaya borishi, misralar takrori o'zaro uyg'unlashib ritm(ohang)ni ta'minlagan. Alqovning tuzilishiga qaraganda, dastlabki ikki to'rtlik va keyingi

uchliklar bir kishi tomonidan aytilgan, undagi jamoaga xitob (*turunglar qamağ beglär qadaşlar, tang tāngrig ḍgālim*) hamda Tong tangrisiga murojaat (*tang tāngri, tang tāngri*) ommaviy (naqorat holida) o'qilgan ko'rindi.

Ikkinci she'r yorug', kuchli, dono tangriga bag'ishlangan alqovdir.<sup>67</sup> Mazkur gimm, harqalay, eroniy tildan turkiyga erkin shaklda o'girilgan ko'rindi. Bu she'r shunday:

Turkiy tilda	Mazmuni
<p><i>tāngri yaruq küçlüg bilgäkä yalvarar-biz ötümür-biz kün ay tāngrikä yaşin tāngri nom qutï mar mani firiştilarqa qut qolur-biz tāngrimä etütümüzni kitzäding özütümüzni boşung qiv qolur-biz yaruq tāngrilärkä adastzin turalim ögrünçligin erälim</i></p>	<p>Yorug', kuchli, dono tangriga yolboramiz O'tinurmiz Kun va Oy tangriga, Yashin tangri, no'm saodati, Ustod Moniy va farishtalarga. Saodat niyoz etamiz, ey tangrim! Vujudimizni saqlang, ruhimizni bo'sh, ozod eting! Saodat niyoz etamiz nurli tangrilarga, tahlikalardan uzoq turaylik, doim sevinchda bo'laylik.</p>

Turfon matnlari orasida T.M.419-sonli bitig ham e'tiborga sazovor. Mazkur qog'oz parchasining ikki betiga uyg'ur xati bilan ikkita she'r bitilgan. Muhim xususiyatlaridan biri, she'r larda muallifning ismi qayd etilgan. Uning oti Aprincho'r tigindir. Chunonchi, birinchi she'r ning boshiga: "... *Aprinčor [tigin kügi t]aqşutları...* (*Aprincho'r tigin she'r lari*), yakuniga esa *[t]ükädi [A]prinčor tigin kügi (taqşutları)* (*Tugadi Aprincho'r tigin she'r lari*) deb yozib qo'yilgan. Ikkinci she'r ning boshlanish qismi chirib, o'qib bo'lmas holga kelgan. Yakuni esa shunday tugaydi: *[tükä]d[i Aprin]čor tigin ...*

Aprincho'r tiginning birinchi she'r i to'rtliklar shaklida bo'lib, uch banddan iborat. U diniy madhiyadir.<sup>68</sup>

Shoirning ikkinchi she'r i dunyoviy muhabbat mavzuida.<sup>69</sup> Matn shunday:

<sup>67</sup> Arat R. R. Eski Turk Siiri. Ankara, 1991. --B. 10-13.

<sup>68</sup> Arat R. R. Eski Turk Siiri. Ankara, 1991. --B. 14-17.

<sup>69</sup> O'sha joyda. --B. 18-21.

Turkiy tilda	Mazmuni
<i>adruq öz- ...</i>	Tanlangan o'z...
<i>... yüzlügüm...</i>	... yuzligim ...
<i>adınıňg amراك ...</i>	Qiyosi yo'q suyukli ...
<i>amراك özkiäm ...</i>	Suyukli jonim ...
<i>qasincığımın ö[yü] qadğurarmen</i>	Azoblarimni o'ylab, xasrat chek-yapman,
<i>qadğurduq[ča] qaši köriläm</i>	Qayg'urganimda, qoshi go'zalim, qovushmoq istayman.
<i>qavışığsayur-men</i>	Sevgilimni o'layapman, o'ylab (dunyodan) yuz o'giraman, o'lay-o'lay ... sevgilimni o'pmoq istayman.
<i>öz amraqımlı öyür-men öyü evirür-menödü ... čün öz</i>	Boray desam, go'zal sevgilim, Bora olmayman, mehribonim.
<i>amراك[ımın] öpügsäyür-men</i>	Kiray desam, kichikkinam,
<i>barayıñ tisär bač amraqım</i>	Kira olmayman, ifor hidligim.
<i>baru yimä umaz-men bağırsaqlıñ kiräyin tiser kiçigkiäm</i>	Nurlı tangrilar yorlaqasin,
<i>kirü yimä umaz-men kin yipar yıldıgiım</i>	Yumshoq fe'llligim birla qovushib, hech ayrılmaylik.
<i>yaruq tengrilär yarlıqazun yavaşım birlä yaktışıpın adrılımalım</i>	Qudratli malaklar quvvat bersin,
<i>küclüg priştilar küš birzün közi qaram birlä külüşüğün oluralm</i>	Qora ko'zligim birla kulishib o'tiraylik.

Turfondan topilgan manbalar ichida T.III.D.260-raqamli yodgorlik ham e'tiborni o'ziga tortadi. Matn potxi kitobidadir. Kitob 25 varaqli bo'lib, matni har varag'ining ikki yuzida. Asarning ilk betiga miniatyura ishlangan. Sahifalar moniy va uyg'ur harflari bilan o'ng ko'ndalangga qayd etilgan. Matn esa nafis moniy xatida har sahifada 5 qatordan qilib yozilgan. She'r 123 to'rtlikdan iborat. Asar to'la saqlanmagan: yakuni va oralaridaga ayrim bo'laklari tushib qolgan. Mazkur she'r Moniya bag'ishlovdır.<sup>70</sup>

Muhim jihat shundaki, qadimgi she'r iy matnlarning ayrimlari yozuvda misralarga ajratib emas, nasriy matn kabi yozilgan. Buni qadimgi turk muhitida ko'chirilgan boshqa matnlarda ham kuzatamiz. Jumladan, «O'g'uznomalar»da asar davomida uchraydigan she'r iy

<sup>70</sup> O'sha joyda. -B. 30-59.

parchalar matnda misra va bandlarga ajratmay yozilgan. Toshga bitilgan O'rxun va Yenisey matnlarini kuzatganda ham shunday holatga duch kelamiz. Mazkur bitiglar ustida tadqiqot olib borgan ba'zi mutaxassislar ularni she'riy asar, ba'zilar esa nasr namunasi deb hisoblashlarining boisi ko'proq matnning shu xususiyati bilan bog'liq.

«Xuastuanift» moniylik dinining falsafiy va o'ta qimmatli asaridir. Ilk o'rta asrlarda asar o'rtancha eroni, sug'diy, turkiy, xitoycha versiyalari keng tarqalgan edi. Tavbanomaning turkiy versiyasi turk moniy falsafasining muhim yodgorligi, shuning bilan birga, qadimgi turkiy til va moniylik davri turk adabiyotining qimmatli obidasidir.<sup>71</sup> «Xuastuanift»ning turkiy qo'lyozmalar eng noyob topilmalardan bo'lib, kutilmagan mo'jizalar tufayli saqlanib qolgan. Mavjud qo'lyozmalar asar mazmuni, matn tuzilishi, badiiy xususiyatlari va, eng muhimi, moniylik falsafasi xususida fikr yuritishga imkon beradi.

Asar yakunida uning oti qayd etilgan: *n(i)gošaklarning suyin yazuqin öküngü huastuan(i)ft*. Ushbu jamladagi *n(i)gošak* - sug'd-chadan qadimgi turkiyga o'zlashgan atama bo'lib, «tinglovchi» ma'nosini anglatadi, u moniy diniy jamoasida nisbatan quyi darajani bildirgan; *suy yazuq* - just so'z, «gunohlar, yozuqlar» degan ma'noni bildiradi; öküngü esa hozirgi «o'kinuv, tavba qiluv» so'ziga teng. Shulardan kelib chiqib, asar tugallanmasidagi qayddan «nig'o'shaklar ning yozuqlarini o'kinuvchi Xuastuanift» degan ma'no kelib chiqadi.

«Xuastuanift»ning uyg'ur va moniy yozuvli turkiy qo'lyozmalar ma'lum. Ular Sankt-Peterburg, London va Berlin qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda.

1. «Xuastuanift»ning Sankt-Peterburgda saqlanayotgan nusxasi. Ushbu qo'lyozma Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida saqlanmoqda. Asar uyg'ur xati bilan o'ram qog'ozga bitilgan. Matnning bosh qismi chirib, titilib ketgan. Saqlanib qolgani 160 satrdan iborat.

Ushbu qo'lyozma nihoyatda nafis bir xat bilan yozuvning klassik kitobiy uslubida bitilgan. Odatta, yozuvning bu turidan muqaddas diniy asarlarni bitishda foydalanilgan. Qo'lyozmani grafik shakilari,

<sup>71</sup> Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. - М.-Л., 1951; Дмитриев Ю.Н. О формах покрытия в Новгородском зодчестве XIV-XVI. - М., 1963; Asmussen J. Xuastuanift. Studies in Manichaeism // Acta Theologica Danica. - Copenhagen, 1965.

xat uslubiga ko'ra uyg'ur yozuvli yodgorliklarning eng eskisi deyish mumkin.

Qo'lyozmani 1908-yili A.A. Dyakov Turfon yaqinidagi Ost-nadan topgan.

2. Asarning Britaniya Muzeyida saqlanayotgan nusxasi. Ushbu qo'lyozma moniy xatida. Uni A. Steyn 1907-yili Dunxuandan topgan. Mazkur matnning ham boshlanishi yo'q. Saqlangani 338 satrdan iborat.

3. Berlinda saqlanayotgan nusxalar. Mazkur nusxalar asar matnidan saqlangan uzindilar bo'lib, ular moniy hamda uyg'ur yozuvlarida. Chunonchi, Berlin fondida saqlanayotgan T.II.D.178; TM303(M153); TM183; M172; M443-raqamli fragmentlar moniy alifbosida, TIIY60; TM343 raqamli uzindilar esa uyg'ur yozuvidadir.

Berlin fragmentlarini 1907-yili A. Gruyunvedel Turfondan topgan.

Asarning ko'p nusxada, ayniqsa, ularning ikki xil yozuvda tarqalganligi juda muhim. Odatda, turk-moniy jamoalarida (chamasi, tor doirada) diniy asarlar ko'proq moniy xatida bitilar edi. «Xuastuanift»ning moniy xatidagina emas, uyg'ur xatida ham bitilganligi o'z davrida asarga e'tibor kuchli bo'lganidan, uning turk moniy jamoalarida keng yoyilganidan dalolat beradi. Asarning ilk nusxalari, aftidan, moniy xatida bitilgan. Keyinchalik ular bilan yonma-yon uyg'ur harfli nusxalar ham paydo bo'la boshlagan chiqar.

Olimlarning fikricha, «Xuastuanift» boshlab qadimgi eroniylarning birida yaratilgan. Keyinchalik, moniy ta'limotini keng yoyish maqsadida, boshqa tillarga ham o'girilgan. Uning turkiy versiyasi ham ayni diniy, tarixiy-madaniy va adabiy jarayonlar ta'sirida yuzaga kelgan. Lekin uning turkiy tilga tarjima qilingan vaqtinoma'lum. Harqalay, asar turk dunyosida moniylik keng yoyilgan va ijtimoiy-siyosiy hayotda uning mavqeい yuqori bo'lgan davrlarda (taxminan, VIII asrda) turkiy tilga tarjima qilingan ko'rindi. Asar tilining ko'k turk (O'rxun-Yenisey) yodgorliklari tiliga juda yaqinligi, uyg'ur yozuvli nusxaning xat uslubi, shuningdek, tavbanomaning moniy yozuvidagi nusxalari keng tarqalganligi ham ana shundan guvohlik bermoqda.

«Xuastuanift»ning tuzilishi o'ziga xos. U moniy tavbanomalari uslub va tuzilishiga ko'ra puxta ishlanganidan dalolat beradi. Asar o'n besh bo'limdan iborat. Bo'limlar matnda bögüd deyilgan. Bunday

atalishini T.ILD.178-raqamli qo'lyozmadagi ushbu jumladan bilish mumkin: *biš y(i)gʃ(i)rminč b]ölüğ hvastvanift* - «Xuastuanift»ning o'n beshinchi bo'limi». Har qaysi bo'lim o'zining tartib ko'rsatkichi bilan boshlanadi: *ikinti, üçünč, törtünč, bişinč, altınč* va b. Uyg'ur yozuvli matnda jumlalar qo'sh nuqta ( .. ), bo'limlar esa ikki juft nuqta ( .. ) bilan ajratilgan.

Bo'limlar: *T(ə)ngrim amti yazuqda boşunu ötünür-biz* (Tangrim, endi gunohdan xalos etgin deya o'tinurmiz) yoki *T(ə)ngrim amti ökünür-biz, yazuqda boşunu ötünür-biz* (Tangrim, endi o'kinurmiz, gunohdan xalos etgin deya o'tinurmiz) jumlalari bilan oxirlaydi. Shundan so'ng m(a)nastar hirza ~m(a)nastar qirza [moniy yozuvli nusxalarda: *m(a)nastar hirza ~m(a)nastar hirz*] duosi keladi. Ushbu duo formulasi o'rtancha eroniy tillardan o'z-lashgan bo'lib, tangriga qarata aytilgan «Gunohimizni kechir!» [*mna:sta:r hi:rz-a*] degan iltijoni anglatadi. Ushbu duoni tarjima qilmay, asliday qo'llash moniychi turklarda rusum bo'lган.

«Xuastuanift» mavjud nusxalarining hech biri to'liq bo'lmasada, muayyan nusxa asarning boshqa bir qo'lyozmasida tushib qolgan bo'lagini to'ldiradi.

Asarning mavjud nusxalari til xususiyatlariga ko'ra bir-biridan uqadar farq qilmaydi. Bu esa mavjud nusxalar deyarli bir zamonda, yagona adabiy muhitda yaratilgani, shuning bilan birga, moniy tavbanomalarida klassik til an'anasisiga amal qilinganidan dalolat beradi. Shunga qaramay, asar nusxalari orasida matniy farqlar sezilarli darajada.

Turkiy tavbanomaning ilk nusxalari avvaliga faqat moniy xatida bitilib, tor doira uchun xizmat qilgan. Davr o'tgani sayin butun turkmoniy elida uning shuhrati ortib, asar qulyozmalariga talab kuchaygan va moniy nusxalari bilan yonma-yon uyg'ur harfli nusxalari ham yuzaga kela boshlagan. Yodgorlikning bizgacha saqlangan moniy va uyg'ur yozuvli nusxalari bir-biridan uncha uzoq bo'limgan davrlarda, umumiyladabiy til ta'sirida, turklar orasida moniylik gurkiragan paytlarda ko'chirilgan deyish mumkin. Keyingi yuz yilliklarda buddiylik va islom quvg'inidan yiroq o'lkalarda ham ushbu asar ma'lum va mashhur edi. Lekin asar, qaychog'da va qay o'lkada ko'chirilmasin, o'zining klassik qiyofasini o'zgartirmay keldi.

Asar turk-moniy jamoalarida yaxlit holdagina emas, ba'zan bo'limlari ayri-ayri shaklda ham tarqalgan ko'rindi. Topinuvchilar

asardan o'zları uchun zarur bo'limlarni ajratib olib, undan foydalanganlar. Shu zaylda asarning tayanch nusxasidan farq qiluvchi yangi variantlari ham yuzaga kela boshlagan.

Mavjud qo'lyozmalarning ko'proq uzindi holda ekanligi ham bejiz emas. Sababi, asar turk-moniy muhitida to'liq shaklda ham, bo'limlari ayri-ayri holda ham yoyilgan edi. Chamasi, uning ilk varianti jamoatning o'qishiga moslab tuzilgan. Keyinchalik, ayrim dindorlar o'z ibodati uchun ham matndan olib nusxalar tuzganlar; asarning kerakli bo'limlarini ko'chirib olib, undan foydalanganlar. Sharq matnnavisligida bunday hodisani buddiylikning no'm bitiglarida, islam muhitida yaratilgan «Haftiyak»da ham kuzatish mumkin.

Matn tuzilishi, nusxalarni ko'chirish jarayonida tanlangan tamoyillar moniylik davri turk matnshunosligi, matn tuzish an'anasi katta tajribaga ega ekanini ko'rsatadi. Asarning mavjud nusxalari orasidagi matniy farqlarga ko'ra xulosa qilinadigan bo'lsa, yodgorlikning turkiy nusxasi dastlab bir kishi tomonidan ijod etilgan, keyinchalik, nusxalari ko'payib, bir-biridan farq qiluvchi variantlari yuzaga kela boshlagan. Asar uzoq davr taraqqiy etib takomilga erishgan klassik yozma adabiy tilida, uning kitobiy uslubida yaratilgan. Diniy asarlarda bu kitobiy ko'tarinki uslub qat'iy lashib normaga aylangan. Keyinchalik, asar nusxalari qay zamonda ko'chirilishidan qat'iy nazar, tarixiy normaga amal qilinavergan.

«Xuastuanift» moniy ibodatxonalarida jamoat bo'lib ham, yakka holda ham qiroat bilan o'qilgan. Matn tuzilishi, uslubida muayyan ritm(ohang)ning ta'siri kuchli. Tavbanomani qiroat bilan o'qishgina emas, undan nusxa ko'chirib, elni moniy e'tiqodiga dav'at etish ham savobli sanalgan. Qolaversa, moniy madaniyatida xat bitish san'atiga alohida e'tibor berilgan, xat namunalarining har biri san'at darajasiga ko'tarilgan. Asar nusxalari savodxonlik bilan, nafis xat uslubida bitilganligining boisi ham shunda.

«Irq bitigi» ko'k turk xatidagi yaxlit kitob holida saqlangan yagona asardir<sup>72</sup>. Qadimgi turkiyda Irq - «fol», irq bitig - «fol kitobi» degan ma'noni anglatadi. Asar qo'lyozmasi hozir Angliyada Britaniya

<sup>72</sup> Майков С. Е. Памятники древнетуркской письменности. Тексты и исследование. - М.-Л., 1951. С. -80-92.  
Айдаров С.С. Монументальные каменные сооружения и комплексы Волжской Булгарии и Казанского ханства. Автореферат. М.1990. С. - 146-149.

kutubxonasiidagi S.A. Steyn kolleksiyasida (British Library, Or. 8212/161) saqlanmoqda.

Asar yakunida uning nomi qayd etilgan: *Amti amraq oğlanım, anča bilinglär, bu īrq bitig edgü-ol* (Endi suyukli o'g'illarim, bilib qo'ying, bu «Irq bitigi» dir). Shundan so'ng matnning yozilgan ta'rixi, uning kimlarga atalgani bitilgan: *Bars yıl ekinti ay biš yigirmikä täygüntän manıştaqı kičig dintar buruğuru eśidśicimiz Isig Sängtin İtäčük üçün bitidim* (Bars yili ikkinchi oyining o'n beshida Tayguntan Manistandagi kichig dindor Burug'uru shogirdlari Isig Sangun va Itachuk uchun bitdim).

Asar tush ta'birlariga bag'ishlangan bo'lib, 65 bo'simdan tuzilgan. Har qaysi bo'lim muayyan masala xususida. Yaxshilikka yo'yiluvchi ta'birlar *anča bilinglär, edgü-ol /anča biling, edgü-ol /anča bil, edgü-ol /edgü-ol; yomonlikka yo'yiladiganlari esa anča bilinglär, yablaq-ol /anča bilinglär, yabız-ol* jumlalari bilan yakunlanaadi. Jumlalar nihoyatda aniq va lo'nda; uzoq takomillashib qiyomiga yetgan ravon bir uslubda yozilgan. Misollarga e'tibor bering:

*Bir tobilqu yiž bolti, yüz tobilqu ming bolti, ming tobilqu tūmān bolti, ter. Anča bilinglär: aşıgi þar, edgü-ol* (Bir to'bilqu yuz bo'ldi, yuz to'bilqu ming bo'ldi, ming to'bilqu o'n ming bo'ldi, - der. Shunday bilinglar: buning foydasi bor, (alomati yaxshidir).

*Qan sükä barmiš, yağıg sančmiš, köcirü, qonturu kelir. Özi, süsi ögirä sebinü ordusüngaru kelir, ter. Anča bilinglär - edgü-ol* (Xon jangga bordi, yovni yengdi. Ko'chirib, qo'ndirib qaytmoqda. O'zi va lashkari sevinib o'rdasi tomon kelmoqda. Bilib qo'ying - bu yaxshi).

*Adığlı tonguzlı art üzä soqumüš ermiş. Adığing qarni yarılımıš, tonguzung aşıgi sînmîš, ter. Anča biling-yablaq-ol* (Ayiq va to'ng'iz qoya ustida to'qnashdilar. Ayiqning qorni yorildi, to'ng'izning oziq tishi sindi, - der. Buni biling - yomondir).

*Eki öküzung bir boqarsiqa kelmiš. Qamsayu umatın turur, ter. Anča biling - yablaq-ol* (Ikki ho'kizni bir omochga qo'shdilar. Ularning yurishga majoli yo'q, - der. Shunday biling - buning alomati yomon).

Tush ta'birlari turli hayvon va qushlarning obrazlari, har xil voqealar bilan bog'liq holda bayon etiladi. Bular yaxshilik va yomonlikning tushda belgi berishidir. Muhimi shundaki, asarda aks etgan yaxshilik va yoyomonlik timsoli turklarning eng qadim tasavvurlariga borib tutashadi. Jumladan, tushda shijoatli burgut, jasur

lochinni ko'rish yaxshilik alomati. Jasur yo'lbarsning esnab dam olishi ham yaxshilik.

Saman, bo'z ot mingan xabarchining xushxabar keltirishi yaxshilik.

Biyaning qulunlashi, oq ingan(tuya)ning bo'talashi, xotinning o'g'il tug'ishi yigit uchun yaxshilik belgisi. Umri oxirlab borayotgan o'sal kampir cho'michni yalab tetik tortsa ham yaxshilik bo'ladi: u o'lmaydi.

Ayiq bilan to'ng'izning dovonda to'qnashuvi, buning oqibatida ayiqning jarohat yeishi, to'ng'iz oziq tishining sinishi yomonlikdan dalolat.

Oltin boshli ilonni qilich bilan chopib, tanasini yo'l yoqasiga, boshini uyasining ostonasiga qo'yilishi yomonlik olomati.

Quzg'unni daraxtga qattiq bog'lash ham yomonlikdir.

Yigit ovga chiqib, tog'da qulasa, bu dahshat.

Tushda katta uyning butunlay yonib bitishi ham yomonlik alomati va boshqalar.

Asar nihoyasidagi uning moniy jamoasidagi ikki shogird *Isig Sangun*, *Itachuk* uchun yozilganligi qayd etilgani hamda asarda qo'llangan ayrim atamalarga (masalan, «ayol» ma'nosida *uzuntonluq* so'zining qo'llangani) asoslanib, bitig moniy muhitida yaratilganligini e'tirof etish mumkin. Asardagi obrazlar tizimida, syujet yoki voqealar bayonida aynan moniylik tasavvurlari bilan bog'lanuvchi detallar kuzatilmaydi. Ayniqsa, hayvon ramzlari bilan bog'liq mifologik tasavvurlar asar ildizlarini ko'k tangri dini, shamanlik e'tiqodi bilan bog'laydi. Shunday qilib, asarda aks etgan tasavvurlar ildizi ancha chuqr.

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lim uchun vazifalar**

1. Moniy va uning merosini sharhlang.
2. Moniychilar tavbanomasi «Xuastuanif»ning tavsifini izohlang.
3. Turk -moniy ta'limotining tavsifini izohlang.
4. Moniylik ta'limoti bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
5. "Mazdakiylik va Moniylik" mavzusida falsafiy esse yozing.
6. Moniylik ta'limotiga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.

7. Moniylik ta'limotining o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.
8. Mavzu yuzasidan B/B/B jadvalini to'ldiring (1-ilova).
9. Insert usulidan foydalanib, quyidagi jadvalni to'ldiring (2-ilova).

**1-ilova**

"Bilaman, bilmoqchiman, bildim" jadvalini to'ldirish.

Bilaman	Bilmoqchiman	Bildim

### **Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi**

1. Ma'ruba matnnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

Q – men uchun yangi ma'lumot

- – men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

2. Olingan natijalarни jadval shaklida rasmiylashtiring.

**2-ilova**

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

### **O'quv topshiria:**

"Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo'linib ishlash" orqali o'qituvchi talabalarni to'rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

## 1 – guruh topshirig‘i

- 1-bosqich Moniy va uning merosini gapirib berish. 5 daqiqa.
- 2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.
- 3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.
- 4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.
- 5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlар	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va-rog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faoliigi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

## 2 – guruh topshirig‘i

- 1-bosqich. Moniychilar tavbanomasi «Xuastuanift»ning tavsifini gapirib berish. 5 daqiqa.
- 2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.
- 3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.
- 4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.
- 5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlар	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va-rog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faoliigi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

### 3 – guruh topshirig‘i

1-bosqich. Turk-moniy ta’limotining tavsifini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

### 4 – guruli topshirig‘i

1-bosqich. Mazdak va uning ta’limotini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

## **Guruh bo'yicha baholash mezonlari**

**Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.**

**Har bir talab bo'yicha – 2 ball**

<b>Guruh №</b>	<b>Tushunarli va aniq javob (0,5)</b>	<b>Ko'rgazma-lilik (0,5)</b>	<b>Reglamentga amal qilish (0,5)</b>	<b>Guruh faolligi (0,5)</b>	<b>Jami ball</b>
1.					
2.					
3.					
4.					

## **Hisob natijasi**

<b>Guruhiar №</b>	<b>Umumiy ball</b>				
1.					
2.					
3.					
4.					
<b>Umumiy hisob ballari</b>					
<b>Baho</b>					

## **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI, 2015.

## **14-mavzu. QADIMGI TURKIY BITIKLAR FALSAFASI**

### **Reja**

1. Ko'k turk falsafasi.
2. Ko'k turk tasavvur va tushunchalari.
3. Ko'k turk madaniyati, san'ati va adabiyoti. Ularning falsafiy asoslari.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari**

*Skiflar, turkiylar, Ko'k turk falsafiy g'oyalari, Birinchi va ikkinchi turk hoqonligi, Ko'k tangri, bo'ri, To'nyuquq, Bilga Hoqon bitigi, Irq bitigi, tabg'achlar, O'g'uzxon va o'g'uzlar, O'rxun-Enasoy bitiklari.*

Turkiy xalqlarning eng qadimgi ajdodlari iskif (saq-sak)lar edi. Keyinchalik ular «xunlar» deb ataldi. V-VI asrlardan boshlab ular “turk” nomini oldi. Birinchi va Ikkinci turk xoqonliqlari davrida (VI-VIII asrlar) o'tgan turklarni hozirgi tarix kitoblarida «ko'k turklar», ularning ijtimoiy-siyosiy davlat uyushmalarini esa «ko'k turk xoqonliqlari» deb yuritilmoqda. Bu nomning kelib chiqishiga eski bitiglarda o'sha davr turklarining «ko'k turk» (*kök türk*) atalgani asos bo'ldi. Tarixan kök so'zining «osmon», «rang», «ildiz, asl» ma'nolari bo'lgan. Bitiglarda kechgan *kök türk* nomi «asl turk» ma'nosidadir. Turkiy xalqlar falsafiy qarashlari tarixida ko'k turk davri alohida o'rinnutadi. Turkarning ijtimoiy-siyosiy uyushmalari – Birinchi va Ikkinci turk xoqonliqlari ko'k turklarning davlati edi.

Iskiflar dunyoqarashi, tasavvurlari bilan ko'k turk falsafasi o'rtasiga chegara qo'yib bo'lmaydi. Biroq, u o'zigacha bo'lgan diniy, falsafiy qarashlarni eski ko'rinishda takrorlamaydi ham. Ko'k turk falsafasi o'zigacha o'tgan ajdodlar falsafasining takomil bosqichiga erishgan ko'rinishidir. Din, koinot va dunyoga munosabat, uni bilish, inson, jamiyat va tabiatni baholash masalasida ko'k turklar katta

yutuqlarga erishdi. Jamiyat qurilishi, davlat siyosiy boshqaruvining progressiv tamoyillari ishlab chiqildi va unga qat'iy amal qilindi.

Ko'k turklarning eng katta yutuqlaridan biri ular insoniyat tarixida birinchilaridan bo'lib davlat, jamiyat qurilishining progressiv asoslarini ishlab chiqdilar.

Ko'k turklar zamonidan uch asr o'tib, turk dunyosida ulug' falsafiy asar, davlat va jamiyat nizomi yuzaga keldi. Bu asar ulug' mutafakkir Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostonidir. Muhimi, ko'k turklar davrida asos solingan davlat qurilishi va jamiyat boshqaruvining demokratik tamoyillarini ana shu asarda uchratamiz. Yusuf Xos Hojib mazkur asarida davlat boshqaruvi, jamiyat munosabatlarining insoniylik tamoyillarini tugal bir ko'rinishda ishlab chiqdi, axloq qoidalarini, halollik, kishilikning komillik mezonlarini belgilab berdi. Tabiiyki, bunda u o'zigacha o'tgan donishmandlarning falsafiy qarashlariga, qadimgi turk ilg'or afkor ommasi doimiy yoqlab kelgan va shunga intilib yashagan, davlat va jamiyat tizimida ideal sanalgan axloq-odob, insoniylik fazilatlariga tayandi, ularni takomillashtirib, mukammal bir qolipga solib berdi.

Ko'k turk falsafasi ibtidoi, mifologik tasavvurlar yig'indisidangina iborat emas. U qadimgi turklarning dunyoni anglash, tabiat va jamiyatga munosabat masalasida takomilga ko'tarilgan falsafiy qarashlar majmuidir.

Ko'k turk falsafasida hayotdag'i, olamdag'i narsalar, voqeahodisalarga o'ziday, aniq va to'g'ri ko'z bilan qarash ustun turadi. Olamga munosabat, uni anglash bobida ko'k turklar boshqa Sharq xalqlari qatorida ildamlab bordi. Ko'k turklarning diniy qarashlari ham davlat va jamiyat taraqqiyoti, ilmiy-falsafiy tafakkur rivojiga keng yo'l ochib berdi.

Turklarning eng eski e'tiqodi ko'k tangri dini edi. Bu dinni ko'k turklarning o'zi yaratgan emas, u turklarga uzoq ajdodlari - iskiflardan meros qolgan. Qadimgi turkiy tilda *tāngri* so'zi ikki ma'noda ishlataligan: 1) "ulug' tangri, xudo"; 2) "ko'k, osmon". *Kök tāngri*



Turk hoqonligi xaritasi

deganda «osmon tangrisi, ulug' tangri» tushuniladi. Ko'k turklar ana shu ko'k tangri diniga e'tiqod qilganlar.

Ayrim tarixchilar qadimgi turklarda shamanizm amal qilgan deb hisoblaydilar va ko'k tangri dini bilan shamanlikni qorishtirib yuboradilar. Aslida shamanizm ayri hodisa. Shaman tabiat kuchlari bilan aloqa qila oladigan kimsadir. U oddiy kishilar ko'ra olmaydigan, aqli yetmaydigan narsalar haqida xabar berar, afsun yo'li bilan kasallarni davolar va ruhlar dunyosi bilan "bog'langan".

Ko'k tangri dini bilan shamanlik bir emas. Bu din hamma narsadan ulug' bo'lgan ko'k (ya'ni osmon) tangrisiga ishonch-e'tiqodga da'vat etgan.

Ko'k tangri dinining muqaddas kitobi yoki uning g'oyaviy-falsafiy qarashlarini bayon etuvchi biron bir yozma manba hozircha ma'lum emas. Shunday bo'lsa-da, qadimdan qolgan ko'k turk bitiglarida, xalq og'zaki ijodi namunalarida, ba'zi tarix kitoblarida mazkur diniy e'tiqodga oid qarashlar aks etgan, san'at va madaniyat yodgorliklarida uning izlari saqlanib qolgan. Ko'k turk bitiglarida Kök tängri (Osmon tangrisi) atamasini tez-tez uchratamiz. Turkiy xalqlarning eng-eski eposi bo'lmish «O'g'uznomá» dostonida O'g'uzxoqon ko'k tangriga ibodat qiladi. Bitiglarda ko'k tangrining sifati ham berilgan. Eski bitiglarda tangrining sifati «ko'kday ulug'» (*tängri-teg tängri*) deya atalgan. Bu sifat tangrining ko'k qadar ulug'verligiga ishora etadi. Shuningdek, bitiglarda ko'k tangri «yuksaltirgan» (*kötürmiş tängri*), «qo'lllovchi, qo'l beruvchi» (*el berigmä tängri*) kabi sifatlar bilan ham ulug'langan. Ko'k tangri e'tiqodiga ko'ra, tangri yagonadir. Ulug' tangri osmonning to'qqizinchı qavatida o'tiradi va yeru ko'kka egalik qiladi.


Mahmud Qoshg'ariy o'zining «Devonu lug'atit turk» asarida turklarning bu qarashlari xususida yaxshi ma'lumot keltirgan edi. U *tängri* so'ziga izoh berar ekan, ko'k tangri dinidagi turklarga ishora qilib yozadi: ... kofirlar osmonni *tängri* deydilar. Shuningdek, ular ko'zlariga katta ko'ringan har narsani, chunonchi, katta tog', haybatli yog'ochni ham *tängri* deb ataydilar. Shuning uchun ham ular shunga o'xshash narsalarga sajda qiladilar. Ular bilag'on odamni *tängrikän* deb atashlari ham shundandir. Muallif boshqa bir yerda *tängrikän* so'zini «musulmon bo'lmagan turklar tilida xudoga ibodat qiluvchi bilag'on» deya izohlaydi.

Turklar tangrining har narsadan ulug' va ustun ekaniga ishonganlar. Shuningdek, ular barcha ezguliklar tangrining inoyati (*quti*) bilan yuz beradi deb bilganlar. Ayni tushuncha tufayli bitiglarda xoqonlar kechmishi hikoya qilinganda «Ko'kday ulug' tangrining inoyati bilan» (*tāngri-teg tāngridā bulmuš*) degan jumlalar bilan boshlangan. Xoqonlar o'z yorliqlarini «Ko'kday ulug' tangri yaratgan (*tāngri-teg tāngri yaratmuš*) xoqon so'zim» unvoni bilan boshlaganlar. Bitiglarda xoqonlar oliy martabaga Tangrining yorliqagani uchun erishganlarini alohida ta'kidlaydilar: *tāngri yarlıqaduqin üçün qağan olurtum* (tangri yorliqagani uchun xoqon bo'lib taxtga o'tirdim), deya yoziladi bitiglarda.

Qadimgi turklar tabiat va koinot jismlarining ham (kun, Oy, yulduz, tog', dengiz, ko'l va b.) ruhi borligiga ishonishganlar. Tabiat ruhlari uchun ot va qo'y so'yib qurbanlik atashgan. Ular ko'k, Qu-yosh, yulduz kabilarni ilohiylashtirgan, lekin ularga sig'inishmagan.

Ko'k tangri dini eski turklarning hayot tarziga, jahongirlik va fotihlik ruhiga mos tushgan. U turklarda vatanparvarlik, o'ziga ishonch, jangovarlik hissini tug'dirar edi. Shu bois qadimgi turklar uzoq zamonlar bu dindan voz kechishni istamadilar.

Manbalarda qayd etilishicha, Birinchi ko'k turk xoqonlig'i davrida budda rohiblari turk o'lkalariga kelib ibodatxonalar qurban, mahalliy xalq ichidan o'zlariga tarafдорлар to'play boshlagan edilar. Turk podshosi Tabo' xoqon ularni himoya qilib chiqqan. Lekin turk beklari bunga qarshi chiqdi. Ikkinci ko'k turk amaldorlaridan bo'lmish Bilga xoqon ham turk o'lkalarida buddaviylik ta'siri kuchayayotganiga befarqlik bilan qaragan va hatto o'z davlatining rasmiy dini sifatida buddaviylikning qabul etilishini istagan edi. Bu istagini u o'z maslahatchisi, fozil va dono To'nyuquqqa bildirib, uning fikrini so'raydi. Aqlii, turkiy qavmlarning fazilatlarini yaxshi bilgan To'nyuquq, buddaviylik dinining salbiy va xatarli tomonlarini anglab yetganlardan edi. U xoqonga "Budda dini turklarning askarlik ruhiga yomon ta'sir o'tkazadi", deb uqtiradi va uni o'z fikridan qaytarishga erishadi. Shuning uchun ham hozirgi zamon yirik nemis tarixchi



Qadimgi turkiy  
bitiktosh

olimlari To'nyuquqni "Turk imperatorligining Bismarki" deb ataydilar.

Qahramonliklari tillarda doston bo'lgan turklar budda, moniy dinlarini qabul qilgach, o'zlarining askarlik ruhini yo'qotganliklari adabiyot ahllarining ham e'tiborini tortgan. Mashhur arab adibi Johiz bu masalada qiziq mushohada yuritadi. U vizantiyaliklar bilan sosoniylar orasida bo'lib o'tgan urushlar haqida to'xtalib, bu janglarda vizantiyaliklarning mag'lub bo'lishining asl sababini rimliklarga xos muloyimlik va qasoskor bo'imasliklariga undagan xristianlik diniga kirganlari bilan bog'laydi.

Ayni hodisani yozuvchi qadimgi turklarning falsafiy tafakkuri, ma'naviy dunyosi, hayat tarzida ham ko'radi. U yozadi: "Turklar zindiqlik (buddaviyilik) diniga kirgach, janglarda mag'lub bo'la boshladilar. Turklarning qahramon qavmlaridan bo'lgan to'quz o'g'uz(uyg'ur)lar buning misolidir. Holbuki, to'quz o'g'uzlar qarluq turklaridan son jihatdan oz bo'lsalarda, urushlarda doimo ulardan ustun kelar edilar. Ular zindiqlik diniga kirganlari zamon bu din insonlarni dunyo rohatlaridan bezdirdi, muloyimlik baxsh etishda xristianlikdan ham yomonfoq ta'sir ko'rsata boshladi. Endi ularning qahramonlik va jasurlik tuyg'ulari so'ndi, itoatkor va ojiz bir millatga aylanib qoldilar".<sup>73</sup>

Ko'k turk falsafasida, dunyoqarashida shamanizm, "otalar kulti", totemizm elementlarini ham kuzatamiz.

Shamanlikning qoldiqlari hozirgi turkiy xalqlarning ba'zi urfatlarida ham saqlangan. Masalan, uyg'urlarning ayrim rasm-rusumlarida shamanlikning qoldiqlari hozir ham bor.<sup>74</sup> Ba'zan folbinlarning harakatlarida ham shamanlikning izlarini uchratish mumkin. "Otalar kulti" vafot etgan kishilar yoki urug' va qabilaga aloqador mifologik personajlar ruhiga topinish bilan bog'liq e'tiqodu udumlar tizimidir. Vafot etganlar ruhiga sig'inish inson o'lgandan so'ng uning ruhi yashaydi va u tiriklar ishiga aralashishga, ta'sir etishga qodir degan tasavvur-qarashlardan kelib chiqqan.

Totem biron shaxs yoki qavmning belgisiga aylangan hayvon yoki o'simlik timsoli sanaladi. Totemizm esa kishilarning totem bilan tug'ishganligini aks ettiruvchi e'tiqodlar tizimidir. Totemizmning

<sup>73</sup> Kitapçı Z. Türkistan'ın Müslüman Araplar Tarafından Fethi. – Konya, 2005. B. – 64-65.

<sup>74</sup> Исиев Д.А. Китайские источники о создании турфанского издательства. XI НК "ОГК". Ч. 2. - М., 1980.

muhim belgilaridan biri, u tabiiy ob'yektlarni o'rab turgan olamdag'i jonli mavjudotning biri deb tushunishga asoslangan

Ilk va o'rta asrlarda xitoylarda Konfutsiy ta'limoti keng amalgan. Unga binoan, xitoylar osmonga itoat etganlar. Barcha voqea-hodisalar osmonning irodasi bilan yuz beradi, deb bilganlar. Hatto o'z imperatorlarini «Osmon o'g'li» (*thien-tsi*), ular osmon bilan yer o'rtasida yaralgan zotlar, ular osmonning irodasi bilan belgilangan, shuning uchun unga itoat etish kerak, deb qaraganlar.

Xitoycha «Osmon o'g'li» ma'nosidagi *thien-tsi* so'zini ko'k turklar *tänsi~tinsi* yoki tinsi *oğlı* shaklida qo'llagan. Ta'kidlash kerakki, turklar bu unvon bilan o'z hukumdarlarini emas, xitoy imperatorlarini ataganlar. Masalan, bu atama «drq bitigi»da kelgan: *Tänsi-män*. *Yarın kečä altın ögrin üzä olurupan, mängläyür-män*. Anča bilinglär: *edgü-ol* - Men Tansiman. Ertayu kech oltin taxt uzra o'ltirib, shodlanaman. Buni bilingki – ezungulikdir.<sup>75</sup> To'nyuquq bitigida bu atama bilan bog'liq xarakterli o'rnak bor. Bitigda turk qo'shinlarining zafarli yurishlari hikoya qilinar ekan, bir o'rinda «Tinsi o'g'li yotadigan Bangligak tog» (*Tinsi oğlı yatiğma Bängligäk tağ*) haqida so'z boradi.

S.E. Malov o'z tarjimasida bu birikmani «gora Byangligyak – mestojitelstvo sina Tinesi» deb bergan.<sup>76</sup> Biroq, birikmadagi *yatiğma* so'zi «turadigan, yashaydigan» ma'nosida emas, «yotadigan, yotgan» ma'nosini bildiradi. Shunga ko'ra, birikmani «Tinsi o'g'lining turar joyi» deb emas, «Tinsi o'g'li yotadigan, qabri joylashgan yer» deb tushunmoq kerak. Bu borada A. Rustamovning fikriga qo'shilsa bo'ladi: u mazkur birikmani «Tinsi o'g'li yotadigan Bangligak tog'i» deya talqin etadi.<sup>77</sup> A. Amanjolovning talqini ham e'tiborga loyiq. U To'nyuquq bitigidagi «Osmon o'g'li» bilan bog'liq jumlanı: «Osmon o'g'li Tyanszi (xit. *tien-tsi* «Osmon o'g'li») ning makoni – Bengligeq go'ri yonidan (Pomir-Olttoy, Tyan-Shanyning janubiy tizmasi) o'tadi, deb tarjima qilgan.<sup>78</sup>

E'tiborlisi shundaki, tarixchi To'nyuquq turk qo'shinlari bu yerga *Yinčü ögüz* (Sirdaryo)ni kechib borganlarini qayd etadi. Basharti, uning ma'lumotlariga asoslanilsa, bitigda tilga olingan

<sup>75</sup> Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. - М.-Л., 1951. - С.80.

<sup>76</sup> O'sha asar. B. – 69.

<sup>77</sup> Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T.: «O'qituvchi», 1982. B. – 77.

<sup>78</sup> Qarang: Аманжолов А.С. История и теория древнетюркского языка. Алматы. 2003. – С.184.

«Tinsi o'g'li yotadigan Bangligak tog» Sug'd o'lklarida joylashgani ayon bo'ladi. Bitigda bayon etilgan voqealar Ikkinchı turk xoqonlig'i davriga to'g'ri keladi. Bundan avvalroq xitoy bosqini chog'ida tabg'ach imperatori bu yerkarda safar qilgani va shu yerda halok bo'lgani, uning jasadi shu toqqa qo'yilgan bo'lishi yoki yerli xalq rasida uning bilan bog'liq rivoyatlar tarqalgan bo'lishi ham mumkin. Shularga asoslanib, To'nyuquq ham joy nomini shunday atagandir. Bunga o'xhash hodisalar O'rta va Markaziy Osiyo tarixida ko'p bo'lgan. Masalan, arab istelosi davrida islam olamida dong'i ketgan ayrim kishilarning jasadi bizning tuprog'imizga quyilgan yoki muqaddas qadamjolar avliyolar, ayrim sahobalarning nomi bilan bog'langan. Jumladan, yurtimizda hazrat Ali va uning o'g'illarining nomi bilan bog'lanuvchi qadamjolar ko'p. Aslida ular bu tuproqqa kelmagan ham. Ta'kidlash joizki, turkshunoslikda qadimgi xitoy ta'limotidagi imperatorlarga berilgan «Osmon o'g'li» tushunchasi ko'k turk falsafasiga ham ta'sir etgan degan fikr yetakechi. Ko'k turk xoqonlarining unvonini, ko'pincha, xitoy falsafasidagi «Osmon o'g'li»ga bog'laydilar. Kul tigin va Bilga xoqon bitiglari shunday boshlangan: *Tängri-teg tängridä bulmuš türk Bilgä qağan* bu ödkä (~bödkä) olurtum.

S.E. Malov bu jumlani quyidagicha tarjima qilgan: «Men Osmonsifat, Osmon yaratgan (aslida «osmonda» yoki «osmondan paydo bo'lgan») Turk hoqoni endilikda taxtga o'tirdim». <sup>79</sup> Toshkent nashrida bu quyidagicha talqinka ega: «Tangriday, tangridan bo'lmish turk bilga xoqon bu dunyoga keldim». <sup>80</sup>

Endi yuqoridagi jumlani bir boshdan tahlil etamiz: *Tängri-teg tängridä* birikmasidagi birinchi *tängri* so'zi «ko'k, osmon» ma'nosida bo'lib, tangrining sifatini bildiradi, keyingisi esa «xudo, tangri» ma'nosida. Shunga ko'ra, bu birikmani «ko'kday (ulug') tangridan» deb tushunmoq kerak. <sup>81</sup> Navbatdagı bulmuš so'zini olimlar bolmiş~bulmuš deb o'qiganlar, jumboq ham ana shunda. Mabodo, shunday o'qilgan taqdirda, uning ma'nosi «ko'kday tangridan bo'lgan, tangridan taragan» bo'lib qoladi va xoqonga «Osmon o'g'li» sifati

<sup>79</sup> Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. - М.-Л., 1951. - С.33.

<sup>80</sup> Abdurahmonov G., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. - T.: «O'qituvchi», 1982. B. - 89.

<sup>81</sup> O'sha jojda.

berilgan bo'lib chiqadi. Agar uni *bulmuš* o'qilsa, ma'no ham o'zgaradi: bu "topgan, yetishgan, erishgan" degani.

Navbatdagi türk so'zi etnonim emas, balki Bilga xoqonning sifati, unvonidir – u "jasur, bahodir" ma'nosida. So'nggi bu ödkä (~bödkä) olurtum birikmasi "(xoqon bo'lib) taxtga o'tirdim" degani. Demak, Kul tigin va Bilga xoqon bitiglaridagi ushbu boshlamani "Ko'kday (ulug') tangridan topgan // tangrining inoyatiga erishgan // tangrining inoyati bilan turk Bilga xoqon taxtga (xoqon bo'lib) o'tirdim" deb anglamoq kerak.<sup>82</sup> Xoqonlar o'z yorliqlarini shunday jumla bilan boshlaganlar, shundan so'ng tarixiy voqealar hikoya qilingan.

Ko'k turk falsafasida ham uch yarusli olam tushunchasi bor. Biroq, ko'k turk falsafasiga ko'ra, osmon bilan yer o'rtaida inson yaralgan, hukmdorlar esa jamiyat ustidan nazorat qiluvchi shaxslardir. Buning isboti sifatida Kul tigin va Bilga xoqon ulug' bitiglarida shunday jumlalarni o'qiyimiz: Üzä kök tängri, asra yağız yer qılıntuqda ikin kisi oğlı qılımmis. Kisi oğlinta üzä äçüm apam Bumın qağan, İstämi qağan olurmiş - Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda ikkisining orasida inson bolasi yaratilgan. Inson bolalari ustidan ota-bobom Bumın xoqon, Istami xoqon bo'lib (taxtga) o'tirgan (KTu.1; X.1).

Demak, ko'k turklar o'z xoqonlarini «tangridan yaralgan, ko'k bilan yer o'rtaсидаги hukumдор», deb emas, balki «ko'k bilan yer orasıдаги xalqning hukumдори» hamda «tangrining inoyatiga erishgan, saylangan kishilar» deb bilganlar. Barcha voqeа-hodisalar osmonning emas, tangrining irodasi, xohishi bilan yuz beradi, deb qarar edilar. Bu ta'limot ularga xitoylardan o'tgan emas, o'z ota-bobolari xunlar va ulardan naridagi iskiflardan qolgan. Qadimgi xitoy ta'limotlari bilan ko'k turk falsafasi orasida juda katta farq bor. Ularni qorishtimaslik kerak.

Ko'k turklar tasavvuridagi «tomon» tushunchasi ikki xil – vertikal va garizontal yo'naliшhga ega. Vertikal yo'naliшh ikki, qarama-qarshi tomonni tashkil etadi. Bular üzä (yuqori, ya'ni osmon), asra yoki alt (past, ya'ni yer yuzi)dan iborat. Turkarning olam, yorug' dunyo, hayot haqidagi tasavvurlari ham ayni chiziqdа turadi. Chunonchi, qadimgi turklar olamni uch yarusdan (qavatdan) iborat

<sup>82</sup> Qarang: Sodiqov Q. Qadimgi turk falsafasi. –T.: TDSHI, 2008.

deb anglaganlar: osmon, yer yuzi va yer osti. Inson, tirk mavjudot va uning hayoti ikkisining o'rtasida yuz beradi. Kul tigin va Bilga xoqon bitiglarida xoqonning turklar tarixi haqidagi hikoyasi Üzä kök tängri, asra yağız yer qılıntuqda, ekin ara kisi oğlı qılınmış (Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda, ikkisining o'rtasida inson bolasi yaratilgan) degan jumla bilan boshlangan. Bu ta'bilda qadimgi turklarning o'sha uch yarusli olam haqidagi tasavvurini anglash qiyin emas: yuqorida – osmon, pastda – Yer, ikkisining o'rtasida inson va uning hayoti.

O'z navbatida, osmon yetti qavatdan iborat (yeti qat kök – MK.III.33) deb tasavvur etilgan. Gorizontal yo'nalish bo'yicha «tomon» tushunchasi «qutb»ni anglatadi. Bu Yer yuzining to'rt tarafi bilan bog'liq. Eski turklar «to'rt qutb»ni tört bulung yoki tört sarı deb ataganlar. Tört bulung, tört sarı tushunchalari «kenglik, zamin beponligi»ni ham bildirgan. Jumladan, badiiy adabiyotda el qahramonlarining cheksiz yerlarga hukumronlik qilganligi, ularning qudrati ayni tushunchalar bilan ta'rif etilgan. Masalan, Kul tigin bitigida Bumin va Istami xoqonning mamlakat ozodligi yo'lidagi kurashlari shunday ta'riflanadi: Tört bulung qop yağı ermis, sü sülápän tört bulungdaqı bodunuğ qop almış, qop baz qilmış (To'rt taraf butunlay dushman ekan. Lashkar tortib, to'rt tarafagi xalqni butunlay olganlar, butunlay tobe qilganlar). Yoki Bilga xoqon bitigida xoqon o'z qahramonliklarini shunday yodga oladi: Tängri yarlıqaduq üçün özüm olurtuquma tört bulungdaqı bodunuğ etdim (Tangri yorlıqagani uchun o'zim (xoqon bo'lib) turganimda to'rt tarafagi xalqni tartibga soldim). «O'g'uznomá» dostonida Yerning tört bulunginung qağanı degan jumla ham uchraydi. Bu jumla «Yerning to'rt tomonining xoqoni, Yer yuzining xoqoni, zamon hukumdori» degan ma'noni anglatadi.

Qadimgi turklar tasavvurida tevarak-atrof, olam qutblari tushunchasi insonning kunchiqarga qarab turgan holati bilan bog'liq yuzaga kelgan. Eski turklar ko'k tangriga kunchiqarga yuz tutgan holatda ibodat qilganlar. Ayni holatda tevarak, qarama-qarshi tomonlarni anglatuvchi to'rt jihat yuzaga kelgan: «old» – «orqa», «o'ng» – «so'l». Qadimgi turkiy tilida «old» tushunchasi – *il* yoki *öng*, «orqa» – *quri*, «o'ng» - bir yoki ong, «so'l» esa *yir* yoki *čong* deyilgan.

Yer yuzining to'rt qutbi (tört bulung) ham shu so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasini qo'shish bilan atalgan. Bu so'z qutbning o'sha tomoniga bo'lgan yo'nalishni anglatadi: *İlgärü* – oldinga

(~Sharqqa), Birgärü – o'ngga (~Janubga), Quriğaru yoki Kirü – orqaga (~G'arbga), Yırğaru – so'lga (~Shimolga). Masalan, Kul tigin yodgorligida Bilga xoqon tilidan xoqonlik tarixi hikoya qilinár ekan, qutb nomlari ham tilga olinadi: İlğärü Şantung yazıqa tegi sülädim, taluyqa kiçig tegmädim. Birgärü Toquz ärsänkä tegi sülädim, Tüpütkä kiçig tegmädim. Quriğaru Yinčü ögüz kečä Temir qapıqqa tegi sülädim. Yırğaru Yer Bayırqu yeringä tegi sülädim - Sharqqa - Shantung dashtiga qadar lashkar tortdim, dengizga bir oz yetmadim. Janubga - To'qiz arsanga qadar lashkar tortdim, Tuputga bir oz yetmadim. G'arbga - Yinchu o'guz (Sirdaryo)ni kechib, Temir qopiqqa qadar lashkar tortdim. Shimolga - Yer Bayirqu yerigacha lashkar tortdim.

Janub ong jangaq (~ong yaq) [ya'ni, o'ng tomon], Shimol čong jangaq (~čong jaq) [ya'ni, so'l tomon] deb ham yuritilgan.

Eski turklar qutbni Quyoshning harakati (chiqishi va botishi, kecha-kunduz almashinuvi) bilan ham bog'liq holda tasavvur etganlar. Jumladan, Quyoshning chiqish tarafi bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan Kün togsiq (Kunchiqar) tushunchasi - Sharqni, Quyoshning botish yeri bilan aloqador Kün batsiq (Kunbotar) esa G'arbni bildirgan. Hozirgi o'zbek tilida buning o'mida kunchiqat va kunbotar so'zleri qo'llanadi.

Kün ortusi asl ma'noda "choshgoh, tush, peshin"ni, qutbga nisbatan Janubni, Tün ortusi asl ma'noda "qoq tun, yarim tun"ni, qutbga nisbatan Shimolni bildiradi. «Janub»ni Kündünki ham deyilgan: Kündünki bulung - Janub tomon.

“O'g'uznoma” dostonida qarama-qarshi qutblarni anglatuvchi Kün toğuši va Kün batuši atamalari qo'llangan. Ushbu atamalardagi toğuši va batuši Quyoshning Sharqdan chiqishi va G'arbga botish holatini ifoda etmoqda. Shunga ko'ra, Kün toğuši – «Sharq», Kün batuši - «G'arb»ni bildiradi. Bu ikki atama qarama-qarshi ikki qutbni bildiruvchi Kün togsiq va Kün batsiq ga tengdir.

«Qutadg'u bilig»da kunning chiqishi bilan bog'liq holda Sharqni Tuğar, G'arbni esa kun botishi bilan bog'liq ravishda Batar deyilgan.

Manbalarda vaqtini bildiruvchi tang, tün so'zleri ham qutblarni ifoda etgan: Tang sarı - Sharqqa, Tün yangaq – Shimol tomon, Tün sarı – Shimolga.

Ayrim koinot jismlarining harakat va holati qadim tasavvurlarda inson hayotini belgilovchi deb tushunilgan va ularga hurmat bilan

qaralgan. Bunga "Qutadg'u bilig"da asar qahramonlarining oti Aytoldi va Küntuğdi atalganini ham dalil keltirish mumkin: Aytoldi - "to'lgan oy", Küntuğdi - "quyosh chiqdi" degan ma'noda.

Shu o'rinda yana bir faktga e'tibor qaratmoqchimiz.

Mahmud Qoshg'ariy o'zining «Devonu lug'atit turk» asarida Balasağun haqida ma'lumot bera turib, uning Quzuluş, Quzordu degan otlari ham bor ekaniga ishora qiladi

Quzordu «Qutadg'u bilig»ning uyg'ur yozuvli hirot qo'lyozmasida ham uchraydi: Munungi turuğlağ Quzordu eli (Uning turar yeri Quzo'rdu elidir). Bu jumlada asar muallifi Yusuf Xos Hojibning tug'ilgan yeri - Quzo'rdu (ya'ni Balasag'un) nazarda tutilmoxda.

Quzuluş, Quzordu nomlari tarkibidagi quz, aftidan, «kunga ters», «kun botar» ma'nolarini bildiradi. Chog'ishtiring: Mahmud Qoshg'ariy lug'atida: quz tağ - tog'ning quyosh tushmaydigan joyi; hozirgi o'zbek tilida: kungay [küngäy] - «kunga qaragan, kun tushadigan joy»; quzg'ay [quzgay]- «kunga teskari joy». Yoki turkchada: Güney - «Janub», Kuzey - «Shimob». Shundan kelib chiqib, Quzuluş, Quzordu - «kun botardagi shahar» degan ma'noni bildiradi.

Mahmud Qoshg'ariy o'zining «Devonu lug'atit turk» asarida Yer yuzi xaritasini keltirgan va unda ham qutblar qayd etilgan. Biroq, ushbu xarita arab tilida bo'lgani uchun qutblarning nomi ham arabchada. Chunonchi, ushbu xaritada doiraning to'rt yog'iga qutb nomlari yozib qo'yilibdi: uning yuqori tomoni - Sharq (aš-Šarq), pastki tomoni - G'arb (al-Ğarb), o'ng tomoni - Janub (al-Janub), chap tomoni - Shimol (aš-Şimāl).

Muhimi, ushbu xaritaning tuzilishida olam qutblari, tomonlar haqidagi qadimiy tushunchalar o'z ifodasini topgan. Chunonchi, Mahmud Qoshg'ariy Yer yuzi xaritasini keltirar ekan, yuqori tomonda hozirgi xaritalardagi singari Shimolni emas, Sharqni ko'rsatgan.

Qadimgi turkiy tilda öd so'zi «zamon, davr, vaqt» ma'nolarini anglatgan.

Ko'k turklarda Yerning aylanishi, vaqt o'tishi, tabiat o'zgarishi bilan bog'liq holda yil, oy kunlar farqlangan.

Ko'k turklarda yillar muchal hisobi bilan yuritilan. Ular o'n ikki hayvon ismini o'n ikki yilga ot qo'yganlar. Muchal tizimi o'n ikki oy va o'n ikki burjga asoslanib belgilangan edi. Tug'ilish, jang tarixlari va boshqalarni ana shu yillar aylanishidan hisobiqaganlar. Muchal tarixi, uning kelib chiqishi haqida Mahmud Qoshg'ariy

shunday yozadi: «Turk xoqonlaridan biri o'zidan bir necha yil oldin bo'lib o'tgan urushni o'rganmoqchi bo'lgan. Shunda u urush bo'lib o'tgan yilni aniqlashda yanglishganlar. Bu masala yuzasidan xoqon qavmi bilan kengashdi va aytdi: «Biz bu tarixni aniqlashda qanchalik yanglishgan bo'lsak, bizdan keyin ham shunday yanglishadilar. Shunday bo'lgach, biz endi o'n ikki oy va osmondag'i o'n ikki burjga asoslanib, o'n ikki yilga ot qo'yishimiz kerak, toki bizdan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiiga qarab olinsin va bu narsa abadiy bir yodgorlik bo'lib qolsin». Ular «aytganingizdek bo'lsin» deyishdi». Devonda o'n ikki yil nomi muayyan tartibda keltirilgan. Ko'k turk bitiglarida ayrim yil otlari bulardan farq qiladi. Boisi, o'sha yilni atovchi hayvon nomi fonetik jihatdan o'zgargan, uning sinonimi bilan atalgan yoki boshqa tillardan o'zlashgan. Aniq tasavvur hosil qilish uchun quyidagi jadvalni keltiramiz:

<i>Ko'k turk bitiglarida</i>	<i>Mahmud Qoshg'ariyda</i>	<i>Hozirgi o'zbek tilida</i>
küskü yil	sic'gan yili	sichqon yili
ingäk yil	ud yili	sigir yili
bars yil	bars yili	bars yili
tabišgan yil	tawis'gan yili	quyon yili
lü yil	nek yili	timsoh yili
yilan yil	yilan yili	ilon yili
yund yil	yund yili	ot yili
qon yil	qoy yili	qo'y yili
bičin yil	bičin yili	maymun yili
taqīg~taqīgi	taqağu yili	tovuq yili
~taqīgu yil	it yili	it yili
it yil	tonguz yili	to'ng'iz yili
lağzin yil		

Turklar muchal yillarining har birida yaxshi yoki yomon hosiyat bor deb bilganlar. Bu xususda Qoshg'ariy yozadi: «Turklar bu yillarning har qaysisida biror hikmat bor deb taxminlaydilar: masalan, ularcha sigir yili bo'lsa urush ko'p bo'ladi, chunki sigir bir-biri bilan suzishadigan hayvon. Tovuq yili kirsa, oziq-ovqat ko'payadi, lekin odamlarda tashvish ortadi. Chunki tovuqning ovqati don bo'lib, uni topib yeyish uchun narsalarni titib yuradi. Timsoh yili kirsa,

yog‘ingarchilik va hosil ko‘p bo‘ladi, chunki u suvda yashaydi. To‘ng‘iz yili kirsa, sovuq qor va fitna ko‘p bo‘ladi. Shunga o‘xshash, har yilga biror taxmin yuritadilar».

Yil fasllari qadimgi turkiy tilda shunday atalgan: *yaz*, *yay*, *küz*, *qış*. Hozirgi o‘zbek tilida *yaz* so‘zi iste’moldan chiqib, o‘rnida ko‘klam, bahor so‘zleri qo‘llana boshladidi. Shunga qaramay, ayrim o‘rinlarda uning qoldig‘ini hozir ham uchratamiz: Laylak keldi yoz bo‘ldi. Bu mataldagi “yoz” – “ko‘klam” ma’nosida kelgan. “Yoz” ma’nosidagi *yay* so‘zi tovush o‘zgarishiga uchrab, yoz shaklida qo‘llanilmoqda.

Ko‘k turklarda hafta tushunchasi yo‘q. Bu xususda Mahmud Qoshg‘ariy yozadi: «Turklarda haftadagi yetti kunning ismi yo‘q, chunki hafta islomdan so‘ng shuhratlandi. Shunga o‘xshash oy ismlari ham shaharlarda arabcha yuritiladi. Ko‘chmanchi va musulmon bo‘lmagan turklar oylarni to‘rt fasl bilan ataydilar. Har uch oyni bir ism bilan yuritadilar. Yil o‘tishini shunday biladilar. Masalan: navro‘zdan keyingi avval bahorga *oğlaq ay*, so‘ngra *ulus oğlaq ay* derlar. Chunki oy bu vaqtida katta bo‘lib qoladi. Bundan keyingisiga *ulus ağ ay* deyiladi. Chunki bu oy yozning o‘rtasida bo‘lib, bu vaqtida suv va yer ne’matlari mo‘l-ko‘l bo‘ladi».

Mahmud Koshg‘ariyning qayd etishiga ko‘ra, *türk* so‘zi vaqt ma’nosida butun mevalarning pishish, yetilish mahalining o‘rtasini anglatadi: *türk* üzüm ödi – uzum pishar vaqtı, *türk* quyaş ödi – kun o‘rtasi, *türk* yigit - o‘rtta yoshli yigit.

Bir kecha-kunduz ikkiga bo‘linadi: *kün*, *kündüz* hamda *tün*, *kečā*. Kun, o‘z navbatida, quyidagi palladan iborat: *tang* - tong, *kün ortusi* - choshgoh, tush, peshin; *aqşam* – oqshom. «Qoq tun, yarim tun” qadimgi turkiy tilda tün ortusi deyilgan.

Mo‘g‘ulistonning poyonsiz tekisliklari bo‘ylab o‘tgan Urxun, Ko‘kshin-O‘rxun va Selenga daryolarining tevaragi qadimda yirik madaniyat o‘choqlaridan edi. Bu yerlar qachonlardir ko‘k turk xoqonliqlarining markazi o‘tgan, qudratli turk sultanatlarining markazi shaharlari shu tuproqda bunyod etilgan. Bu zaminda qadimgi turk madaniyati va adabiyoti gullab-yashnagan, turk davlatchiligi qaror topgan. Hozirgi paytda o‘sha ulug‘ madaniy ko‘tarilishning izlari saqlangan, xolos: vodiyning har yer-har yerida ko‘hna shaharlarning xarobalari, ulkan-ulkan saroy va maqbaralarning vayronalari, yirik qabr toshlari, ularga bitilgan yozuv va rasmlar,

parchalangan xaykallar, qush va hayvon tasviri tushirilgan toshlar, naqsh san'at asarlari o'sha davrdan xabar berib turibdi.

Mozor majmualari xarobalaridan parchalangan toshbaqa, inson, qo'chqor va arslon xaykallari, balballar, ustun to'shamalari, devor toshlari chiqqan.

Arxeologlar ayrim qabrlarda (massalan, Bilga xoqon majmuasida) qazuv ishlari ham olib bordilar. Qazuv chog'ida qabrdan keramika bo'laklari, qo'y suyagi, shuningdek, boy xazina ham chiqdi. Xazinada kumushdan ishlangan buyumlar (tovoqlar, ko'zachalar, kiyik xaykali va b.), metall parchalari, qimmatbaho toshlar, oltindan ishlangan idish va taqinchoqlar bor edi .

Ko'k turk san'atida xaykaltaroshlik alohida o'rinn tutadi. Bu san'at turida ham turklarning olam va jamiyatga to'g'ri ko'z bilan boqish, borga boriday qarash, qandaydir mifologik tasavvurlarga ergashish emas, balki insonni ulug'lash falsafasi aks etgan. Buni ko'k turk sa'ati bilan buddaviylik davri xaykaltaroshligini o'zaro qiyoslaganda yaqqol kuzatish mumkin. Chunonchi, ko'k turk davrida mashhur xoqon va davlat arboblari, mashhur sarkardalarga xaykalar ishlangan bo'lsa, buddaviylik davrida Buddha va avliyolar xaykaltaroshlik obyektiiga aylandi.

Ko'k turk san'atiga mansub ko'plab yodgorliklar ma'lum. Mo'g'ulistonning qadim tuprog'idan erkak va xotinlarning turgan va o'tirgan holatdagи xaykallari topildi. Ularning tik turgan holatlari baland bo'yli, barmoqlari ustma-ust holda ko'krakka qo'yilgan. Tiz cho'kib o'tirgan xaykallarning ham qo'llari ko'krakda. Aksar xaykallarning boshi uchgan. Ularning ko'rinishiga qarab xotin yo erkak ekanligini aniqlash mumkin. Xotinlarga o'matilgan xaykal to'nlarining yoqasi jimjimador, o'ng yoqa chap yoqa ustiga tushgan. Shuningdek, bellari xipcha, ko'krak bir oz bo'rtgan. Ust kiyimlari ham nafis. Erkak xaykallar oddiy qayirma yoqali kiyimda. Xotinlardan farqli holda chap yoqa o'ng yoqa ustiga chiqarilgan. Bellar tekis, qo'pol, gavda keng. To'n ham uncha nafis emas.

Xaykallar ichida, ayniqsa, Bilga xoqon va uning xotiniga qo'yilgani e'tiborni o'ziga tortadi. Xoqon chordana qurgan holatda tasvirlangan. Belida bezakli kamar. Yoqasining chap yog'i o'ngisining ustida. Oddiy qayirma yoqa. Xotini ham o'tirgan holatda, biroq, oyoqlari bir yonga olingan. Xipcha bel, ko'kragi bir oz bo'rtgan. Kiyimi nafis, qayirma yoqali. Chap yoqa o'ngisining ustida.

Majmuada Bilga xoqonning tik turgan qo'mondonlik kiyimidagi xaykali ham bor. Kiyimi tovoniga tushadi, bo'g'ma yoqa, uzun yengli. Belida kamari. O'ng qo'l ko'krak tomon ko'tarilgan, chap qo'l pastga tomon yo'nalgan. To'nidan etigining tovoni chiqib turibdi.

Ko'k turk davrida yaratilgan san'at asari bo'ladimi, xaykaltaroshlik namunasi bo'ladimi, qat'iy nazar, ularda qadim turklarning tasavvur-tushunchalari, falsafiy qarashlari, e'tiqodi butun borlig'i bilan aks etib turibdi. Buni ko'k turk san'ati va xaykaltaroshligidagi ikki o'ta muhim hodisada ham kuzatishimiz mumkin.

Qadimgi turk mifologiyasida toshbaqa alohida o'rin tutadi. Toshbaqa qadim turklar nazdida Yer ning ramzidir. Ular Yer yuzini toshbaqa ko'rinishida tasavvur etganlar. Mazkur tasavvur-tushunchalari ularning san'at asarlarida ham aks etgan. Buning yaqqol ko'rinishini qabrtoshlarda kuzatamiz. Ko'k turk mozor toshlaridan ko'pining ostiga katta bir toshbaqa ishlangan. Matn bitilgan lavh esa uning ustiga tiklangan. Buning tubida marhum xotirasi uchun Yer yuzida (ya'ni yorug' dunyoda) mangu yodgorlik o'rnatildi, degan ma'no yotadi. Qadimgi turkiy tilda mazkur bitigtoshlarning *bengü* yoki *bengütäş* atalganganligi ham shundan.

Toshbaqa ustiga tiklangan qabrtoshlarga Birinchi ko'k turk xoqonlig'i davriga mansub Bug'ut yodgorligi, Ikkinci ko'k turk xoqonlig'i zamonidagi Bilga xoqon mangutoshini misol keltirish mumkin. Yoki Kul tigin yodgorlik majmuasidan qolgan hozirgi xarobalar ichida ham parchalangan toshbaqa bo'laklari yotibdi. Qadimgi turk xaykaltaroshligidagi bu an'ana Uyg'ur xoqonlig'i davrida ham davom etdi. Ushbu xoqonliqqa mansub 753-yili yaratilgan Tariyat bitigtoshi, 760-yili bitilgan Mo'yun-cho'r obidasi toshbaqa ustiga tiklangan.

Ko'k turk san'atida qush tasviri ham alohida o'rin egallaydi. Bunga Kul tigin yodgorligidan chiqqan noyob bir topilmani misol keltirish mumkin. Kul tigin yodgorlik majmuasidan boshi uchgan xaykallar orasida shahzoda Kul tigin xaykalining bosh qisimi ham topilgan. Unda turkiy bo'rk kiygan 40-45 yoshlardagi erkak qiyofasi. Uzun bo'rnning yuz tomoniga qanotlarini yoyib turgan qush ishlangan. Qush, ko'rinishdan, xumoni esga soladi. Bu xaykal namunasi O'rta va Markaziy Osiyodan topilgan ilk o'rta asrlarga mansub san'at asarlarining eng nodiri sanalib, ko'k turk san'ati, xaykaltaroshligining katta takomil bosqichiga erishganidan dalolat

beradi. Taxminan 720-725 yillar orasida tiklangan Kul-ich-cho'r majmuasi xarobalarida ham buning izlari bor. Majmuadan yozuvli qabrtosh bilan birga sakkizta inson xaykali, beshta hayvon (arslon va qo'chqor) xaykali, balballar, rasm va naqshlar ishlangan tosh parchalari topilgan. Muhimi, ularning orasidagi katta bir toshga qanotlarini yoyib turgan ikki qush tasviri ishlangan.

Turk san'ati tarixida xaykaltaroshlikning eng rivojlangan bosqichi ko'k turk davri sanaladi. Ko'rib o'tilganidek, ko'k turk san'atida inson xaykalini yaratishga katta e'tibor qaratganlar. Turklar buddaviylikni qabul qilganlardan keyin ham amaliy san'atda xaykaltaroshlik davom etdi. Biroq, endi mashhur xoqon va sarkardalarga emas, Buddaga xaykal ishlash rusum bo'ldi. Mohir tosh yo'nuvchilar o'z mahoratini, butun ista'dodini Buddanining katta-katta xaykallarini yaratishga bag'ishladilar. O'tmishda turklarning eng keksa urug'-laridan biri A-shi-na (xitoycha shakli *A-śih-na*) urug'i bilan bog'liq bir afsona o'tgan. Fanda uning Ergenegon afsonasi degan nomi ham bor. *A-shi-na* xitoycha so'z bo'lib, «*bo'zqurt (bo'zho'ri) o'g'illari*» degan ma'noni bildiradi. Xitoycha manbalarga asoslanib tarix kitoblarida bu urug'ning oti shunday atab ketilgan.

Bo'zqurt-Ergenekon afsonasining turkiy matni saqlangan emas. Biroq 629-yili yozilgan «*Čou-šu*» otli xitoycha yilnomada o'sha turk afsonasi qisqagina hikoya qilinadi. Uning mazmuni shunday: G'arbdagi dengiz sohillarida yashagan bir turk qabilasi ustiga qo'shni qabilia lashkari bostirib keladi va qabilani qirg'in qiladi. Ular orasidan faqat o'n yoshli bir bola tirik qoldi, xolos. Bir urg'ochi bo'ri bolani qutqarib qoldi. Yovdan qochgan urg'ochi bo'ri Kao-changning shimaliga (Turfon vodiysiga) borib yashab qoldi. Bo'ri odam bolasini katta qildi va o'zi uning xotini bo'ldi. Zamonalr o'tib, o'sha odam bolasidan o'n o'g'il ko'rdi. O'g'illar katta bo'lib, shu yerlik ayollarga uylandi. A-śih-na o'g'illaridan biri o'z ismini tashigan qabilaning boshlig'i bo'ldi. Bu qabilaning keyingi avlodи Oltoyga ko'chdi va u yerda «turk» otini oldi.<sup>53</sup> Turkarning A-shi-na (Bo'zqurt o'g'illari) urug'i o'z tarixini, kelib chiqishini bo'z bo'riga bog'laydi. Bo'ri ularda totemga aylangan. Ularning bu tasavvur-qarashlari o'zlariboshqargan davlat ramzlarida, badiiy ijod namunalarida, san'ati, xaykaltaroshligida ham iz qoldirgan.

<sup>53</sup> Осман Фикри Серкис, «Гөлтүрк тарихинин меселеleri», Институт изучения тюркской культуры, М.1995. С. – 303-304.

A-shi-na xonadoni O'rtta va Markaziy Osiyoda 550-745-yillar orasida, yaqin ikki yuz yil hukum surdi. Bu davr ko'k turklar zamoniga to'g'ri keladi. Ular hukmronlik qilgan davlatlar tarixda «ko'k turk xoqonliqlari» nomini olgan.

Ushbu sulola hukmronligi davrida tiklangan yozma obidalarning eng eskisi birinchi xonadon davriga mansub Bug'ut obidasidir. Bug'ut obidasni Maxan tigin ismli turk shahzodasiga atab qo'yilgan. U Birinchi ko'k turk xoqonligining asoschisi Bumin xoqonning o'g'li va Bumindan keyin 553-572-yillarda taxtini boshqargan Muxan xoqonning inisidir. Yodgorlik taxminan 581-yili tiklangan. Muhimi, Bug'ut mangutoshining tepe qismiga odam bolasini emizayotgan bo'ri tasviri ish Bu belgi Maxan tiginning A-shi-na xonadoniga mansub ekanligini ko'rsatadi. Turk xaykaltaroshligidagi ayni an'ana Ikkinchik ko'k turk xoqonlig'i davrida ham davom etdi. 732-yili tiklangan Kul tigin mangutoshining bosh qismiga ham choqaloqni emizayotgan bo'ri ishlangan.

Bo'zbo'ri haqidagi tasavvurlar ko'k turklarning davlat siyosiyijtimoiy qurilmasi, uning ramzlarida ham aksini topgan. Xususan, ko'k turk davlatlarining tug'va bayroqlarida bo'ri boshining tasviri ishlanganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bo'rining totem sifatidagi qiyofasini turk xalq og'zaki adabiyotining eng eski namunasi bo'lgan «O'g'uznomalar» dostonida kuzatamiz. Bo'rini ulug'lash qadimgi turk badiiy adabiyotida tasvir vositalariga ham ko'chgan. Jumladan, Kul tigin bitigida turk lashkarining jasur va yengimasligi bo'riga, yov (xitoy) lashkari esa qo'yga qiyoslanadi: *Tāngri kūč bertük üçün qan-güm qağan süsi böri-teg ermis*, yaqis qon-teg ermis qo'yday ekan).

740-745-yillar ko'k turk xoqonligining inqirozga uchragan davri sanaladi. 744-yilning oxirlarida so'nggi ko'k turk xoqoni uyg'ur-basmil-qarluq uyushmasi tomonidan mag'lubiyatga uchradi va turklar hukmronligi A-shi-na (Bo'zqurt o'g'illari) xonadonidan uyg'ur sulolasiga mansub Yag'laqar xonadoniga ko'chdi. O'g'uz xoqon haqidagi rivoyatlar turkiy xalqlar og'zaki adabiyotida eski zamonalardan qolgan. U turkiy adabiyot tarixida turli variantlarda tarqalgan va yozma manbalarda, xalq og'izlarida bizgacha yetib kelgan. Shulardan bir varianti qadimgi uyg'ur xatida bitilgan bo'lib, adabiyot-

shunosligimizda «O'g'uznomá» yoki «O'g'uz xoqon dostoni» oti bilan taniqli.<sup>84</sup>

O'g'uz xoqon haqidagi rivoyatlarning ayrimlari tarixiy, tarixiy-adabiy asarlarda keltiriladi. Turkiy xalqlar tarixiga bag'ishlangan kitoblarda o'tmishda o'tgan podshohlar qatorida O'g'uzxon ham tilga olinadi va uning turk ellarini tuzish bilan bog'liq kechmishi hikoya qilinadi. O'g'uz xoqon haqidagi rivoyatlardan biri tarixchi Fazlullo Rashididdinning forscha «Jome ut-tavorix» asarida mavjud. «Tavorix-i jahongushoy» asari Chingizzon davriga oid qismining turkiy tarjimasida ham O'g'uz rivoyati berilgan. Rivoyatlardan boshqa biri Mirzo Ulug'bekning forscha «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi») kitobining birinchi bobida keltiriladi. O'g'uz xoqon qissasi Abulg'oziy Bahodirxon(1603-1664)ning «Shajara-yi tarokima» va «Shajarayi turk» asarlaridan ham o'rinni oltagan. «Shajara-yi tarokima» muallifining ta'kidlashicha, o'sha kezlar el ichida O'g'uz xoqon dostonlari keng tarqalgan edi. Bu xususda: «Bizning ichimizda «O'g'uznomá» ko'p turur», - deb yozadi u. Tarix kitoblarida bitilgan O'g'uz qissalari ham Abulg'oziyga ma'lum edi. Muarrix O'g'uzxon tarixini og'zaki adabiyotda hamda tarix kitoblarida berilgan rivoyatlar asosida yozdi.

Mavjud rivoyatlarning eng eskisi uyg'ur yozuvli «O'g'uznomá»dir. Ushbu doston o'z mazmuni, badiiy xususiyatlari, tiliga ko'ra boshqa variantlardan ancha farq qiladi. Asar qo'lyozmasi hozir Parijdagagi Milliy kutubxonada saqlanmoqda (raqami: Suppl. Turc. 1001). Qo'lyozmada dostonning bosh qismi ham, yakuni ham uchramaydi. Matnning bari 42 bet (21 varaq). U uyg'ur xati bilan, har betga 9 qatordan, tik holda – tepadan pastga qarab yozilgan. Qo'lyozmaning ko'chirilgan sanasi ham ma'lum emas. Xat shakli va uslubiga ko'ra, harqalay, XIII-XIV asrlarda ko'chirilgan chiqar.

«O'g'uznomá» – nasriy doston, lekin matnda ora-chora she'r iy bandilar ham uchraydi. She'r iy shaklda berilgan matn bo'lagidan misol keltiramiz:

*Toydán song Oğuz qağan beglärgä, el-künlärgä jarlıq berdi, taqí tedi-kim:*

*Men senlärgä boldum qağan,  
Alaling ya taqí qalqan.  
Tamğa bizgä bolsun buyan,*

<sup>84</sup> Qarang: Sodiqov Qosimjon. Qadimgi turk falsafasi. -T.:TDSHI, 2008.

*Kök böri bolsungil uran.  
Temür čidalar bol orman,  
Aw yerdä yurusun qulan.  
Taqī taluy, taqī muran,  
Kün – tug bolgil, kök – quriqan, - tep tedi.*

*Mazmuni:*

To'ydan so'ng O'g'uz xoqon beklarga, el-ulusga yorliq berib, dedi:

Men sizlarga bo'ldim xoqon,  
Yoy va qalqonlarni qo'lga olaylik.  
Bizga ezguliklar tamg'a bo'lsin,

Ko'k bo'ri – jangovor belgimiz bo'lsin.

Temir nayzalar – bo'lgin o'rmon.

Ov yerda qulonlar yursin,

Yana daryo va dengiz (to'lqinlanib tursin),

Kun – (sen bizga) tug' bo'lgin, Ko'k – chodirimiz, - deb aytdi.

Asar O'g'uzning tug'ilishidan boshlanadi. U qirq kunda voyaga yetib yigit bo'ladi. Uning yigitlikdag'i qiyofasi shunday tasvirlanadi: *Adağı ud adağı-teg, belları ·böri belları-teg, yağıri kiş yağıri-teg, köküzü aduğ köküzü-teg erdi. Badanining qamağı tūğ tilüklüg erdi -* Oyog'i buqa oyog'idek, bellari bo'ri bellaridek, yaq'rini suvsar yag'rinidek, ko'ksi ayiq ko'ksidek edi. Butun badani tuk bosgan edi. Asarda turklarning qadim ishonch-e'tiqodi, tasavvur-tushunchalari aks etgan. O'g'uz Ko'k tangrisiga topinadi. Doston voqeа-hodisalari ana shu ishonch-e'tiqod bilan bog'lanadi. Bunga misol keltiramiz: O'g'uz xoqon kunlarning birida Ko'k tangriga sig'inayotgan chog'da tevarakni qorong'ulik bosib, ko'kdan bir yorug' tushadi. U kundan ayon, oydan ham ravshan edi. Shu payt uning ichida bir go'zal qiz paydo bo'ladi. Qiz O'g'uzga ma'qul tushadi va unga uylanadi. Yillar o'tib, uch o'g'il ko'radi. Farzandlariga Kun, Oy, Yulduz deb ot qo'yadilar. Ikkinci xotinini esa ovga chiqqanda ulkan daraxt kavagida uchratadi. Unga ham uylanib, uch o'g'il ko'radi. O'g'illarni Ko'k, Tog', Dengiz deb ataydilar. Muhim jihatlaridan yana biri asarda ko'k bo'ri obrazi berilgan. O'g'uz xoqon cherikni jangga chorlar ekan, «ko'k bo'ri – jangovor belgimiz bo'lsin» deya da'vat etadi. Bo'ri tangrining elchisi bo'lib, unga madad beradi. Buning tafsiloti shunday: Kunlarning birida O'g'uz xoqonning chodiriga kundek yorug' tushdi. O'sha nur ichidan ko'k tusli, ko'k yolli katta bir erkak bo'ri chiqdi.

Bo'ri turkning jasur xoqoniga jangda madad berajagini bildirdi. Ertasi tek uning aytganiday bo'ldi. Ko'k yolli bo'ri cherik oldida yo'l boshlaydi. U boshlagan yo'lida O'g'uz qo'shini zasar qozonadi. Bo'ri to'xtagan yerda u ham to'xtaydi. Shu yerda ayovsiz jang bo'ladi va turk qo'shini yengadi. Asar davomida xoqonning harbiy yurishlari, ulug' zafarlari hikoya qilinadi. Ayrim turkiy qavmlarning kelib chiqishi bilan bog'liq rivoyatlar beriladi.

Uyg'ur yozuvli «O'g'uznomá» keyingi davr tarix kitoblarida berilgan O'g'uz xoqon haqidagi rivoyatlardan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Shu o'rinda mavjud rivoyatlarni o'zaro qiyoslab ko'raylik.

Uyg'ur yozuvli variantida O'g'uz Ko'k tangriga topinadi. Boshqa rivoyatlarda esa Tangri taolo (Alloh)ning birligiga iymon keltiradi. Choqaloq tug'ilishdanoq onasining tushiga kirib, uni hamusulmon bo'lishga da'vat etadi. Masalan, «Tarix-i arba' ulus» va «Shajara-yi turk»da bolaning tili «Alloh» kalimasi bilan chiqadi. Uylangan chog'da ham musulmonlikni qabul etmagan xotinlaridan o'zini uzoq tutadi, musulmon bo'lgan kenja xotini bilan qovushib, undan o'g'illar ko'radi. Uyg'ur yozuvli «O'g'uznomá»da asar qahramoni afsonaviy qiyot (yakkashoh hayvon) bilan jang qiladi va uni yengadi. Yoki asarda ko'k bo'ri obrazi mavjud. Keyingi rivoyatlarda esa bular berilmagan. Keyingi rivoyatlarda O'g'uz otasi Qoraxon bilan jangga kiradi, uni yengib, taxtini o'zi egallaydi. Uyg'ur yozuvli nusxada Qoraxon obrazi yo'q. Qadimiyl variantida O'g'uz birinchi xotinini ko'kdan tushgan nurda uchratib, unga uylanadi. Ikkinci xotinini esa ovga chiqqanda ko'l o'rtasidagi daraxt kavagida uchratadi. O'g'illari ikkov xotinidan. Keyingi variantlarda esa u amakilarining qizlariga uylanadi. Lekin farzandlarining oltovini kenja amakisining musulmon bo'lgan qizidan ko'radi. Umuman turli variantlarda bunday farqlarni kuzatish mumkin. Biroq, rivoyatlarni birlashitrib turuvchi motivlar ham oz emas. Bunga tubandagilar o'mak.

Rivoyatlarning barida O'g'uz xoqon olti farzand ko'radi. Farzandlarining oti koinot va tabiatdagi ulug' narsalarning oti bilan atalgan: Kun, Oy, Yulduz, Ko'k, Tog', Dengiz. O'g'uz xoqon rivoyatlarining aksariyatida turkiy xalqlarning tarixi mujassam. Yanada muhimi, qissalarda uyg'ur, qipchoq, qarluq, qangli, xalach kabi qavmlarning kelib chiqishi bilan bog'liq ajoyib rivoyatlar berilgan. Turklarning bu keksa qavmlari, qissalarda qayd etiluvicha, O'g'uz xoqon zamonda shakllangan. E'tiborga loyiq yeri shundaki,

rivoylarda, o'rni bilan, ushbu qavm otlarining asl ma'nosini (etimologik izohlari) ham keltiriladi. Chunonchi, Abulg'oziy asarlarida uyg'ur qavmining shakllanishi quyidagi voqeaga bilan bog'lanadi: O'g'uz bilan Qoraxon oralarida kechgan jangda amakilarining o'g'illari Qoraxon cherigidan ajrab O'g'uzxonga borib birlashadilar. O'g'uz bundan mammun bo'ldi va ularga uyghur (ya'ni «qo'shilgan, birlashgan, uyushgan») otini berdi. Shu o'rinda asar muallifi ushbu so'zning ma'nosini xususida yozadi: *Lafz-i uyğur türk tili turur, ma'nisi barçağa ma'lum turur, yapışğur ma'nisina turur. Ayturlar: süt uyidi. Süt erkânindä biri birinden ayrılur erdi, qatıq bolğandin song biri birigä yapışa turur. Bu taqî ayturlar-kim, imamga uyidim. Imam oltursa, oltura turur, tursa, tura turur. Bas, yapışqanı bolmasmu?*

«Shajara-yi turk»dagi *uyidi* so'zi hozirgi o'zbekchada *ïwidi* (*qatıq ïwidi, süt ïwib qatıq boldi*) shaklida qo'llanadi. Yoki *yuşmaq* fe'li ayni so'zdan. Yana grammatikada: *yuşiq böläkt* ma'nolarida keladi.

Qipchoqlarning kelib chiqishi esa shunday voqeaga bog'lanadi: O'g'uz xoqonning beklaridan biri navbatdagagi yurishga ko'chini (xotinini) ham olib borgandi. Jangda o'zi o'ldi. Bevasi yukli edi, oy-kuni yaqinlashib, to'lg'oq tuta boshladi. Kun sovuq, berk joy yo'qligidan ayolni katta bir g'ovak daraxt ichiga olib kirdilar, xotin o'sha yerda "ko'zi yoridi". Bola daraxt g'ovagida tug'ilgani uchun O'g'uz unga *Qipčaq* deb ot qo'ydi. Shu o'rinda asar muallifi yana yozadi: *Qadim türk tilindä içi boş yağaçní qipčaq derlär erkändür. Anıng üçün ol oğlan yağaç içindä tuğdî tep atın Qipčaq qoydilar. Bu vaqtida ham içi boş yağaçní qipčaq deytururlar. Şul qipčaq turur-kim, čipčaq deytururlar.*

O'g'uz xoqon Qipchoqni o'zi katta qildi, ulg'aygach, unga elu navkar berib, Tin va Itil suvining yoqasidagi yurtlarga bosh bo'ldi, uning eli qipchoqlar deyildi. Rivoylarda qarluq, qangli, xalach qavmlarining ham kelib chiqishi xuddi shunday hikoya qilinadi.

Tarix kitoblarida ta'riflanishicha, O'g'uz xoqon juda eski zamonda o'tgan hukmdordir. Uning hukumronlik davri yuqorida zikr etilgan keksa turkiy qavmlarning shakllanayotgan bosqichiga to'g'ri keladi. O'g'uz xoqon tarixiy shaxsmi yoki yo'qmi, qat'iy nazar, doston va rivoylarda badiiy obrazdir. Muhimi, «O'g'uznoma» dostonida turkiy xalqlarning ko'k tangri dini davridagi ishonch-e'tiqodi, tasavvur-qarashlari aks etgan. Asarda O'g'uzning Ko'k tangriga

topinishi, o'g'lonlariga koinot va tabiat jismilarining oti berilgani, ko'k bo'ri obrizining uchrashi turklarning islomdan ancha burungi, xususan, ko'k tangri e'tiqodi davridagi tasavvurlarining ifodasidir.

Qadimgi variantda yorug'liq ham alohida o'rinn tutadi. Ko'k-dan tushgan yorug'liq orasida bir sohibjamol paydo bo'lib, O'g'uz-ga ma'qul tushadi va unga uylanadi. Boshqa bir o'rinda O'g'uzning chodiriga yorug'liq tushib, ichida ko'k bo'ri paydo bo'ladi va xoqonga ko'mak beruvini bildiradi. Bu o'rindagi ko'k bo'ri (bo'zbo'ri) ko'k tangri dini ta'sirida asarga kiritilgan. Biroq uning yorug'liq orasida paydo ulishi moniylik bilan bog'liq. Ko'rindik, mazkur dostonda bir tomondan turklarning ko'k tangri muhitidagi qarashlari aks etgan bo'lsa, ikkinchidan, unda moniylikning ta'sirini kuzatish mumkin. Demak, dostonning ildizi ko'k tangri muhitiga tarmoq otgan. Sharqiy turklar moniylikni qabul qilganlaridan so'ng, doston qayta ishlanib, yangi muhitga moslashtirilgan: ko'hna motivlar moniylikning tasavvurlari bilan boyitilgan. Aytish mumkinki, uyg'ur yozuvli «O'g'uznama» O'g'uz dostonlarining moniylik davrida qayta ishlangan, turklarning shu kezga qadar bo'lgan e'tiqod va tasavvurlari sinkretik holda mujassamlashgan variantidir. O'g'uz xoqon haqidagi rivoyatlar islom muhitida ham keng tarqaldi. Qadim rivoyatlar qayta ishlanib, ushbu muhitga moslashtirildi. Bu esa, o'z navbatida, asarning asrlar osha yashab qolishiga imkon tug'dirdi. Islom muhitida ham asarning yangi-yangi variantlari yuzaga kela boshladi. Xususan, tarix kitoblarida keltirilgan rivoyatlar uning ana shu jarayonda shakllangan variantlaridir. O'zbek xalq og'zaki ijodida Xorazm adabiy muhitida hatto XVII asrda ham O'g'uzxon dostonlari keng tarqalgan edi. Asar turkiy xalqlar adabiyoti tarixida turli variant va versiyalarda tarqalgan. Ularning eng eskisi uyg'ur yozuvli «O'g'uznama»dir. U boshqa variantlardan hali islom ta'siriga berilmagani bilan ajralib turadi. Tarix kitoblarida keltirilgan rivoyatlarni esa islom davrida qayta ishlangan deyish mumkin.

Qadimgi turk falsafiy qarashlarini o'rganishda ko'k turk yozuvida bitilgan bitigoshlar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ko'k turk xoqonliqlari davrida yaratilgan va hozircha fanga ma'lum bo'lgan yozma yodgorliklardan eng eskisi Bug'ut bitigoshidir. Birinchi ko'k turk xoqonlig'i davrida tiklangan ushbu bitigosh Mo'g'ulistonning Arxangay aymog'idan topilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, toshdagi yozuv aslida ikki tilli bo'lgan. Hozirgi saqlanib

qolgani – toshning keng qismi va ikki tor biqinidagi matni sug'dcharidir. Toshdag'i sug'dcha matnda ushbu qabr toshini turklar o'matganligi qayd etiladi.<sup>85</sup> Toshning boshqa yog'i esa ancha yemirilgan. Unda harf izlarinigina ilg'ash mumkin, xolos. Lekin bu matn qay yozuv va qay tilda ekanini aniqlashning imkoniy yo'q. Ayrim olimlar ushbu matn xitoycha, ba'zilar brahma xatida bo'lgan deb faraz qilmoqdalar. Negadir, hech kim ko'k turk xoqonlig'i da tiklangan yodnomada ikki tilli matndan biri albatta turkiyda bo'lishini o'ylab ham ko'rmayapti. Nima bo'lganda ham, uning brahma yozuvida ekanligi dargumon. Chunki brahma xati buddiylik muhitida amal qildi. Shunga ko'ra, uni brahma yozuvli matn deya faraz qilishga asos yo'q. Kuzatuvlar bir to'xtamga olib keladi: ehtimol, u sug'dcha matnning turkiy versiyasi bo'luvi mumkin. Yodgorlikning turk xoqonlari tomonidan o'matilgani ham bunga dalil.

Ikkinch'i ko'k turk xoqonlig'i davridan saqlangan bitiglar ancha. To'nyuquq (712-716 ...?), Kuli-cho'r (721-y.), Qutlug' xoqon (Ungin) (731-y.), Kul tigin (732-y.), Bilga xoqon (735-y.) shu davrning muhim obidalari. Ular o'sha kezlar yashab o'tgan turk xoqon va amaldorlari xotirasiga tiklangan. Fanda O'rxun obidalari nomi bilan yuritiladi.

O'rxun obidalari ichida matn solmog'i, mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, mundarijasining o'zaro yaqinligi bilan ikki bitig ajralib turadi. Ular Ikkinch'i ko'k turk xoqonlig'i quruvchisi Eltarish xoqonning ikki o'g'li - Bilga xoqon va Kul tigin sharafiga o'rnatilgan. Mangutoshlar Kosho Saydam vodiysi Ko'kshin-O'rxun daryosining yaqinida biri-biridan 1 km. uzoqliqdagi o'zi o'rnatilgan joyidan topilgan.

Kul tigin va Bilga xoqon yodgorliklari o'sha kezlar butun bir maqbara kompleksidan iborat bo'lib, o'z davrining ajoyib obidası sifatida qad rostlagan. Maqbaralar el-ulusning qutlug' ziyoratgohlari edi. Ularni qurishda bino arxitekturasiga, hashamiga jiddiy e'tibor qilganlar. Binosini mashhur me'mor va naqqoshlar ishlagan. Chunonchi, Kul tigin bitigida qayd etiluviga qaraganda, mazkur ziyoratgohni bezash uchun tabg'ach xoqoni o'zining saroy naqqoshini yuborgan. Uning ich va tashiga naqshlar ishlangan; to'riga mangutosh tiklanib, xoqonning ko'ngildagi so'zlar bitilgan<sup>86</sup> Hozirgi ko'rinishi esa o'sha

<sup>85</sup> Qarang: Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jaev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. –T.: «Yozuvchi», 2000.

<sup>86</sup> Qarang: Sodiqov Q. Qadimgi turk falsafasi. –T.: TDSHI, 2008.

muhtasham yodgorlikning qoldiqlari, xolos. Kul tigin bitigi ikki tilli: yodgorlikning o'ng yuzi va yon yoqlaridagi bitig turkiy, ters yuzidagisi xitoycha. Turkiy matn muallifi adib va tarixnavis Yo'llug' tigin, xitoycha matnni esa tabg'achlik Chang Sangun yozgan. Oradan uch yil o'tib tiklangan Bilga xoqon bitigining muallifi ham Yo'llug' tigin. Bitiglar ulug' yo'lboshchilar, qahramonlar xotirasiga bitilgan yodnomalardir. Ularda xalq qahramonlari ko'zi tirikligida ko'rsatgan mardliklar, yurt ozodligi, fuqaro tinchligi yo'lidagi jasorat va xizmatlari yod etiladi. Qolaversa, bitiglarda aks etgan tarixiy voqealar muallifning yagona maqsadi emas. Tarixiy voqealar turk qahramonlari obrazini yaratish va bu qahramonlarni madh etishga son bo'lib xizmat qiladi.<sup>87</sup>

Matn badiiy tilda. Uning ajoyib uslubi, g'oyasi yodnomalarni badiiy asar darajasiga ko'targan. Bitiglar shu jihatdan tarixiy asarlarga emas, turkiy yozma adabiyotning eng ko'hna namunalari hamdir. Kul tigin va Bilga xoqon yodnomalarining asosiy qismi turkiy qavmlarning uzoq va ideal o'tmishi – Birinchi ko'k turk xoqonlig'i davrini xotirlash bilan boshlanadi. Bitiglarda ta'riflanuvicha, bir paytlar Sharqda Qadirqan yishdan G'arbda Temir qopiqqa qadar ulkan zaminda Bumin xoqon va Istami hukmronlik qilib, turkning erkin va qudratli davlatiga bosh bo'lib turganlar. Ular dono xoqon ekan, bahodir ekan, vazirlari ham botir va oqil, xalqi ham xalol bo'lgan ekan. Ikkov xoqon davlatni shu xilda tutib, vafot etgan. Shundan so'ng ularning inisi va o'g'li taxtga chiqibdi. Lekin ular otalariday yo'l tutmabdi. Ular johil, badfa'l, vaziri ham ochko'z, yovuz ekan. Shunga yarasha, beklari, xalqi orasidan ham insof va baraka ko'tarilibdi. Turk davlati tanazzulga yuz tutibdi. Hiylakor tabg'ach bundan foydalanib, fitna qo'zg'abdi. Oqibat, turk xalqi davlatini qo'ldan chiqazibdi; xoqonini yo'qotibdi, bek bo'ladigan o'g'loni bilan tabg'achga qul bo'libdi, suluv qizi bilan cho'ri bo'libdi. Turk beklari turkcha otini tashlab, o'zlariga tabg'achcha nom olib, yovga qaram bo'libdi. Tabg'ach xoqoni: «Turk xalqini o'ldiraylik, urug'ini qoldirmaylik», deya uni yo'qotmoqqa bel bog'lagan ekan. Ammo tangri inoyati, turkning muqaddas yer-suvining sharofati bilan Eltarish xoqon turkka bosh bo'libdi. U ernalning boshini qovushtirib, kurashga otlanribdi. Tabg'achga qarshi kurashib, davlatini, xoqonini yo'qotgan, qulga aylangan, hukmronligini boy bergen turk xalqini qayta

<sup>87</sup> Стеблева И.В. К реконструкции древнитюркской религиозно-мифологической системы // Тюркологический сборник. - М., 1991. - С 279.

oyoqqa turg'azibdi, ota-bobolar qonun-qoidasini tiklabdi. U qudratli davlat barpo etibdi. Uning davrida turk eli mislsiz farovonlikka yetishibdi, erkin-emin yashay boshlabdi. Shundan so'ng bitiglarda davlatni mustahkamlash yo'lida Eltarish, Bo'gu, Bilga xoqon, Kul tigin singari turk xoqon va sarkardalari boshchiligidagi kechgan kurashlar, sarkardalar ko'rsatgan qahramonliklar hikoya qilinadi. Bu voqealar Ikkinchini ko'k turk xoqonlig'i davrida ro'y bergan.

Diqqatga molik yeri shundaki, ikkala bitigda matnning asosiy bo'lagi muallif Yo'llug' tilidan emas, balki Bilga xoqon tilidan hikoya qilinadi. Boisi, bitiglarda turk xoqonining o'z eliga murojaati, da'vati yozilgan. Xoqon butun turk ulusini, kelajak avlodni o'z so'zlariga qulqoq tutmoqqa undaydi: «So'zimni tugal eshitgil mendan keyingi ini, jiyanim, o'g'illarim, ittifoq, urug'im, xalqim, o'ngdag'i shadapit beklari, chapdag'i tarxonlar, buyruq beklari, o'ttiz ... to'qqiz o'g'uz beklari, xalqi, bu so'zlarimni yaxshilab eshit, qunt bilan tingla!» Matn davomida bu murojaat yanada jiddiy lashadi. Xoqon turk uluslarini birlashishga, tinch-ittifoqligka, otalar zahmat ila qo'lga kiritgan istiqlolni asrab, turk davlatini himoya qilishga da'vat etadi. O'tmishni eslatib, undan saboq olish, yov hiylalaridan ogoh bo'lishga undaydi. Ulug' yo'lboshchi eliga qarata: «Bu xoqoningdan, bu beklaringdan, yeringdan, suvingdan ayrimasang, turk xalqi, o'zing ezgulik ko'rajaksan, uyingga kirajaksan, betashvish bo'lajaksan», - deya xitob qiladi.<sup>88</sup> Bitiglarning bosh g'oyasi ham, asosan, shular bilan belgilanadi. Bilga xoqonning butun turk uluslariga murojaati, o'z navbatida, o'sha kezlarda barcha uchun umumiy turkiy adabiy til amal qilganidan dalolatdir. Bitiglarda Bumin, Istami, Eltarish, Bilga xoqon, Kul tigin singari tarixiy shaxslar adabiy qahramon sifatida gavdalanadi. Ushbu turk xoqon va sarkardalari ulug' yo'lboshchilar, turkiy ulusning milliy qahramonlari darajasiga ko'tarilib, madh etiladi. Asarlarda ta'riflanuvicha, tuk qahramonlari el ozodligi, uning osoyishtaligi yo'lida tunu kun tinim bilmaydi: Turk xalqi uchun tun uxlamadim, kunduz o'tirmadim. Xalaskorlarning qo'l ostida yurtda tinchlik qaror topib, el ko'paydi, fuqaro to'q yashadi. Bu vaziyat Bilga xoqon tilidan shunday tasvirlanadi: Tangri yorlaqagani uchun, qutim, nasibam bor uchun o'layotgan xalqni tiriltirib oyoqqa qo'ydim. Yalang xalqni to'nli

<sup>88</sup> Qarang: Qarang: Sodiqov Q.Qadimgi turk falsafasi. -T.: TDSHI, 2008.

qildim, qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko'paytirdim. Yoki boshqa bir o'rinda: U zamonda qul qulli, cho'ri cho'rili bo'lgan edi.

Mangutoshlarda bitilishicha, bu qahramonlar bo'lmaganda xalq qirilib bitardi: Tangri yorlaqaganı uchun, men muvaffaqiyat qozonganı uchun turk xalqi zafar qozondi. Men davlatni shunday boshqarmasam, turk xalqi o'lajak edi, yo'q bo'lajak edi. Kul tigin bitigida bu xususda «Kul tigin bo'lmaganda, butunlay o'lar edingiz» deb yozilgan. Tangri turk xoqoniga, elning milliy qahramoniga jasur va yengilmas lashkar ato etgan, dushmanini esa nochor qilgan: Tangri kuch bergani uchun otam xoqonning lashkari bo'riday ekan, dushmani qo'yday ekan. Qahramonlarning qo'li yov ustidan baland keladi: Hammasi bo'lib yigirma besh marta lashkar tortdik, o'n uch marta jang qildik. Eli borni elidan judo qildik, xoqoni borni xoqonidan ayirdik, tizzasi borni tiz cho'ktirdik, boshi borni ta'zim ettirdik.

Elparvar xoqon mamlakat notinchligi, ulusning uyushmaganidan, ba'zan uning yovlar ta'siriga tushib qolishidan aziyat chekadi, bezovta bo'ladi. Elini dushman hiylalaridan ogoh bo'lishga, uning qimmatli tortiqlariga uchmaslikka chaqiradi: Tabg'ach xalqi so'zi shirin, ipakligi nafis ekan. Shirin so'zi, nafis ipakligi bilan aldab, yiroq xalqni o'ziga shunday yaqinlashtirib olar ekan. Yaqin bo'lgandan so'ng yovuz ilmini u yerda ko'rsatar ekan. Yoki: Turk xalqi, to'kis ishonuvchisan. Samimi, nosamimiyni ajratmaysan. Bir tutoqsang, samimiyni farqlamaysan. O'shandayliging uchun (seni) ardoqlagan xoqoningning so'zini olmayin, har yerga tarqab ketding. U yerda xo'p g'oyib bo'lding, badar ketding. Yana boshqa bir o'rinda: Tepadan osmon bosmasa, pastda yer yorilmasa, turk xalqi, elingni, hukumattingni kim buzzdi? ... O'zing adashding, yomonni kiriting. Qurolli qaydan kelib tarqatib yubordi, nayzali qaydan kelib surib ketdi?<sup>89</sup>

E'tiborga loyiq tomoni shundaki, Kul tigin bitigida matn bo'ylab davom etib kelayotgan ko'tarinkilik asar so'ngida keskin o'zgaradi, qahramonlik dostonlariga xos bir ruh o'rnini xazin mazmun egallaydi. Bilga xoqon inisi Kul tigining o'limidan qayg'u-alam chekadi: Inim Kul tigin vafot etdi. O'zim alam chekdim. Ko'rар ko'zim ko'rmasdek, bilar aqlim bilmasesdek bo'ldi [es-hushimdan ayrıldim], o'zim alam chekdim. Dunyonı tangri yasaydi, inson bolasining bari o'ladijan qilib yaratilgan. Shunchalik alam tortdimki, ko'zga yosh kelsa, azob berib

<sup>89</sup> Qarang: Sodiqov Q.Qadimgi turk falsafasi. –T.: TDSHI. 2008.

ko'ngildan yig'i kelsa, qayta qayg'urdim, qattiq alam chekdim. Matnning bu bo'lagi Yenisey atroflaridan topilgan qabr bitiglarining mazmuniga o'xshab ketadi. Ta'kidlash joizki, Kul tigin bitigida bunday mazmunning aks etuvi tabiiy. Chunki bitig marhum xotirasiga o'matilgan bo'lib, matni uning og'asi tilidan so'zlanmoqda.

Bilga xoqon yodnomasiga kelsak, matnning asosiy –xoqonning o'z tilidan so'zlangan qismida marsiya yo'q. Biroq, bitig nihoyasida, xoqon so'zi yakunlangandan so'ng uning muallifi Yo'llug' tigin o'z so'zlarini bitib, otasi o'limidan chekkan qayg'usini izhor etadi. Matnning bu bo'lagidan uzuq-yuluq jumlalar saqlangan. Mana o'sha jumlalar: ... Bilga xoqon vafot etdi. Yoz bo'lsa, yuqorida falakning toqi ... tog'da kiyik chopsa, o'layman otam xoqonni (Xs). Yo'llug' tigin xuddi shunday dardu alamini o'zining avvalgi asari – Kul tigin yodnomasining oxiriga ham yozib qoldirgan. U yerda ham muallifning ko'ngildagi so'zları xoqon nutqi tugagandan keyin keltiriladi. Mana o'sha satrlar: Panohtalab o'g'loningizga, tayanuvchingizga qiyinchilikda tarbiyat qilar edingiz. Vafot etdingiz. Tangri yashatuvchidir Kul tigin va Bilga xoqon bitiglari xoqon va ulug' sarkarda xotirasiga tiklangan oddiy qabr yozuvlari emas. Ular ulug' yo'lboshchingning butun turk uluslariga, kelajak avlodga murojaati, o'gitlaridir. Bitigtoshlar tiklangan manzilni xalq ziyorat etib, ulug' xoqon, milliy qahramonlar nomini yod etgan. Bitiglarni o'qib, ulardan saboq olgan.

Qadimgi turk falsafiy qarashlarini o'rganishda Oltoy o'lkasi, Yenisey tevaragidan topilgan ko'k turk yozuvli bitigtoshlar ham katta ahamiyatga ega. Ta'kidlash kerakki, mazkur bitiglardan ko'pining o'matilgan davri noma'lum. Ehtimol, ba'zilari O'rxun obidalari bilan chog'dosh, hatto ulardan ham eskiroq chiqar? Lekin ular o'zga muhitda, o'zga maktab namoyandalari tomonidan yaratilgan. Ularning xos an'anasi bor. Yenisey obidalarining e'tiborga loyiq belgilardan biri ularda matn marhumning o'z tilidan hikoya qilinadi. Marhumning o'z oilasi, yaqin kishilari, el-yurtidan ayriliq qayg'usi ifodalananadi; uning boshdan kechirganlari, farovon va to'q, sonsiz yilqiyu boylikka ega bo'lgan hayoti xotirlanib, yorug' dunyodan erta ketganligiga o'kinch bildiriladi. Ayrim qabr toshlarida marhumning ko'zi tirikligida ko'rsatgan jasoratlari tarixiy fonda hikoya qilinadi.<sup>90</sup>

<sup>90</sup> Qarang: Masos C. E. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследование. - М.-Л., 1951.

## Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar

1. Ko'k turk falsafasini sharhlang.
2. Ko'k turk tasavvur va tushunchalarini tavsiflang.
3. Ko'k turk madaniyati, san'ati va adabiyoti. ularning falsafiy asoslarini izohlang.
4. Qadimgi Turkiylar madaniyati bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
5. "Ko'ktangri dini" mavzusida falsafiy esse yozing.
6. Bilga Hoqon va Qultegin bitiklariga oid internet materialarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
7. To'nyuquq bitigining o'ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.
8. Mavzu yuzasidan B/B/B jadvalini to'ldiring (1-ilova).
9. Insert usulidan foydalanib, quyidagi jadvalni to'ldiring (2-ilova).
10. FSMU jadvalini to'ldiring (3-ilova).

**1-ilova**

"Bilaman, bilmoqchiman, bildim" jadvalini to'ldirish.

Bilaman	Bilmoqchiman	Bildim

### Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

3. Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

Q - men uchun yangi ma'lumot

- – men bilgan ma'lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

4. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.			.	

**FSMU uchun topshiriq: “Turkiylar falsafiy ta’limoti” g‘oyasini tahlil etish**

Yo‘naltiruvchi uslubiy tavsiya:

Turon, turkiylar, Ko‘kturk, “Qultigin”, To‘nyuquq, O‘rxun-Enasoy bitiklari, Irq bitigi, Ko‘k tangri, ezgulik, yovuzlik, ta’limot.

Savol	Turkiy bitiklar falsafiy g‘oyalari
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

**O‘quv topshiriq:**

“Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo‘linib ishlash” orqali o‘qituvchi talabalarni to‘rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

**1 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Ko‘k turk falsafasini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida).

10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

## 2 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Ko'k turk tasavvur va tushunchalarini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

## 3 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Turk -moniy ta'lilotining tavsifini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruqlar	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faoliigi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					
3.					
4.					

#### 4 – guruh topshirig'i

1-bosqich. Ko'k turk madaniyati, san'ati va adabiyoti, ularning falsafiy asoslarini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruqlar	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog'ining to'ldirish sifati	Guruh faoliigi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

#### Guruh bo'yicha babolash mezonlari

Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.

Har bir talab bo'yicha – 2 ball

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazma-lilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faoliigi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					
3.					
4.					

## Hisob natijasi

Guruqlar №	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball
1.					
2.					
Umumiy hisob ballari					
Baho					

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. --T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.--T.: TDSHI, 2006.

## **15 – mavzu. ARAB XALIFALIGI VA MUSULMON SULOLALARI HUKMRONLIGI DAVRIDA MADANIYAT**

### **Reja**

1. Arab xalifaligi madaniyatining shakllanishi.
2. Arab xalifaligida ilm-fan, san’at, me’morchilik va din.
3. Jahon madaniyati taraqqiyotida arab miniatyurasining yuzaga kelishi.

### **Mavzuning tayanch tushunchalari**

*Arablar, Arab xalifaligi, islom dini, Horun ar-Rashid, “Bayt ul-hikma”, Ma’mun, Sharq renessansi, Bag’dod, “Ming bir kecha”, arabeyska, arab-musulmon madaniyati, islimiylar, ibn Sino, Forobiyl.*

Jahon tarixida ulkan iz qoldirgan davlatlardan biri bu arab xalifaligidir. Arab xalifaligi davri O’rta Osiyo, Eron, Afg'oniston, Yaqin va O’rta Sharq, shimoliy Hindiston, Pirenuya yarim oroli va shimoliy Afrika xalqlarining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida o’ziga xos yuksalish davrini belgilab berdi. Arab istilochilari xususida shubhasiz yeng asosiy ma'lumotlarni arab, musulmon mualliflari berib o’tganlar. Islom dinining vatani Arabiston yarim orolidir. Arablar semit qabilalari guruhiga mansub bo‘lib, asosan ko‘chmanchi, chorvachilik bilan hayot kechirgan.

IX-XII asrlarda islom dini O’rta Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixida, juda katta ahamiyat kasb yeta boshladi. O’sha davrda Movarounnahrda, arab xalifaligidan mustaqil bo‘lgan davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi yuzaga kelgan. Bu vaqtga kelib, Sharqda islom dini keng tarqalib jahon dini darajasiga ko‘tariladi va musulmon dunyosining mafkurasiga aylanadi. O’rta Osiyoda Islom madaniyatini targ‘ib qilgan arab qabilalari tomonidan, mamlakatlarda yangi arab rivojlanishi vujudga kelgan. Yangi arab mamlakatlarining, rivojlanishida Islom dinining o’rni juda katta bo‘lgan. G‘arbiy Osiyoning qadimgi yuksak madaniyatli o’lkalariga kelgan arablar

dastlab Yunonlar, Yaxudiylar, Suriyaliklar va Forslarga nisbatan qoloq bo‘lgan, lekin bu xalqlar madaniyatini o‘zlarida singdirib yanada yuksakroq madaniyatni yaratishga harakat qilganlar<sup>91</sup>.

Xususan xalifa Xorun ar-Rashid saroyida IX-asrda “Bayt ul-hikma” “donishmandlik uyi” tashkil etilgan. Shundan so‘ng matematika, astranomiya, geografiya kabi aniq fanlar o‘z taraqqiyotiga erisha boshlagan. Bu jarayon yesa hunarmandchilik va savdoning yuksalishiga sabab bo‘lgan.

Arab xalifaligi mamlakatlarida IX-X asrlarda adabiyot va san’at yuksak cho‘qqilarga ko‘tariladi. Adabiyot sohasida ko‘plab shoir va yozuvchilar samarali ijod qilib o‘z o‘rniga ega bo‘lganlar. Savdogar va sayyoohlар узоқ о‘лkalardan faqat g‘aroyib buyumlarnigina yemas, ajoyib sarguzashtlar, hikoyalar, o‘zga xalqlar afsonalarini ham olib kelganlar. Bular haqida yesa xalifa saroyida, zodagonlar bazmlarida so‘zlab berganlar. Ushbu sarguzashtlar, afsona va yertaklar asosida arab adabiyotining ajoyib durdonasi “Ming bir kecha” asari yaratilgan. Arab xalifaligida san’atning barcha sohalariga nisbatan me’morchilik yuksak taraqqiy yetgan. Arab mamlakatlarida me’morchilikning yuksak namunalari, muhtasham saroylar, masjid-u madrasalar va qal’alar me’morlar tomonidan bunyod etilgan .

Avvalo, Arab xalifaligida nisbatan tinch, osoyishta hayot ta’millangan. Bu esa xo‘jalik (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq)ning yanada yuksalishiga imkon bergen. Bu omil o‘z navbatida madaniyatning taraqqiy yetishiga shart-sharoit yaratgan.

Ikkinchidan, istilo natijasida xalifalikka birlashtirilgan turli o‘lka xalqlari (Suriya, Misr, Eron, O‘rtal Osiyo, Kavkazorti, Shimoliy Hindiston)ning ilg‘or madaniyati imkon qadar bir-birini boyitdi. Bu o‘rinda yagona davlat tili - arab tilining ilm-fan tiliga aylanganligi katta ro‘l o‘ynagan. Buyuk allomalar qaysi xalq vakillari bo‘lmasin, arab tilida ijod qilganlar. Bu omil xalifalik tarkibidagi turli xalqlarga bir-birining madaniyati yutuqlaridan foydalanishga imkon yaratgan.



Yaqin va O‘rta Sharq mintaqasi

<sup>91</sup> Qurang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P.9.

Binobarin, xalifalik madaniyatini fagaqt arablar yemas, xalifalik tarkibiga kirgan barcha xalqlar yaratganlar.

Uchinchidan, arablar ham o'z-lari istilo yetgan o'lka xalqlarining ilg'or madaniyati durdonalarini qunt bilan o'rganganlar.

To'rtinchidan, Mansur, Horun

ar-Rashid, Ma'mun kabi abbosiy xalifalar ilm-fan, madaniyat rivojiga homiylik qilganlar. Bu omillar, shubhasiz, madaniyatning yuksak darajada taraqqiy yetishini ta'minlagan.

Arab xalifaligi mamlakatlari madaniyatida san'at, ayniqsa, me'morchilik san'ati alohida o'rinn tutgan. Go'zallikda tengi yo'q hukmdorlar saroylari soya-salqin, yam-yashil bog'lar ichida bunyod etilgan. Ularda favvoralar mavjud bo'lgan.

Shahar me'morchiligi ham juda rivojlangan. Shahar ko'chalariga tosh yotqizilgan. Ko'chalar chiroqlar bilan yoritilgan. Masjidlar shahar ko'rkiga-ko'rk qo'shgan. Masalan, VIII - IX asrlarda Qurdoba buna yod etilgan masjidga 600 dan ortiq marmar ustun ishlatalilgan. Ustunlar nihoyatda nafis bo'lib, ular masjidga ulug'vorlik baxsh yetgan. Qohira shahridagi Hasan masjidi tepasiga qurilgan balandligi 55 metrli gumbaz ham kishilarni hayratga solgan. Arab quruvchilar ajoyib saroylar, maqbaralar va qal'alar qurishlari bilan shuhrat qozonganlar. Amirning Ispaniyaning Granada shahridagi Al-Humro saroysi butun dunyoga mashhur. Halifalikning har bir shahrida albatta masjidlar buna yod etilgan. Masjidda namoz o'qishdan tashqari, shuningdek, shariyat sudining majlislari o'tkazilgan, kambag'allar uchun to'plangan pullar saqlangan, bu yerga butun tevarak-atrofdagi musulmonlar kelishgan. Aynan shu tufayli masjid qurilishiga katta ye'tibor berilgan. Masjidning asosiy binosi – hovliga qaratib qurilgan to'rburchakli zal. Hovli ustunli ayvonlar bilan o'ralgan, u yerda musulmonlar quyoshdan saqlanganlar. Hovli o'rtasida namoz boshlanguncha tahorat olish uchun hovuz Joylashgan. Ba'zan hovli tepasi gumbaz bilan yopilgan. Masjid yonida albatta minora bo'lgan. Ammo masjidning yeng muhim va mo'tabar qismi mehrob edi. Bu masjidning Makkaga qaratilgan devoriga ishlangan mahsus tokcha bo'lgan. Namoz paytida musulmonlar yuzlarini mehrobga qaratishadi. O'zining hashamatni, boy naqshlari bilan bir necha masjidlar



Arabeska

musulmonlar orasida shuhrat qozongan. Ularning orasida Fustatdag'i VII asrda qurilgan Amir masjidi, Kufadagi Jome masjid, Makkadan so'ng o'z ahamiyati jihatidan musulmonlarning ikkinchi muqaddas sajdagohi hisoblangan Quddusdag'i Al-Aqso masjidi va Damashqdagi mashhur "Qoya gumbazi" ibodatxonasini aytish mumkin. Islom odamlar va hayvonlar tasvirini tushirishni qoralagan.

Ilm-fan taraqqiyoti yo'lida arablar qadimgi yunon Ulamolarining asarlarini qunt bilan o'rganganlar. Ulardan yeng muhimlari arab tiliga tarjima qilingan. Bular: Aristotel, Arximed, Gippokrat, Ptolomey, Yevklid kabi allomalarning asarlari edi. Bu asarlarning arab tilidagi nusxalari lotin tiliga qayta tarjima qilingan. Yevropa olimlari shu tarjimalar orqali bu asarlardan bahramand bo'lganlar<sup>92</sup>.

Yirik shaharlar ilm-fan markaziga aylangan. Bag'dod, Qurdoba, Qohira kabi shaharlarda yirik oliy o'quv yurtlari - madrasalar ochilgan. Ularda diniy bilimlar qatori dunyoviy ilmlar ham o'qitilgan. Minglab kitob xazinasiga ega bo'lgan kutubxonalar qurilgan.

Xalifa Horun ar-Rashid (786-809) Bag'dod shahrida ilm-fan markazi bunyod yetti. Bu markaz "Bayt ul-hikmat" deb ataldi. Xalifa Ma'mun (813-833) „Bayt ul-hikmat”ning har tomonlama mustahkamlanishiga katta hissa qo'shgan. Bag'dod, Damashq kabi shaharlarda katta-katta rasadxonalar bunyod etilgan.

Xalifalik xalqlari madaniyati Yevropaga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu o'rinda arablarning Pireney yarim oroli (hozirgi Ispaniya)da tashkil yetgan Qurdoba xalifaligi alohida o'rinn tutgan. Qurdoba shahrida 27 ta oliy o'quv yurti (madrasa) ochilgan edi. Bu o'quv yurtlarida mashhur olimlar, shu jumladan, musulmon bo'lmagan olimlar ham dars berishgan. O'quv yurtlarida arablardan tashqari Yevropa-ning turli mamlakatlardan kelgan talabalar ham saboq olishgan.

Aniq fanlarning yuksak taraqqiyoti bu davr mamlakatlari madaniyatining o'ziga xos xususiyatidir. Bu fanlar ravnaqiga yeng ko'p hissani buyuk bobolarimiz qo'shganlar. Ular orasida Muhammad Al - Xorazmiy va Ahmad Al - Farg'oniy alohida o'rinn tutadi. Al-Xorazmiy algebra fanining asoschisidir. Xalifa Horun ar-Rashid uni Bag'dodga taklif etgan. Keyinchalik u „Bayt ul-hikmat”ga rahbarlik ham qilgan. Al-Xorazmiy hindlarning o'nlik raqam tizimini mukammallashtirgan. Buning natijasida har qanday sonni ham o'nlik

<sup>92</sup> Qurang: Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004 P.10.

sanoq tizimiga kiruvchi raqamlar bilan ifodalash mumkin bo'lgan. Bu hodisa o'sha davr uchun buyuk kashfiyat edi. Uning nomi algoritm tushunchasiga aylandi va tarixda abadiy qoldi.

VIII – X a.larda Arab xalifaligining ulkan hududida arab tili muloqot tili bo'lgan. Bu tilda Qur'on yozilgan. Shuning uchun o'sha davrdagi barcha olimlar va faylasuflar o'z asarlarini arab tilida yozishgan, qadimgi davrning eng muhim asarlarini arab tiliga tarjima qilishgan, maktablarda arab tili o'qitilgan. Arab tilini "Sharqning lotin tili" deb atashgan, uning keng tarqalishi yessa shunga olib keldiki, arablarning yagona davlati tarkibiga kirgan barcha mamlakatlar madaniyatini ham arab yoki musulmon madaniyati deb atay boshlashgan.

Arab halifaligi yuksak qadimiy madaniyatga ega bo'lgan ko'plab mamlakatlardan iborat edi. Ushbu yerlar bo'ysundirilgan bo'lishiga qaramay, bu o'lkalarining madaniyatlari rivojlanishda davom etgan. Albatta, bu madaniyatlar xalifalik tarkibidagi boshqa mamlakatlar va xalqlarning madaniyati bilan aralashib ketgan va ular bir-birlariga ta'sir ko'rsatgan.

Shunday qilib, arab madaniyati bosib olingan xalqlar va davlatlar: forslar, sur'oniylar, yahudiylar, O'rta Osiyo xalqlarining madaniy yutuqlaridan ko'pini o'ziga singdirgan. Arablar yellistik rim madaniyati merosidan ham keng foydalanishgan. Chunonchi, arablар forslar orqali hindlarning matematika va astronomiya sohasidagi yutuqlari bilan tanishganlar. Ular hindlar raqamlarni olishgan, yevropaliklar ularni arab raqamlari deb ataganlar<sup>93</sup>.

Harbiy yurishlarda xitoyliklar bilan to'qnash kelgan arablar kompasdan foydalanish qulayligini tez anglab olganlar va uni faol suratda amaliyotda qo'llay boshlaganlar. Arab madaniyatining eng ravnaq topgan davri VIII – XI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda qadimgi arab sheyriyatining ko'p asarlari yaratilgan. Aynan shu asarlar, shuningdek, Qur'on muimtoz arab tilini yaratishda asos bo'lib xizmat qilgan VII – VIII a.lardagi arab she'r iyati ko'p jihatdan eski an'analarni davom ettirgan. Shoirlar jangchilar jasorati, sevgi, xursandchilikni tarannum etishgan.

Nasrda xuddi yevropaliklar kabi arablarda ham sarguzasht hikoyalar keng tarqalgan. Aynan ularning mazmuni asosida X–XI asrlarda mashhur "Ming bir kecha" ertaklari to'plami shakllangan.

<sup>93</sup> Qarang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P.109

Odatda arab ertaklari deb hisoblanuvchi bu ertaklar orasida aslida fors va hind hamda yunon ertaklari ham saqlangan. Shu tariqa arablar o'zлari xohlamagan holda ko'p xalqlarning ma'naviy hazinasini asrab bizning kunlargacha yetkazib kelganlar.

VIII asr o'rtasidan boshlab halifalar kutubxonasi uchun falsafa, matematika, tibbiyat, astronomiyaga oid asarlar yunon, sur'oniy va fors tillaridan arab tiliga o'girilgan. Bag'dodda Horun ar-Rashid davrida olimlar va tarjimonlar uchun maxsus "Bayt ul hikmat" ("Donishmandlik uyi") qurilgan, unda olimlar uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan, ular kundalik ovqatni o'ylamay ijod qillardilar.

Xalifalikning har bir yirik shahrida IX asrda barcha uchun mo'ljallangan ommaviy kutubhona faoliyat yuritgan. Aristotel, Platon. Pifagor, Yevklid, Arximedlarning asarlari arablarga yaxshi tanish bo'lgan. Aynan arab matematiklari, avvalambor, Al-Horazmiy ajoyib algebra fanini yaratishgan. Uning nomi arabcha "al jabr", ya'ni hisobdan olingan. Bag'dod va Damashqda maxsus qurilgan rasadxonalarda buyuk matematiklar bilan birga, ularidan qolishmaydigan iqtidorli astronomlar ham ishlaganlar. Ular Yer atrofini hisoblab chiqishgan, osmondagи yulduzlar holatini ba'yон etishgan. O'sha davrning eng buyuk allomalaridan biri al-Beruniy edi. U geografiya, tarix, astronomiya va hatto she'r tuzish san'atiga doir ham asarlar yozgan. Musulmon olimlari ichidagi boshqa bir mashhur shaxs buyuk Ibn Sino bo'lgan. U shunchalik shuhrat qozongan ediki, hatto yevropaliklar uning ismini hurmat ehtirom bilan o'zlariga moslab Avitsenna deb atashgan. Faylasuf, astronom, geograf, shoir, vrach bo'lgan ibn Sino o'zidan 100 dan ortiq ilmiy asar qoldirgan. "Shifo kitobi" va "Tib qonunlari" asarlarida u dunyoda birinchi bo'lib ko'p kasalliklarning alomati va ularni davolash usullarini ba'yон qilgan. Zamondoshlari ibn Sinoni hurmat bilan "Olimlar boshlig'i" deb atashgan. Arablarning sevimli iborasi quyidagicha edi: "Kimki ilm izlab yo'lga tushar ekan, uning oldida jannat darvozalari ochiladi". Shuning uchun arablar o'rtasida ko'plab iqtidorli geograflar va sayohatchilar bo'lgan. Arab olimlari nafaqat boshqa mualliflar tomonidan tuzilgan mamlakatlar ba'yonini o'rganishar, balki o'zлari ham yekspeditsiyalarga yo'l olganlar. Hayotlarini havf ostiga qo'ygan holda ular uzoq yerlarga sayohat qillardilar. Arablar nafaqat bosib olingan hududlar tasnifini tuzishgan, balki ularga dushman bo'lgan mamlakatlarning yerlarini ham batafsil ba'yon qilishgan.

Ko'p asrlardan so'ng Yevropa olami xalifalar kutubxonasida Amerika kashf etilishidan deyarli V asr muqaddam va Antarktidaning ochilishidan 10 asr avval, ushbu qit'altimorening qirg'oqlari qiyofasi tushirilgan xaritalar saqlanganligini bilib hayratga tushgan. Ammo arab xalifalari saroyida barcha fanlar ichida alohida e'zozlanadigan fan tarix edi.

Darhaqiqat bu fan arablarda islom bilan barobar dunyoga kelgan, chunki aynan u Muhammad payg'ambar va uning ishlari haqidagi hadislarni, dastlabki xalifalar va ularning futuhotlari haqidagi ma'lumotlarni saqlab kelgan. Islom tarixi, shuningdek, o'z urug'i tarixini bilmaslik musulmonlarda eng katta gunoh sanalgan. Xalifalar va oliy amaldorlar olimlar va ularning asrlariga homiylik ko'rsatishgan. Har bir oliy martaba egasi o'z atrofida iloji boricha ko'proq buyuk olimlar, shoirlar va Qur'on bilimdonlari bo'lishini istagan.

Amaldor saroyida o'z ilmi bilan mashhur bo'lgan kishilar qancha ko'p bo'lsa, uning obro'si shunchalik baland bo'lgan. Hukmdorlarning ilm-fan va olimlarga bo'lgan muhabbatini tushunish oson edi; Qur'onda har bir musulmon uchun ilm olish farz ekanligi aytilgan. Shuning uchun nafaqat amaldorlar va hokimlar, balki payg'ambarning har bir ummati, agar u davlatda biron bir lavozimni egallashni istasa albatta u ma'lumoti bo'lishi lozim edi.

Islomning rivojlanishiga Movarounnahrda yetishib chiqqan allomalar katta hissa qo'shdi. Imom Buxoriy kitob holiga keltirgan hadislar to'plami — "Al-Jomi' as-Sahih" Islom dinida Qur'oni karimdan keyingi ikkinchi manba hisoblanadi. Buxoriy va uning safdoshlari Islom ilohiyotining barcha yo'nalichlari bo'yicha muhim tadqiqotlar qildilar<sup>94</sup>. Jumladan, Islom nazariyotchiligidagi yuqori baholanadigan "Ilal ashshariat va Xatm ul-Asliyot" risolasini ta'lif yetgan Hakim Termiziy, Islom huquqshunosligini o'rganishning asosiy qo'llanmasi hisoblangan "Hidoya"ning muallifi Burhoniddin Marg'inoniy, Islom aqidasi asoslarini muayyan tartibga solgan, kalom ilmida maktab yaratgan Imom Moturidiy buyuk faqih Abu Lays Samarqandiy, musulmon dunyosining eng e'zozli muhaddislaridan Iso Termiziy, qomusiy ilmlar sohibi, xususan, tafsir, hadis, shariat qonunshunosligida salmoqli asarlar bitgan Zamaxshariy, tasavvufda o'ziga xos iz qoldirgan Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband,

<sup>94</sup> Qurang Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015. P.110.

Mahdumi A'zam, Najmiddin Kubro, So'fi Olloyor, Xo'ja Ahror, Abduholiq G'ijduvoniy va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Ular musulmon e'tiqodini xalq dunyoqarashi bilan uyg'unlash-tirganliklari tufayli O'rta Osiyoda madaniy hayotning adabiyot, me'morlik, musiqa kabi sohalarida taraqqiyot yuzaga keldi. Islom dini musulmon mamlakatlari san'atida o'z izini qoldirdi<sup>95</sup>.

Me'morlik sohasida bu jarayon yangi imorat turlari (masjid, minora, xonaqoh, Madrasa va boshqalar.)ning paydo bo'lishiga hamda keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Islom dini paydo bo'lgan davrda avj olgan butparastlik, suratparastlikni oldini olish maqsadida Muhammad (sav) suratkashlikni qattiq taqiqlab qo'ygan edi. Shu asosda Islomning yirik mutafakkir huquqshunoslari ham tasviriy san'atning bu turini taqiqlangan ishlar qatoriga qo'shganlar. Bundan ular amaliy san'at turlari, naqsh, bezak, insondan boshqa hayvon va o'simliklar suratini istisno qilishgan.

Islomda inson suratini chizish yoki uning xaykalini yasashning taqiqlanishiga asosiy sabab — payg'ambar va aziz-avliyolarning rasmlarini chizib yoki xaykallarini yasab, ularga sig'inib ketish xavfining mavjudligi bo'lgan. XV asrga kelib Alisher Navoiy kabi taraqqiyarvar olim va mutafakkirlar musulmonlar qalbida Allohga bo'lgan imon va e'tiqod mustahkamlanib, suratparastlikka mutlaqo moyillik qolmaganini e'tiborga olib, endilikda inson suratini chizishga ruxsat berishlikni lozim deb topganlar. Natijada Behzod, Maxmud Muzahhibga o'xshash miniyatURA san'atini rivojlantirgan yetuk musavvirlar yetishib chiqqan, Hirot miniyatURA maktabi, Buxoro miniyatURA maktabi kabilar rivojlangan. XX-XXI asrlarga kelib, Islom dunyosi ulamolarining bu san'atga munosabatlariga yana bir karra aniklik kiritildi: ilohiylashtirish va odamlarning sig'inishi maqsadida inson rasmini chizish mumkin emasligi e'tirof yetildi. Ammo, fotosuratlar, shuningdek, yosh bolalar uchun yasalgan odam shaklidagi qo'g'irchoklar taqiq doirasiga kirmaydi. Ulamolarning bergen fatvolariga ko'ra, musulmonlarga fahsh va uyat narsalarni ifoda yetuvchi rasmlar, but, sanam va ikona tasviridan boshqa tasviriy san'at turlari taqiqlanmaydi.

Islomning musiqaga munosabati haqida Diniy musiqa maqolasiga ega. Musulmon Sharqi VIII-XI asrlarda taraqqiyotda G'arbdan

<sup>95</sup> Qsrang:Adanson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.P.81.

oldinda edi: g'arb olimlari musulmon faylasuflari va tabiblaridan saboqolishgan; g'arb savdogari Islom dunyosidagi savdoning ko'lamiga havas bilan qaragan; sharq tovarlari g'arbda zebi-ziynat mollari hisoblangan. Sharq shaharlarining boyligi va hashamati g'arb uchun afsonadek tuyulgan. Bularning barchasida asosiy mafkura vazifasini bajargan Islomning ijobiy xizmati buyuk, albatta.

Ammo XII-XIII asrlardan keyin musulmon dunyosi dastlab tur-g'unlik, so'ng tanazzulga yuz tuta boshladi. Ba'zilar konservativ (qotib qolgan) din sifatida Islom taraqqiyotga to'siq bo'ldi, deya unga katta ayb qo'ymoqchi bo'ladilar. Aslida so'nggi o'rta asrlarda yuz bergen musulmon dunyosining tushkunligi juda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lib, o'sha davrdagi Islomning o'zi ana shu tushkunlikning muayyan shaklidagi ifodasi edi. "Islom islohotchiligi" deb ataydilar, u xristian reformatsiyasidan tubdan farq qiladi. Bu tafovut, birinchidan, shundan iboratki, mazkur jarayonlar turli davrarda, turlicha muayyan tarixiy sharoitlarda ro'y berdi. Ikkinchidan, "Islom islohotchiligi" dunyoviy hayotning turli jihatlarini diniy nuqtai nazardan qayta baholashda namoyon bo'ldi va sof ilohiyotga doir masalalarga u qadar daxli bo'lmadi. Uchinchidan, Islomda xristianlarnikiga o'xshash cherkov bilan ruhoniylarni bog'lab turuvchi tizim bo'lmaganidan Islomdagi islohotlar xususiyatiga jiddiy ta'sir qildi.

Musulmonlarda savodhonlik va arifmetikadan saboq beruvchi boshlang'ich maktablar xususiy edi. Haq to'lay olganlar o'qituvchilar bilan uyda shug'ullanganlar. Agar kishi olgan ta'limi davom yettirishni istasa madrasa – oliv musulmon maktabiga kirishi lozim bo'lgan. Bu yerda eng mashhur imomlar dars berishgan. Ular ma'ruza qilganlar va Qur'on, Sunna va shariat haqida suhbat o'tkazganlar. Bu yerda shuningdek, yuksak me'morchilik san'atidan ham ta'lim berilgan. Shuning uchun xaykaltaroshlik, va rassomlik xalifalikning dastlabki asrlarida deyarli rivojlanmagan. Keyinchalik kitoblarga miniyaturlar chiza boshlashgan, unda halq hayotidan manzaralar, tarixiy voqealar va badiiy asarlar qahramonlari aks ettirilgan. Tabiatni tasvirlash imkoniga ega bo'lmagan musulmon rassomlari o'zlarining butun mahoratlarini husnixat san'ati taraqqiyotiga bag'ishlaganlar. Arab madaniyati va islom sivilizatsiyasi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Arablar tomonidan ochilgan ko'plab ilmiy kashfiyotlar haligacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan va amaliyotda qo'llanib kelinadi. Masalan, butun jahon hozirgi paytda

arablar tomonidan VII asrdayoq yaratilgan arab raqamlaridan foydalaniib kelmoqda<sup>96</sup>.

Jahon madaniyati taraqqiyoti tarixida Sharqiy Arabiston xalqlari san'atining ham muhim o'rni bor. Xalifalikning (Suriya, Misr, Falastin, Shimoliy Afrika, Eron, O'rta Osiyo, Janubiy Ispaniya) ko'pgina shaharlarida rivojlangan O'rta asr arab madaniyati insoniyatning progressiv rivojlanishida yangi bir bosqich bo'ldi.

Sharqiy Arabiston xalqlarining asosiy xizmati shunda bo'ldiki, ular keyingi avlodlarga antik yunon-rim madaniyatining ko'pgina yutuqlarini saqlab qolib, uni rivojlantirgan holda yetkazib keldilar.

IX-XIII asrlar davomida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, Eron, Ozarbayjon va O'rta Osiyo xalqdari bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib kelganlar. Bag'dod, Sheroz, Tabriz, Samarcand kabi shaharlar madaniyati va taraqqiyotning markazi bo'lib, o'zlarining ko'zga ko'ringan olimlari, shoirlari, hamda fan va madaniyat o'choqlari bilan butun<sup>97</sup> dunyoga tanilgan edilar.

Tasviriy san'atning rivojlanishida tirik jonzotni tasvirlashni mann yetgan islom dini ma'lum darajada tusqinlik qiladi. Ammo bu qarshiliklar tasviriy san'atning umumiylara taraqqiyotini buka olmaydi. Islom dinining muhim xususiyatlaridan biri – uni qabul qilgan xalqlar vakillari uchun Islom aqidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish imkoniyatini bergenidadir. U o'ziga xos uch taraqqiyot bosqichi yoki davri o'tadi. Birinchisini, shartli ravishda, Qur'on davri deb atash mumkin. Qur'oni karimda o'z aksini topgan Arabiston aholisining diniy ongi darajasini ifoda etuvchi diniy-siyosiy va ijtimoiy qarashlar, huquqiy va axloqiy mezonlar butun musulmon olami uchun hozirgacha shak-shubhasiz umumiylari qadriyat hisoblanadi. Deyarli 4 asr davom etgan ikkinchi davr Islomda umumislomiy ahkomlar hukmronligi ostida turli fikrlar yo'l qo'yilgani bilann ajralib turadi. Islomdagi yo'naliishlar, mazhablar va firqalar ana shu davrda paydo bo'ldi. Musulmonlarning diniy birligi hal qilib bo'lmaydigan muammino bo'lib qoldi. X-XI asrlarda an'anaga sodiq sunniylar bilan imomiy shialar, mu'taziliylar hamda ash'ariylar o'rtasida munosabatlar, ayniqsa, keskinlashib ketdi.

<sup>96</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 172.

<sup>97</sup> Qarang: William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007. P. 172.

Xalifa Qodir (991–1031-yy) an'anaviy Islomni qonun asosida barcha uchun majburiy bo'lgan davlat dini deb qaror toptirishga urinib ko'rdi. Shu maqsadda an'anaga sodiq ilohiyotchilar imzolagan "Dining qodiriy ramzi" e'lon qilindi. Unda "haq din" deb ye'lon qilingan an'anaviy diniy ta'limotning asosiy qoidalari mufassal bayon qilib berildi, undan chetga chiqish jazolashga loyiq e'tiqodsizlik deb qaraldi. Biroq bu tadbir ham I.da diniy birlik o'matilishiga olib kelmadı.

G'oyaviy kurash keyingi asrlarda ham davom yetdi. Bu kurashda sunniylar ilohiyotchisi Ibn Taymiya ayniqsa ajralib turdi. U ilk islomni tiklashga, "haq din" asosida diniy birlikni o'matishga astoydil harakat qildi. Islomdag'i uchinchi taraqqiyot bosqichi musulmon dunyosi "chekka" o'lkalarining ahamiyati va o'mi ortganligi bilan bog'liqdir<sup>98</sup>. Batamom o'zga madaniy an'analarga ega bo'lgan xalqlar musulmon dunyosining ma'naviy hayotiga qo'shilgach, Islomga o'z diniy-axloqiy tasavvurlari, huquqiy ma'yorlari va odatlarini olib kirdilar. Mavarounnahr, Eron, Shim. Afrika, Hindiston, Indoneziya kabi yirik tarixiy madaniy mintaqalarda Islom o'ziga xos xususiyatlar kasb yetadi. Mana shu ta'qilangan ishlar natijasida Sharqiylar mamlakatlari dastgohlik tasviriy san'atning rivojlanishi birmuncha qiyin bo'ladi. Uning o'mi esa qo'lyozma kitoblarga ishlangan bezaklar-miniatyura san'ati egallaydi.

Miniatyurani yuzaga kelishida rivojlanish arab tilida badilly adabiyotning. ravnaqi, kitobning qadimdan ilmu ma'rifat manbaai sifatida yuksak qadrlanganidan dalolat beradi. Miniatyura kaligrafiya, sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo'lyozmaning yeng asosiy murakkab dekorativ elementlaridan birini tashkil qilar edi. Miniatyuraning asosiy ahamiyati matn mazmunini tushuntirish va umuman olganda dunyoviy xarakterga ega bo'lgan asarlarni bezashdan iborat edi. Asosan proza, poeziya, ilmiy traktatlar, tarixiy xronikalar aks etgan asarlarga miniatyura ishlangan. Ular orasida «Kalila va Dimna» hikoyalari yunon vrachi Dioskoritning «Farmologiya», Rashididdinining «Jam'iut tavorix» asarlari bor edi.

O'rta asr musulmonlarining qadimgi kulyozmalari faqatgina guash bo'yoqlar bilan ishlangan. Bu bo'yoqlarni tayyorlash usuli Yaqin Sharqqa VIII asrda O'rta Osiyo orqali Xitoydan o'tgan. Madaniyat markazlarini vayron qilgan, tez-tez sodir bo'lib turgan

<sup>98</sup> Qurang: Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press. New York, 2015.P.24.

boskinchilik urushlari tufayli ilk arab miniyaturlarini deyarli saqlanib qolmagan. Bizgacha yetib kelmagan arab miniyatyrachilarining asarlari ko'p bo'lmay ular ham asosan XIII asrga taalluqlidir.

Hozirgi vaqtga kelib, arab miniyaturlarini o'rganuvchi mutaxassislar, qo'lyozmalarni bezashni uchta davri va regional badiiy markazi mavjud ekanini e'tirof etadilar. Bular fotimiylar sulolasi davri (IX-X-XI) Suriya (XII asrning birinchi yarmi) va Iroq (yoki Bag'dod) XIII asr miniyatura maktablaridir. Bularning markazlari Ma'sul, Bag'dod va Vosit shaharlarida bo'lgan.

Shartlilik va dekorativlilik prinsiplari asosida ko'rilgan o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan arab miniyaturlarini O'rta asr Sharq rang tasviri sifatida o'zining takrorlanmas obrazli badiiy tiliga egadir. Miniyaturlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri tasvirning sath yuzidaligidadir. Bu xususiyat qo'lyozmaning dekorativ uslub (serxasham) ziynatlari, shams, lavhalar, zarvaraq va boshqa bezaklari kabi kitobning ziynatlari, uning tuzilishi xarakteridan kelib chiqqan.

Ma'lumki, arab miniyaturlarini fotimiylar sulolasi davrida ishlangan bo'lib, XI asrga taalluqlidir. Oxorlangan qog'ozga ishlangan odamlar qiyofasi hatti-harakatlari sodda va yaxlit holda tasvirlangan. Suriya qo'lyozmalari bo'lmish Dioskoritning «Farmokologiya» si, «Kalila va Dimna» asarlariga ishlangan bezaklar XIII asrning boshlari va o'rtalarida arab miniyatyrachiligi Vizantiya va Sosoniylar (qadimgi Eron) san'atining kuchli ta'siriga qaramasdan yangi bir bosqichni boshlab beradi. Ba'zi bir xil qo'lyozmalarda, masalan, XIII asrning birinchi yarmidagi («Muxtor al Hakim va Muxsin al-Kalim») Al-Muboshirning «Tanlab olingan dono fikrlar va so'zlovchining go'zalligi» asari qo'lyozmasidagi rasmlar, manzara tasviri yoki me'morchilik ko'rinishlari bilan boyitilgan. Kishilar qiyofasining tasvirida tabiiylikka intilingan. Kiyimlarning buklanganligi tasvirlangan.

Arab kitob bezakchiligining ravnaq topishi davrini Iroq maktabi miniyatyrachiligi boshlab berdi. Dioskoritning «Farmokologiya» asari qo'lyozmasi ana shu matabga taalluqlikdir. Bu qo'lyozmaning bezagini ham Abdalla Ibn Fadl ishlangan deb tan olingan. «Farmokologiya» asaridagi miniyaturlar ham boshqa asarlardagi kabi, tekstni tushuntirib berilgan uslubda lo'nda qilib tasvirlangan. Mana shu ma'noda tozaligichning qurilishini tushuntirayotgan Dioskoritning tasvirlovchi miniyatura diqqatga sazovordir.

Miniatyura aniq kontura bilan ko'rsatilgan va yorqin bo'yoqlarga bo'yalgan katta figuralar va predmetlar aniq ko'rinish turgan matnlar orasidagi sariq fonida aks etgan Iroq maktabining eng ajoyib asarlaridan biri Al-Xaririyning Abu Zayd as-Sarujdi (o'rta asrdagi Nasriddin Afandining prototipi) ning boshidan kechirg'anlarini tasvirlab beruvchi «maqom» asariga ishlangan illyustrasiyalardir.

«Maqom» asariga ishlangan Yaxyo ibn Maxmud ishlagan. Ularning xilma-xilligi bilan odamni lol qoldiradi. Bular bozordagi masjid, qozixonadagi ko'rinishlar, Shodiyona ziyofatlar, qabul qilish marosimi, afsonaviy voqealar, hayvonlarning ajoyib tasvirlari, hayotiy voqealarning butun real borliqlarini ikkala rassom ham turli harakatlar orqali chizgan rassomlar asaridagi arxitektura tasviri alohida ye'tibor beradilar.

O'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan hov'lilar, go'yo bu hoviilarning devori olib tashlanganu, tomoshabin uning ichini ko'rib turgan-day. «Makom» asarida hayvonlar ayniqsa, qadimdan arablar tomonidan e'zozlab kelingan tuyalar juda jonli qilib tasvirlangan. Manzarani tasvirlashda esa ko'm-ko'k yashnab turgan o'tloq tasviri tushirilgan torgina yo'l yoki bo'lmasa ekzotik o'simliklar va daraxtlar tasviri tushirilgan uncha baland bo'lмаган тегаликларни Al-Xaririy asarida ko'rish mumkin. Yaxyo ibn Maxmud «Tuyalar karvonii» miniatyurasida o'tlayotgan poda ifoda etilgan. Hayvonlardan biri uzun bo'yini cho'zib o'tlayotgan bo'lsa, boshqalari boshlarini tekis ko'targan holda turishibdi.

Bir-birini orqasidan ketma-ket joylashgan bu hayvonlar rang jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Bu esa rasmdagi ranglar uyqunligini alohida bo'rttirib ko'rsatadi. Ba'zi bir xil miniatyuralarida biz arab rassomlarining bitta kenglikda rang-barang kiyim-kechak va boshqa kiyimlari bilan ajralib turgan personajlarni katta bir guruh sifatida tasvirlashga urunganliklarini sezamiz. Bunga misol qilib Yaxyo ibn Maxmudning «Bayram sayli» miniatyurasini ko'rishimiz mumkin. Bu miniatyuralarda bayroqlar ko'tarib olgan otliqlarning do'mbira, karnay chalib, bayram shodyonasi boshlanganligidan xabar berishayotganligi aks ettirilgan. Ular barvasta gavdali kiyqir burun, ko'zlar ham yirik-yirik kishi qiyofasida tasvirlangan. Ularni ichki dunyosi, harakatlari, bir qarashdayoq ko'zga tashlangan holatlari va kiyimlari orqali aks ettirishga harakat qilingan. Ba'zi bir kishilar boshini oltin olov tasviri o'rab turibdi. Xristian san'atida bu tasvir san'at vositasi e'tiborli diniy arboblarni bildirsa, arab miniatyuralarida esa, bular asosan dekorativ ahamiyatga ega xolos. XII-XIII asrlar arab

miniatyuralarini obrazi qurilishini «Ming bir kecha» ertaklarida real va fantastik, yorqin va ta'sirchan, rang-barang lavhalar bilan ham tenglashtirishadi. Arab miniatyura san'ati jahon madaniyati san'at tarixida miniatyura san'ati va kitob bezakchiligin rivojlantirishda butun dunyoga tanilgan edilar.

Arablar yuksak madaniyat yaratganlar. Bu madaniyat tarixga Arab xalifaligi madaniyati nomi bilan kirib kelgan.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Henry Corbin. History of Islamic philosophy. New York. 2010.
3. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
4. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
5. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI, 2015.
2. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.–T.: TDSHI, 2006.

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar**

1. Arab xalifaligi madaniyatining shakllanishini sharhlab bering.
2. Arab xalifaligida ilm-fan, san'at, me'morchilik va dinning ravnaqini izohlab bering.
3. Jahon madaniyati taraqqiyotida arab miniatyurasining yuzaga kelishini sharhlang.
4. Qadimgi arablar madaniyati bo'yicha slayd tayyorlang va taqdimot qiling.
5. "Islom dinining shakllanishi" mavzusida falsafiy esse yozing.
6. Horun ar-Rashid faoliyatiga oid internet materiallarini to'plang, slayd tayyorlang va taqdimot qiling.

- “Bayt ul-Hikma” faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini toping va referat tayyorlang.
- Mavzu yuzasidan B/B/B jadvalini to‘ldiring (1-ilova).
- Insert usulidan foydalanib, quyidagi jadvalni to‘ldiring (2-ilova).
- FSMU jadvalini to‘ldiring (3-ilova).

**1-ilova**

“Bilaman, bilmoqchiman, bildim” jadvalini to‘ldirish

Bilaman	Bilmoqchiman	Bildim

### Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

- Ma’ruza matnini o‘qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

V – bilaman

Q – men uchun yangi ma’lumot

- – men bilgan ma’lumotni inkor qiladi

? – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo’shimcha ma’lumot.

- Olingan natijalarни jadval shaklida rasmiylashtiring.

**2-ilova**

Mavzu savollari	V	-	Q	?
1.				
2.				
3.				

**3-ilova**

### FSMU uchun topshiriq: “Arab musulmon madaniyatining taraqqiyoti” g‘oyasini tahlil etish

Yo‘naltiruvchi uslubiy tavsiya:

Arabiston yarim oroli, islom dini, arablar istilosи, arab xalifaligi, ummaviyylar va abbosiylar, Horun ar-Rashid, Ma’mun, “Bayt ul-Hikma”, Sharq renessansi.

Savol	Sharq renessansi
(F) Fikringizni bayon eting	.
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	.
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	.
(U) Fikringizni umumlashtiring	.

### O‘quv topshiriq:

“Guruhlarda juftlik yoki kichik guruhlarga bo‘linib ishslash” orqali o‘qituvchi talabalarni to‘rt guruhga ajratadi. Har bir guruhga muhokama qilish uchun quyidagi topshiriqni havola qilinadi:

#### **1 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Arab xalifaligi madaniyatining shakllanishini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhlar	Baholashning ko‘rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot varog‘ining to‘ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

#### **2 – guruh topshirig‘i**

1-bosqich. Arab xalifaligida ilm-fan, san’at, me’morchilik va dinning ravnaqini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog‘ini to‘ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va-rog'inining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.				.	

### 3 – guruhsiz topshirig'i

1-bosqich. Jahon madaniyati taraqqiyotida arab miniatyurasining yuzaga kelishini yoritib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va-rog'inining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

### 4 – guruhsiz topshirig'i

1-bosqich. Sharq renessansini gapirib berish. 5 daqiqa.

2-bosqich. Guruhda muhokama qiling. 5 daqiqa.

3-bosqich. Taqdimot varog'ini to'ldiring (organayzer yordamida). 10 daqiqa.

4-bosqich. Taqdimot bilan chiqish. 5 daqiqa.

5-bosqich. Boshqa guruhlarning taqdimotini baholash.

Guruhsiz	Baholashning ko'rsatkich va mezonlari				
	Javob mazmuni	Taqdimot va-rog'inining to'ldirish sifati	Guruh faolligi	Reglamentga amal qilish	Jami ballar
1.					
2.					

## **Guruh bo'yicha baholash mezonlari**

**Har bir guruh boshqa guruhlarni baholaydi.**

**Har bir talab bo'yicha – 2 ball**

Guruh №	Tushunarli va aniq javob (0,5)	Ko'rgazma-lilik (0,5)	Reglamentga amal qilish (0,5)	Guruh faolligi (0,5)	Jami ball
1.					
2.					

### **Hisob natijasi**

Guruhlari №	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball	Umumiy ball
1.					
2.					
Umumiy hisob ballari					
Baho					

### **Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
2. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
3. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
4. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013.
5. Po'latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O'quv qo'llanma. –T.: TDSHI, 2015.
6. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.–T.: TDSHI, 2006.

## TESTLAR

**1. Inson dunyoga bo‘lgan munosabatini dastlab qanday ifodalagan?**

- a) asotir tafakkur tarzida\*
- b) diniy tafakkur tarzida
- c) ilmiy tafakkur tarzida
- e) falsafiy tafakkur tarzida

**2. “Arfa chaluvchining qo‘srig‘i”, “Hayotdan hafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z ruhi bilan suhbat” asarlari qayerda paydo bo‘lgan edi?**

- a) Qadimgi Misr\*
- b) Qadimgi Baynalnahrayn
- d) Qadimgi Hindiston
- e) Qadimgi Xitoy

**3. “Inson va uning shaxsiy xudosi” degan fikrga qaysi hududda e’tiqod qilinar edi?**

- a) Qadimgi Shumer\*
- b) Qadimgi Misr
- d) Qadimgi Hindiston
- e) Qadimgi Xitoy

**4. Milliy qadriyatlarimizning ko‘p qirralarini o‘zida mujas-samlashtirgan eng muhim yozma yodgorlik – bu....**

- a) O‘rxun-Enasoy yodgorliklari\*
- b) Qur’on
- d) Turkiy bitiklar
- e) Avesto

**5. Inson atrofida ruhlar mavjudligi va ularning inson hayotiga be-  
vosita ta’sir etishi to‘g‘risidagi ibtidoiy tafakkur tarzi nima deb ataladi?**

- a) animizm\*
- b) fetishizm
- d) totemizm
- e) fatalizm

**6. Markaziy Osiyo hududlarida keng tarqalgan buddaviylik ta’li-motidagi draxmalar nima edi?**

- a) o‘zining belgilariiga ega bo‘lgan zarrachalar” yoki “unsurlar”\*
- b) o‘zining xususiyatlariiga ega bo‘lgan g‘oyalari
- d) inson hayotini belgilab beruvchi Buddha ruhlari
- e) jism va ruhni bog‘lab turuvchi rishtalar

**7. Mazdak ta’limotiga ko‘ra, asosiy yovuzlik – bu ....**

- a) boylikka hirs qo‘yishdir\*
- b) boylikdan uzoqlashishdir
- d) dunyoviy lazzatlardan voz kechishdir
- e) do‘stiga xiyonat qilishdir

**8. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi haqidagi eng muhim manba to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping.**

- a) “Devoni lug‘oti turk”\*
- b) “Avesto”
- d) “Qutadg‘u bilig”
- e) Turkiy bitiklar

**9. Xudo va olam birligi haqidagi ta’limot qanday nomlangan?**

- a) Vahdat ul-vujud\*
- b) Vahdat ul-mavjud
- d) Vahdat ul-shuhud
- e) Vojib ul-vujud

**10. Hind falsafasining eng qadimgi va muhim manbalari bu ... .**

- a) vedalar\*
- b) braxmanlar
- d) Upanishadlar
- e) charvaklar

**11. Qadimgi hind falsafasidagi ruhning ko‘chib yurishi to‘g‘risi-dagi nažariya qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- a) karma\*
- b) sansara
- d) Vedalar
- e) Upanishadalar

**12. Veda so‘zining ma’nosi nima?**

- a) bilim\*
- b) xudo
- d) manba
- e) olam

**13. Vedalar qachon yozilgan?**

- a) Miloddan avvalgi II ming yillikning oxiri va I ming yillikning boshida\*
- b) Miloddan avvalgi II asrda
- d) Miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri va II ming yillikning boshida
- e) Miloddan avvalgi I ming yillikning oxirida

**14. Vedalarning eng qadimgi to‘rt qismi qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?**

- a) Rigveda, Samaveda, Yajurveda, Atxarvaveda\*
- b) Rigveda, Samaveda, Braxmaveda, Yajurveda
- d) Rigveda, Yajurveda, Braxmaveda, Atxarvaveda
- e) Rigveda, Atxarvaveda, Upanishadlar, Samaveda

**15. Upanishada so‘zining ma’nosi nima?**

- a) haqiqatni bilish maqsadida o‘qituvchi oldida o‘tirish\*
- b) vedalar xotimasi
- d) bilim

e)olamning asosi

**16. Upanishadlardagi “hayot charxi” ta’limoti qanday nomlangan?**

a) sansara\*

b)veda

d)karma

e)barchasi to‘g‘ri

**17. Buddha so‘zining ma’nosi nima?**

a) nurlangan\*

b)xudo

d)olam

e)azob-uqubat

**18. Buddaviylik diniy-falsafiy ta’limotining asoschisi kim?**

a) Siddhartxa Gautama\*

b)Mohavira

d)Shuddxo

e)Dxarma

**19. Buddaviylikning ikki asosiy yo‘nalishini ko‘rsating.**

a) Mohayana, Xinoyana\*

b)Nihayana, Draxmasutra

d)Mohayana, Vedanta

e)Vedanta, Vaysheshika

**20. Buddaviylikning bilish nazariyasidagi besh unsur – bular... .**

a) ong, tasavvurlar, his-tuyg‘u, karma kuchlari, sezgilar\*

b)ong, tasavvurlar, his-tuyg‘u, aql, sezgilar,

d)sezgilar, idrok, karma kuchlari, iroda, vahiy

e)tasavvurlar, ong, sezgilar, vahiy, idrok

**21. Buddaviylikka ko‘ra, eng oliv maqsad – bu ... .**

a) Nirvana\*

b)Mohayana

d)Xinoyana

e)Karma

**22. Mohavira asos solgan diniy-falsafiy ta’limot qaysi edi?**

a) jaynizm\*

b)buddaviylik

d)hinduizm

e)braxmanizm

**23. Jaynizm ta’limotidagi inson mohiyatiga ega bo‘lgan ikki xususiyatni ko‘rsating.**

a) jiva, adjika\*

b)karma, ruh

d)jiva, karma

e)karma, adjiva

**24. Jaynizm ta'limotiga ko'ra, insonning moddiy asosi – bu ...**

a) adjika\*

b)jiva

d)karma

e)to'g'ri javob yo'q

**25. Qadimgi Hindistondagi ilk moddiyuncha tamoyillar qaysi ta'limotlarda o'z aksini topgan edi?**

a) chorvaka-lokayata\*

b)buddaviylik

d)upanishadlar

e)hinduzm

**26. Chorvaka-lokayatlarga ko'ra, inson nimalardan tashkil topgan?**

a) suv, havo, olov, tuproq\*

b)jiva, adjiva

d)purusha, karma

e)modda, ruh

**27. Hinduviylik falsafiy tizimini nechta maktab tashkil etadi?**

a) 6 ta\*

b)5 ta

d)4 ta

e)10 ta

**28. Hinduviylikning axloqqa bag'ishlangan eng asosiy asri qaysi?**

a) Bxagavatgita\*

b)Draxmasutra

d)Veda

e)Upanishadlar

**29. Vaysheshika-sutraning muallifi kim?**

a) Kanada\*

b)Budda

d)Braxma

e)Charaki

**30. Vaysheshika-sutra necha qismdan iborat?**

a)10\*

b)8

d)5

e)12

**31. Nyayada asosiy e'tibor nimaga qaratilgan edi?**

a)mantiq va bilishga\*

b)tabiat va jamiyatga

d)borliq va axloqqa

e)siyosat va jamiyatga

**32. Sanskritcha – ichiga kirish, tadqiq qilish, fikr qilish, bahs yuritish ma'nolarini beruvchi ta'limot nomi qaysi?**

- a)Mimansa\*
- b)Nyaya
- d)Vedanta
- e)Sankya

**33. Mimansa javharni necha turga bo'ladi?**

- a)9\*
- b)10
- d)3
- e)7

**34. Mimansaga ko'ra, bilimga quyidagilar vositasida erishiladi:**

- a)his-tuyg'u, mantiqiy xulosa va qiyoslash\*
- b)ilohiy vahiy, tafakkur va sezgi
- d)mantiqiy xulosa, vahiy va intuisiya
- e)his-tuyg'u va intuisiya

**35. Vedanta so'zining ma'nosi nima?**

- a)xotima, vedalar tugashi\*
- b)vedaning boshlanishi
- d)vedalar falsafasi
- e)vedalar kitob

**36.Qaysi ta'limot moddiyunchilikka qarshi kurash va dinni asoslashga qaratilgan edi?**

- a)Vedanta\*
- b)Chorvaka
- d)Mohayana
- e)Lokayata

**37. Shankara ta'limotining asosiy g'oyasiga ko'ra, borliqning yagona oxirgi asosi deb nima tushunilgan?**

- a)shaxsga ega bo'lmagan, mutlaq ruh-braxmandir\*
- b)doimo abadiy bo'lgan moddadir
- d)hayot charxi karmadir
- e)to'g'ri javob yo'q

**38. Asoschisi donishmand Kapila bo'lgan hind falsafasining ilk mакtablaridan biri – bu ... .**

- a)Sankhya\*
- b)Yoga
- d)Vedanta
- e)Vaysheshika

**39. Sankhya ta'limotiga ko'ra, dunyoning birinchi sababi – bu... .**

- a)prakriti\*
- b)atman

d)jiva

d)adjiva

**40. Ilk o'rta asrlardan boshlab Hindistonda Braxmanizm va bud-daviylik dinlarining o'rniga qaysi diniy ta'limot jamiyatning yetakchi mafkurasiga aylandi?**

a)hinduizm\*

b)jaynizm

d)vedanta

e)yoga

**41. O'rta asrlarda hinduizm qanday yo'nalishlarda rivojlandi?**

a)vishnuizm va shivaizm\*

b)mohayana va xinoyana

d)braxmanizm va shivaizm

e)vishnuizm va jaynizm

**42. Vishnuizmga ko'ra, Vishnu qanday ma'bud hisoblangan?**

a)yaratuvchi\*

b)saqlovchi

d)yakson qiluvchi

e)qaytaruvchi

**43. Shavitlar nazariyasiga ko'ra, borliq – bu ... .**

a)Shivadir\*

b)Vishnudir

d)Braxmadir

e)Buddadir

**44. Vedanta ta'limotini sistemalashtirgan faylasuf Gaudapada o'zidan qanday asar yozib qoldirgan?**

a)Mandukxya Karika\*

b)Vedanta-sutra

d)Dharma-sutra

e)Karika-sutra

**45. Bxakti ta'limoti rivojlangan asosiy yo'nalishlarni ko'rsating.**

a)Nirgun va Sagun\*

b)Ram va Krishna

d)Tulsida va Surdas

e)Nirgun va Krishna

**46. XI–XII asrlarda Hindistonda tasavvufning qaysi oqimlari keng tarqalgan edi?**

a) Kubraviya, Suxravardiya, Chishtiya va Naqshbandiya\*

b) Yassaviya, Kubraviya, va Naqshbandiya

d) Kubraviya, Suxravardiya, Chishtiya va Yassaviya

e) Yassaviya, Kubroviya va Xojagon

**47. O'rta asr davrida Hindistonda *islomni isloh* qilishda va uni keng targ'ib qilishda jonbozlik ko'rsatgan, "Hujjatulloh al-balig'a" asari muallifi kim edi?**

- a) Shoh Valiulloh\*
- b) Mirzo G'olib
- c) Abdulqodir Bedil
- e) Xusrav Dehlaviy

**48. Barcha dinlarning mohiyati bir, lekin ular o'rtasidagi farq ularning turli shakllarda ko'rinishi, turli joy, vaqt va turlicha talqin qilinishidadir, degan mutafakkir kim edi?**

- a) Mirzo G'olib\*
- b) Xusrav Dehlaviy
- d) Shoh Valiulloh
- e) Abdulqodir Bedil

**49. Bedil olamni bilishda nimaga ko'proq e'tibor qaratgan?**

- a) rasional bilishga\*
- b) ilohiy bilishga
- d) intuitsiyaga
- e) sezgilarga

**50. Qadimgi Xitoy falsafasida intellektual salohiyat egalari va hunarmandlar asos solgan, (Jen) g'oyalarini targ'ib qilish bosh masala bo'lgan falsafiy maktab qaysi edi?**

- a) konfusiychilik maktabi\*
- b) daosizm maktabi
- d) moizzm maktabi
- e) ismlar maktabi

**51. Tarki dunyochilik qilgan darveshlar, muvaffaqiyat va mag'lubiyat, mavjudlik va halokat, qayg'u va baxt, qadimiylik va zamona-viylik yo'li to'g'risida fikr yurituvchilar maktabi – bu ... .**

- a) daosizm\*
- b) konfutsiychilik
- d) in va yan maktabi
- e) ismlar maktabi

**52. Osmon belgilari, quyosh, oy, yulduzlar, koinot mo'ljallari, vaqt almashuvini kuzatuvchilar maktabi – bu ... .**

- a) In va yan maktabi\*
- b) konfutsiychilik maktabi
- d) daosizm maktabi
- e) moizzm maktabi

**53. "Odob-axloq asosidagi" boshqaruvni (Li) mukofotlar, jazolar, muayyan qonunlar bilan to'ldirgan, sud muassasalaridan chiqqanlar asos solgan maktab qaysi?**

- a) legizm maktabi\*
- b) moizm maktabi
- d) konfusiychilik maktabi
- e) daosizm maktabi

**54. Qabilalar, kasb-bunarlar va ashyolarning kelib chiqishini tushuntiruvchi irfoniy asar qanday nomlangan?**

- a) "Ashulalar kitobi"\*
- b) "O'zgarishlar kitobi"
- d) "Bahor va kuz kitobi"
- e) "Urf-odatlar kitobi"

**55. "Dao" so'zining ma'nosi nima?**

- a) yo'l, ta'limot\*
- b) bilim, hayot
- d) taqdir, inson
- e) jon, adolat

**56. Qadimgi davrlarda borliq haqidagi masalani hal etish yo'llari o'z aksini topgan asar qaysi edi?**

- a) "Ashulalar kitobi"\*
- b) "O'zgarishlar kitobi"
- d) "Bahor va kuz kitobi"
- e) "Urf-odatlar kitobi"

**57. "Eskini bayon etaman va yangini barpo etmayman", degan fikr muallifi kim edi?**

- a) Konfutsiy\*
- b) Lao Szi
- d) Men-szi
- e) Szi-Yuy

**58. Men-szi ta'limotiga ko'ra, har bir kishida bo'lishi shart bo'lgan fazilatlar qaysi qatorda berilgan?**

- a) odamgarchilik (jen), halol ijrochilik (i), xushmuomalalik (li), bilim (chji)\*
- b) odamgarchilik (jen), mehribonlik (shiy), halol ijrochilik (i), xushmuomalalik (li)
- d) odamgarchilik (jen), xushchaqchaqlik (di), xushmuomalalik (li), bilim (chji)
- e) halol ijrochilik (i), xushmuomalalik (li), bilim (chji), mehribonlik (shiy)

**59. Men-szi nimani insonni mavjudlikka va ijtimoiy vazifaga mustahiq etuvchi orzudagi kuch-qudrat, deb biladi?**

- a) osmonni\*
- b) yerni
- d) daoni

e) jenni

**60. Syun-szining borliq haqidagi qarashlariga ko'ra, olamning asosida nima yotadi?**

- a) modda\*
- b) ruh
- c) osmon
- d) yer

**61. Nazariy tadqiqotlar – foydasiz hashamdir; mehnat faoliyatida belgilangan amaliy maqsadga muvofiqlik-zaruriyatdir, deya Konfutsiyga qarshi chiqqan maktab qaysi edi?**

- a) moizm maktabi\*
- b) konfutsiylik maktabi
- c) daosizm maktabi
- d) legizm maktabi

**62. "Agar kishilar taqdirga ishonsalar, ular farovonliklari uchun kurashni to'xtatdilar", degan g'oya muallifi kim edi?**

- a) Mo-szi\*
- b) Men-szi
- c) Konfusiy
- d) Lao Szi

**63. Mo-szining fikriga ko'ra, bilishning ishonchli manbai bu – ... .**

- a) tajribadir\*
- b) aqldir
- c) intuitsiyadir
- d) ilohiy xabarlardir

**64. "Daosizm" atamasi fanga kim tomonidan kiritilgan?**

- a) Xitoy tarixchisi Sima Tan tomonidan\*
- b) "Daosizm" asoschisi Laoszi tomonidan
- c) Konfutsiy tomonidan
- d) Men-szi tomonidan

**65. "Dao de szin" kitobi qachon paydo bo'lgan edi?**

- a) taxminan mil. avv. IV-III asrlarda\*
- b) taxminan mil.I-II asrlarida
- c) taxminan mil. avv. V-IV asrlarda
- d) taxminan mil. avv. VI-V asrlarda

**66. Daosizmning diqqat markazida ... turadi.**

- a) tabiat, koinot va inson\*
- b) tabiat, jamiyat va inson
- c) tabiat, koinot va yo'l
- d) tabiat, koinot va jamiyat

**67. Keyingi vaqtlardagi rivojlanishi nuqtai nazaridan daosizm umuman quyidagi uch turga bo'linadi:**

- a) falsafiy, diniy va o'lmaslar daosizmi\*
- b) afsonaviy, diniy va o'lmaslar daosizmi
- c) falsafiy, afsonaviy va o'lmaslar daosizmi
- e) dunyoviy, falsafiy va diniy daosizmlar

**68. "Dao"- barcha ashyolarning manbai, "de" esa, – ... .**

- a) har bir narsaga to'g'ri keladigan "dao"ning qismi\*
- b) har bir narsaga xos moddiy xususiyat
- d) har bir narsaga xos bo'lgan ruhiy xususiyat
- e) narsalarning botiniy birligi

**69. Abadiy, o'z-o'zicha mavjud bo'lgan, g'oyaviy ibtido (li) moddiylikdan (si) oldin vujudga keladi va ashyolar dunyosini boshqaradi, deyuvchi ta'limot qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- a) "daosyue" ta'limoti\*
- b) konfutsiylik ta'limoti
- d) moizm ta'limoti
- e) legizm ta'limoti

## GLOSSARY

Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
Averoism	Аверроизм	Averroizm	Ibn Rushd falsafiy merosi ta'sirida G'arba vujudga kelgan falsafiy yo'nalish.
Practical philosophy	Практическая философия	Amaliy falsafa	Ibn Sinoning fanlar tasnifiga ko'ra, falsafaning ikkinchi qismi bo'lib, u siyosat, huquq, uy ishlarini o'rganish – iqtisod va axloqshunoslik, ya'ni etikadan iboratdir.
Authocracy	Автократия	Avtokratiya	(Yunon. – autos – o'zim va cratos – hokimiyat so'zlari birikmasidan tashkil topgan) – alohi-da subyekt tomonidan hokimiyatni cheklanmagan, nazorat qilinmaydigan va uni to'liq egallab olgan holda boshqarish
Aggression	Агрессия	Agressiya	(Lot. aggress – hujum qilmoq). Hozirgi kunda A. so'zi inson faoliyatining juda ko'p qirralarini ifodalaydi: taddid qilish unsurlaridan tortib, to jismoniy ta-sirgacha bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi
Acacia	Акаша	Akasha	Svami Vivekananda ta'limotida olamdagি barcha narsalar kelib chiqadigan dastlabki materiya.
Anarchy	Анархия	Anarxiya	(Yunon. anarchia – bosh-boshdoqlik, hoki-

			miyatsizlik) – ijtimoiy-siyosiy ta’limot bo‘lib, shaxsni har qanday nufuzlar va turli-xil iqtisodiy, siyosat va ma’naviy ta’sirlardan ozod qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Davlat A. uchun salbiy manba bo‘lib, uni zo‘ravonlik, inqilobiy yo‘llar bilan yo‘q qilishi kerak.
An-nakhda	Ан-нахда	An-naxda	XIX asrning o‘rtalarida arab dunyosida boshlangan g‘oyaviy va adabiy uyg‘onishning nomlanishi. Misrda Rifoat-Taxtoviy (1801-1873), Ali Muborak (1824-1893), Abdulloh Fikriy (1834-1890), Suriyada Nosif al-Ezijiy (1800-1871), Butrus al-Bo‘stoniy (1819-1888), Fransis Marrosh (1836-1873) kabi mutafakkir-olimlar ushbu oqimning vakillari hisoblanadi.
Anthro-pocentrism	Антрапо-центризм	Antropotsentrizm	(Yunon. anthropos – inson, sentron – markaz). Bu tasavvurga ko‘ra, inson-koinot markazi bo‘lib, olamdagи barcha voqeа-hodisalar o‘zgarishning tub maqsadidir.
Aparighrakha	Анариграха	Aparigraxa	Jaynizrnда barcha ko‘ngil istaklaridan o‘zini tiya bilih. Bu kishida lazzat uyg‘otadigan ob‘yektlardan o‘zini tiyishga da’vat etadi.

Mixed nation	Смешанная нация	Aralash millat	Abul Kalom Ozod (1888–1958)ning Hindiston xalqlari dinlar va tillarning turli turmanligidan va boshqa farqlardan qat'i nazar, yakdil bo'lishlarini maqsad qilgan konsepsiysi.
Athman	Атман	Atman	Upanishatlarda ruh kategoriyasi bo'lib, hamma narsa ichiga kira oluvchi sub'yektiv voqelik sifatida o'zini namoyon etadi: u – "katta ham emas, kichik ham emas, tanasiz va qonsiz, soyasiz va qorong'iliksiz, shamolsiz va efirsiz..., issiz va ta'msiz, ko'zsiz va quloqsiz, ovozsiz va aqlsiz ... uning "oldida ham, ketida ham yoki ichida ham hech narsa yo'q..."
Atheism	Атеизм	Ateizm	(Yunon. theos – xudo) har qanday ilohiy ta'limotni, ilohiy kuchni rad etuvchi falsafiy oqim, dahiriylik.
Akhimsa	Ахимса	Aximsa	Gandiy va jaynizm ta'limotida tirik jonga ozor yetkazishdan o'zini tiyish asosiy tamoyili
Ethical degradation	Этическая деградация	Axloqiy degradatsiya	Axloqiy normalarning buzilishi.
Ethical and enlightened government	Этическое и просвещенное правительство	Axloqli va ma'rifiy hukumat	Eron ma'rifatparvari Shams ul-Urafo tomonidan ishlab chiqilgan, diniy va milliy axloqiy qadriyatlar asosida

			jamiyat boshqaruvini ta'minlaydigan hukumat shakli.
Ashram	Ашрам	Ashram	Hinduiylikda diniy jamoa
Animism	Анимизм	Animizm	Ibtidoiy tasavvurlardan biri bo'lib, tabiatda ruhlarning ta'siri mavjudligiga ishonish.
Arabic sciences	Арабские науки	Arab ilmlari	Kalom, fiqhshunoslik va hadisshunoslik kabi diniy ilmlar.
Asceticism	Аскетизм	Asketizm	Moddiy dunyo noz-ne'matlardan voz kechib, ruhiy kamolot yo'lida uzlatga chekinishdir.
Mythological thought	Мышления (мифологическая мысль)	Asotiriy tafakkur (afsonaviy fikrlash)	Insonning dunyoga va bilvosita ijtimoiy munosabatlarga bo'lgan munosabatini muayyan butunlikda ifodalash shakllaridan biridir.
Atomism	Атомизм	Atomizm	Materiyaning uzliksiz, diskret (dona-dona) tuzilishi haqidagi ta'limot.
Ethics	Этика	Axloq	(Arab. – xulq so'zining ko'pligi) kishilar orasidagi munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos tartib, qoidalar yig'indisi.
Teaching about eternal return	Учение о вечном возвращении	Abadiy qaytish ta'limoti	Bu g'oyaning mohiyati shundan iboratki, ilohiy xususiyatga ega bo'lgan abadiy barhayot inson ruhi yerga tushib inson tanasi orqali namoyon bo'ladi, aynan zaminda ruh bilan tana qo'shiladi. Shu holda tana tabiiy holda o'z ruhiy

			taraqqiyot yo'lini bosib o'tishi zarur.
Agnositism	Агностицизм	Agnostitsizm	Bilishni inkor qiluvchi ta'lilot.
Antinomy	Антиномия	Antinomiya	Isbotlash ham inkor etish ham mumkin bo'lgan haqiqatlar yoki qoidalar.
Apologetics	Апологетика	Apologetika	So'zning lug'aviy ma-nosi himoya qilmoq demakdir, ya'ni xristian din ni aqidalarini turli humumlardan himoya qilishdir.
A priori	Априор	Aprior	Tajribagacha bo'lgan bilim.
A posteriori	Апостериор	Aposterior	Tajribadan keyingi bilim.
Association	Ассоциация	Assotsiatsiya	Bilishdagi munosabat-asoslari.
Ethical rationalism	Рациональная этика	Axloqiy ratsionalizm	Bilimlar inson axloqiy faoliyatini yaxshilikka qaratish orqali namoyon bo'ladi.
Brakhma	Брахма	Braxma	Braxmanizm diniy ta'lilotiga ko'ra, yagona real dunyoviy ruh, ilohiy substansiya, hayot manbai, borliqning asosi.
Brakhmans	Брахманы	Braxmanlar	Qadimgi Hindistonda davlat rahbarlari, ziyorolar va donishmandlardan tashkil topgan ijtimoiy qatlam.
Brakhma-chary	Брахмачария	Braxmachariya	Gandiy va jaynizm ta'lilotida ojiz-zaiif xattiharakatlarga yo'l qo'yishdan o'zini tiyish hamda insonda o'z fikru hayollari, so'ziari va harakatlarini qat'yan idora etishi tamoyili.

Buddha	Будда	Budda	(Qad. sanskritcha – “nurlangan”) buddaviylik ta’limoti asoschisi, tarixiy shaxs Sidxarta Gautama.
Argument	Довод	Burhon	Isbotlash, uning mohiyati, vazifasi, turlari, qoidalari va boshqa masalalar.
Busury	Буцури	Busuri	Nisi Amanening falsafiy qarashlarida tabiat qo-nunlari tushunchasi
Bkhakthy	Бхакти	Bxakti	<p>“Bxakti” so’zi sanskrit tilidan olingen bo’lib “mehr”, “sadoqat” degan ma’nolarni anglatadi. Bxakti diniy harakat sifatida avval X–XII asrlarda Hindistonning janubida, u yer dan quvg‘inlikka uchraganidan so’ng esa XIV asrlardan boshlab Hindistonning shimolida keng yoyila bordi va XV–XVI asrlarda esa Hindistonning shimoli bxakti harakatining eng yirik markaziga aylandi. Ramanand va Ramanuja, Vallabhxacharya, Chaytannya, Nimbarkacharya, Xit Xarivansh kabi faylasuflar bxaktining asoschilaridir.</p> <p>Faylasuflarning bxaktini targ’ib qilishdan bosh maqsadlari umidsizlikka tushib qolgan hind xalqini hayotga qaytarish,</p>

			ularning ongida so'n-gan ishonchni yana qayta uyg'otish, kela-jakka, ertangi kunga ishonib yashash tuyg'u-ularini mustahkamlash edi. Bxakti diniy-islo-hotchilik harakati hinduizm diniy fanatizmiga qarshi kurashda xuddi tasavvufdek bун-yodga kelgan bo'lsa-da, o'sha davrda hind jamiyatni hayotida bir vaqtning o'zida hukmdor bo'lgan bir qancha din-larning fanatizmiga ham qarshi juda muva-faqqiyatlari kurashdi.
Biological anthropology	Биологическая антропология	Biologik antropologiya	Insonni biologik mavjudot sifatidagi jihatlarini bo'rttirib o'rghanuvchi ta'lilot.
Primary quality	Первичные качества	Birlamchi sifatlar	Narsalarning mohiyatiyl belgilari.
Primary	Первоначало	Boshlang'ich ibtido	Substansiya, birinchi ibtido, asos, negiz degan ma'nolarni anglatadi.
Vaysheshics	Вайшешики	Vayshiyalar	Hinduiylikda dehqonlar va hunarmandlar varnasi, tabaqasi.
Vakhdat al-vujud	Вахдат ал-вужуд	Vahdat ul-vujud	tasavvuf ta'lilotining yetakchi g'oyasi, xudo va olam birligi.
The Vedas	Веды	Vedalar	Qadimgi hind jamiyatining hayot tarzi haqida ta'lim beruvchi birinchi manbalar.
Vedkhanta	Веданта	Vedanta	Vedalar oxiri degan ma'noni anglatuvchi qadimgi hind falsafiy maktabalaridan biridir.

<b>Wajib al-wujud Primary cause</b>	Важиб ал-вужуд	Vojib ul-vujud	Arab-musulmon falsafasida borliqning birinchi sababi, ya'ni bor bo'lishi shart bo'lgan borliq – xudodir.
<b>Voluntarism</b>	Волонтаризм	Volyuntarizm	(Lot. voluntas – iroda) – iroda borliqning eng olyi ko'rinishi deb qarovchi falsafiy oqim. Iroda V.da tarixiy jarayonlarning obyektiv qonuniyatlariga riosa qilmasdan, jamoatchilik bilan hisoblashmasdan o'zboshimchalik bilan o'z hohish–irodasini yuqori qo'yuvchi faoliyatdir.
<b>The doctrine of Gandhism</b>	Учение гандиизма	Gandiychilik ta'limoti	M. Gandiy (1869–1948) tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy ta'limot. Gandiychilik hinduiylik, jaynizm, insonparvarlik va kuch ishlatmaslik g'oyalariga asoslangan.
<b>Hedonism</b>	Гедонизм	Gedonizm	Lazzatlanish, huzurlanish.
<b>The hylozoism</b>	Гилозоизм	Gilozoizm	Hamma mavjud narsalarni ruhga, jonga ega deb hisoblash.
<b>Geocentric teaching</b>	Геоцентризм	Geotsentrizm	Yer - olamning markazi, degan ta'limot.
<b>Humanism</b>	Гуманизм	Gumanizm	Insonning dunyodagi o'mni, mohiyati va vazifasi, borlig'ining mazmuni va maqsadi haqidagi tushuncha.
<b>Taoism</b>	Даосизм	Daosizm	Qadimgi Xitoydag'i falsafiy ta'limot. D. Chjango davrida

			<p>("Urushayotgan davlatlar", mil.avv. VI-V asrlar) vujudga kelgan. D.ning asoschisi Lao-szzi (mil.avv. 579–499 yy) hisoblanadi. Lao szining asosiy g'oyalari "Dao-de-szin" asarida bayon qilingan. Uning fikricha, barcha narsalar faqatgina, "dao"ga mos holda vujudga keladi va o'zgaradi, shuningdek u kishilarni tabiat bilan uyg'unlikda, tabiiy hayot kechirishga chaqiradi.</p>
Deism	Деизм	Deizm	(Lot. deus – xudo) xudoning, olamning shaksiz birinchi sababchisi sifatida mavjudligini e'tirof etuvchi ta'lilot. D. atamasi birinchi marotaba 1564 yilda paydo bo'ldi.
Determinism	Детерминизм	Determinizm	Zaruriy shartlanganlik tamoyili.
Drakhms	Драхмы	Draxmalar	Buddaviylikka ko'ra, "o'zining belgilariiga ega bo'lgan zarrachalar" yoki "unsurlar".
Deduction	Дедукция	Deduksiya	Umumiyan xususiyga borish.
Deductive method	Дедуктивный метод	Deduktiv metod	Umumiy bilimdan xususiy bilimga borish usuli. Dekart inson aqliga yuqori baho beradi, natijada ratsionalizmni rivojlantiradi. U Bekon-

			ning induktiv metodiga qarama-qarshi deduktiv metodni ilgari suradi.
Dialectics	Диалектика	Dialektika	Raqib bilan bahs-muno-zara yurita olish san'ati.
Wisdom	Мудрость	Donolik	Yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi amal birligi.
Dualism	Дуализм	Dualizm	Nomoddiy va moddiy substansiya birlamchi asos sifatida mavjud.
Jaynism	Джайнизм	Jaynizm	Miloddan avvalgi bir minginchi yilning o'r-talarida vujudga kelgan ta'lilot. Mazkur ta'lilotning asosida materiya va jon yotadi. Jaynistarning ko'rsatilishicha, insonning asosiy maqsadi tashqi olamning hukmronligidan qutilish va o'z kamoliga erishishdir. Inson tabiatini ham moddiy, ham ruhiyidir. Jon bir vaqtning o'zida nafis jon (Jiva) va dag'al materiya (ajiva)ning birligidan iborat.
Jnana	Джнана	Jnana	Ramakrishna ta'lilotida bilish yo'li.
Necessity	Необходимость	Zarurat	Olamdagi hamma narsa belgili asosda paydo bo'ladi, obektiv zaruratdan paydo bo'ladi.
Social treaty	Общественный договор	Ijtimoiy kelishuv	Jamiyatni shartnoma asosida paydo bo'lganligi haqidagi ta'lilot.

I	И	I	Xitoy falsafasiga ko'ra, halol ijrochilik tushunchasi.
Dual wisdom	Двойная мудрость	Ikki donishmandlik	Nosir Xisrov fikricha, bu qadimgi yunon falsafasi (yunon donishmandligi) va qarmatiylik ilohiyotidir.
Induction	Индукция	Induksiya	Bo'lakdan butunga tomon fikr-mulohaza yurish.
In and yan	Инь и ян	In va yan	Xitoy falsafasiga ko'ra, borliqdagи o'zgarish va rivojlanishlarning sababi bo'lgan azaliy qarama-qarshi ibtidolar.
Social justice	Социальное справедливость	Ijtimoiy adolat	Jamiyatdagi adolat shakli.
Dual truth	Двойная истина	Ikki haqiqat	Dunyoviy va diniy bilimlar bir xil darajaga ega.
Secondary quality	Вторичные качества	Ikkilamchi sifatlar	Narsalarning tashqi sifatiy belgilari.
Early Christianity	Ранняя христианства	Ilk xristianlik	Xristianlikning shakllanishi va rivojining dastlabki davrlari.
Inductive method	Индуктивный метод	Induktiv metod	Tajriba orqali olingen materiallarni miyada qayta ishlash usulidir.
Human existence	Человеческое бытие	Inson borlig'i	Inson borlig'ini "ekzistensiya" deb atadilar.
Human gear, Man-mechanism	Человек-механизм	Inson-mexanizm	Inson mexanika qoidalariiga bo'y-sinuvchi mavjudot.
Human philosophy	Философия человека	Inson falsafasi	Inson ma'naviy hayotining ichki qonuniylarini, hayot mazmuni, inson va uning mohiyati, yashashning ma'nosи, inson ruhiyatining tahlili, falsafiy tafakkurning

			o'ziga xosligi, falsafada yangi uslub, inson faoliyatini ijobjiy tomonga yo'naltiruvchi ta'limot.
Irrationalism	Иррационализм	Irratsionallik	Obyektiv dunyoning umumiy qonunlaridan «dalillarni», «hayotni», sub'yekt ongingin hodisalarini tahlil qilishga o'tilishi.
Jewel	Драгоценность	Javhar	Arabcha so'z bo'lib, Sharq falsafasida olamning birlamchi sababi, moddiy yoki ruhiy asosi, degan ma'noda keng qo'llanilgan.
Dialectic	Диалектический	Jadal	Dialektik hukmlar nomini olgan murakkab hukmlar, shartli bo'linuvchi savol-javob hukmlari kabilar.
Jen	Жэнь	Jen	Qadimgi Xitoy falsafasidagi insoniylik tushunchasi.
Kali	Кали	Kali	Hinduiylikda xudoning yaratuvchilik, saqlovichilik yoki yemiruvchilik faol holatidagi nomi.
Caste	Кастантсво	Kastachilik	Hinduiylikda insonlarning qat'iy tabaqa-larga, kastalarga bo'linishi.
Ki	Ки	Ki	Chxve Xan Gining falsafiy ontologiyasida tabiat va inson paydo bo'lishining moddiyuncha ibtidosi
Kalam teaching	Учение калама	Kalom ilmi	O'rta asrlarda falsafiy-diniy fikrlarni, dinnning nazariy asoslarini o'rganish, islam aqidalariga nisbatan

			aqliy mulohaza yuritish jarayonida vujudga kelgan maxsus bilimlar tizimi.
kwankhakpha	Кванхакпха	Kvanxakpxa	O'rtalarda Koreyadagi neokonfusiychilik yo'nalishlaridan birining nomi.
Kirin	Кирин	Kirin	("Ki" - erkak, "Rin" – "ayol") qadimgi koreys mifologiyasiga ko'ra, o'zida dunyo paydo bo'lishining dastlabki besh elementilarini mujassamlashtirgan afsonaviy hayvon.
Kodo	Кодо	Kodo	"Yaponizm" mafkurasida "Imperator yo'li" tamoyilining nomlanishi.
Cosmic mind	Космический разум	Koinotiy idrok	Pravas Chaudxuri falsafiy ta'limotidaijodiy yaratuvchilik vazifasiga ega ibtido.
Kun-tsi	Конфуций и Конфуцианство	Konfutsiy va konfusiychilik	Miloddan avvalgi VI–V asrlarda qadimgi Xitoya yuzaga kelgan falsafiy oqim. Konfusiy (Kun szi, milodgacha 551 – 479 yy) – mazkur ta'limotning asoschisi bo'lib, u hozirgi Shandun viloyati hududida Lu xonligi davrida tug'ildi. Konfusiylar bu vaqtarda deyarli kambag'allashgan eski zodagonlar oilasiga mansub edi. K. asoschisining qarashlari uning izdoshlari tomonidan yozilgan "Lun yuy"

			<p>("Suhbatlar va mu-lohazalar") nomli falsafiy kitobda bayon etilgan. K.lar ta'limotida "chjun" (pod-shohga sadoqat), "i" (burchga sadoqat), "syao" (o'g'illarcha ehtirom) va bosh. g'o-yalarni ifoda etuvchi, "jen" (insonparvarlik) qarashlari sistemasi markaziy o'rinni egal-laydi. Uning asosida ushbu hislatlarni o'ziga singdirgan "szyun-szi (olijanob kishilar) haqidagi g'oya turadi. Kishilarni "szyun - szi" (olijanoblar) va "syao - jen" (past tabaqalar)ga ajratish shundan kelib chiqqan. Unga ko'ra, boshqaruv birinchilar tomonidan amalga oshirilishi, keyingilar esa faqat itoat etishlari zarur bo'lgan.</p>
Cosmopolitanism	Космополитизм	Kosmopolitizm	Vatansizlik g'oyasini ilgari suruvchi falsafiy ta'limot. Ushbu ta'limot butun Yer sayyorasinigina vatan sifatida tan oladi.
Kshetry	Кшатри	Kshatriylar	Hinduiylik kastachi-ligida harbiylar var-nasi, tabaqasi.
Kojiky	Кодзики	Kodziki	Yaponiyadagi qadimgi kishilarning qilmishlari haqidagi bitiklar.
Li	Ли	Li	Xitoy falsafasiga ko'ra, ruhiy olam, ruhiy substansiya.

Legists	Легисты	Legistlar	Miloddan avvalgi IV asrda siyosiy arbob Shen Buxay (mil.avv.400-337-yy.) tomonidan ishlab chiqilgan legizm falsafiy oqimining tarafdarlari.
Matter	Материя	Materiya	Moddiy asos.
Mayya	Майя	Mayya	Vedantizmda real va noreal, moddiy dunyo.
Materialism	Материализм	Moddiyun-chilik	(Lot. Materialism – moddiy, moddiylashgan) olam moddiy, ongimizga bog‘liq bo‘lmagan holda, obyektiv tarzda mavjud, materiya birlamchi, hech kim tomonidan yaratilmagan, abadiy mavjud, tafakkur esa materianing xususiyatidir, olam va uning qonuniyatlarini bilish mumkin, deb qarovchi falsafiy oqim.
Ideology	Идеология	Mafkura	(Arab. «mafakura» – nuqtai nazarlar va e’tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmui.
Administrative philosophy	Административная философия	Ma’muriyat falsafasi	Svami Ranganathananda falsafiy qarashlarida jamiyat rivojiga turli darajadagi ma’muriyat hodimlari o‘z hissalarini qo‘slishi zarurligini o‘zida ifoda etadigan ta’limot.

Moral synthetic unity	Нравственное синтетическое единство	Ma'naviy sintetik mushtaraklik	Svami Rangatxanan-daning Hindistonda hinduizm va islom orasida tinch-totuvlik va hamkorlik munosabatlari mumkinligi va zarurligini mantiqan isbotlagan ta'lomit.
Enlightenment	Просвещение	Ma'rifatparvarlik	Jamiyatda kapitalistik munosabatlar shakllanishi arafasida, madaniy-mafkuraviy va falsafiy oqimlarning vujudga kelishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan, tarixiy bosqich. M. milliy xususiyatlardan qat'iy nazar quyidagi umumiylikka ega: demokratizm, ya'ni keng ommani madaniyat va bilim manbalaridan foydalanish uchun sharoit yaratib berish, inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlariga ishonish. M. tushunchasi birinchi bor, Fransiyada shakllanib, XVIII asrning boshlarida rivoj topa boshladi. Fransuz jamiyatida M. Volter, Sh.L.Monteske, J.Mile bilan bog'liqidir.
Mythology	Мифология	Mifologiya	Afsonalar va asotirlar haqidagi ta'lomit. Qadimda falsafani manbasi, materiali vazifasini o'tagan.
Nationalism	Национализм	Millatchilik	Milliy mahdudlik va maqtanchoqlikni

			targ'ib va tashviq qilishga asoslangan, o'z millati kuch-qudrati va salohiyatiga chuqrishonch va o'zga milatlarga ishonchsizlik ruhi bilan yo'g'rilgan nazariya va amaliyot
Monotheism	Монотеизм	Monoteizm	(Yunon. Monos – yakka, yagona, theos – xudo) – yakka-xudolikka asoslangan diniy e'tiqod.
Islamic theologists Mutakallimin	Мутакаллимиты	Mutakallimlar	Kalom ilmi vakillari, ularning eng mashhurlari, Abul Hasan al-Ash'ariy va Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiyidir.
Islamic theologists	Мутазилиты	Mu'taziliylar	Arabcha – ajralib chiq-qanlar, uzoqlashganlar. Islomda ilk ilohiyot oqimlaridan biri bo'lib, diniy hukm va aqidalarni aql doirasida qabul qiluvchilar.
Metaphysics	Метафизика	Metafizika	Tabiatdan oldin, birinchchi falsafa ma'nosida ham qo'llaniladi.
Method	Метод	Usul	Usul haqidagi ta'lilot.
Modus	Модусы	Moduslar	Narsalarning sifatlari.
Monads	Монада	Monada	Birlamchi asoslar, ruhiy substansiylar.
World of substances	Мир вещей	Narsalar dunyosi	O'tkinchi, yo'q bo'luvchi, o'zgaruvchan dunyo.
Philosophy of theory	Теоретический философия	Nazariy falsafa	Ibn Sinoning fanlar tasnifiga ko'ra, metafizika (oliy fan), matematika (o'rta fan) hamda tabiat haqidagi fan – tabiatshunoslik (quyi fan) dan iborat immlar majmui.

Nirwana	Нирвана	Nirvana	Buddaviylik ta'lomitiga ko'ra, azaliy karma iplaridan xalos bo'lish va abadiy ruhiy xotirjamlik.
Norito	Норито	Norito	Qadimgi Yaponiyadagi sintoistik e'tiqod bo'lib, u duo ifodalarini o'qish, qurbanliklar (guruch, sabzavot, baliq) keltilish bilan bog'liqdir.
Prophecy	Пророчество	Nubuvvat	Payg'ambarlik, ilohiy xabar – vahiy orqali Allah yer yuziga o'z elchisini yuborib, insonlarni zalolatdan qutqarishi.
Relativity	Относительность	Nisbiylik	Hamma narsa o'zgaruvchan, oquvchan xususiyatga ega, sukunat esa vaqtinchalik, nisbiydir.
Neoplatonism	Неоплатонизм	Neoplatonizm	Yangi aflatunchilik, ellen davrida rivojlangan oqim.
Acsidensy	Акциденция	Oraz	Aksidensiya, narsa va hodisalarining muhim bo'limagan, tasodifiy, o'zgaruvchan, ahamiyatsiz xossasini bildiradi.
Consciousness	Сознательность	Onglilik	Onglilik bu hodisalarning yuzaki qismidir. Bizning butun tashqi, ichki taassurotlarimiz, hissiyotlarimiz ongimiz tomonidan anglanadi. Ular ichki ruhiy holatlari bilan bog'liqdir.
Progress	Прогресс	Progress	Taraqqiyot haqidagi ta'lomit.
Pantheism	Пантеизм	Panteizm	(Yunon. ran – hamma, theos – xudo) – tarixan shakl-langan falsafiy

			ta'limot bo'lib, u xudo bilan tabiat bir-biriga, tamoman, mos bo'lib tushadi, ular aynan birdir, ulami bir-biriga qarama-qarshi qo'yish falsafiy tafakkur rivojiga putur yetka-zadi, deb da'vo qiladi.
Pacifism	Пацифизм	Patsifizm	Hech narsaga ozor bermaslik tamoyili.
Purans	Пураны	Puranlar	Hinduizmni o'rganishning eng dastlabki manbalaridan biri bo'lib, ular turli rasm-rusumlar va mifologik syujetlar kiritilgan asardir.
Rationalism	Рационализм	Ratsionalizm	Bilishda aqjni rolini oshirib ko'rsatuvchi ta'limot.
Rationality	Рациональность	Ratsionallik	Kantdan Gegelgacha bo'lgan yo'l - bu insonning tanqidiy baholovchilik qobiliyati sifatida tushunilgan oliv aqlning gegechcha «ilohiy» aql aqidasiga o'rinn bo'shatib berishi yo'lidir.
Regress	Перресс	Regress	Orqaga ketish.
Renaissance	Ренессанс	Renessans	Uyg'onish davri.
Revolution	Революция	Inqilob	(Lotin. "revolutio" – to'ntarish, burilish) – tabiat, jamiyat yoki bilish jarayonida biron-bir narsa, hodisada sodir bo'ladigan chuqur sifat o'zgarishi va rivojlanishni ifodalaydigan tushuncha.
Sallim-khakpha	Саллимхакпха	Sallimxakpxa	O'rta asrlarda Kore-yadagi neokonfutsiychilik yo'nalishlaridan birining nomi.

Sati	Сати	Sati	Hindistonda beva qolgan ayolni erining jasadi yondirilayotgan gulkanda birga yondirilishi marosimi.
Satory	Сатори	Satori	Yaponcha so'z bo'lib, ichki tuyg'u bilan tushunish, yoritilish lahzasini anglatadi.
Twaddle Verbiage	Пустословие	Safsata	Noto'g'ri hukmlar, boshqalarni aldash, yolg'oni isbotlashga qaratilgan sofizm, paraloziimlar.
Swadeshy	Свадепши	Svadeshi	Hindiston Milliy Kongress partiyasining ingliz mahsulotlariga boykot e'lon qilish g'oyasi.
Swaraj	Сварапж	Svaraj	Hindiston Milliy Kongress partiyasi ilgari surgan "O'zo'zini boshqarish" g'oyasi.
Sensualism	Сенсуализм	Sensualizm	Bilishda sezgilarni rolini, ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatuvchi ta'limot.
Scepticism	Скептицизм	Skeptitsizm	Yunoncha so'zdan olin-gan bo'lib, ko'rib chiqayapman, tadqiq qilyapman, mulohaza yurityapman, shubhalyapman degan ma'nolarni bildiradi. Bu oqimning ko'zga ko'ringan vakillari – Pirron, Agripp, Ensiedem, Sekst Empirik.
Chaos, Element	Стихия	Stixiya	Tabiatning ongsiz harakati.
Subjectivism	Субъективизм	Subyektivizm	Bilishda inson ongini, xislarini o'rmini

			ko'tarib ko'rsatuvchi ta'limot.
Natural right	Естественные право	Tabiiy huquq	Insonni tug'ilgandan yashashga bo'lgan huquqlari.
Natural equality	Естественное равенство	Tabiiy tenglik	Insonni tug'ilgandan hamma insonlar teng degan ta'limot.
Focusingattention, treatment	Сосредоточение внимания, обращение	Tavajjuh	Butun ichki mohiyatni Xudoga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir.
Tanasukh	Таносух	Tanosux	Inson vafot etgandan so'ng, ruhning bir tanadan boshqa tanaga ko'chib o'tishi haqidagi nazariya.
Tapasya	Тапасия	Tapasya	Gandiy va jaynizm ta'limotida azob chekish va o'g'rilikdan o'zini tiyish tamoyili.
Theism	Теизм	Teizm	(Yunon. theos – xudo) – diniy-falsafiy ta'limot bo'lib, olamni, xudo tomonidan yaratilganini tan oladi.
The Tendai Sect	Секта Тэндай	Tenday mazhabi	O'rta asrlarda Xitoya gullab-yashnagan buddaviylikning "Bir lahzada uch ming dunyo", ya'ni kosmologik nazariya qoidasiga amal qiluvchi mazhabi.
Tolerance	Толерантность	Tolerantlik	Lot. tolerantia – chidam, sabr-toqat – o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'o-yalari va e'tiqodlariga

			<b>nisbatan chidamlilik, bag'rikenglik.</b>
Totemism	Тотемизм	Totemizm	Ibtidoi tasavvur shakllaridan biri bo'lib, borliqdagi o'zgarishlarni va rivojlanishlarni tushunishda hayvonlarning g'ayritabiyyatiga ishonish.
The Upanishads	Упанишады	Upanishadlar	Vedalarning to'rttasidan biriga an'anaviy tarzda qo'shiladigan Qadimgi Hindistonning falsafiydiniy asarlar turkumi.
The Renaissance	Эпоха возрождения	Uyg'onish davri	Yangi davr arafasida o'ziga xos qadriyatlarga ega bo'lgan g'oyaviy va madaniy rivojlanishni o'z ichiga olgan tarixiy jara-yondir.
Universal	Универсалии	Universaliylar	Umumiy tushunchalar haqidagi ta'limot.
Fatalistic determinism	Фаталистический детерминизм	Fatalistik determinizm	Taqdiri-azaldan hamma narsa zarurat asosida sodir bo'ladi, degan ta'limot.
Fazza	Фаизя	Fatszya	Siyosiy arbob Shen Buxay(mil.avv.400-337-yy.) tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy oqim. Legizm falsafiy oqimi jamiyatni boshqarish siyosatida zo'ravonlikka (totalitar) asoslangan umumiy koidani joriy qilishni, byurokratiya ustidan nazorat o'rnatishni, jamiyatda xalqqa nisbatan tub va keskin

			choralar kurishni tavsiya kildilar Legizm ma'rifatli bo'lgandan ko'ra, xalqni jaholatda tutishni afzal ko'radi. Legizm asoslarini Xan Feyszin, Shan Yan kabi arboblar ishlab chiqishgan
The science of the laws of Sharia	Наука о законах шариата	Fiqh	Islom huquqshunosligi bo'lib, bu soha rivojida Qaffol Shoshiy, Burhniddin Marg'inoniy, Jaloliddin Ahmad al-Kosoni kabilarning ulushi katta bo'lgan.
The city of virtues	Город добродетелей	Fozil shahar	Forobiy ijtimoiy-siyosiy qarashlaridagi ideal jamiyat.
The phenomenon	Феномен	Fenomen	Tushunchasi aynan shu hodisaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan mohiyatni ochib beradi va "mohiyat" tushunchasini o'z ichiga qamrab oladi.
Charisma	Харизма	Xarizma	Insonning o'ta qobiliyatlari va o'ziga xosligi. Sotsiologiya faniga E.Trelch tomonidan kiritilgan bo'lib, u M.Veber tomonidan uning hukmronlikning ideal tiplari konsepsiyasida tahlil qilingan
Memory	Воспоминание	Xotirlash	Idealistik falsafada "haqiqiy", ya'ni boqiy dunyodagi hayotini eslash.
Rhetoric	Риторика	Xitoba	Ritorika, notiqlik san'ati qoidalari, uning tarkibiy qismlari kabi masalalar.

Khodjagon	Ходжагон	Xojagon	Yassaviya va naqshbandiya oqimlaridan iborat bo‘lgan, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf tariqatlaridan biri.
Hastasoft	Хуастуанифт	Xuastuanift	Moniylikning tavba namozi.
Qi	Ци	Si	Xitoy falsafasiga ko‘ra moddiy ashyolar.
Civilization	Цивилизация	Tamaddun	(Lot. civilis-fuqaroviy, ijtimoiy) serqirra va murakkab mazmunga ega bo‘lgan ijtimoiy-falsafiy tushuncha. S. tushunchasini shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723-1816) jahon tarixiy jarayonining ma’lum bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma’rifatparvarlari aqidrok va adolatga asoslangan jamiyat degan ma’noda ishlatgan edilar.
Cyclic movement	Циклическое движение	Siklik harakat	Olamda turli davrlar, bosqichlarning navbat-ma-navbat o‘rin almashishi, aylanma harakati.
Scandalli	Чандаллы	Chandallar	Hind kastachiligidagi to‘rtta kastaga kirmaydigan eng quyi tabaqa vakillari.
Chistia	Чиштия	Chishtiya	O‘rtalarda Hindistonda keng tarqalgan tasavvuf tariqati oqimi.
Charvaka	Чорвакы	Chorvaklar	Bu ta‘limotga ko‘ra, olamning asosida to‘rt unsur – suv, olov, havo va tuproq yotadi.

Shahid who died for the faith	Шахид, погибший за веру	Shahid	Islom e'tiqodida insonning din uchun kurashda halok bo'lishi, jon berishi.
Form	Форма	Shakl	Borliq ma'nosi, shamoyili, u faoldir. Materiya esa passivdir.
Verse	Стих	She'r	She'r iy hukmlar. She'r yozish san'ati, uning vazifalari.
Chauvinism	Шовинизм	Shovinizm	Boshqa millatlarni mensimaslikni va o'z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g'oyaviy-nazariy qarashlar sistemasi va amaliyoti. Shovinizm - millatchilikning eng xunuk ko'rinishi. Shovinizm atamasi fransuz yozuvchilari aka-uka I. va T.Konyarning «Uch rangli kokarda» nomli komediyasining qahramonlaridan biri, o'zining tajovuzkor millatchiligi bilan ajralib turadigan Nikola Shoven nomi bilan bog'liq holda XIX a.ning birinchi yarmida paydo bo'lgan.
Sudras	Шудры	Shudralar	Hinduiylikda kastalarning eng quyi varnasi, tabaqasi, ulardan hazar qilingan.
Evolution	Эволюция	Evolyutsiya	(Lot. evolutio – ochilish, yozilish, takomillashish)–tadrijiy rivojlanish. Umumilmiy va falsafiy ta'limat

			hisoblanadi. Tabiat, jamiyat va ruhiy-ma'naviy, rivojlanish konsepsiyalarini umumlashtirib ifoda etishga xizmat qiladi. E. tushunchasi keng ma'noda, rivojlanish tushunchasining sinonimi sifatida ishlatalidi.
Emanation	Эманация	Emanatsiya	Tajalliy etish jarayoni, ya'ni o'zidan nur taratish oqibatida yangi hodisani vujudga keltirish.
Ethnic culture	Этнокультура	Etnomadaniyat	Millatga tegishli bo'lib, uning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan urf, odat, an'ana, qadriyatlari, udum, marosimlari, kiyimlar, moddiy va ma'naviy merosi, tafakkuri, ongi, g'oyaviy hamda axloqiy jihatdan o'ziga xosligini ifodalovchi ma'naviy boyligidir.
Ethnicity	Этнос	Etnos	(Yunon. ethnos – guruh, qabila, xalq) etnik birlik, ijtimoiy tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan odamlar ijtimoiy guruhining bir turi. E. urug', qabila, elat va millat shakllarida namoyon bo'ldi. Etnos tushunchasi 1921-1923 yy.da S.M.Shirogorov tomonidan chuqr tahlil qilingan. U e.ni insoniyat lokal

			<b>guruhi mavjudligining asosiy shakli deb hisoblagan. Uning asosiy belgilari deb esa, - «kelib chiqish, urf-odatlar, til va turmush tarzi birligi» deb bilgan.</b>
Ethno-centrism	Этноцентризм	Etnotsentrizm	(Yunon. –guruh, xalq va lot. centrum - markaz)- o‘z xalqi xulqi, madaniyati, urf-odatlari va qadriyatlarini boshqa xalqlarga xos bo‘lgan shunday xususiyatlarni baholash uchun asos qilib olinishini ifodalovchi tushuncha.
Giron	Югирон	Yugiron	XV-XVI asrlarda Koreyada moddiy asos – “ki”ning birlamchiligin tan olgan materialistik maktab.
Neoplatonism	Неоплатонизм	Yangi aflatunchilik	Milodimizning boshlarida vujudga kelgan, Plotin, Prokl, Porfiriy kabi faylasuflar tomonidan Aflatung‘oyalarini jonlantirish va rivojlantirishga asoslangan ta‘limot.
The inevitability of fate	Неизбежность из судьбы	Qazo va qadar	Islom diniga ko‘ra, taqdiri azalga so‘zsiz ishonish.
Sect Kariatidy	Карматиды	Qarmatiylar	Ismoiliylar falsafiy oqimining bir shahobchasi.
Comparison	Сравнение	Qiyos	Deduktiv, sillogistik xulosa chiqarish, uning shakkllari, qoidalari kabi masalalar.
Judgment day	Судный день	Qoim	Ismoiliylar falsafasiga ko‘ra, Qiyomat kuni

			Muhammad ibn Ismoilni Imom Mahdiy suratida qaytishi.
Substance	Субстанция	Hayulo	Birlamchi sabab, moddiy asos, substansiya.
Ideological vacuum	Идейный вакуум	G'oyaviy bo'shliq	Jamiyat hayotida mafkurasizlik, maqsadsizlik va boshboshoqlikning namoyon bo'lishi.
The world of ideas	Мир идей	G'oyalar dunyosi	Haqiqiy, abadiy, o'zgarmas dunyo.
Harijana	Хариджаны	Harijanlar	Hind kastachilik tizimidagi "qo'l tekizib bo'lmas"lar tabaqasi, ular eng iflos mehnat – ko'chalarni supurish, axlatni tozalash kabi ishlarni qilishlari kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: «O‘zbekiston», 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – T.: «O‘zbekiston», 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O‘zbekiston», 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: «O‘zbekiston», 2017.
5. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1–24 jiddar. – T.: «O‘zbekiston», 1996–2016.
6. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
7. Karimov I.A. O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. – T.: «O‘zbekiston», 2014.

### *O‘zbek tilida*

8. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild, –T.: Fan, –1968.
9. Ahmedova M., Yo‘ldoshev S., Shomatov O. Hind falsafasi // Sharq falsafasi. –T.: TDSHI, 2006.
10. Avesta: "Vidoevdot" kitobi. Mirsodiq Ishoqov tarjimasi. –T.: TDSHI, 2007.
11. Po‘latova D. Qodirov M. va boshq. Falsafa tarixi: Sharq falsafasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDSHI, 2015.
12. Sharq falsafasi. Mas’ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A. –T.: TDSHI, 2006.
13. Sodiqov Q. Qadimgi turk falsafasi. –T.: TDSHI, 2008.
14. Falsafa: ensiklopedik lug‘at. /O‘zRFA I. Mo‘minov nomidagi falsafa va huquq instituti. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.
15. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo‘jaev A., Sodiqov Q. Qadimgi yozma yodgorliklar. –T.: «Yozuvchi», 2000.
16. Qodirov M. Avesto. O‘zbek milliy ensiklopediyasi. T. 1. –T., 2001.
17. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O‘rta Sharqning falsafiy tafakkuri (O‘rta asrlar). O‘quv qo‘llanma. –T.: TDSHI, 2010.
18. Xotamiy S.M. Islom tafakkuri tarixidan. –T.: «Minhoj», 2003.

*Ingliz tilida*

19. Adamson Peter. Philosophy in the Islamic World: A Very Short Introduction. Oxford University Press, New York, 2015.
20. Henry Corbin. History of Islamic philosophy. New York. 2010.
21. Majid Fakhry. A History of Islamic philosophy. New York. 2004.
22. William J. Duiker, Jackson J. Spielvogel .The Essential World History, Volume I: To 1800: Boston, 2007.
23. Victoria S. Harrison. Eastern Philosophy. The Basics. New York. 2013

*Rus tilida*

24. Восточная философия. Под ред.Ибрагимова Н.И, Ахмедовой М.А. –Т.: ТДШИ, 2006.
25. История Востока. В 6-томах.–М.:Восточная литература РАН. –2002-2008.
26. Степанянц М.Т. Восточная философия.Учебное пособие.– М.: Восточная литература РАН. –2002.
27. Томпсон М. Восточная философия. – М.:Гранд, 2001.
28. Фролова Е.А. История средневековой арабо-исламской философии: Учебное пособие. – М., 2001.

*Internet resurslari*

29. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).
30. [www.library.ziyonet.uz](http://www.library.ziyonet.uz).
31. [www.faylasuf.uz](http://www.faylasuf.uz).
32. <http://booksss.ru> философия//Slovar\_Philosof.rar.
33. [http://filosof.historic.ru/books/c0016\\_1.shtml](http://filosof.historic.ru/books/c0016_1.shtml)

# MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-mavzu. «Sharq falsafasi va madaniyati tarixi» fanining mazmuni, predmeti va vazifalari.....	5
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	16
2-mavzu. Sharq falsafasi va madaniyati tarixini o'r ganishning metodologik masalalari.....	21
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	31
3-mavzu. Qadimgi Sharq xalqlari madaniyati.....	36
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	55
4-mavzu. Qadimgi Sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi.....	60
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	68
5-mavzu. Qadimgi Misr madaniyati.....	73
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	86
6-mavzu. Qadimgi Misrda falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi.....	90
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	98
7-mavzu. Mesopotamiya va qadimgi Eron, Markaziy Osiyo, Kavkazbo'y va Sharqi O'rtayer dengiz bo'yulari xalqlari madaniyati.....	103
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	120
8-mavzu. Qadimgi Shumer va Bobilda ijtimoiy tafakkur.....	125
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	132
9-mavzu. Qadimgi Yunon, Iskandariya va Suriya falsafasi.....	136
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	150
10-mavzu. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati.....	155
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	167
11-mavzu. Qadimgi Turon va Eron xalqlari tafakkuri. «Avesto»dagi falsafiy g'oyalar.....	171
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	184
12-mavzu. Markaziy Osiyoda buddaviylik diniy-falsafiy ta'lomi.....	190
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	200
13-mavzu. Markaziy Osiyoda moniylik ta'lomi.....	205
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	218
14-mavzu. Qadimgi turkiy bitiklar falsafasi.....	223
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	250
15-mavzu. Arab xalifaligi va musulmon sulolalari hukmronligi davrida madaniyat.....	255
Seminar mashg'uloti va mustaqil ta'lif uchun vazifalar.....	268
Testlar.....	273
Glossariy.....	283
Foydalilanigan adabiyotlar .....	311

## СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	3
1-тема. Предмет, функции и назначение дисциплины «История Восточной философии и культуры».....	5
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	16
2-тема. Методологические проблемы изучения истории Восточной философии и культуры.....	21
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	31
3-тема. Культура народов Древнего Востока.....	36
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	55
4-тема. Возникновение мифологических представлении и философских знание в Древнем Востоке.....	60
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	68
5-тема. Культура Древнего Египта.....	73
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	86
6-тема. Возникновение философских мыслей в Древнем Египте.....	90
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	98
7-тема. Культура народов Месопотамии, Древнего Ирана, Центральной Азии, Закавказья и Восточных берегов Средиземноморья.....	103
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	120
8-тема. Социальная мысль в Шумере и Вавилоне.....	125
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	132
9-тема. Философия Древней Греции, Александрии и Сирии.....	136
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	150
10-тема. Культура народов Древней Центральной Азии.....	155
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	167
11-тема. Мысль народов Древнего Турана и Ирана. Философские идеи в «Авеста» .....	171
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	184
12-тема. Религиозно-философское учение Буддизма в Центральной Азии.....	190
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	200
13-тема. Учение манихейства в Центральной Азии.....	205
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	218
14-тема. Философия писаний древних тюрков.....	223
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	250
15-тема. Культура времен правления Арабского халифата и мусульманских династий.....	255
Задания для семинарных занятий и самостоятельных работ.....	268
Тесты.....	273
Глоссарий.....	283
Использованная литература.....	311

## CONTENT

Introduction.....	3
1 theme Meaning, subject and functions of the discipline of the history of Eastern philosophy and culture.....	5
Tasks for seminars and independent work.....	16
2 theme. Methodological problems of studying the history of Eastern philosophy and culture.....	21
Tasks for seminars and independent work.....	31
3 theme. Culture of the Ancient East.....	36
Tasks for seminars and independent work.....	55
4 theme. The emergence of mythological representation and philosophical knowledge in the Ancient East.....	60
Tasks for seminars and independent work.....	68
5 theme. Culture of Ancient Egypt.....	73
Tasks for seminars and independent work.....	86
6 theme. The Origins of Philosophical Thoughts in Ancient Egypt.....	90
Tasks for seminars and independent work.....	98
7 theme. Culture of the peoples of Mesopotamia, Ancient Iran, Central Asia, Transcaucasia and the Eastern shores of the Mediterranean.....	103
Tasks for seminars and independent work.....	120
8 theme. Social Thought in Sumer and Babylon.....	125
Tasks for seminars and independent work.....	132
9 theme. Philosophy of Ancient Greece, Alexandria and Syria.....	136
Tasks for seminars and independent work.....	150
10 theme. Culture of the Ancient Central Asia.....	155
Tasks for seminars and independent work.....	167
11 theme. Thought of the peoples of ancient Turan and Iran. Philosophical ideas in Avesto.....	171
Tasks for seminars and independent work.....	184
12 theme. Religious-philosophical doctrine of Buddhism in Central Asia.....	190
Tasks for seminars and independent work.....	200
13 theme. The doctrine of Manichaeism in Central Asia.....	205
Tasks for seminars and independent work.....	218
14 theme. Philosophy of texts of ancient Turks.....	223
Tasks for seminars and independent work.....	250
15 theme. Culture of the reign of the Arab Caliphate and Muslim dynasty.....	255
Tasks for seminars and independent work.....	268
Tests.....	273
Glossary.....	283
List of used literature.....	311

**D.A. PO'LATOVA, M.Q.QODIROV, J.B.SULAYMONOV**

# **SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI TARIXI**

**(1-qism)**

**Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2018**

Muharrir:	Sh.Kusherbayeva
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	F.Tishabayev
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	N.Raxmatullayeva

**E-mail: tipografiyaent@mail.ru Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.**

**Nashr.lits. AIN 149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 27.11.2018.**

**Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.**

**Shartli bosma tabog'i 19,0. Nashriyot bosma tabog'i 19,75.**

**Tiraji 300. Buyurtma № 476.**

**«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.**

**100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.**



ISBN 978-9943-11-929-1

9 789943 119291